Keywords: *Alisher Navai, “Khazainul-maani” divan, Turkish “Khamsa”, scientific-philological and religious-Sufi works, classical Uzbek literature, all-Turkic literature*

ЛИТЕРАТУРНАЯ ЛИЧНОСТЬ И ТВОРЧЕСТВО АЛИШЕРА НАВОИ

Алмаз Ульви БИННАТОВА

Резюме

Великий мыслитель Амир Алишер Навои до сих пор живет в литературе, истории литературы, лингвистике, религии, истории, географии, философии, теологии, суфизме. Он занимает особое место среди мировой классики с его бессмертными произведениями лирико-романтического, реалистически-исторического, литературно-художественного, философско-познавательного и научно-теоретического значения. Он написал все свои произведения на тюркском языке под общим названием «Сокровищница мыслей» («Хазайнул-маани»), «Хамса», 21 научно-филологический и религиозно-мистический труд, в том числе «Дивани-Фани». При этом следует отметить, что названия всех произведений Алишера Навои состоят из арабских слов. Мы можем оценить этот вопрос как традиционный случай (в том числе «Дивани-Фани») в истории средневековой восточно-мусульманской литературы под влиянием ислама.

Великий узбекский поэт, лингвист, литературный критик, каллиграф, композитор, государственный деятель Амир Алишер Навои своей творческой силой мужественно преодолел исторический барьер и открыл новый путь в истории литературы как революционер тюркского литературного языка: он поднял тюркский литературный язык. Впервые он написал «Хамсу» на тюркском языке под влиянием гениального «Хамса» Низами, которого называл мастером во всех своих произведениях. Он восхвалял величие и красоту тюркского языка своими лирическими чувствами, моральными и философскими взглядами и загадочными досками любви в «Хамсе», которую он написал на тюркском языке в то время, когда персидский язык был доминирующим языком поэзии. 42-летний Алишер Навои, начавший писать «Хамсу» в 1483 году, всего за три года завершил пять произведений из 52 000

стихов - сборник поэмы. Как он отметил, его друг Абдуррахман Джами повлиял на него, чтобы он начал такую огромную работу, как «Хамса». В том же году 60-летний Джами основал собственную «Хамсу». В «Мухакиматул-лугатейн» сам поэт пишет, что «Хамса» от начала до конца является ответом на «Хамса» («Пять сокровищ») Низами Гянджеви. С момента написания названия «Хамса», принесшего мировую известность Алишеру Навои, Низами рисовали бок о бок с «Хамса». Конечно, хотя Низами Гянджеви завершил «Хамсу» за 30 лет, Амир Хосров Дехлеви за 40 лет, а Алишер Навои за 3 года, основная работа, главное чудо - настоящее открытие принадлежит Низами Гянджеви.

Поскольку он первым посадил семена живого слова, он нашел пять ключей к пяти сокровищам. Как видно из названий произведений в «Хамсе», традиционная классическая тема, традиционные классические образы, традиционные события (с разницей в разных описаниях) завершаются традиционным началом и концом. Просто каждый поэт умел создать свою рукопись в контексте человеческого содержания. За свою карьеру гениальный художник написал 32 произведения, в том числе 16 прозу и 16 стихов. Алишер Навои писал свои произведения на персидском языке под псевдонимом «Фани». Он составил диван «Дивани-Фани», состоящий из лирических произведений, написанных на персидском языке: газель, касида, мухаммасы, мусаддасы, туюги.

Таким образом, после систематического обзора наследия Навои, мы можем систематизировать его художественно-литературно-научное наследие по четырем группам: 1. Диван «Сокровищница мыслей» («Хазайнул-маани») (соответствующих четырём периодам жизни поэта: *«Диковины детства», «Редкости юности», «Диковины средних лет», «Назидания старости»*); 2. «Хамса» (пять поэма); 3. Произведения на персидском языке, собранные в сборнике «Дивани-Фани»; 4. Научно-филологические, религиозно-мистические и исторические произведения (21 произведение). Среди богатых произведений Алишера Навои особое место занимают научно-филологические и религиозно-мистические произведения, написанные на тюркском языке. В этих работах идеальные исторические научно-теоретические проблемы написаны вокруг таких вопросов, как литературная критика, лингвистика, наука эруз, комментарии, история, исламские доктрины и суфизм.

Все работы, представленные в монографии «Эпохе и прозе Алишер Навои» (научно-филологические и религиозно-мистических работы) также

являются основным источником по биографии и личности Алишера Навои, или эти произведения являются мемуарами.

Ключевые слова: *Алишер Невай, диван «Хазайнул-маани», «Хамса» на тюркском языке, научно-филологические и религиозно-мистические произведения, классическая узбекская литература, общетюркская литератур.*

ТАСАВВУФ ТАЪЛИМОТИДА ТИЛ ИЛМИ МАСАЛАСИ

Соҳибназар Каримов
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори,
фалсафа фанлари доктори
karimov56mail.com

Аннотация: Мазкур мақолада тасаввуф таълимотидаги инсонни руҳий камолотининг асосий воситалари бўлаган тил илми ва дил илмининг ажралмас жиҳатларини таҳлил қилишга бағишланган. Мутасаввуф мутафаккирларнинг тил илми ва дил илми ҳақидаги қарашлари ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: тасаввуф, инсон, руҳий камолот, тил илми, дил илми, сир илми, руҳ илми, зикр, намоз, тариқат, пир, самоъ.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу неотъемлемых аспектов науки о языке и науки о душе, которые являются главным средством духовного совершенствования человека в суфизме. Рассматриваются взгляды мыслителей-мистиков на науку о языке и науку о душе.

Ключевые слова: Суфизм, человек, духовная зрелость, наука о языке, наука о сердце, тайна, наука о душе, зикр, молитва, тарикат, учитель, рай.

Abstract: This article is devoted to the analysis of the integral aspects of the science of language and the science of language, which are the main means of spiritual perfection of a person in Sufism. The views of mystic thinkers about the science of language and the science of the heart are discussed.

Key words: mysticism, man, spiritual perfection, language science, heart science, mystery science, soul science, dhikr, prayer, tariqat, pir, sky

Тил илми тасаввуф таълимотида комил инсонни тарбиялашнинг асосий воситаларидан бири ҳисобланади. Чунки тил инсонни ҳайвонот оламидан жудо қилган бўлса, кейинчалик у инсонни ўзини англаши орқали Аллоҳни англашга кенг йўл очиб беради. Чунки тил тасаввуф таълимотида тафаккурни ифодалаш воситаси сифатида қаралади. Шу билан биргаликда тил ва дил

ажралмас, бир бирисиз мавжуд бўлмаган ҳодисалар сифатида талқин қилинади.

Тасаввуфий билиш жараёни ҳам рационал ва ирроционал билим тана ва руҳ каби ажралмас ва бир - бирини билиш жараёнида тўлдириб боради. Шунинг учун ҳам тасаввуфни илим ҳақида гапирилганда бирламчи билим “куллий” билим бўлиб у инсон руҳиятидаги ижодкорлик кучини англатади. Иккиламчи илм “тил илми” бўлиб, у Одам болалари устида Аллоҳнинг хужжатидир”. Умидимиз борки, сенга илми ботиндан бир насиба этсин. “Ва яна айтдиларки, “Ҳадисда” Аҳли сидқ билан ўтирсангизлар, садоқатли бўлиб ўтирингларки, улар қалбларнинг жосусидирлар. Қалбларингизга кирадилар ва ҳимматларингизга назар қиладилар”.[2]

Тасаввуф тарихидан маълумки, барча йирик мутасаввуф мутафаккирлар илмни тил ва дил илмига ажратиб талқин қилишлари билан биргаликда, улар бир –бирини тўлдирувчи ва комиллик сари етакловчи асосий воситалар сифатида қарагандир.

Тасаввуф таълимотида тил илмининг намоён бўлишига мисол сифатида намоз ва рўзани келтирадилар. Буюк шайх Яъқуб Чархий таъкидларганларидек: “Бу намозни нафйи ҳавотир билан, яъни фикрни тозалаб, зоҳиру ботини билан тафажжуҳ қилган ҳолда ўқисин”. [3]

Тил илми инсон қалбининг эгаси бўлган Аллоҳни инсон қандай тил билан қандай зикр қила олишини ифодалайди. Аслида тил ўз хусусияти билан Аллоҳни тўлалигича ифодалай олмайди. Шунда дил унинг ижроси бўлиб хизмат қилади. Ана шунда номтаносиб ҳаракатлар оғушида инсон дили муносабат қилишга чоғланади ва “дил ба ёр” илтижоси содир бўлади ва орадаги номутаносибликка барҳам беради. Шунинг учун нақшбандийлик дил билан қилдинадиган муносабат энг олий муносабат сифатида улуғланади.

Тил илмининг намоён бўлишининг иккинчи воситаси зикрдир. Зикр – сўзлаш, баён қилиш, ёд олиш, хотирадагини унутмаслик маъноларини ангалатадиган арабча калимадир. Тасаввуфда бу калима ғафлат ва нисён – эсдан чиқаришнинг зидди ўрнида талқин этилган. Зикр тасаввуф таълимотида барча қоида ва усул ҳамда одобларнинг бошидир. Буюк шайхлар зикрни шайтонга қарши энг улуғ яроғдир, деб башорат қилганлар. Зикр қалбдан ғам, қайғу ва ғуссаларни ҳайбад, дилга қувонч фараҳ ва кенглик бағишлар;

[2] Яъқуб Чархий. Рисолаи унсия. –Б. 6.
[3] Яъқуб Чархий. Рисолаи унсия. –Б. 13.

тафаккур маърифатнинг юксалишини таъминлайди, ҳар қандай ёмонликнинг илдизини қуритади, хато ва гуноҳларнинг олдини олади.

Имом Ғаззолий ўзининг “Иҳё улум-ад-дин” асарида таъкидаланларидек, “фойдали бўладиган зикр- авомли ва қалб ҳузури ила бўладиган зикирдир. Зикрнинг ниҳоясида эса унс ва муҳаббат туғулур. Киши зикр этилажак Аллоҳ ила унсият пайдо этиб, кўнглида Аллоҳ муҳаббати ҳосил бўлгунга қадар бир оз заҳмат чекар. Сўнгра эса Аллоҳни хотирламаса тура олмайдиган ҳолга келар”.[4]

Зикр фақат Аллоҳни ёд айлаш, унинг гўзал исмларини эслаш эмас, балки дил, фикр ва туйғунинг Аллоҳга йўналтиришдир. Зикрнинг хусусияти ҳақида Нажмиддин Кубро ҳам ўзининг “Тасаввуфий ҳаёт” асарида таъкидлаганларидек, “Зикрнинг сени қандоқ зикр этаётганингни кўриш учун зикр этма. Чунки у зокир эмас, мазкурдир. Инсон мудом Ҳақ мазкури эрур. Аммо Аллоҳ билан ўзи орасидаги қоронғуликлар ва кашф пардалари монеълик қилганлиги боис, у буни эшитиб, ҳис қилишдан мосиводир”.[5]

Устоз шайх, мутасаввуф назарида шогирд зикрни равон ва тушунарли тил билан баён қилиши зарур. Ҳеч бир зикр қоидаси тил орқали бузулмаслиги зарур. Шунинг учун ҳам Нажмиддин Кубро ҳам Яъқуб Чархий ҳам ҳар қандай ибодатдан мақсад зикрдир. Зикр жон бўлса, ибодат қолибдир. Ҳар қандай ибодатда ҳам Унинг ҳазратидан ғофил бўлса, чандон фойда бермас” деб ёзадилар. [6]

Ҳазрати Алишер Навоий ҳам ўзининг “Насоийм ул- муҳаббат “ асарида комил инсонни илоҳий ва башарий сифатлари ҳақида гапира туриб, комилликнинг еттинчи шарти сифатида “чучук тилли бўлиш”[7] шартини ҳам таъкидлаб ўтган эди. Юқорида таъкидлаганимиздек, Алишер Навоий тасаввфда пантеистик йўналишнинг йирик вакили сифатида тил илмининг зикр жараёнидаги ролига жуда юқори баҳо берган. Тил дилнинг изҳори сифатида талқин қилинади.

Мустамлий Бухорийнинг таърифига кўра, зикр икки турга: тил зикри ва сир зикрига бўлинади. Унинг назарида тил зикри зикрнинг биринчи ва бошланғич босиқичи бўлиб, шариат ҳукмида бўлади ва намоз, рўза каби ҳар замонда амалга ошади. Сир зикри эса зикрнинг охирги босқичи бўлиб, ҳақиқат ҳукмида бўлади. Мутасаввуфнинг таърифига кўра, тил зикри Аллоҳ йўлидан

[4] Имом Ғаззолий. Иҳё улм –ад-дин. 54-бет.
[5] Шайх Нажмиддин Кубро .“Тасаввуфий ҳаёт”. 169-бет.
[6] Шайх Нажмиддин Кубро .“Тасаввуфий ҳаёт”. 170-бет. Яъқуб Чархий. Рисолаи унсия. –Б. 13.
[7] С.Каримов. Инсон қалбини покловчи таълимот. Монография. 141-бет.

бораётган мурид ёки толибнинг ишидир, сир ёки қалб зикри эса Аллоҳга етишган муриднинг қиёфасидир. Яъни Уни сирда кўраётган сўйифнинг мақомидир. Тил илми тариқатнинг кўпроқ жаҳрия йўналиши намойндалари учун жуда ҳам зарур бўлган. Зикр жамоат ҳолидаги яъни самоъ ҳолидаги зикр ҳамда ўз тил, қалб ва сир зикри деб аталадиган якка зикр турларига ҳам бўлинади. Зикр турли тариқатларда турлича кўриниш касб этган. Масалан: мавлавия тариқатида жаҳрий ошкора зикрнинг самоъ, ойин ва ҳазрат деган турлардан иборат бўлган. Нақшбандийликда эса ошкора зикр, ҳуфий яширинча зикр, ададий саноқли зикр ва қалб зикри мавжуд бўлган. Улар ўзларини тасаввуф аҳли эканликларини сир сақлаганлар ва ҳеч кимни воқиб қилмаганлар. Чунки нақшбандия тариқатига мансуб соликлар риёкорликлан йироқ бўлганлар ва ҳатто карометларини ҳам ошкор қилмаганлар. Улар фақат халқ манфаати ислом равнақи учунгина каромат кўрсатганлар. Баҳоуддин Нақшбанд зикри жаҳрийни бекор қилган ва зикр ҳуфий кенг қўллаб-қувватланган.

Тасаввуфшунос турк олими Усмон Турар ўзининг “Тасаввуф тарихи” асарида таъкидаланидек, жаҳрий зикр қилувчи тариқатларнинг силсилалари асосан ҳазрати Алига бориб тақалади. Чунки жаҳрияни Расулуллоҳу саллаллоҳу алайҳи васаллам Ҳазрати Алини тиз чўктириб, кўзларини юмдирган ҳолда уч марта “Ла илаҳа иллолоҳ”, деганлар. Шу жамладан Ҳазрати Алига ҳам уч марта такрорлаттирганлар. Шу тариқа жаҳрия шиалар зикрига айланган.[8]

Муҳаммад Порсо зикрнинг турлари ҳақида ҳам тўхталиб, қўйидагича ёзади: “Ҳақ субҳонаҳу ва таъолонинг бандани зикр қилиши “Сизларни ҳам зикр қиламан” ояти ва унга зикрнинг барча мартабаларида, яъни тил зикри, дил зикри, руҳ зикри, сир зикри ва ҳуфия зикрларда тавфиқ бериб ёдлаганидир.[9]

Зикр Аллоҳни ёдлаш, тасаввуфда Аллоҳни тилга олиш ва бутун фикру таважжуҳини Унга қаратишга зикр деб айтилади. Зикрни аҳли тасаввуф Ҳаққа етишмоқчи бўлган кишини руҳий камолотида фикрий қувватларини бошқариш, нафсни талқин этиш, тафаккурни камолот даражасига юксалтиришда энг яхши йўллардан деб биладилар. Бу амал Қуръони Каримда Аллоҳнинг “Мени ёд қил, Мен ҳам сизни ёд қилурман, деган оятига асосланиб бажарилади. Тасаввуф аҳли зикр этишни уч даражада биладилар: биринчи, Тил зикри-кўпчиликка тааллуқли бўлиб, омманинг зикридир. Бу даражадан

[8] Усмон Турар. “Тасаввуф тарихи”. 43-бет.
[9] Муҳаммад Порсо. Рисолаи қудсия. –Т.: Мовароуннаҳр. 2020. 35-бет.

ўтиб, юксала бошлаган киши ғафлат майдонидан чиқиб, мушоҳада майдонига парвоз эта бошлайди. Иккинчи, ихлос кишиларнинг зикри-қалб зикри бу даражада зокирнинг қалб кўзи очила бошлайди. У ақл доирасини кесиб ўтади ва Аллоҳни қалбида ёд, балки идрок этади. Учинчиси, махсус зикр-бу даражада зокир фано ҳолатига етади бу тариқатда энг сўнгги олий зикр ҳисобланади. Чунки тариқатда фано топмоқ ишнинг интиҳосидир.

ҳожа шайх Муҳаммад Порсо ўзининг "Рисолаи қудсия" асрида солиҳларга зикр айтишни ўргатиш яъни "Талқини зикр" масаласини кўтарган. Унинг фикрича, "талқини зикр" бировнинг қўлига чақмоқтош бериш билан баробардир рушнолик ҳосил қилиш уни амалда ишга солиш толибга боғлиқ. "Талқини зикр"ни комил мукаммал пиридан таълим олиш керак. То таъсири билинсин ва натижаси ҳосил бўлсин. Ўқни султон ўқдонидан олмоқ керак, токи ҳимоя қилишга арзисин. Биз "талқини зикр"ни буруқвор шайх Хожа Муҳаммад Бобои Самосийдан олганмиз" деб ёзганлар. [10]

Хулоса ўрнида шуни айтмоқчимизки, тасаввуф таълимотида комил инсон концепциясининг асосини унинг руҳий камолоти воситаси бўлган тил илми ва дил илмининг чамбарчас боғлиқлигида намоён бўлишидир. Тил илми солиҳнинг зиҳирий илмларини такомиллаштирса, дил илми унинг ботиний илмини мукаммаллаштирган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Яъқуб Чархий. Рисолаи унсия.ЎзРФА ШИ хазинаси, инн. №5825. –Б. 6.

2.Имом Ғаззолий. Иҳё улм –ад-дин. "Янги аср авлоди". Тошкент 2004.54-бет.

3.Шайх Нажмиддин Кубро ."Тасаввуфий ҳаёт". "Мавароуннаҳр". Тошкент, 2004.169-бет.

4.С.Каримов. Инсон қалбини покловчи таълимот. Монография. 2023 .141-бет.

6.Усмон Турар. "Тасаввуф тарихи". –Т.: Истиқлол, 1999. 43-бет.

7.Муҳаммад Порсо. Рисолаи қудсия. –Т.: Мовароуннаҳр. 2020. 35-бет.

[10] Порсо. Рисолаи қудсия. 129-бет.

MALAKALI KADRLARNI YETISHTIRIB BERISH UCHUN OLIY TA’LIM TIZIMIGA TUBDAN O‘ZGARTIRISHLAR KIRITISH

F.E. Jomonqulova. *SamISI dotsenti, t.f.n*
E-mail:fazilat_72@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada malakali kadrlarni tayyorlash va ularning bilimi, saviyasini oshirish, yurtimizni gullab yashnashi uchun barcha imkoniyatlardan unumli foydalanib, dunyo miqiyosidagi o‘qitish tizimidan yuqori o‘rinlarga olib chiqish haqida yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, bilim, ko‘nikma, malaka, o‘quv mashg‘uloti, ta’rif, sistema, DTS, fan dastri, munozara, seminar, sinov, test, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya, pedagogik texnologiya, axborot texnologiya va boshqalar.

TO MAKE RADICAL CHANGES IN THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION FOR THE TRAINING OF QUALIFIED PERSONNEL

F.E. Jomonkulova. *Associate Professor of SamISI, Ph.D.*
M.A. Esanov. *Student of SamISI*

Annotation: This article focuses on the training and training of qualified staff, making the most of the opportunity for our country to flourish and to bring it to the forefront of world-class education.

Keywords: education, upbringing, knowledge, skills, training, definition, system, DTS, science program, discussion, seminar, test, practice laboratory, pedagogical technology, information technology, etc.

ОСОБЕННОСТИ РАДИКАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ПО ПОДГОТОВКЕ КВАЛИФИЦИРОВАННЫ Х КАДРОВ

М.А.Эсанов. *Студент СамИЭС*
Ф.Е.Жаманкулова. *Доцент СамИЭС, к.т.н.*

Аннотация: В этой статье основное внимание уделяется обучению и подготовке квалифицированных кадров, которые позволяют нашей стране процветать и выводить ее на передовые рубежи образования мирового уровня.

Ключевые слова: образование,воспитание, знания, умения, навыки, обучение, определение, система, DTS, научная программа, дискуссия, семинар, тест.

Maqolani boshlashdan oldin “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar stategasi”da keltirilgan “ta’lim tizimini yangilash va malakali, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish” degan jumla bilan boshlasak. “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada

takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko‘paytirish”[11].

Hozirgi kunda Respublikamizda malakali kadrlarga bo‘lgan talab yanada ko‘payib bormoqda, biroq aksiga olib yurtimizda malakali kadrlarning saviyasi, bilimi, mantiqiy fikrlash qobilyatlari juda ham past desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Kadrlarni yetishtirish jarayonidagi bu xato va kamchiliklarni o‘rganib chiqib, xatolarimizdan tegishli xulosalar chiqarib, kamchiliklarimizni to‘ldirgan holda yetuk va malakali xodimlar tayyorlab, vatanimizni rivojlangan mamlakatlar safiga qo‘shilishiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz lozim.

Shu o‘rinda kadrlarimizning malakasini oshirish uchun qanday o‘zgartirishlar kiritilishi kerak? – degan savol tug‘uladi.

Dastlab, O‘rta ta’limdan O‘liy ta’limga o‘tishdagi, ya’ni DTM testlarini shaffof va haqqoniy bo‘lib o‘tishini ta’minlash va o‘quvchi yoshlarning fikrlash doirasini , fanlardan qanchalik darajada bilimga ega ekanligini , o‘zimizning milliy tilimiz bo’lmish ona tilimizda savodxonligi qay darajada ekanligini tekshirish, hamda xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi ballar tizimida bo‘lishini ta’minlash kerak.

Oliy o‘quv yurtiga qabul qilingandan so‘ng, bo‘lajak kadrlarga quyidagicha imkonyatlar yaratilish lozim deb o‘ylayman:

- avvalambor ikkinchi mutaxassislik tilini tanlashi;
- birinchi va ikkinchi bosqichda darslar o‘zbek tilida olib borilib, o‘quvchilarning tillarni yaxshi o‘zlashtirishini ta’minlash;
- uchinchi bosqichda o‘zlari tanlagan birinchi mutaxassislik tillarida darslar olib borilishini ta’minlash;
- to‘rtinchi bosqichda esa o‘zlari tanlagan ikkinchi mutaxassislik tillarida darslar olib borilishini ta’minlash;
- xorijiy davlatlarga chiqish, ya’ni grantlar sonini oshirish va boshqa rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarda kuzatilayotgan o‘zgarishlarni ko‘rib, o‘rganib kelib mamlakatimizni ham shu mamlakatlar safiga qo‘shish.

Shu o‘rinda:

- professor-o‘qituvchilarning bilim saviyasini, xorijiy tillarni va AKT(Axborot-kommunikatsion texnologiya) larini bilish darajasini tekshirib borish;

[11] ”2017 – 2021 - yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”

- o‘qituvchilarning mutaxassislik fanidan tashqari bo‘lgan yondosh fanlardan bilish darajasini tekshirish;
- xorijiy til o‘qituvchilarining mutaxassislik fanidan bilish darajasi;
- mutaxassisligi bo‘lmagan o‘qituvchilarning xorijiy tillardan bilish darajasi (Ingiliz tilidan ILETS 5.5-6 ball va boshqa xorijiy tillarga ham joriy etish);
- AKT(Axborot-kommunikatsion texnologiya)lar ya’ni komp’yuter savodxonligini tekshirish.

Oliy ta’limda har bir auditoriyalarda:
- ikkitadan to‘rttagacha (ma’ruzaxonada) kuzatuv kameralari bo‘lishi;
- kuzatuv kameralarni kuzatuvchi mas’ul xodimlar jamoasini shakillantirish;
- har bir xonada bittadan komp’yuter bo‘lishi va elektron jurnallarni shakllantirish;
- professor-o‘qituvchilarning talabalar bilan ishlash jarayonida psixologik salohiyatini hamda pedagogik mahoratini birinchi o‘ringa qo‘yish.

Mutaxasis tayyorlash zahiralariga yangi innovatsion texnologiyalari va tizimlarini tadbiq etish natijasida yangi tizim mutaxasisi yoki mutaxasisning yangi shaklini hosil qilinadi, sifati esa o‘zgaradi. Yetkazib berilgan mutaxasis va bu mutaxasisni yetkazib berish esa pedagogik mahorat xizmati deyiladi[12].

Pedagogik mahorat xizmati - foydalanuvchiga mutaxasis mahsulotini taqdim etish yoki qabul qilishdir[13].

Mutaxasis tayorlashning foydaliligi nuqtai nazaridan sifat xususiyatlari:

- **To‘liqlik.** Mutaxasis tayorlashning to‘laqonliligi inson faoliyatining u yoki bu tomonlarining miqdoriy va sifat parametrlarini aniq belgilash hamda mos qarorlarni ishlab chiqarishda ifodalaniladi.
- **Ishonchlilik** qabul qilinadigan qarorlar samaradorligi saqlanadigan etib kelgan va natijaviy mutaxasisda muayyan darajada buzilishlarga yo‘l qo‘yadi.
- Mutaxasis tayorlashni qabul qilishning **bemalolligi** vaqt birligida ma'lumotlarni qabul qilish tezligi bilan belgiladi.
- Ma’lumotlarning **dolzarbliligi** muayyan vaqt mobaynida aniq vazifani amalga oshirish uchun yaroqliligini ifodalaydi.
- **O‘z vaqtidaligi** mutaxasisga qulay yoki belgilangan vaqtda yangi texnologiyaning kelib tushishini anglatadi. Bu talabni buzish bo‘lajak kadrni qadrsizlantiradi.
- **Aniqlilik** uning to‘g‘riligini, taminot darajasini anglatadi.

[12] Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo`llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

[13] Ishmuhamedov R. Abdukodirov A. Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o`qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2008.- 180 b.

- **Tezkorlik** vaqt o‘tgach mutaxasis tayorlashning eskirishi va dolzarbliligini yo‘qotishini aks ettiradi.

Oliy o‘quv yurtlarida:

- o‘quvchi yoshlar bilan ishlash jamoasi va psixoliklarni shakllantirish, kelajakda to‘g‘ri yo‘lni tanlay olishga imkon yaratish;
- yoshlar ittifoqi va shunga o‘xshash bir qancha tashkilotlarni ko‘paytirish ishlarini olib borishni ko‘rib chiqish;
- biznes treninglar, xorijiy o‘qituvchilar va investorlar bilan bo‘ladigan konferensiyalarni tashkil etish;
- o‘quvchi yoshlarni bandlikga jalb etadigan mashg‘ulotlarni tashkil etish (zakovat, aqliy hujumlar, keys-trening va shunga o‘xshash mashg‘ulotlar).

Yuqorida aytilgan fikrlar va takliflardan shularni xulosa qilamizki, ba’zi rivojlangan mamlakatlar XX asrning o‘rtalaridayoq amalga oshirgan ta’lim siyosati bugungi kunda o‘z dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Oliy ta’limda urchib ketgan korrupsiya balosi ko‘plab yetishtirib chiqargan kadrlarimiz korrupsiya o‘chog‘ida o‘tin bo‘lishiga olib keldi. Ta’lim siyosatini to‘g‘ri olib borish, vazirliklar faoliyatini barqarorlashtirish hamda joylarda targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish muhim ahamiyatga egadir. Ta’lim tizimida yuz berayotgan bugungi kundagi tub o‘zgarishlar, albatta, tahsinga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasi . – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 88 b.

2. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo`llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

3. Ishmuhamedov R. Abdukodirov A. Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o`qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2008.- 180 b.

HAMID OLIMJON SHE’RIYATIDA MUKARRAR TAKRORI

Asatova Madina Nigmatjanovna,

ChDPU O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: A.Shofqorov, *ChDPU dotsenti*

Annotatsiya: Maqolada badiiy asarda qo‘llangan takrorlar, xususan, Hamid Olimjon she’riyatida qo‘llangan takrorlarning semantik-stilistik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, Hamid Olimjonning takrordan, jumladan, mukarrar takroridan foydalanish mahoratini yoritishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: takror, fonetik takror, grammatik takror, leksik takror, mukarrar, badiiy takror, stilistika, stilistik xususiyatlar.

Mukarrar badiiy san’atlarning takror usullaridan biri bo‘lib, bunda takroriy so‘zning qaytarilishi kuzatiladi. “*Mukarrar* so‘zi *qayta-qayta*, *ust-ustiga* ma’nolarini ifodalaydi. Shu nom bilan ataluvchi lafziy san’at esa baytning har ikki misrasida juft so‘z qo‘llashni nazarda tutadi”. [1; 100]. Bu haqda Atoulloh Husayniy shunday yozadi: “Rashid-i Vatvot depturkim, shuaro mukarrar deb andoq she’rni ayturlarkim, bir baytta bir lafzni keltirurlar va o‘zga baytta aning ta’sirida o‘shul lafzni yana keltirurlar...”. [2; 174].

Shunday qilib, mukarrar takroriy so‘zning misra, bayt yoki bandda takrorlanishidir. Ma’lumki, juft va takroriy so‘zlar alohida-alohida, farqli tushunchalardir. Juft so‘z bir turkumga oid ikki so‘zning birikishidan hosil bo‘ladi. Takroriy so‘zlar esa bir so‘zning takror qo‘llanishi natijasida yuzaga keladi. Bunda qo‘llangan takroriy so‘z shu misraning o‘zida, bayt yoki bandda takrorlanishi mumkin. Shuningdek, misra, bayt, bandda ikki xil shakldagi takroriy so‘z qo‘llanishi ham mukarrar takrorini yuzaga keltiradi. Zero, badiiy asardagi har qanday takror ma’lum maqsadda qo‘llanib, uslubiy vazifa bajarishga xizmat qiladi. Aks holda u badiiylikni ta’minlamaydi. Aslida so‘zning odatdagi har qanday uslubda takroriy qo‘llanishida ham oddiy takror qo‘llanishidan farqli tomonlar mavjud bo‘ladi. “Takroriy so‘z deganda har qanday so‘zning oddiy takrori emas, balki bir so‘zning takror holda qo‘llanishi bilan shu so‘zning leksik ma’nosidan tashqari ma’lum grammatik ma’nolar (ko‘plik, davomiylik kabi ma’nolar) ifodalovchi, leksik va grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil qiluvchi takrorlar tushuniladi”. [3; 88]

Mumtoz adabiyotimizda, shuningdek, hozirgi zamon o‘zbek adabiyotida mukarrar takrorining turli xil shakllarini uchratamiz. Bu takrorning Hamid Olimjon she’riyatida o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lgan holatlari uchraydi. Shoir she’riyatidagi bunday takrorlarni qaytarilish o‘rniga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin: bir misrada va misralararo qo‘llangan takrorlar.

1. Hamid Olimjon she’riyatida takroriy so‘zlar bir misrada birdan ortiq qo‘llanib, uslubiy vazifa bajarib kelgan. Bunda ma’lum bir misrada takroriy so‘zlar yonma-yon qo‘llanishi yoki misraning turli o‘rinlarida takror kelishi mumkin. Shoirning “Yodgorlik”, “Yil boshi orzulari”, “Askarday”, “Yorti asr qo‘shiqlaridan” kabi she’rlarida misradagi takroriy so‘zlar yonma-yon qo‘llangan bo‘lsa, “Cho‘l kechasi”, “Qush” kabi she’rlarida misraning turli o‘rinlarida takroriy so‘zlar qo‘llangan. Jumladan, “Yil boshi orzulari” she’rida qo‘llangan takroriy so‘zlar ko‘plikni bildirishi bilan birga ma’noni kuchaytirishga, uni bo‘rttirishga, ushbu misraning kuchliroq ohang bilan aytilishiga xizmat qilgan:

Mardlar singari, Jambil
Tomonga boshlab yo‘l
To‘p bo‘shatib jo‘nadi.
Yo‘lma-yo‘l va ko‘lma-ko‘l
Manzillarda tunadi.
Yana turib jo‘nadi. (5; 127)

Bandda “yo‘lma-yo‘l”, “qo‘lma-qo‘l” so‘zlarining takror qo‘llanilishi mavjud. Bu takror misra doirasida yuzaga kelgan. Dastlabki “yo‘lma-yo‘l” so‘zida yo‘l-yo‘lakay, ma’lum bir harakat mobaynida ma’nosini ifodalagan bo‘lsa, takror qo‘llangan “qo‘lma-qo‘l” takroriy so‘zida ma’no kengaytirilgan. Ular birgalikda ma’noni kuchaytirgan.

Hamid Olimjon she’riyatida mukarrar takrori, asosan, bayt va band doirasida ko‘proq kuzatilgan. “Tayyor traktor”, “So‘ngra kular” kabi she’rlarida, “Semrug‘”, “Zaynab va Omon” dostonlarida bayt doirasidagi takrorlar mavjud bo‘lsa; “Kech nash’asi”, “Kuz qo‘yniga kirganda” she’rlarida, “Oygul bilan Baxtiyor” dostonida band doirasidagi takrorlar kuzatiladi. Har ikkala holatda ham takroriy so‘zlarning uslubiy vazifasi band asosida kelib chiqadi. Shoir she’riyatida bandlar asosan to‘rt misradan iborat.

2. Hamid Olimjon she’riyatida mukarrar san’atining bayt doirasidagi takrori quyidagicha ko‘rinishga ega.

a) Birinchi misra boshida kelgan takroriy so‘z ikkinchi misra boshida takror keladi yoki ikkinchi misra boshida boshqa shakldagi takroriy so‘z qo‘llaniladi.

Yana yurdi biro z,
Oxir dev chiqdi peshvoz .
Sekin-sekin yurardi,
Qah-qah urib turardi. [5; 187.)

Ushbu bandning uchinchi va to‘rtinchi misralarida takroriy so‘zlar – “sekin-sekin, qah-qah”qo‘llanilib, muqarrarni yuzaga keltirgan. Banddagi takror holatni ta’kidlashga hizmat qilgan va uning ketma-ketligini ifoda qilyapdi. “Tayyor

traktor!” she’rining quyidagi bandida ham takroriy so‘zning shunday uslubiy vazifada kelganini ko‘ramiz.

Tiqir-tiqir kechayotir yuk vagonlari,
Tiqir-tiqir kechayotir uzun o‘q kabi,
Parovozning o‘qiday yongan laxcha ko‘zlari. [4; 130.]

b) birinchi misra boshida va ikkinchi misra o‘rtasida takroriy so‘zlar qo‘llanadi.

Tiqir-tiqir kechayotir yuk vagonlari,
Kechayotir tiqir-tiqir uzun o‘q kabi,
Parovozning yozib qo‘ygan o‘t ko‘zlariga:
Qat’iy yilning ko‘klamiga tayyor traktor!!! [4; 129]

Bandda *“tiqir-tiqir”* takroriy so‘zining takror qo‘llanilishi ma’noni kuchaytirishga xizmat qilgan. Kitobxon diqqatini jalb etgan. Mukarrar takrori bilan tardu aks takrori bir-biriga bog‘liq holda uslubiy vazifa bajargan.

c) Banddagi ketma-ket ikkita misraning o‘rta qismida takroriy so‘zlar qo‘llaniladi.

Hali qancha-qancha malomat;
Hali qancha-qancha hasratlar
Yosh qalbimga bo‘lurlar mehmon.
Hali qancha qayg‘ular,dardlar,
Hiddat bilan so‘zon qilur jon. [5; 138.]

Yoki:

Har kichik parchalarda birlashalar,
Har to‘siqlarni yanchalar, oshalar.
Yel-da yelpib, o‘pib-o‘pib esadi,
So‘ngra kunlar kulib-kulib o‘tadi. [4; 80]

Berilgan har ikkala banddagi takror so‘zlarda ma’no bo‘rttirilgan va kuchaytirilgan.

d) birinchi misra o‘rtasida va ikkinchi misra boshida takroriy so‘zlarning qo‘llanilishi.

Omon uzoq-uzoq qoldi jim,
Bo‘g‘iq-bo‘g‘iq nafas oldi jim.
Oxir boqib qizning yuziga,
Jon oluvchi qora ko‘ziga,
O‘tmishini ayladi bayon,
Kim ekanin ayladi ayon [5; 157]

Bandda qo‘llanilgan birinchi takroriy so‘zda vaqt bilan bog‘liq ma’no kuchaytirilsa, ikkinchisida ma’lum holat bilan bog‘liq ma’noda qahramon holatini ifodalashga xizmat qilgan.

3. Hamid Olimjon she’riyatida takroriy so‘zlarning band (asosan to‘rtlik) doirasida qo‘llanib turli uslubiy vazifa bajarishi ham kuzatiladi.

Ariq-ariq suv kabi,
Oq changlar-tolg‘a-tolg‘a.
Yo‘lovchilar kelardi’
Tebranib olg‘a-olg‘a … [4; 51]

Band (to‘rtlik)ning birinchi (ariq-ariq), ikkinchi (tolg‘a-tolg‘a), to‘rtinchi (olg‘a-olg‘a) misralarida takroriy so‘zlar qo‘llanilgan.

Bu takrorlar ohangdoshlikni, musiqiylikni yuzaga keltirgan. O‘xshatish asosida ma’no kychaytirilgan.

Quyidagi bandda yani o‘ziga xos uslubiy vazifa ifodalangan.

Gumrohlardek bulutlarning ko‘zlari,
Tasbih kabi dona-dona yosh to‘kdi.
Tilanchilar ko‘ylagidek yirtildi,
Og‘achlardan parcha-parcha yaproqlar. [4; 101]

Bandda ikkinchi va to‘rtinchi misralarda takroriy so‘zlar mavjud. She’rning asosiy g‘oyasi shu bandga singdirilgan. Banddagi mukarrar, o‘shatish, istiora o‘zaro qorishish holda bir-birini to‘ldirib kelgan. Yomg‘irning yog‘ishini “yosh to‘kdi” istiorasi bilan ifodalangan bo‘lsa, yomg‘ir yog‘ishidagi holat tasbihga o‘xshatilgan.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, A.Hojiahmedov ta’kidlaganidek, mukarrar lafz raddul ajuz al-assadr san’atiga o‘xshab bayt misralarining turli o‘rinlarida qo‘llanishi mumkin. [1; 102]

Umuman olganda, Hamid Olimjon she’riyatida mukarrar takrori maqsadli qo‘llangan. Shoir she’riyatida takroriy so‘zlarning qo‘llanishi salmoqli bo‘lib, bularning barchasi badiiylik uchun xizmat qilgan. Takroriy so‘z sifatida asosan, ot, sifat, fe’l so‘z turkumidagi so‘zlardan ko‘proq foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999. – B. 100.
2. Husayniy Atoulloh Badoyi’u-s-sanoyi’ / Forschadan A.Rustamov tarjimasi. – T.: Adabiyot va san’at, 1981. – B. 174.
3. Hojiyev A. O‘zbek tilida qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar. – T.: O‘zfanakadnashr, 1963. – B. 88.
4. Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to‘plami: O‘n jildli. – T.: Fan, 1979. – 1-jild. – B. 404.
5. Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to‘plami: O‘n jildli.– T.: Fan, 1979. – 2-jild. – B. 228.

LINGVISTIKANING RIVOJLANISHI
РАЗВИТИЕ ЯЗЫКОЗНАНИЯ
THE DEVELOPMENT OF LINGUISTICS

Бахтиёрова Диличехра
студентка Самаркандского института экономики и сервиса
Адилова Солия Адиловна *доцент Самаркандского института экономики и сервиса*
smirzayeva979@gmail.com

***Annotatsiya*:** Tilshunoslik yoki Lingvistika tillarni o‘rganuvchi fandir. Tilshunoslikning amaliy va nazariy turlari mavjud bo‘lib, nazariy tilshunoslik tilning grammatikasi va uning ma’nosi o‘rganadi. Grammatika — morfologiya), sintaksis va fonologiya fanlarini qamrab oladi. Amaliy tilshunoslik, asosan, tilshunoslikda o‘rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash bilan shug‘ullanadi. Amaliy tilshunoslik tarkibiga xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatish kiradi.

Kalit so‘zlar:Tilshunoslik, tillar, metodlar.

Аннотация: Лингвистика или Языкознание – наука, изучающая языки. Существуют практический и теоретический виды лингвистики, а теоретическая лингвистика изучает грамматику языка и его значение. Грамматика включает морфологию ,синтаксис .Прикладная лингвистика в основном занимается практическим применением теоретических знаний, полученных в лингвистике. Прикладная лингвистика должна включать изучение и изучение родных языков.

Ключевые слова: Языкознание, языки, методы.

Abstract: Linguistics or Linguistics is the science that studies languages. There are practical and theoretical types of linguistics, and theoretical linguistics studies the grammar of a language and its meaning. Grammar includes morphology, syntax, and phonology. Applied linguistics is mainly concerned with the practical application of theoretical knowledge gained in linguistics. Applied linguistics should include the study and learning of native languages.

Key words: Linguistics, languages, methods.

Лингвистика (лат. lingua — язык) — наука о языке. Сравнительное языкознание — наука, связанная с изучением универсальных характеристик языков. Историческое языкознание – наука, изучающая возникновение, развитие и изменение языков.Лингвистика, «Языкознание» – наука о языке, его социальной природе, функциях, внутренней структуре, классификации, закономерностях функционирования отдельных языков, историческом развитии. По своему назначению и задаче выделяют несколько направлений языкознания: общее языкознание – изучающее язык как явление, характерное

для человека в целом, основное языкознание. область, задачей которой является выявление и выделение наиболее общих характеристик мировых языков; частная лингвистика — область, изучающая некоторые характеристики языка; прикладная лингвистика — направление, разрабатывающее методы решения практических задач, связанных с использованием языка (экспериментальная фонетика, лексикография, лингвостатистика, транскрипция, транслитерация и др.); математическая лингвистика, структурная лингвистика, сравнительно-историческая лингвистика и другие области, такие как паралингвистика, этнолингвистика, психолингвистика, социолингвистика изучают особенности языка, связанные с деятельностью говорящего в обществе., имеет важное значение в машинном переводе; позволило решить проблемы взаимоотношения реальных и воображаемых вещей (материальности и идеальности), сделать теоретические выводы для правильного понимания общественного сознания и человека как социального существа. Проблема взаимодействия языка и мышления, лингвистических и логических единиц (величин) изучается одновременно лингвистикой и философией. В качестве основных лингвистических методов можно указать описательный (сравнительный, конфронтационный, контрастивный, типологический), исторический (сравнительно-исторический, сопоставительный) и нормативно-стилистический (нормативный) методы. Языкознание располагает также специальными методами исследования — наблюдением языковых явлений, лингвистическим экспериментом, лингвистическим моделированием, методами лингвистической интерпретации. Языкознание возникло на границе философии и филологии.Изучение языковых проблем началось в Древней Индии._Позже источником научного описания станут арабский, древнееврейский, арамейский и турецкий языки. Развитие языкознания в средние века связано с именами арабских, а также неарабских филологов, работавших на арабском языке. Учёные Центральной Азии, такие как Абу Райхан Беруни, Ибн Сина, Махмуд Кошгари, Замахшари и Джавахари, внесли большой вклад в развитие арабской лингвистики. В то время как Ибн Сина исследовал звуки с фонемной точки зрения, Джавхари, Кошгари и Замахшари внесли большие новшества в мировое языкознание в области лексикологии и лексикографии. Махмуд Кошгари и Замакшарий получили известность как первые лингвисты, применившие сравнительно-исторический метод и типологию в лингвистике путем сравнения и противопоставления турецких диалектов и языков, принадлежащих к разным семьям, в своих работах «Девону Луготит-Тюрк» и «Мукаддимат уладаб». Фонетические, морфологические и частично синтаксические особенности русского литературного языка были впервые

последовательно описаны в труде М. В. Ломоносова «Русская фармакология».В эпоху Возрождения интерес к культурному наследию античного мира стимулировал развитие классической филологии. . Наряду с этим началось изучение новых, современных европейских языков на логической основе.Применение сравнительной методологии и принципа историчности заложило основу сравнительно-исторического языкознания, добившегося успехов в изучении родства языков, генеалогии языков: разработке классификации, изучении исторического развития родственных языков. языки, языковые семьи, преимущественно индоевропейская языковая семья, восстановление древнего состояния языков и т. д. Немецкие учёные Ф. Бопп, Я. Большой вклад внесли Гримм, А. Ф. Потт, А. Шлейхер, А. Дитц, датчанин Р. К. Раск, чех Ю. Добровский, австриец Ф. Миклошич, русский учёный А. Х. Востоков и другие. Основы общего языкознания, понимание языка как «деятельности» и «продукта деятельности», учение о внешней и внутренней форме языка, типологическая классификация языков и другие проблемы были разработаны немецким учёным В. Гумбольдт. Его идеи оказали большое влияние на развитие ряда направлений западного языкознания в XIX и XX веках. Гумбольдт Т. высказал резонное заявление о том, что он должен избавиться от логики и иметь свой метод, что язык имеет системный характер, что он имеет 2 аспекта - звук и значение и что он является социальным явлением.В современном иностранном языкознании существуют теории, основанные на идеалистических принципах, а также материалистические теории.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ История узбекского языкознания началась с исследований Махмуда Кошгари и Замахшари и прошла длительный исторический путь развития. С 15 по 20-е годы 20 века особое внимание уделялось практическим аспектам изучения узбекского языка, было создано множество двуязычных словарей - развивались кафедры лексикологии и лексикографии языкознания. Изучение узбекского языка в современном понимании началось в 20-х годах 20 века. В результате языковой политики, проводившейся в советский период, и переоценки положения русского языка в обществе были допущены определенные недостатки и дефекты в изучении, описании и исследовании языка и языковых явлений, но узбекское языкознание развивалось. и добился определенных успехов. Фитрат, К.Рамазан, Отаджон Хашим, С.Иброхимов, Олим Усман, Фахри Камаль, А.Гуломов, Ф.Абдуллаев, Ш. Большой вклад внесли Шоабдурагманов и другие.

Использованная литература:

1. Методы лингвистического исследования, М., 1973.

2. Берензин Ф.М., История языкознания, М., 1984.
3. Нурмонов А., История узбекского языкознания, Т., 2002.
4. Национальная энциклопедия Узбекистана (2000-2005 гг.).

DAVLAT TILI: TADQIQI, TA'LIMI VA AMALIYOTDA QO'LLANILISHI

Dilnoza Yuldasheva,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
dilyuldasheva83@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Davlat tili haqida" gi qonun hamda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonunning joriy qilinishi qonunning yaratilish tarixi, shu bilan birga "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangilanishi haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Davlat tili, milliy qadriyat, o'zbek tili, lotin alifbosi, lotin yozuvi, joriy etish, lug'at, izohli lug'at.

1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi qonunni tayyorlash va uni umumxalq muhokamasiga taqdim etishning o'ziga xos tarixi bor. Bu qonunni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha tayyorgarlik ishlari o'tgan asrning 80-yillaridayoq boshlangan edi. Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" asarida "Davlat tili haqida"gi qonunning tayyorlanish jarayoni haqida juda muhim fikr-mulohazalar bildirilgan.

Ma'lumki, milliy qadriyatlar orasida til alohida o'rin tutadi. Xalqning tiliga qilinadigan har qanday tajovuz yoki nopisandlik uning milliy qadriyatiga ham zug'um sifatida idrok etiladi va o'sha millat qalbida chuqur, o'chmas iz qoldiradi. Shuning uchun ham har bir mamlakatda til, davlat tili u yoki bu millatning borligini va birligini ta'minlovchi betakror timsollardan biri sifatida g'oyat qadrlanadi.

Xalqimizning ana shunday mo'tabar milliy qadriyati va betakror timsoli bo'lgan o'zbek tili tarixda, turli davrlarda juda xilma-xil istilochilarning iskanjasi ostida juda ko'plab ko'rgiliklarni boshidan kechirganligi hozirgi kunga kelib hech kimga sir bo'lmay qoldi. Bunday ko'rgiliklarning eng og'irlari so'nggi qariyb bir yarim asrlik istibdod davriga to'g'ri keladi. Bu davrda o'z ifoda-tasvir imkoniyatlarining benihoya sarhadsizligi bilan dunyo ahlining aqlini shoshirgan ona

tilimiz nohaq zug‘umlar zahridan larzaga keldi, qo‘llanish doirasi behad torayib ketganligidan azob chekdi; o‘zbek xalqi esa o‘z tilining bunday tahqirlanishidan, eng qadrli qadriyatimiz bo‘lgan tilning qadri kam bo‘lishidan azoblandi.

1989-yilning 21-oktabrida qabul qilingan O‘zbekistonning “Davlat tili haqida”gi qonuni ana shunday hasratlarga tamoman chek qo‘ygan edi. Bu qonun tilimizni har qanday kamsitishlardan himoya qiluvchi, har qanday balo-qazolardan asraguvchi; uning emin-erkin rivoji uchun kuch berguvchi o‘ziga xos dur-gavhar sifatida o‘ttiz uch yildan oshdiki, davlat tili maqomidagi o‘zbek tiliga har jihatdan o‘ktamlik baxsh etib kelmoqda.

Avvalo, ta’kidlash lozimki, o‘zbek tiliga davlat tili maqomini bergan mazkur qonun O‘zbekistonning davlat mustaqilligi sari dadil qo‘yilgan ilk amaliy qadamlardan biri sifatida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo shuni ham unutmaslik zarurki, bu qonunning tayyorlanishi va qabul qilinishi osonlik bilan, silliqqina amalga oshgani yo‘q. “Davlat tili haqida”gi qonunning hozirgi shaklda tayyorlanishi va qabul qilinishi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning serqirra faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

“Davlat tili haqida”gi qonun loyihasini tayyorlash uchun 1988-yilda huquqshunoslari, tilshunoslar, adabiyotshunoslar, madaniyat va san’at arboblari, yozuvchilar hamda tegishli boshqa mutaxassislardan iborat maxsus respublika komissiyasi tuzilgan edi. Ana shu komissiyaning a’zolari sifatida mamlakatimizning Azim Hojiyev, Iristoy Qo‘chqortoyev, Nizomiddin Mahmudov, Pirimqul Qodirov, Erkin Vohidov kabi yirik tilshunoslari va yozuvchilari bu ishda boshidan oxirigacha faol ishtirok etgan edilar. O‘sha paytdagi mamlakat rahbariyatining topshirig‘i va qat’iy talabiga ko‘ra dastlab "Tillar to‘g‘risida"gi qonun loyihasi hozirlanib, matbuotda e’lon qilingan edi. Ammo bu loyiha keng jamoatchilikning haqli va jiddiy e’tiroziga sabab bo‘ldi. Chunki mazkur loyiha nomidan ham ko‘rinib turganidek, bir til haqida emas, balki bir necha tillarga doir bo‘lib, respublikada o‘zbek va rus tillariga davlat tili maqomini berishni har jihatdan rasmiy jihatdan qonunlashtirishga intilishning o‘ziga xos namunasi edi.

O‘sha davrda Sobiq Ittifoq tarkibiga kiruvchi turli respublikalarda davlat tili haqidagi masala jiddiy kun tartibiga qo‘yilayotgan edi. Bundan qattiq tahlikaga tushgan va bu sohada ham jilovni ham qo‘ldan chiqarishni aslo istamagan jilovdor markaz zudlik bilan “SSSR xalqlarining tillari to‘g‘risida” degan qonun loyihasini tayyorlab, uni "Izvestiya" gazetasi sahifalarida 1989-yilda e’lon qilgan edi. Bu loyiha o‘sha davrdagi til siyosatiga doir o‘ziga xos uzoqni ko‘zlangan tuzoq edi. Markaz tomonidan tayyorlab e’lon qilingan bu loyihada respublikalardagi milliy tillarga davlat maqomini berish, rus tilining esa barcha ittifoqdosh respublikalarning rasmiy tili sifatida to‘la amalda bo‘lishini ta’minlash nazarda tutilgan edi. Bu esa tabiiyki, jonga tekkan ikki tillilik g‘oyasining qayta tiriltirilishi ekanligini hamma

millatparvar kishilar anglab etgan edilar. Shuning uchun o‘sha davrda bu loyiha amalga oshmay faqat qog‘ozdagina qolib ketdi.

2016-yil dekabr oyida Shavkat Mirziyoyev Prezidentlikka saylangandan so‘ng, Davlat tiliga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. Jumladan, Prezidentning 2019-yil 21-oktabrdagi O‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-5850-sonli farmoni imzolandi.

O‘zbekistonda 1989-yil 21-oktabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo‘yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o‘zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo‘ldi.

Istiqlol yillarida ona tilimiz tom ma’noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi.

Bugun O‘zbekistonimiz “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga kotarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi tobora oshib bormoqda.

O‘zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda faol qo‘llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e’tibor va uni o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir.

Prezident farmonida Davlat tilini rivojlantirish departamentining vazifalari belgilab berilgan. Shulardan biri «lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini to‘liq joriy etish borasidagi ishlarni jadallashtirish»dir. Bu borada yozuv qo‘shhokimiyatchiligiga barham berish asosiy vazifadir. Davlat va jamiyat yagona yozuv amaliyotiga to‘liq va uzil-kesil o‘tmas ekan, umumxalq savodxonligini to‘liq tiklash imkonsizdir. Muammoning yechimi maxsus, qat'iy qarorni taqozo etadi.

Shuningdek, farmonda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga «Davlat tili haqida»gi qonunni bugungi kun talablari nuqtayi nazaridan takomillashtirgan holda uning yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan. Ana shu vazifa doirasida nazarda tutilishi kerakki, tarixiy jarayon taqozosi bilan «Davlat tili haqida»gi qonun va «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi qonun alohida-alohida qabul qilingan.

Farmon ijrosini ta’minlash uchun davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, tibbiyot

sohalarida, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va harbiy muassasalar faoliyatida to‘liq davlat tilida ish yuritish bo‘yicha boshlagan ishlarimizni kuchaytirishimiz kerak. Hozirgi kunda mamlakatimizda yashayotgan, O‘zbekistonimizni yagona va ahil oila deb biladigan turli millat va elatlar vakillari ham o‘zbek tilini o‘rganishga katta qiziqish va istak bildirayotganlari ayniqsa e’tiborlidir.

Shu munosabat bilan bu borada motivatsiya omillarini kuchaytirish, maxsus darslik, lug‘at va qo‘llanmalar, video va audiomateriallar, zamonaviy o‘qitish uslublarini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi “Oliy va o’rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4391-sonli qarori va 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to ‘g‘risida”gi PF-5850–son Farmonida belgilangan vazifalar, institut Kengashining 2019-yil 29-noyabrdagi 4-son yig‘ilishi bayoni qarorlari ijrosini ta’minlash hamda institut kafedralarini yanada optimallashtirish shuningdek, institutda davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini yanada oshirish maqsadida 2019-yil 4-dekabr Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektorining “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasini tashkil etish to‘g‘risidagi 841/-F-sonli buyrug‘i asosida tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Ushbu konsepsiyaga binoan, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

1.2022-yil 21-oktabr kuni “Davlat tili: tadqiqi, ta’limi va amaliyotda qo‘llanilishi” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.

2.Kafedra professor-o‘qituvchilari ishtirokida “Qadring baland bo‘lsin, Ona tilim!” mavzusida insholar tanlovi bo‘lib o‘tdi.

3.D.Yuldasheva tomonidan ”O‘zbek tilida ornitonimlarning izohli lug‘ati” va Z.Ashurova hamda kafedra o‘qituvchisi M.Komilovalar tomonidan “O‘ziga xos so‘zlar lug‘ati” (A.Obidjon, O.Damin, D.Rajab she’rlari misolida) nomli lug‘atlar nashrdan chiqdi.

Hozirgi kunda kafedra o‘qituvchilari tomonidan “Iqtisodiy terminlarning o‘zbekcha-ruscha izohli lug‘at”ini yaratish ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Shu o‘rinda Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning «Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni,

o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin» degan so‘zlaridan shuni anglab yetishimiz kerakki, til har bir millat madaniyatining o‘zagi, u xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydigan, birlashtiradigan, tarbiyalaydigan, o‘qitadigan, urf-odat, ananalarini saqlaydigan asosiy vosita ekanligini har birimiz chuqur anglab,ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo‘shishda chuqur hurmat bilan yondashimiz kerak. Bu bizning kelajak oldidagi vazifamiz va burchimizdir.

Qahramon shoirimiz Erkin Vohidov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Til millatning bosh belgisi hisoblanadi. Til bor – millat bor. Til yo‘q – millat yo‘q. Istiqlol unut bo‘lgan davlatchiligimizni tikladi, yo‘q bo‘lishga maxkum qilingan tilimizni, demakki millatimizni asradi va aziz qildi. Endi uning biz yo‘qotib ulgurgan boyligini tiklash, turlicha “izm” tamg‘alarini qo‘yib iste’moldan chiqarilgan so‘zlarni o‘rniga qaytarish, buning uchun mumtoz adabiyotimizni chuqur o‘rganish hozirgi avlod zimmasidagi sharafli burchdir...” [5, 13].

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 440 b.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 21.12.1995 yildagi 167-I-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.10.2019 yildagi PF-5850-son.

5. Erkin Vohidov. So‘z latofati. - Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 152 b.

QASHQADARYO SHEVASIGA OID SO‘ZLARNING TIL XUSUSIYATLARI

Fayzullayeva Munisa Fozil qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: A.Shofqorov,
ChDPU dotsenti

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo qipchoq shevasi vakillari nutqidagi so‘zlar, ularning fonetik va morfologik xususiyatlari hamda sinonimiya, antonimiya va variantdoshlik munosabatlari haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo, qipchoq shevasi, lahja, dialektizm, sinonim, antonim, variantdosh so‘zlar.

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir.

Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitishsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin. Barchamizga yaxshi ayonki, ona tili – millat ma’naviyatining mustahkam poydevoridir. Ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, “Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadigan oyinai hayoti – bu uning milliy tili va adabiyotidir. Shu ma’noda dunyo hamjamiyatidan munosib o‘rin egallashini maqsad qilib qo‘ygan har qaysi davlat avvalo o‘z xalqining milliy tili va madaniyatini asrab – avaylashga, rivojlantirishga intiladi. [5]

Barchamizga ma’lumki o‘zbek tili qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjasi asosida qurilgan. Bular orasida qipchoq lahjasi har xil turkiy urug‘ – qabila guruhi vakillarini o‘z ichiga oladi. Bular orasida qipchoq, nayman, qangli, laqay, uyshin, qoraqalpoq, saroy, qo‘ng‘irot, qiyot, do‘rmon, arg‘in, xitoy kabi ko‘pgina urug‘ – qabilalar mavjud. O‘zbek xalq baxshilarining aksariyati qipchoq lahjasida so‘zlashuvchilardir.

Qipchoq lahjasining lingvistik xususiyatlari Fozil Olim Yunisov, V.V.Resgedov, M.Mirzayev, X.Doniyorov, F.Abdullaev, N.Rajabov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Mazkur lahjada so‘zlashuvchilar Ohangaron vodiysida, Mirzacho‘lda, O‘ratepa atroflarida, Samarqand, Navoiy, Surxandaryo ayniqsa Qashaqadaryo kabi hududlarda yashaydilar.

Qipchoq lahjasi eng qadimiy lahjalardan biri ekanligini M. Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida hamda qipchoq lahjasi va urug‘i haqida “Attuhfatuz zakiyati fil lug‘atit turkiya” asarida ham, Abulg‘oziy Bahodirxon “Shajari turk” asarida “Qipchoq” etnonimi haqidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. [4]

Bu lahjaning ham fonetik xususiyatlari mavjud bo‘lib, unga quyidagilar kiradi:

1. Qipchoq lahjasida adabiy tildagi **y** undoshi o‘rnida **j** undoshi qo‘llanadi: yozdi – jozdi, yulduz – julduz, yantoq – jantoq kabi;

Qashqadaryoning ba’zi hududlarida qipchoq lahjasida so‘zlashuvchilar nutqida aforizmlar va iboralarda uchraydigan **y** undoshining o‘rnida **j** undoshini qo‘llaydi: ***“Yetim qo‘ziga po‘stak yopgandek ”*** iborasini Qashqadaryo hududining ayrim aholisi ***“Jetim qo‘ziga po‘stak yopganday”*** tarizda talafuz qilinadi bu iboraning ma’nosi ***yarashmagan***, ***beo‘xshov***, (Kiyimingiz jetim qo‘ziga po‘stak jopganday yarashmagan, buning nimasini oldingiz?). ***“Yelkasiga moyli qo‘lini artmoq”***

iborasini qipchoq lahjasida ***“Jelkasiga moyli qo‘lini artmoq”*** bu iboraning ma’nosi ***boy odamlarga havasi kelmoq ma’nosida***, (Boylarga ayting, jelkamizga moyli qo‘lini artib ketsin, zora bizning ham ishimiz yurishib ketar). [1]

2. Adabiy tildagi **g** undoshi o‘rnida qipchoq lahjasida **y** tovushi keladi: kigiz – kiyiz, sigir – siyir kabi;

3. **q** va **k** undoshlari qipchoq lahjasida so‘zlashadiganlar nutqida tushib qoladi: kichik – kichi, tariq – tari kabi;

4. Qipchoq lahjasidagi so‘zlarda **q** va **g‘** undoshlari **v** tovishi bilan anglashinadi: tog‘ – tov, o‘g‘li – uvli, (uli), o‘g‘uz – o‘vuz, og‘iz – oviz kabi ;

Bu holatni qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi nutqidagi iboralarda ham uchratishimiz mumkin, *“ Ovzi – burni moy bo‘lmoq “* bunda ***og‘zi*** *so‘zi* ***ovzi*** bo‘lib kelmoqda.[3]

Qipchoq lahjasining morfologik xususiyatlari quyidagilar:

1. u, bu, shu ko‘rsatish olmoshlari qipchoq lahjasida ul, bul, shul, tarzda talaffuz qilinadi: bu yo‘ldan yurma – bul jo‘ldan jurma, shu kitobni ol – shul kitopni ol kabi;

2. Aniq hozirgi zamon fe’li – jatir ba’zan – vatir kabi qo‘shimchalar bilan hosil qilinadi: kelajatir, boravatir ba’zan kelutir borutir shakli ham mavjud:

U yo‘l yoqalab kelayapdi – ul jo‘l jog‘alab kelajatir kabi;

3. O‘rin-payt kelishigi oldidan (i)n tovushi orttiriladi: boshinda, qoshinda, mahlayinda kabi;

U onasining ro‘parasida turar edi – u onasining mahlayinda turardi

Qashqadaryo qipchoq shevalaridagi so‘zlar boshqa sheva so‘zlar bilan sinonimik qatorning tashkil qiladi: **Usta** (Qashqadaryo, Xorazm), duradgor – yoniqchi (Buxoro), sigir (siyir) (Qashqadaryo), inak (Namangan), **qatiq** (Qashqadaryo), suzma (Toshkent), suzma (xamrdan tayyorlanadigan narsa) (Qashqadaryo , Shahrisabiz yaqinidagi ayrim qishloqlarda), **tomizg‘i** – **uyitqi** (Sayram, Sh. Xorazm), xamirturish (Qashqadaryo), payir (Janubiy Xorzam), **obdasta** (Toshkent), oftoba (Qashqadaryo, Surxandaryo), **kelinoyi** (Toshkent), yanga, checha (Qashqadaryo), **o‘rik (**Toshkent), zardoli – zaldori (Qashqadaryo), **qo‘shni** (Toshkent), mastakdosh – hamsoya (Qashqadaryo), **to‘n** (Namangan), chopon (Qashqadaryo) kabilar aytib o‘tiladi. [2]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida boshqa lahja va shevalar qatori qipchoq lahjasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy - ma’naviy qadriyat hisoblanadi. Biz birgina Qashqadaryo hududida yashovchi aholining nutqida uchraydigan so‘zlarni ko‘rib o‘tdik. Bu orqali har bir hudud, har bir lahja o‘zining boyligiga, yana bir bora amin bo‘ldik. Y.D. Polivanovning

“O‘zbek tili shevalarining ko‘pligi jihatidan boshqa turkiy tillardan farq qiladi”, - degan fikri ham o‘z aksini yaqqol ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: “Nodirabegim”, 2021
2. Jo‘rayev B. Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari. – Toshkent,1969
3. Rahimov S. Surxandaryo o‘zbek shevalari lug‘ati. – Toshkent,1995
4. Saidov. Y O‘zbek dialektologiyasi. – Buxoro: “Durdona”, 2021
5. Ziyo.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev (“O‘zbek tilini nufuzini oshirish to‘g`risidagi nutqidan”. 22 -oktabr 2019 -yil).

MILLIY – MADANIY KODNING METAFORALARDA NAMOYON BO`LISHI

Narziyeva Gulnoza Akbarovna
TATU Samarqand filiali katta o‘qituvchisi
ngulnoza1985@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada metaforalar milliy-madaniy kodlarni namoyon qilishda juda kuchli vosita ekanligi, ular madaniy kodni bir avloddan boshqasiga va bir madaniyatdan boshqasiga yetkazish vositasi bo‘lib xizmat qilinishi tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: milliy-madaniy kod, metafora, frazeologik birliklar,madaniy qadriyatla, mediamatn;

Metaforalar milliy-madaniy kodni aks ettiruvchi asosiy vositalar qatoriga kiruvchi lingvistik vositalardan biri hisoblanadi. Metaforalar nutq va tafakkur, ijtimoiy-madaniy tushunchalarni kundalik hayotga olib kiradi.

Mediamatnni ekspressviligini oshirishda va murakkab g‘oyalarni ifoda etish bilan birga, madaniy qadriyatlar, me’yorlar va stereotiplarni qamrab oladi va ulari ifoda etishga yordam beradi. Metafora milliy-madaniy kodlarni namoyon qilishda juda kuchli vosita bo‘lishi mumkin. Ta’kidlash joizki, metafora milliy-madaniy kodni aks ettirish va shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular qadriyatlari, me’yorlari va stereotiplarini ifoda etishga yordam beradi.

Milliy-madaniy kodlarning tilda ifodalanishining asosi ko‘pincha metafora orqali ifodalanadigan ikkilamchi obrazli nominatsiya mexanizmi sifatida qaraladi.

Metafora – tildagi universal hodisa bo‘lib, obrazlilik kategoriyasi ham til universaliyalari qatoriga kiradi. Metafora obrazlilikni ifodalovchi vositalardan biri sifatida barcha tillar va barcha davrlarga xosdir. Metaforada til taalluqli bo‘lgan

milliy madaniyatni bevosita aks ettiruvchi ekstralingvistik mazmun mavjud bo‘ladi. Zero, «milliy-madaniy komponentni o‘z ichiga olgan birlik hisoblanuvchi metafora, dunyo manzarasining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi madaniy, bog‘lanishli assotsiatsiyalari kabi qatlamini chuqur o‘rganish talab etadi».

Metaforaning milliy-madaniy kodlarning namoyon qiluvchi vosita sifatida o‘ziga xosliklari mediamatnda berilish masalalari bosma elektron OAVdan olingan misollar orqali tahlilga tortildi.

«*Unchalik umid qilganim yo‘q. Baribir harakat qilib ko‘ray. Zora,* ***umid uchquni paydo bo‘lsa...»;***

«*Yetti qavatli uyning tom qismi loyihada belgilanganidek emas, polietilen plyonkalar bilan yopilgan. Natijada* ***namgarchilik o‘z so‘zini aytib****, tom shifti 7-qavatda yashovchi xonadonning ichiga o‘pirilib tushga*n».

«*... yomg‘irning faqat Toshkentda emas, balki unga qo‘shni hududlarda ham yog‘gani va* ***tabiatning uyg‘onib yashillikka burkanishi*** *bilan bog‘laydi. Uning aytishicha, oldin yomg‘ir asosan Toshkentning o‘zida yog‘gani sababli shahar havosi yana eski holiga qaytdi*»;

«*Bu borada xususiy sektorlarning alohida o‘rni bor. Ya’ni hududlarda bu kabi xayrli ishlarga saxovatli tadbirkorlarning ham hissasi qo‘shilmoqda. Homiylik mablag‘lari asosida har yili hududlarda ijtimoiy muassasalar* ***zamonaviy qiyofa kasb etyapti»***;

«Tog‘ etagidagi *qulay adirlikka chiqayotganimizda oyog‘im tagidan nimadir portladi va to‘lqin meni uloqtirib yubordi»* va h.k.

Ingliz tilida metaforalarning mediamatn shakllanishida

«**His lawyer is a shark» (sarlavha)**

Meaning: The lawyer being compared to a shark means the implication of vicious or ruthless behavior»; «Art washes away from the soul the dust of everyday life *- Pablo Picasso»; «That* ***opens gateways*** *to really understanding how these things are acquired, how they change, and how they're used for all kinds of things,» she said»; «And, as is fit, both morality and theatre, or more specifically the theatre of the absurd, snapped* ***ironic bites out of*** *the show’s halogen halo*» va h.k.

Ko‘chma ma’nodagi so‘zlarda milliy madaniy kodni namoyon bo‘lishi:

Qishda pomidor, bodring yetishtiradi, biri olcha, gilos, anorzorlarni ko‘paytiradi, birovi bog‘iga asalari qutilarini qo‘yib, ***shifobaxsh ne’matni elga tortiq*** *etadi. Shu bois qadimul ayyomdan* ***dunyo dehqon qo‘liga suyanadi,*** *deb bejiz aytishmagan.*	*shifobaxsh ne’matni elga tortiq-* metonomiya bo‘lib, meva sabzovotlar o‘rnida qo‘llanilgan

Qadimiy ***kasbni*** *ulug‘lab, uni* ***yangi mazmun, qut-baraka*** *bilan* ***boyitish****ga harakat qilayotgan tayloqlik mirishkorlarning umri uzoq,* ***rizqi farog‘ bo‘lsin,*** *deymiz.*	*dunyo dehqon qo‘liga suyanadi* - sinekdoxa Bu misolda dunyo so‘zi odamlar, xalq so‘zlari o‘rnida qo‘llangan. *dunyo* so‘zi mentonimiya asosida ko‘chgan. *qut-baraka- rizq-ro‘z* so‘zi o‘rnida qo‘llangan, metonimiya *rizqi farog‘ bo‘lsin*- metafora
Ana shunday murakkab jarayonda O‘zbekiston «Adolat» SDP faollikni ***qo‘ldan boy bermay,*** *aniq maqsad sari* ***qadam qo‘y****di. Xalqning* ***ishonchni qozonishga****, uning manfaatlarini himoya qilishga* ***bel bog‘ladi****.*	*yuksak siyosiy savodga*- belgi o‘xshashligi *bilimli* so‘zi o‘rnida qo‘llanilgan
«Bir zumda ***qalbimni chulg‘ab olgan tuyg‘ularim orasida*** *shukrona ham, g‘urur ham, quvonch ham qo‘shilib, allanechuk ko‘tarinki, hech nima bilan taqqoslab bo‘lmaydigan* ***huzurbaxsh yaxlit hissiyotni*** *yuzaga keltirdi» (YaO‘.2020.2.06.)*	*qalbimni chulg‘ab olgan tuyg‘ularim orasida*- xarakat o‘xshashligiga asoslangan ***huzurbaxsh yaxlit hissiyotni- misoli ham*** harakat o‘xshashligiga asoslangan
«Zero, ular olomonni xalqqa aylantirib, odamlarni ***ezgu g‘oyalar atrofida birlashtirad****i. Shu jihatdan ramzlar butun* ***millat ongining o‘sishi****, ma’naviyatining yana-da taraqqiy topishida alohida ahamiyat kasb etadi» (YaO‘.2020.2.06.)*	*ezgu g‘oyalar atrofida birlashtiradi*- harakat o‘xshashligi *millat ongining o‘sishi*- belgi o‘xshashligi
«Bugun mustaqil ***taraqqiyotimiz yo‘lidan ishonch bilan qadam*** *tashlamoqdamiz. Qaysi-dir jabhada muvaffaqiyat, qay bir*	*taraqqiyotimiz yo‘lidan ishonch bilan qadam tashlamoq* - harakat o‘xshashligiga asoslangan

sohada qiyinchiliklarga uchragan bo‘lsak-da, bular-ning barchasi mamlakatimizning ***ertangi taraqqiyoti*** *uchun noyob tajriba bo‘lib xizmat qilmoqda»* (YaO‘.2020.2.06.)

Mediamatnning shakllanishida metafora bu nafaqat, bir tushunchani boshqasiga solishtirish yoki o‘tkazish yo‘li bilan axborotni yetkazish, tasvirlar yaratish, voqea va hodisalarni tasvirlash uchun qo‘llaniladigan adabiy-uslubiy vosita balki, milliy madaniy kodni namoyon qiluvchi ekspressvilikka yo‘g‘rilgan vosita hisoblanadi.

Umuman olganda, maqollar, frazeologik birliklar, mataforalar ma’lumotni gazetxonlarning media olamining lisoniy tasvirlarini, axborotni tushunarli va esda qolarli qilishi hamda auditoriyaning taqdim etilgan ma’lumotlarga munosabatini kuchaytirishga yordam beradi. Masalan, maqollar voqealarni idrok etish va baholashga ta’sir ko‘rsatishi, muayyan qarashlarning shakllanishiga hissa qo‘shishi mumkin. Frazeologik birliklar ma’lum bir til madaniyatiga xos bo‘lgan asosiy bilimlarga, qadriyatlar tizimiga va atrofdagi voqelikni turkumlash usullariga asoslanishi mumkin. Jamoatchilik kayfiyatini tahlil qilishga yordam beradi. Har bir til vositasi ma’lum qadriyatlar va ijtimoiy-madaniy me’yorlarni targ‘ib qilish uchun foydalaniladi. Bundan tashqari auditoriyaning ongini boshqarish, ularning hislari va e’tiqodlariga ta’sir qilish uchun ishlatilishi mumkin. O‘zbek matbuotida baho berish, mafkuraviy muhitni shakllantirish, milliy madaniy xislatlarni singdirishda ushbu vositalardan turli ko‘rinishlarida keng foydalaniladi.

Adabiyotlar:

1. Аванесова Г.А., Купцова И.А. Коды культуры: понимание сущности, функциональная роль в культурной практике // В мире науки и искусства: вопр. филологии, искусствоведения и культурологии: сб. ст. по мат-лам XLVII Междунар. науч.-практ. конф. – Новосибирск: СибАК, 2015. – № 4 (47). – 194 с.
2. Худайбергенова З.Н. Метафора феноменини миллий маданиятнинг инъикоси сифатида тадқиқ этишнинг замонавий йўналишлари ва таржимада қайта яратиш муаммолари. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, No 4(33). – B.175-185
3. Баранов А.Н., Караулов Ю.Н. Метафоры общественного диалога: война или согласие? – М., 1991. – С. 3–42.
4. https://zamin.uz/hayot-tarzi/76308
5. https://t.me/kunuzofficial

6. https://t.me/kunuzofficial
7. https://kun.uz/02489869

O‘ZBEK TILIDA LEKSEMALAR TAHLILINING MOHIYATI

Ibatova Amira Shavkatovna
dotsent vazifasini bajaruvchi (PhD)
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Samarqand filiali “Tillar” kafedrasi
amira_ibatova@mail.ru

Annotation:The article discusses the features of bakery lexemes, which are an important industry of the native lexicon, and analyzes the association of language lexical units under one microscope based on materials from the Uzbek dialect dictionary.

Keywords: lexeme, dictionary, linguistics, dialect, paradigm, syntagmatics, hierarchy.

Ma’lumki, adabiy tilning oziqlantiruvchi manbasi bu xalq shevalari hisoblanadi. Boshqa tillar kabi o‘zbek adabiy tili ham ko‘p dialektli hisoblanadi. Leksema - yunoncha so‘z bo‘lib, “so‘z, ifoda” ma’nosini anglatib, til qurilishining leksik ma’no anglatuvchi lug‘aviy birligidir. Buning ustiga faqat “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati (Toshkent, 1971) dan boshqa region va lahjalar materiallarini o‘z ichiga olgan yaxlit lug‘atlar tuzilgan emas.

Mazkur maqolada non bilan bog‘liq leksemalarning xalq shevalari materiallari asosida sistem tahlil qilishga harakat qildik, xolos. Ularning boshqa lngvistik xususiyatlarini ham tadqiq etish tilshunoslik fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ona tilimiz leksikasining muhim sohasi pazandachilik tarmog‘i bo‘lgan nonvoylik bilan bog‘liq leksemalarning o‘ziga xos xususiyatlarini “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” materiallari asosida tahlil qilishga harakat qilamiz. Dono xalqimiz biror narsaga ehtirom bildirsa, “nondek aziz”, “nondek mo‘tabar”, deya non so’zini qo‘shib aytadi. Mamlakatimiz gerbida g‘alla boshog‘i tasviri tushirilgani ham o‘zbek xalqining bug‘doyga, nonga alohida hurmat-e’tibori ifodasidir. Zero, non dasturxonimiz ko‘rki, farovon hayotimiz belgisidir.

O‘zbekistonning har bir viloyatida o‘ziga xos nonvoylik san’ati mavjud bo‘lib, bir-biridan tubdan farq qiladi. Bekoriga “Samarqand nonlari yetti iqlimga mashhur”, “Toshkent non shahri” iboralari paydo bo‘lmagan. Har birining o‘ziga xos texnologiyasi mavjud. Samarqand va Buxoroda qalin va yupqa, Toshkent va

Farg‘onada o‘rtacha qalinlikda, Xorazm va Qoraqolpog‘istonda juda ham yupqa, ba’zi tumanlarda o‘rtacha shaklda tayyorlanadi.

Yig‘ilgan materiallar tahlili mazkur sohaga oid makromaydon leksemalarini quyidagicha makromaydonlarga bo‘lib o‘rganishni taqozo etmoqda:

1.Un mikromaydoniga xos leksemalar: oq un, qora un, qozoq un, Oqtosh un, Jomboy un, tegirmon un.

2.“Tegirmon” mikromaydoniga oid leksemalar: Xaraz (Xorazm) - tegirmon, baqaloq (Xorazm) - tegirmon toshining markazidan don oladigan teshik, g‘ir-g‘ir (Xorazm) - qol tegirmon, Pariljoq (Qarnoq) || parildoq (qoramurt) – tegirmon parragi xamma (Xorazm) - tegirmonda un tushadigan joy, chapoq (Tulkibosh, Chimkent) tegirmon do‘li.

3.Shaxs mikromaydoniga tegishli leksemalar: Nanbiy (Xorazm) || navoy)

(Qashqadaryo) - nonvoy, xaraspan (Buxoro) || xarasnon (Xorazm) - tegirmonchi, tandirchi (Payariq) || tandirsoz (Buxoro), zag‘orapaz (eskirgan shakli), nonpaz (Buxoro) kabilar.

4.“Mahsulot” mikro guruhini o‘z ichiga olgan leksamalar: alacha patir (Qashqadaryo) - unga ismaloq qo‘shilib aralashtirilib pishirilgan non, qotirma (Qashqadaryo, Jizzax,) || qatirma (Tulkibosh) - qozonda yog‘siz pishiriladigan yog‘siz non, chalma (Buxoro) - ichiga qovoq solib pishiriladigan uy noni.

5. “Idish” mikroguruhiga tegishli leksemalar: nontaboq || nontavox (Qipchoq) - non tavoq, zevar (qoramurt) - savat, chanoq (Qarnoq) - 100-150 kg don sig‘adigan katta sopoch, qop chok savat (Janubiy Tojikiston) pilta savat. O‘z navbatida, non makromaydoni metal, inson, buyum, sabzavot singari mikromaydonlari bilan paradigmatik a’loqaga kirishadi. Ya’ni ular bitta uya (non mikromaydoni)ga xos bo‘lib, bir-biri bilan uyadoshlik mikromaydoniga kirisha oladi. Bunda tahlil etilayotgan leksemalarni bitta mikromaydonga birlashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qilayotgan umumiy ma’no shu maydonga mansub bo‘lgan barcha mikroguruhlarga taaluqli bo‘lishi talab etiladi. Ular ham o‘z navbatida yana ko‘plab mikroguruhlarga bo‘linib ketishi mumkin.

Ananalarning eng katta barqarorligi va mustahkamligi butun bir sistemani tashkil qilgan inson va uning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan oziq-ovqatga xos leksemalarning tarixiy, etnografik hamda til xususiyatlari majmuyini o‘z ichiga olgan malumotlar manbayi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Malumki, har qanday tilning lug‘at tarkibi bir sistemani tashkil etgan holda uning tabiatiga xos malumotlarini saqlash va to‘plashda muhim ahamiyatga ega.

Non mikromaydoniga xos paradigma a’zolari o‘rtasida o‘zaro sinonimik (Elgazar) elak, dukimuhpar, shappati, (qipchoq) - chapchak kabi jins-tur (non alacha patir), qotirma (darb, Jizzax), chalma, chursi. Butun bo‘lak (nin: burda, ushoq,

uvoq). Leksik darajalanish (churek - non - kulcha - burda - ushoq), vazifadoshlik (Tegirmon un kombinati, nonpar, chakich, savat, lali), zidlik (non – ko‘mach: pishgan - xom, suyuq - qattiq) singari munosabatlar mavjudligi ham materiallar tahlilidan ma’lum bo‘ldi. Albatta, mazkur mikromaydonga xos leksemalar boshqa maydonlar bilan qo’shnichilik (sintagmatik) munosabatlarga ham kirishib ketadi.

O‘z navbatida, non makromaydoni metall, inson, buyum, sabzavot singari mikramaydonlari bilan paradigmatik aloqaga kirishadi. Yani ular bitta uya (non mikromaydoniga)ga xos bo‘lib, bir-biri bilan uyadoshlik mikromaydoniga kirisha oladi. Bundan tahlil etilayotgan leksemalarni bitta mikromaydonga birlashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qilayotgan umumiy mano shu maydonga mansub bo‘lgan barcha mikromaydonlarga taalluqli bo‘lishi talab etiladi.

Mavjud bo‘lgan har qanday lug‘at axborot tizimi sifatida dolzarb va memorial tabiatning malumotlarini saqlash va to‘plashda muhim ahamiyatga ega. Adabiy til lug‘atlaridan farqli o‘laroq, o‘zbek dialektal lug‘atlarida non bilan bog‘liq lug‘aviy birliklar umumlashtiradi va shu bilan madaniy xalq ananalarini mustahkamlash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Lug‘atlarda keltirilgan malumotlarga ko‘ra xalqning hayotning turli jihatlariga bo‘lgan munosabatini tiklash mumkin. Xullas, tildagi leksik birliklar bitta mikromaydon ostida birlashgan bo‘lib, ular o‘zaro va ayni paytda qo‘shni maydonlar bilan muntazam ravishda paradigmatik, perarxik hamda sintagmatik munosabatlarga kirishib turadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev F.A. Xorazm shevalari. – Toshkent, 1961

2. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. –Toshkent:Fan, 1979. -43-44 bet.

3. Samadov Q. O‘zbek tili uslubiyati.- Toshkent: O‘qituvchi, 1991.

4. Shoabduraxmanov Sh., Ishayev A. O‘zbek shevalarining o‘rganilishi va navbatdagi vazifalar // O‘zbek tili va adabiyoti. 1968 yil, 5-son, 35-38 betlar.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 2-jild.- Toshkent: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlit ilmiy nashriyoti, 2008.-489 b.

O‘ZBEK TILI LEKSIKASINING TARIXIY TARAQQIYOTI

Ishkulova Xulkar Otabek qizi,
ChDPU 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili leksikasining tarixi, o‘z va o‘zlashma qatlam va ularning fonetik, semantik va morfologik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Umumturkiy so‘zlar, sof o‘zbekcha so‘zlar, semantik, fonetik, morfologik belgilar, o‘zlashgan so‘zlar.

O‘zbek tili qadimiy boy tarixga egadir. Tilimiz tarixiy taraqqiyot jarayonida boyib, takomillashib kelgan. O‘zbek tili Markaziy Osiyo qadimiy mahalliy xalqlarining turkiy tillar tizimidagi tillardan biri sifatida uning lug‘aviy tarkibi, grammatik qurilishi uzoq tarixga borib taqaladi. O‘zbek xalqi, ma’lumki, eng qadimgi turkiy urug‘ va qabilalardan o‘sib chiqqan. Uning tili ham shu urug‘ va qabilalar tili negizida rivoj topgan. Birinchidan, o‘zbek tili barcha turkiy xalqlar uchun umumiy bo‘lgan til sifatida rivoj topgan bo‘lsa, ikkinchidan, boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish asosida boyigan. Shuning uchun o‘zbek tilining lug‘aviy tarkibi o‘z qatlam va o‘zlashma qatlamga bo‘linadi. O‘z qatlam turkiy xalqlarning o‘zining azaliy bor bo‘lgan so‘zlari bo‘lsa, o‘zlashma qatlam chet tillardan kirib kelgan so‘zlardir.

O‘z qatlam o‘zbek tili leksikasining umumturkiy va sof o‘zbek so‘zlaridan iborat qismlaridir. Umumturkiy so‘zlar hozirgi o‘zbek tili leksikasining asosiy qismini tashkil qiladi. O‘zbek tili leksikasining fonetik va semantik belgilari bor. Turkiy so‘zlar boshqa o‘zlashgan so‘zlardan ancha farq qiladi. Turkiy so‘zlarning ko‘pchiligi bir yoki ikki bo‘g‘nli bo‘ladi. Masalan, *bir, bosh, tosh* va h.k. kabilar. Yana uch bo‘g‘inli so‘zlar juda kam uchraydi ular masalan, *qo‘rg‘oshin, qumursqa* kabi. Turkiy tilda so‘z boshida undosh tovush qatorlashib kelmaydi, so‘z oxirida undosh tovushlar qatorlashib kelishi mumkin. Bu kamdan kam hollarda uchraydi. Masalan, ***ost , ust qirq*** kabilar. Turkiy so‘zlarda urg‘u so‘zning oxirgi bo‘giniga tushadi. Umumturkiy so‘zlar hozirgi o‘zbek tili lug‘at tarkibining yarmidan ko‘pini tashkil qiladi. Tarixiy etmologik jihatdan qaralsa, hozirgi o‘zbek tilida uchraydigan ayrim so‘zlarning uzoq o‘tmishga egaligini ko‘ramiz. Masalan, but, lak, nil va shu kabi boshqa so‘zlar uchraydi. Ammo bunday so‘zlar sanoqligina bo‘lgani uchun alohida qatlamni tashkil qiladi.

Umumturkiy leksemalar o‘zbek tili leksikasining eng qadimgi lug‘aviy birligidir. Umumturkiy so‘zlarning fonetik belgilari: leksimalarning ko‘pchiligi bir yoki ikki bo‘g‘inlidir, leksema yoki bo‘g‘in boshida ikkita undosh tovushlar

qatorlashib kelmaydi, leksema oxirida undosh tovushlar yonma-yon qo'llanilishi mumkin, ammo bu hodisa juda kam uchraydi, ikkinchi bo‘g‘in hech qachon unli bilan boshlamaydi, ammo unli bilan tugash keng tarqalgan: ik-ki, yet-ti, ar-pa va h.k. Umumturkiy so‘zlarning semantik belgilarida leksimalarning aksariyati ko‘p ma’nolidir. Masalan: Bosh so‘zi “ishning boshi”, “ko‘chaning boshi”, “odamning boshi”, “bosh agranom” va boshqalar. Morfologik belgilarda esa umumturkiy so‘zlar hozirgi o‘zbek tilining barcha so‘z turkumlarida uchraydi, o‘zak va affiks morfemalar erkin va standart bo‘ladi. Masalan: ko‘zim, ko‘zing, ko‘zi, ko‘zni shu kabilar.

O‘zlashmgan qatlam o‘zbek tili leksikasining boshqa tillardan o‘zlashtirilgan leksemalaridan iborat: *maktab, oila, daraxt avtobus* va boshqalar. O‘zlashma qatlamni asosan *fors-tojik, arab, rus* tillaridan o‘zlashgan so‘zlar tashkil qiladi.

Turkiy xalqlar fors-tojik tilida so‘zlashuvchi aholi bilan yaqin aloqada bo‘lib, ijtimoiy hayot tarzi bir-biriga yaqin bo‘lgan. Bu ikki xalqning iqtisodiy, ma’daniy munosabatlari natijasida ko‘plab tojikcha so‘zlar o‘zbek tili lug‘at tarkibida mustahkam o‘rnashib olgan. O‘zbek tilidagi qadimgi so‘zlardan ayrimlari turkiy tillarning XIV- XV asrlarga oid yozuv obidalari asosida tuzilgan lug‘atlarda ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, *ota, aka, uka, ini* kabi qarindoshlikni; *adoq, arqa* kabi odam a’zolarini; *yaz, yal, qash* kabi yil fasillarini: *yag‘, sub, ot* kabi tabiat hodisalarini; *adg‘ir, at, vuqa* kabi hayvon nomlarini ifodalovchi so‘zlar borki ular turkiy tillar uchun umumiy bo‘lib, fonetik jihatdangina farq qiladi, xolos. O‘zbek tilidagi fors-tojikcha leksemalarni fonetik ko‘rinishiga ko‘ra farqlash qiyin. Lekin ayrim muhim belgilari mavjud:

1) sirg‘aluvchi j tovushi fors-tojikcha leksemalarda uchraydi: mujda, mujgon, gijda kabi;

2) leksema oxirida undosh qator keladi: taxt , baxt, dard kabi;

3) o unlisi cho‘zib aytiladi: non, darmon, bahor kabi. Lekin buning barchasi ham asosiy belgi bo‘lolmaydi.

Qadimgi turkiy tilga arablar VI-VIII asrlardan boshlab kirib kela boshlagan. Bu hol arablar Markaziy Osiyoni istilo qilishi bilan bog‘liq holatlar va ular aholiga o‘z alifbosini joriy qiladilar. Shu sababli bizga arab tilidan so‘zlar kirib kelgan va hozirda ham ishlatilmoqda. Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarda ikkita unlining yonma-yon kelishi, ko‘proq diniy, axloqiy va mavhum tushunchalar ifodalanadi. Arab tilidan so‘z o‘zlashtirilishi o‘tmishda faol bo‘lgan, hozir esa bu jarayon deyarli to‘xtagan. Ayrim arabcha so‘zlar hatto eskirib, tarixiy so‘zlar yoki arxaizmlar qatoriga Arab tilidagi *"-iy", "-viy" , "-an"* affikslari o‘zbek tilida so‘z yasovchi affikslar darajasiga ko‘tarilgan, natijada o‘zbek tilida so‘z yasash imkoniyatlari kengaygan. Hozirgi o‘zbek tilida shu affikslar vositasida yasalgan juda ko'p yangi leksemalar mavjud: *texnikaviy, fizikaviy, tuban* va boshqalar. Arab tilidan

o‘zlashlashtirilgan lug‘aviy birliklar orasida tarixan yasama bo‘lgan lekemalar ham bor (adabiy, g'olibiyat, voqean, oilaviy kabilar).

Rus tili va u orqali o‘zlashgan so‘zlar XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Ruscha baynalmillal so‘zlarda esa asosan transportga, ishlab chiqarishga, ilm-fanga oid bo‘ladi. Rus tilidan o‘zlashgan so‘zlarning aksariyati ot va son turkumlariga mansubdir: *instituti, universit, gramm, litr, fabrika.*

Fonetik jihatdan qaralsa ruscha-baynalmillal so‘zlarda so‘z urg‘usi erkindir u leksemalarning turli bo‘g‘inlarida bo‘lishi mumkin, urg‘uli bo‘g‘indagi unlilar cho‘ziqroq talaffuz qilinadi, bir bo‘g‘inli so‘zlarda unli ruscha so‘zlarda cho‘ziqroq, ammo, o‘zbekcha va tojikcha so‘zlarda qisqaroq talaffuz qilinadi. Ruscha o‘zlashmalarning birinchi urg‘uli bo‘g‘indagi unli o‘zbek so‘zlarining birinchi bo‘g‘indagi unlidan ancha cho‘ziq va kuchli talaffuz qilinadi chunki o‘zbek tili so‘zlarining birinchi bo‘g‘ini ko‘pincha urg‘usiz bo‘ladi. Morfologik belgilari: ruscha baynalmillal so‘zlarda prefiks+ o‘zak (de-duksiya), o‘zak+suffiks (jurnal+ist), prefiks + o‘zak + suffiks (a+ simmetr+iya) tarkibli leksemalar uchramaydi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, sobiq ittifoq tuzumiga xos bir qator ruscha-baynalmilal leksemalar eskirib, o‘zbek tili leksikasining eskirgan lug‘aviy birliklari qatoriga o‘tib qoldi, ayni paytda yangi ijtimoiy-siyosiy tuzum taqozosi bilan hamda iqtisoddagi va ta’limdagi islohotlar tufayli o‘zbek tili leksikasida yangi ruscha-baynalmillal o‘zlashmalar paydo bo‘ldi: marketing, minimarket, supermarket, test litsey, kollej va boshqalar.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki, o‘zbek tili leksikasi ulkan tarixga ega, lekin biz hali uni atroflicha o‘rganmaganmiz. Shuning uchun o‘z va o‘zlashma qatlamni o‘rganishda bir qator muhim masalalar bor. Biz esa bularni amalga oshirish uchun doimo izlanishda bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S., Azimov I. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: 2002.

2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “Talqin”, 2005.

3. Samandarova G.Y. O‘zbek tili. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy”, 2023. -192 b.

4. Raxmonov N, Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2009.

5. Tursunov U., O‘rinboyev B., Aliyev A. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1995.

6. www.ziyouz.

APELLYATIV LEKSIKANING KELIB CHIQISH TARIXI

Jomardova D.Q.
Abu Ali ibn Sino nomidagi
Buxoro davlat tibbiyot instituti
o'zbek tili va adabiyoti rus tili
pedagogika va psixologiya kafedrasi
o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Apellativ leksikaning qisqacha kelib chiqish tarixi va tilshunoslikdagi o'rni haqida o'rganilgan**.**

Kalit so'zlar: Apellyativ leksika, nutq, lingvistik olam, belgi, fikr, intellektual, tilshunoslik, tadqiqot.

Аннотация: В данной статье изучается краткая история апеллятивной лексики и ее место в языкознании.

Ключевые слова: Апеллятивная лексика, речь, языковой мир, знак, мысль, интеллектуальная, лингвистика, исследование.

Abstract: In this article, a brief history of the appellative lexicon and its place in linguistics are studied.

Key words: Appellative lexicon, speech, linguistic world, sign, thought, intellectual, linguistics, research.

Olamni anglashda inson so'z, ya'ni lingvistik olam orqali intellektual, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi. Olamdagi asosiy axborot so'z orqali to'laligicha anglashiladi hamda so'z bilgan odam jamiyatda ma'lum darajada muvaffaqiyatga erishadi. Til inson yashayotgan o'ziga xos reallikni yuzaga keltiradi. Tilni qo'llashdan yagona maqsad har doim fikr-mulohazalarni boshqalarga yetkazish bo'lgan. Bu maqsad esa so'z va boshqa qator til vositalari orqali amalga oshiriladi. So'zlar yig'indisi esa matn, yanayam aniqrog'i kontekstni hosil qiladi.

1940-yillardan boshlab rus tilshunos olimlari matn tushunchasi borasida keng tadqiqotlar olib borishdi. 60-yillar oxirida esa matn tilshunosligi sohasi keng sur'atda rivojlanish pallasiga kirdi. "Yaxlit nutqiy butunlik sifatidagi matn va uning tashkil etuvchi unsurlari, omillari, xususiyatlari turli nuqtai nazarlardan tadqiq etila boshlandi" [5] Qator rus, o'zbek, jumladan, G'arbiy Evropa va Amerika olimlari tomonidan bir necha darslik, maqola, monografiya va boshqa ilmiy ishlar nashr etildi. 60-yillarga kelib, rus tilshunosligida mustaqil fan sifatida matn nazariyasi va lingvistikasi muammolari V.V.Odinsov, I.R.Galperin, O.I.Maskalskaya, L.M.Loseva, Yu.M.Lotman, Z.Ya.Turayeva, N.D.Zarubina, E.V.Sidorov, O.L.Kamenskaya, A.I.Gorshkov, N.S.Valgina kabi ko'plab tilshunoslar tomonidan o'rganib kelingan.

Matn (lot. *textus*- birikish, qo‘shilish) ramziy belgilarning ma‘no jihatdan tugallangan shaklda birikishidir. [1] Yakunlangan yaxlit fikr til vositalarining sintaktik va stilistik jihatdan uyg’un bog’lanishi orqali nutqda aks etadi. Nemis tilshunosi K. Brinker bo‘yicha ma‘no jihatdan bir butun hamda kommunikativ funksiyaga xizmat qiluvchi kontekst matn hisoblanadi. [1]. Matn turini belgilashda esa asosiy mezon uning qanday vazifa bajarishiga bog‘liq. Xabarni uzatuvchining kommunikativ maqsadini yetkazishga xizmat qiluvchi kommunikativ muhit matn vazifasini belgilaydi. Til bajaradigan ekspressiv, kommunikativ, ijtimoiy, ilmiy funksiyalardan kelib chiqib, K. Brinker 5 turdagi matn vazifalarini keltiradi:

1. informativ, ya‘ni axborot yetkazuvchi;
2. apellyativ;
3. mas‘uliyat yuklovchi;
4. kontakt;
5. deklarativ.

Matn, uning tarkibi va vazifalari hamda turlarini o’zbek tilshunoslari I.Rasulov, E.Qilichev, N.M.Turniyozov, B.Yo’ldoshev, A.Mamajonov, M.Hakimov, M.Yo’ldoshev, S.Boymirzayeva ham atroflicha tadqiq etishgan. I.Rasulov fikricha, matn gapdan farqli o’laroq, murakkab sintaktik qurilma bo’lib, unda fikr ancha keng ifodalalanadi. Biz matnning o’ziga xos belgilari sifatida axborot berish, mustaqil gaplar yoki murakkab sintaktik butunlikdan tashkil topishi, tarkibiy qismlar orasida mazmun jihatdan va sintaktik aloqalarning mavjudligi, makon va zamon izchilligi, yaxlitligi va tugallanganligi, bir umumiy mavzuga egaligi kabilarni tushunamiz [2].

Tadqiqot ishimizda tahlil qiladiganimiz reklama matni esa apellativ funksiyali turga kiradi.

Apellyativ (lot. *nomen appellyativum* - umumiy ot), har qanday nutq bo‘lagining tegishli ism (onim) bo‘lmagan har qanday so‘zi. Apellyativning yig‘indisi, onimik lug‘atdan farqli o‘laroq, apellyativ lug‘at deb ataladi. Apellyatsiya lug‘atiga faqat ot, sifat, son emas, balki fe‘l, kesim, olmosh, ergash gap, bog‘lovchi, yuklama, kesim so‘zlari ham kiradi; shunday qilib, "apellyativ lug‘at" tushunchasi "umumiy otlar" tushunchasidan ancha kengroqdir.

Apellyatsiya (lot. *appellyātīvus - umumiy ot; lot. appellyāre - nutqqa murojaat qilish, chaqirish*) - ko‘pincha umumiy ot atamasi bilan sinonim bo‘lgan lingvistik atamadir. Apellyatsiya va turdosh ot tushunchalari qisman mos kelsa ham, bir xil emas. Ularning ikkalasi ham turli darajalarda o‘ziga xos ism yoki onim tushunchasiga qarshi. Apellyatsiya so‘zi rus grammatikasida uzoq vaqtdan beri turdosh ot sifatida tanilgan. Biroq apellyatsiya atamasi grammatikada, aynan onomastikada onim atamasi bilan qarama-qarshi qo‘yilgan. Ularning har ikkalasi, apellyatsiya ham, onim ham grammatik kategoriyalardan tashqarida yotadi.

Apellyatsiya va onim o‘rtasidagi qarama-qarshilik apellyativ va onimik lug‘at o‘rtasidagi tavofutni keltirib chiqaradi.

Grammatik atama sifatida *nomen appellyativum*, ya‘ni turdosh ot atoqli ot bo‘lmagan xohlagan so‘z turkumiga tegishli bo‘lgan har qanday so‘zga nisbatan ishlatiladi. Bu so‘zlar jamlanmasi apellyativ leksika deb ataladi va u onimik leksikaga qarshi qo‘yiladi [6]. Masalan, o’zbek tilidagi mavhum ot *adolat* va “*Adolat*” ro’znomasi, rus tilidagi *вперёд* (yo‘nalish-harakatni bildiruvchi ravish) va «*Вперёд*» (ro‘znoma nomi), *привольное* (sifat “yengil”, “erkin”) va *Привольное* (qishloq nomi) kabi juftliklarda keltirilgan atoqli otlarga nisbatan adolat, вперёд, привольное so‘zlari apellyativ hisoblanadi.

Ba’zan apellyativ apellyatsiya (murojaat) vazifasini ifodalovchi lisoniy vosita sifatida qabul qilinadi, uning yordamida murojaat qilinadi va muloqot ishtirokchilarining e’tibori tortiladi (murojaat vazifasi umumiy ot va o‘ziga xos ot so’z tirkumiga tegishli leksema bo‘lishi mumkin) [7].

Apellyatsiya, ya‘ni, murojaat - biror narsaga zarurat haqidagi xabar, qabul qiluvchiga murojaat, muayyan chaqiruv. [3] Longman lug‘atiga ko‘ra, [4] *appealing* - jozibali yoki qiziqarli degan ma‘noga ega. Ya‘ni, apellyatsiya tez-tez, qat‘iylik bilan biror narsani e‘lon qilish yoki nomlashdir. Shunday qilib, apellyativ matn - bu harakatga chaqiruvni, qabul qiluvchiga murojaatni o‘z ichiga olgan matnli xabar bo‘lib, uning asosiy vazifasi xabarni qabul qiluvchiga ta‘sir qilish, undash va taassurotni kuchaytirish hamda bu harakatlar natijasi o‘laroq, ko‘zlangan natijaga erishishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баженова Е.А., Котюрова М.П. Текст//Стилистический энциклопедический словарь русского языка. М., 2006. 528-b.

2. Hakimova M.K. O’zbek tilida vaqt ma’noli lug’aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari. Filol.fan.nomz...dis. -Farg’ona, 2004, 103-b.

3. Кафтанджиев Х. «Тексты печатной рекламы», Смысл М. 1995, 8-b.

4. Longman Exams Dictionary, Pearson Education Limited, L., 2006,, 58-b.

5. Muhamedova S, Saparniyozova M. Matn lingvistikasi - Toshkent, 2011, 8-b.

6. Ярцева В. Н. «Лингвистический энциклопедический словарь», 1990 г.

7. https://ru.wikipedia.org/wiki.

SAMIMIYLIK KONSEPTINING ETIMOLOGIK VA LINGVOMADANIY TAHLILI

T.K.Mardiyev
Sam ISI dotsenti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada samimiylik konseptining inson ichki dunyosi, obrazi, inson hayotining hissiy-aksiologik tomoni o‘ziga xos xarakterga ega ekanligi ifodalanadi. Lisoniy belgida ifodalangan va mustahkamlangan emotsional hodisalarning tahlili til sohiblarining kundalik ongi, ular hayotining hissiy-aksiologik xususiyatlari madaniylik axborotining muhim manbai hisoblanadi. Bu manba o‘zida madaniy-lisoniy tafakkur andozalarini mujassamlashtiradi.

Kalit so‘lar: hissiy-aksiologik, til va madaniyat, mehr-muhabbat, ong, turmushi, din, orzu-umidlar, an’analar, qadriyatlar.

Аннотация: В данной статье выражено, что понятие искренности имеет уникальный характер во внутреннем мире, образном, эмоциональном и ценностном аспекте жизни человека. Анализ эмоциональных явлений, выраженных и закрепленных в языковом знаке, является важным источником культурологической информации, обыденного сознания носителей языка, эмоционально-ценностных особенностей их жизни. Этот источник воплощает в себе культурно-лингвистические модели мышления.

Ключевые слова: эмоционально-ценностный, язык и культура, любовь, сознание, жизнь, религия, надежды, традиции, ценности.

Abstract: This article expresses that the concept of sincerity has a unique character in the inner world, figurative, emotional and value aspect of human life. Analysis of emotional phenomena expressed and enshrined in a linguistic sign is an important source of cultural information, the everyday consciousness of native speakers, and the emotional and value-based features of their lives. This source embodies cultural and linguistic models of thinking.

Key words: emotional-value, language and culture, love, consciousness, life, religion, hopes, traditions, values.

Ma’lumki, til bir vaqtning o‘zida ham madaniyat mahsuli, ham uni hosil qiluvchi, uning muhim tarkibiy qismi, madaniy kodlarni shakllantiruvchi omil sifatida tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, til madaniyatning mavjudligi va faoliyat ko‘rsatishining fundamental asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Aytib o‘tilganidek, madaniyatshunoslikda insonning tabiat, jamiyat, tarix, san’at va ijtimoiy hamda madaniy hayotiga xos boshqa sohalar bilan munosabatdagi bilimlari tadqiq qilinsa, lingvomadaniyatshunoslikda esa til va madaniyatning o‘zaro dialogik

munosabatlari o‘rganiladi. Lingvomadaniyatshunoslik alohida fan sifatida ajratilishi gumanitar bilimlar antropotsentrik paradigmasi paydo bo‘lishini va lingvistik nuqtai nazardan tadqiq qilinishini taqozo qiladi.

Insonning ichki dunyosini aks ettiruvchi shunday muhim madaniy- axloqiy qadriyatlar borki, ular bevosita lingvomadaniyatshunoslikning ob’ekti sanaladi. Inson ichki dunyosi, obrazi keng ko‘lamli va nihoyatda qiziqarlidir, ayniqsa, inson hayotining hissiy-aksiologik tomoni o‘ziga xos xarakterga ega. Lisoniy belgida ifodalangan va mustahkamlangan emotsional hodisalarning tahlili til sohiblarining kundalik ongi, ular hayotining hissiy-aksiologik xususiyatlari madaniylik axborotining muhim manbai hisoblanadi. Bu manba o‘zida madaniy-lisoniy tafakkur andoza (stereotip)larini mujassamlashtiradi.

Binobarin, “samimiylik” lingvomadaniy konsepti qimmatli tarkibiy qismga ega bo‘lib, unda ochiq fikr bildirishi, suhbatdoshlarning ko‘z bilan aloqasi, so‘zlovchining atrofdagilarga mehribon munosabatini ko‘rsatish istagi ijobiy baholanadi, bu samimiylik bilan bog‘liq. Shu bilan birga, “samimiylik” salbiy baho oladi agar hozirgi voqealarni ma’qullamaganlik ochiq ifodalangan bo‘lsa. I.N.Karasik lingvomadaniy tushunchaning tuzilishi haqida gapirar ekan, uning uch komponentliligini ta’kidlaydi. Yuqorida aytib o‘tilgan qiymat elementiga qo‘shimcha ravishda, uning tarkibida konseptual va majoziy elementlarni ajratish mumkin. Konseptning konseptual elementi ongda og‘zaki shaklda saqlanadi va shuning uchun bevosita nutqda takrorlanishi mumkin, obrazli element esa og‘zaki bo‘lmagan va faqat tavsiflanishi mumkin[2,35].

A.Vijbetskaya fikricha “haqiqat” skriptini hisobga olgan holda, haqiqat va samimiylik o‘rtasidagi munosabatlar muammolariga to‘xtalib, o‘zbek tilidagi “samimiylik” so‘zini ingliz tiliga tarjima qilish imkoniyatlariga murojaat qiladi. Uning ta’kidlashicha, biz ingliz tilida samimiylik haqida gapiramiz, mehribonlikni anglatadi, bu “mehribonlik” deb ataladi. O‘zbek madaniyatida samimiylikni yo‘qotish, insoniylikni oqibatni yo‘qotish kabidir. Badiiy adabiyotlarni ingliz tiliga tarjima qilinganda, begunohlik kabi ekvivalentni topish mumkin. Tilshunoslar “samimiy” va “samimiylik”ni qiyosiy o‘rganish maqsadga muvofiqligi haqida fikr yuritadi, chunki samimiylik inglizcha so‘z bo‘lib, unda anglo-sakson tushunchasi ifodalanadi. U universal atamalarda tuzilgan turli madaniy yozuvlarni qiyosiy o‘rganishni taklif qiladi. Madaniyat va tarix o‘rtasidagi munosabatlar masalasi muhim va uni madaniy skriptlar modeli doirasida samarali o‘rganish mumkin [1,25]. Lingvomadaniy “samimiylik” konseptning konseptual qismini ingliz tilida samimiylik, mehribonlik leksemalari bilan ifodalash mumkin, batafsil semantik tavsifi ushbu maqolaning maqsadi emas. Maqolada samimiylik leksemasining o‘zbek tilidagi semantik va etimologik jihatlariga ham biroz to‘xtalib o‘tamiz.

Jumladan, O‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidigi ma’lumotlar beriladi. *Samimiy*-Samimiyat bilan ish tutuvchi, muomala qiluvchi, sidqidillik bilan chin dildan qilingan, dildan chiqqan kabi ma’nolarni anglatadi.

- *Nigora xamxonalari bilan samimiy so‘rashdi.*

Samimiyat - Kishilarga qalban hayrixohlik, pokdillik, samimiylik, sidqidillik.

- *Ko‘zlaridan samimiyat, quvonch nuri yog‘ilayotganini ko‘rib xursand bo‘ldim.*

Shuningdek, ushbu lug‘atda beg‘araz so‘zi samimiyat so‘ziga sinonim sifatida berilgan.

Be+g‘araz. 1 Garazsiz, samimiy. Beg‘araz odam.

2 Xolisona. Beg‘araz tanqid. [4,316].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” nomli kitobda samimiyat so‘ziga izoh berish bilan birgalikda ushbu so‘zga qo‘shimcha ravishda Samimiy, *Samimiylashmoq,* Samimiylik, *Samimiyatsiz, Samimiyatsizlik* kabi tushunchalar ham misollar orqali yoritilganini ko‘rishimiz mukin.

SAMIMIY – toza, asl; haqiqiy

1.Sidqidillik bilan chin qalbdan, yurakdan qilingan, aytilgan; yurakdan, dildan chiqqan. Lekin Mashrab Masturaning gaplaridan emas, uning ovozidagi g‘ururdan, bolalarga xos samimiy quvonchdan jilmaydi. O.Yoqubov, Er bo‘shiga ish tushsa. Elmurod kampirning samimiy muomilasini ko‘rib: - Salomat bo‘ling, onajon, - dedi. P.Tursun, O‘qituvchi.

2. Samimiyat bilan ish tituvchi, sofko‘ngil; pok, toza. Samimiy odam, Sherali bu sodda, samimiy qizning bolalardek xatti-harakatini ko‘rib taajjublandi. S.Karamatov, Oltin qum. Unisining yuragi, akasining yuragi kabi, Gulnorga nisbatan toza ham samimiy. Oybek, Tanlangan asarlar.

3. Samimiylashmoq-tobora samimiy bo‘lmoq, samimiyligi orta bormoq; samimiylik kasb etmoq. Ularning munosabati yana ham samimiylashdi. – Qistirma, chandishlar bolalar rupertuarida hozir ham ancha aktiv bo‘lib, davr taqozasiga ko‘ra, tobora takomillashmoqda, mazmunan samimiylashmoqda. “O‘TA”.

4. Samimiylik-samimiy munosabatda bo‘lishlik. Obid Yo‘ldoshevich bu tabrikning qanchalik samimiyligini bilmoqchi bo‘lganday, Muhammadjonga sinovchan nazar bilan tikilib, rahmat aytdi. P.Qodirov, Uch ildiz. Samimiylik qizlarning kelajak hayotlarida eng zarur va olijanob fazilatlardan biridir. “Saodat”. Boylik bor joyda samimiylik o‘rnini soxtalik egallaydi. F.Musajonov, Himmat.

5. Samimiyat – tozalik, soflik; chinlik, to‘g‘rilik. Chin ko‘ngildan, beg‘araz, sidqidillik bilan qilingan xatti-harakat; samimiylik. Ko‘zlarida muloyimlik, samimiyat chirog‘i porlab yonib turardi. X.To‘xtaboev, Shirin qovunlar mamlakati. Qutidor mehmonlarni ixlos va samimiyat bilan kutar, ziyofat quyuq-suyuqlari bilan to‘la-to‘kis davom etar edi. A.Qodiriy, O‘tgan kunlar.

6. Samimiyatsiz - samimiylikni bilmaydigan, riyokor, munofiq; soxta, qalbaki. Samimiyatsiz odam.

7. Samimiyatsizlar-samimiy emaslik, samimiyati yo‘qlik; riyokorlik, soxtalik. Bu erdagi samimiyatsizlik va munofiqlik, bir-birini aldash Elmurod uchun oddiy bir haqiqat bo‘lib qolgan edi. P.Tursun, O‘qituchi [3,435].

Shuningdek, samimiylik so‘zi arab tilida “nasihat” deyiladi. Biz bilamizki, “nasihat” bir kishining ikkinchi kishiga nisbatan ko‘ngildan chiqarib aytgan yaxshi niyati, uni to‘g‘ri yo‘lda yurishi uchun bergan irshodi va shunga o‘xshash ma’nolarni anglatadi. Samimiy inson deganda har bir ishini chin dildan bajaradigan, aytgan gapi bilan ishi to‘g‘ri keladigan, birovga nisbatan qalbida hech qanday g‘ashlik va adovati bo‘lmagan, kek saqlamaydigan kishi tushuniladi. Ana shu holatni samimiylik deyiladi.

Payg‘armabirimiz s.a.v : *“Din nasihatdir, ya’ni samimiylikdir”*- dedilar.

Shunda sahobalar: *“Samimiylik kimga nisbatan?”* deb so‘rashdi. Rasululloh s.a.v:

“Allohga, uning kitobiga, uning rasuliga, musulmonlar boshliqlariga va musulmonlar ommasiga nisbatan” (Imom Muslim rivoyati)- deb javob berdilar.

Mazkur hadisdan ko‘rinib turibdiki, Islom dini – bu samimiylikka asoslangandir. Musulmon odam dindagi har bir e’tiqod va amalni chin dildan va xolis ado etmas ekan. Uning dini mukammal bo‘lmaydi. Ba’zan hayotning sinovlariga chiday olmagan kishilar samimiyatini yo‘qotishi mumkin ekan. Bundan tashqari, irodasizlik va shaxsiy manfaat ham bu olijanob tuyg‘uning kushandasidir. Xullas, samimiy kishilarni ko‘pchilik hurmat qiladi, hatto biror masalada yordam bera olmasa-da. Biror yordamga kuchi yetmasligini aytish ham samimiyatdir. Samimiyat - har kimning bor-boricha yashashidir.

Adabiyotlar:

1.Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание.-М.: Русские словари,1997. - 416с.

2.Карасик В.И. О категориях лингвокультурологии. //Языковая личность: проблемы коммуникативной деятельности: Сб. научн. трудов. – Волгоград.: Перемена, 2001.С.3-16

3.А.Мадвалиев “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” (V-жилди) “Ўзбекистон нашрёти”, 2020.

4.Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati /A.HOJIYEV, A.Nurmonov, S.Zaynobiddinov, K.Kokren, M.Saidxonov, A.Sobirov, D.Quronov. —T.: “Sharq”, 2001.— 336 b. (316 b).

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK FANINING TARIXIY VA NAZARIY ASOSLARI

Qodirboyev Shohzod
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
Odilova.S.O.
SamISI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya: Hozirgi kunda xalqlar o'rtasida iqtisodiy ,madaniy va ilmiy aloqala yanada mustahkamlangan. Shunday qilib, aloqalar tilning madaniyat va til bilan o'zaro bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Madaniyat va tilni tadqiq etuvchi olimlar XX asrdayoq bu sohalarning yangi fanga asos bo'la olishini anglagan edilar. Ushbu soha ular tomonidan lingvomadaniyatshunoslik deya nom oldi. Ya'ni til va madaniyatni o'zida mujassamlashtiruvchi zamonaviy tilshunoslikdagi yangi fan.

Kalit so'zlar: Lingvomadaniyatshunoslik, antroposentrik, komponent, lingvomadaniy o'lkashunoslik.

Til va madaniyat har qanday millatning millat ekanligini tasdiqlovchi asosiy vositadir. Bu ikki tushuncha ajralmas va muntazam bir-birini taqozo etadi. Til o`zining har jabhasida madaniyatni aks ettiradi,madaniyat ham shu o`rinda tilsiz mukammal na'moyon bo`la olmaydi. Hozirgi kun tilshunoslik ilmida yangi-yangi sohalarning yuzaga kelishi, matn muammosining o'rganilishi bilan bog'liq ishlar jadal rivojlanmoqda. Bundan maqsad – nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining insoniy faoliyatda qanday o'rin tutishini aniqlash bo'lsa, ikkinchi tomondan, matnning semantik, lingvomadaniy xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishdir. O'zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo'nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Chunonchi, o'zbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqot na'munalari sifatida A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", nomli maqolalarini belgilash mumkin. Mazkur ishlarda lingvomadaniyatshunoslik fanining mohiyati, predmeti va obyekti masalalari o'rganilgan. Har bir millat o'zida ma'lum bir milliy an'analarni aks ettiradi. Ma'lumki, tili ijtimoiy hodisa bo'lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida spetsifik yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha – lingvomadaniyatshunoslikning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. XX asr

oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o‘rganishni maqsad qilgan – tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi. Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligi hodisalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Ma’lumki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning hayot obrazi, milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. N.S.Trubetskiyning fikricha: “Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so‘z bo‘lishi mumkin emas, ya’ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo‘lishi shart”. Inson va madaniyatning ana shunday o‘zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o‘rganish imkonini berdi. Ya’ni, til va madaniyat. Navbatdagi yondoshuvda esa bu ta’sirning aks tomoni, ya’ni hozirgi kungacha ochiq qolib kelayotgan va munozarali masala – tilning madaniyatga ta’siri masalasini o‘rganish maqsad qilinadi.

Lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboldtga borib taqalishini ta’kidlaydilar. Ushbu adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, D.Uitni, kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o‘ynaganligi ta’kidlanadi. Ana shu g‘oyalar asosida ming yillarda chet elda yangi fan – lingvomadaniyatshunoslik vujudga keldi va XX asrning 90-yillarida maxsus soha sifatida shakllandi. Lingvomadaniyatshunoslik bugungi kunda bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Xulosa qilib ta'kidlay olamizki,lingvomadaniyatshunoslik har ikkala sohaga taaluqli madaniyat va til haqidagi fan. Bu bilimlarning shubhasiz birligini anglatib,millatning mentaliteti,madaniy xususiyatlari va ularning tilda namoyon bo'lishini ifodalaydigan bu sohaning birlamchi maqsadi tilni o'rganish,madaniyatni saqlash hamda ularni birlikda mujassamlashtirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar (references):

1.Amerikana. Англо-русскийлингвострановедческийсловарь / Подред. Н.В.Чернова. -- Смоленск, 1996;

2. Рума.Р.У. Великобритания: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1999;

3. Мальцева Д. Г. Германия: страна и язык: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1998;

4. Муравлева Н.В. Австрия: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1997:

5. Николау Н.Г. Греция: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1995;
6.Страны Соединенного Королевства: Лингвострановедческий справочник / Сост. Г.Д.Томахин. -- М., 1999;
7. Томахин Т.Д. США: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1999.

SHUURI LOYIQI TA'RIFU TAHSIN

Rahmatova Dilfuza Ahmedovna

SamDU akademik litseyi oliy toifali o'qituvchisi

dilfuzaahmedovna73@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda shoir Vohid Abdullayevning madaniy qurilish, xalqlar do'stligi, xotin-qizlar ozodligi ,mehnat, axloq, o'qish,o'rganish haqida bitilgan bir qancha she'rlari tahlili berilgan. Janglardagi botirlik va front orqasidagi mehnat qahramonliklari ulug'langan she'rlar, mumtoz sayohatnomachilik an'analarini boyitgan dostonlari, nozik tuyg'ularning xalqona ifodasi muallifning badihatan ijod eta bilish iste'dodining qalblarni yashnatgulik qadar jozibaga egaligi ko'rsatib o`tilgan.

Vohid Abdullayev ijodida qadimiy va hamisha navqiron ona shahar Samarqand mavzusi ancha keng yoritilganligi ta'kidlab o'tiladi.

Kalit so'zlar: doston,to'plam,xalq qo`shiqlari kompozitor, munaqqid, tashbeh.

"Vohid Abdullayev adabiyot olami uchun tasodifiy shaxs emas,-deydi ozarbayjonlik akademik F.Qosimzoda. – O'zbek adabiyoti tarixi sohasida uzoq yillardan beri samarali mehnat qilgan tajribali, har taraflama inkishof o'lmish chuqur ma'lumotga molik eruditsiyali bir olimdir''[5.21]. Ijodkorning bosib o'tgan hayot yo'li haqida fikr yiritish, bolalik yillari, oila va tarbiya muhiti muayyan sohaga yo'naltirgan omillarga e'tibor qaratiladi. Vohid Abdullayev faqat olimgina emas, shu bilan birga, shoir sifatida ham tanilgan. U "Samarqanddan frontga", "Samarqand sayli", "Xayrichka" kabi doston va to'plamlarning muallifi. U o'ttizinchi yillarning o'rtalaridan boshlab, o'zining kichik hajmdagi baytlari bilan tanila bordi. Bu davrda shoir madaniy qurilish, xalqlar do'stligi, xotin-qizlar ozodligi, mehnat, axloq, o'qish, o'rganish haqida bir qancha she'rlar yozdi. Ularning ichida "Xayrichka" dostoni ajralib turadi. Sobiq kashshoflar yetakchisi Vohid Abdullayevning bu asari bolalarga atalgan bo'lib, unda hukumatimizning yetim bolalarga ko'rsatayotgan ga'mxo'rligi aks ettirilgan. Asar vatanimizga samimiy muhabbat ruhi bilan sug'orilgan va bolalar tushunchasiga mos tarzda sodda, ravon yozilgan. "Bir chinakchi", "Tokio ishchilariga", "Ijodkorlar bayrami (Moskva metrosining ochilishi munosabati bilan)". "Obid satang savalandi", "Ijodkorlar qo'shig'i", "Tingla yurak", "Sening

kuching “ kabi she’rlari ham shu davrning mahsulidir[1. 14] . Shoirning 40-yillardagi ijodiga xos xarakterli xususiyat shundaki, bu davrda u zamon talablariga hozirjavob bo‘lishga intilib, davrning yetakchi mavzularini kuylovchi she’rlar bitdi. O‘z she’rlarida zamondoshlarining his-tuyg‘ulari, mehnat va jangdagi jonbozliklarini umumlashtirishga intildi.

“Vohid Abdullayev qator insoniy xislatlarga ega ediki, ularning ba’zilarini eslash kifoya, - deydi Matyoqub Qo‘shjonov. – Domla har bayramda tabriknoma yozib institut jamoasini tabriklashni kanda qilmasdi. Bu ishni ham o‘ziga xos yo‘sinda qilardi. U tabriknomaning eng go‘zal va nafisini tanlar, odatdagi tabrikdan tashqari ikki yoki to‘rt misra she’r ham qo‘shardi. She’rlar bir rangli qalamda yozilsa, tabrik so‘zlari boshqa xil rangda yozilgan bo‘lardi. So‘z va she`r hoshiyalariga arab yozuvida yana nimalarnidir qo‘shib qo‘yardi“[2.143].

Vohid Abdullayev 1942-yilda “Samarqanddan frontga” nomli she’rlar to‘plamini nashr ettirdi. Unda Vatan urushi davrining mamlakat mudofaasi bilan bog‘liq bo‘lgan motivlari kuylanadi. Janglardagi botirlik va front orqasidagi mehnat qahramonliklari ulug‘lanadi. Vatanga muhabbat, dushmanga nafrat, do‘stlarga sodiqlik, yorga vafodorlik tarannum etiladi, hijronga bardosh, g‘alabaga ishonch olg‘a suriladi.

1969-yilda yozilgan “Samarqand sayli” dostoni 1971-yilgacha uch qayta nashr etildi. Doston poetik sayohat yo‘nalishida yozilib, mumtoz sayohatnomachilik an’analarini boyitadi, unda nozik tuyg‘ularning xalqona ifodasi muallifning badihatan ijod eta bilish iste’dodining qalblarni yashnatgulik qadar jozibaga egaligini ravshan ko`rsatib turibdi:

Ho layli, layli, layli

Har kimning mayli, mayli
Jonim fido, ho layli
Bugun Samarqand sayli.

Uning bevosita va bilvosita rahnamoligi-yu homiyligida O‘zbekistonda hozirgacha bolalar adabiyotshunosligi yo‘nalishida yoqlangan o‘ttizga yaqin nomzodlik dissertatsiyasining sakkiztasi Samarqandda yoqlangan.

Olimning she’rlari xalq qo‘shiqlari uslubida yozilganligi uchun ham tez ommalashib ketdi. Ularning ayrimlari o‘sha paytlarida kompozitorlar Nabijon Hasanov, Manas Leviyev tomonidan kuyga solindi. Shoirning:

O‘t ketdi fashistlar xonadoniga,
O‘t ketdi sufrasi, darturxoniga,-

kabi misralar bilan boshlangan she’rlari chuqur mazmunni sodda va ravon uslubda ifodalovchi jangovor she’rlar sifatida og‘izdan og‘izga o‘tib yurdi.

Vohid Abdullayev ijodida qadimiy va hamisha navqiron ona shahar Samarqand mavzusi ancha keng ishlandi. Shoirning bu mavzudagi she'rlari, hech shubhasiz, Samarqand haqidagi badiiy asarlar fondini boyitadi.

Olimning Samarqand haqidagi badiiy asarlari "Go'zal Samarqand", "Samarqand qasidasi", "Samarqand deyilsa..", "Samarqand sayli" va boshqalarda Samarqandning sersalobat siymosi realistik bo'yoqlarda tasvirlanadi. Shoir Samarqand haqida kuylar ekan, yangi-yangi obrazlar, original tashbehlar, ohori to'kilmagan o'xshatishlar yaratib, shahrimizga doir hayot haqiqatini badiiy yo'sinda ifodalaydi. "Go'zal Samarqand" sarlavhali she'rini olaylik. Bu she'r xalq she'riyati uslubida yozilgan bo'lib, unda Samarqandning zavod-fabrikalari, oliy va o'rta o'quv yurtlari shahri ekanligi, ko'm-ko'k xiyobonlari va tevarak atrofdagi bog'u rog`lar tarannum etiladi. Kiyev, Boku, Toshkent kabi, yirik madaniy shahar sifatida gavdalantiradi. Ana shunga ko'ra, asarda vatanparvarlik, do'stlik go'yalari balqib turadi:

Sharqda madaniyatning qadim beshigi,
Alisher qarorgohi Jomiy eshigi.
O'chmagay bobolarning zapkashligi,
Samarqand go'zaldir, Samarqand go'zal. [1.15-16].

Vohid Abdullayev ko'p qirrali iste'dod sohibi-olim, shoir, publitsist, pedagog, murabbiy, madaniyat va jamoat arbobining muborak siymosi sifatida kishi ko'z o'ngida gavdalanadi. Olimning yuzga yaqin she'r-u qo'shiqlari davriy matbuot yuzini ko'rdi. Uning "Xayrichka","Samarqanddan frontga", bolalarga atalgan "Samarqand sayli" kabi kichik she'riy kitoblari e'lon qilindi. V. Abdullayevning talay she'rlari uning ilmiy maqolalari tarkibida ham marbuot yuzini ko'rgan. Uning bir qator she'rlari bastakoru xonandalar shavqini uyg'otdi, ular asosida dilbar qo'shiqlar yaratildi. Bu mazmundor qo'shiqlarni Jo'rabek Murodov, Bobomurod Hamdamov, Fattohxon Mamadaliyev kabi xushovoz taniqli xonandalar ijro etib kelmoqdalar.

Vohid Abdullayev ulkan adabiyotshunos, matnshunos, tarixshunos olim sifatida nafaqat respublikamizda, Moskva va Peterburg ,Tojikiston va Ozarbayjon,Turkmaniston va Qirg`iziston,Qozog'iston va boshqa qator respublikalarda hamda chet ellarda juda katta obro'- e'tiborga ega bo'lgan ulkan olim sifatida tan olingan shuhrat topgan edi. Olim o'zbek va fors-tojik tillarida ijod qilgan.

Hamma narsa qarisa ham,do'stlik sira qarimas,
Do'stlik qadrin bilganlarni do'st ko'tarsa boshiga…
Do'stlik shunday azim qudrat,shunday azim zanjirki,

Uning haftjo‘sh devorlarin hech qanday kuch buzolmas.

Vohid Abdullayev qadimiy, navqiron do‘stlik mavzusiga murojaat etgan, o‘z qarashlarini badiiy ifodalashga uringan. ”Yangilik yarashadi” maqolasida olim o`tmish zamonlarning notekis va adolatsiz ijtimoiy tuzumida juda ko‘p mashaqqatlarni boshlaridan kechirib, hamma vaqt ham yangilikka qarab intilganlardan Rudakiy, Ulug‘bek, Leonardo da Vinchi, Jomiy, Navoiy, Nasimiy, Fuzuliy, Turdi, Belinskiy, Chernishevskiy, Ushiniskiy, Tolstoy, Muqimiy, Donish kabi peshqadam aql-fahm egalaridan juda muhim an’analar meros bo‘lib qolganini ta’kidlaydi[4.96].

Kushoyishi koru boru omadimiz yor bo‘lsin,
Navro‘zi navbahori bor,odamizod bor bo‘lsin,- deb aytamiz.

Yoki:

Har yili tark etmagay kelmakni Navro‘z bayrami,
Bermangiz qo‘ldan debon fursatni Navro‘z bayrami.[3.420]
deb fursat g‘animatligi ta’kidlanadi.

Vohid Abdullayev o‘zbek adabiyoti tarixining chuqur bilimdoni, fors tili va arab yozuvini mukammal egallagan alloma edi. O‘zbek hamda fors-tojik adabiyotining beqiyos bilimdoni, yuzlab yoshlarning mehribon murabbiysi, shuuri loyiqi ta’rifu tahsin Vohid Abdullayev so‘z mulkining munaqqidi va hassos shoiridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abdullayev V.Bedor qo‘shiqlar,She‘rlar,Toshkent,G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi,1992,14,15,16-betlar

2.Abdullayev V.Tanlangan asarlar,2-jild,-T:Fan.2002,143-bet

3.Abdullayev V.Saylanma,Adabiy-tanqidiy maqolalar. Toshkent, G‘.G‘uiom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti,1982,420-bet

4.Valixo‘jayev B. Vohidov R.Ezgulik-umr mazmuni,O‘zFA “Fan” nashriyoti,1992,96-bet

5.Adabiyot ilmining allomasi,Akademik Vohid Abdullayev zamondoshlari nigohida,1997,21-bet

ADABIYOTLARDA NEGIZ MASALASI

Olimova Dilshodaxon **–**
Qo‘qon DPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 4-kurs talabasi,
Muhammadjonova Nurijahon **–**
Qo‘qon DPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Isaqov Zokirjon Soliyevich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi” kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi.
isaqovzokirjon1@gmail.com

Annotatsiya: maqolada ona tiliga oid darslik va qo‘llanmalarda negiz tushunchasi borasida yuritilgan tavsiyalar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zak, asos, negiz, yasama negiz, affiks, so‘z yasovchi, shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi.

Morfemika – so‘zning eng kichik ma‘noli qismlarini o‘rganadigan bo‘lim. Bu kichik ma’noli qismlar tilshunoslikda morfema yoki morf deb yuritiladi. Masalan, paxtakorlarimizga so‘zi paxta, -kor, -lar, -imiz, -ga ma’noli qismlaridan tashkil topgan. Bu qismlar turli xil so‘zlar tarkibida qatnashib, o‘ziga xos ma‘nolar ifodalaydi. Bu qismlar yana bo‘linadigan bo‘lsa, uning ma‘nosi yo‘qoladi – leksik va grammatik ma’no ifodalash xususiyatiga ega bo‘lmaydi.

So‘zlar morfologik tuzilishiga ko‘ra dastlab 2 asosiy ma’noli qismga – morfemaga bo‘linadi:

1. Yetakchi morfema – o‘zak (asos).
2. Ko‘makchi morfema – affiks (qo‘shimcha).

O‘zak morfema – so‘zning asl tub ma‘nosini anglatuvchi yaxlit tushuncha ifodalovchi yetakchi morfemadan iborat bo‘lgan affikssiz – tub qism. Ishchilarimiz so‘zida ish- qismi o‘zak hisoblanadi. O‘zak – so‘zning barcha affikslar olib tashlangandan so‘ng qolgan qismi. Ko‘makchi morfemalar – affikslar so‘z yasash va so‘z o‘zgartirish uchun xizmat qiluvchi birliklar[2-178].

Masalan, paxtakorlarimizga so‘zini olaylik. Bu yerda -kor affiksi ish o‘zagidan yangi lug‘aviy ma‘noli so‘z yasash uchun xizmat qilyapti. -lar affiksi esa lug‘aviy ma’noga qo‘shimcha grammatik ma‘no – ko‘plik ma‘nosini yuklayapti; keyingi ikki qo‘shimcha ham grammatik ma’noni shakllantirib, sintaktik shakl yasashga xizmat qilyapti: -imiz affiksi egalik hamda -ga kelishik shakli sanaladi.

So‘z tarkibida asos va affikslardan tashqari yana bir tarkibiy qism – negiz tushunchasi ham mavjudligi bir paytlar amaliyotda bo‘lgan. Negizga oid nazariy

ta’limotlar adabiyotlarimizda yetarlicha keltiriladi. Jumladan, 1966-yilda nashr qilingan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” akademik nashrda negizga quyidagicha ta‘rif beriladi: So‘zning o‘zak shakliga so‘z yasovchi affiks qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan yangi forma. Yozuvchi, o‘quvchi so‘zlari yoz va o‘qi asoslaridan yasalgan negiz formalaridir. So‘zlarning negizi asos kabi 2 xil vazifa bajaradi:

1. So‘z o‘zgarishi uchun asos (o‘qishingiz, o‘qishlarni) va so‘z yasalishi uchun baza (o‘quvchilar, yozuvchilar) vazifasida qo‘llanadi.

2. Nutqda mustaqil so‘z vazifasida keladi. Bu vazifalar negizning grammatik jihatdan muhim vazifasi hisoblanadi[2-178].

Ushbu ta‘rifda negizni asosdan farq qiluvchi qism sifatida ta‘riflanadi. Negizni asosga teng kelishi rad etiladi. Ammo bu yerda negizning so‘z o‘zgarishi uchun asos vazifasini bajarishi fikrimizni biroz chalkashtiradi. Ya’ni bu vazifa asosga nisbatan ham negiz sifatida qarash kerak, degan xulosani kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Yuqoridagi adabiyotdagi ta‘rifga o‘xshash fikrni Nodira Abduazizovaning maqolasida keltiriladi: Negiz – so‘zning yasalish asosi bilan birga olingan qismi bo‘lib, unda so‘z yasovchi (ot, sifat, fe‘l, ravish yasovchi)lardan biri yoki bir nechtasi ishtirok etadi. Negiz asosdan tub emasligi bilan ajralib turadi, ya‘ni asosda denotativ ma‘no anglatadigan qismdan tashqari boshqa qism uchramaydi. Negiz tarkibida esa turli yasovchilar bo‘ladi. Masalan, ishchilar so‘zida ish – asos, ishchi – negiz[1-45].

Yuqoridagi qayd etganimizdek, bu ta‘rifda ham asosga nisbatan negiz deb qarashlik inkor etiladi.

Bu fikrlardan farqli qarash, ya‘ni asosga nisbatan ham negiz deb qarashlik haqidagi fikrlar 1978-yilda yaratilgan “O‘zbek tili” darsligida tilshunos S.Usmonov tomonidan keltiriladi. Tilshunos avvalo so‘z formasini 2 morfologik elementga ajratadi: 1. Morfema. 2. Funksional qism[5-85].

Morfema sifatida yuqorida ta‘riflaganimiz – asos va affikslarni kiritadi.

Funksional qismni esa so‘zni morfologik jihatdan shakllantiradigan morfema yoki morfemalar qo‘shilmasi sifatida ta‘riflaydi. Funksional qismning tarkibiy qismlari sifatida esa negiz va ma‘lum vazifa bajaruvchi affikslarni keltiradi. Masalan, bolalarimiz so‘zida bola – so‘zning negizi, -lar – ko‘plik ko‘rsatkichi, -imiz – egalik ko‘rsatkichi.

Bu yerda negiz so‘zning leksik ma‘nosini ifodalovchi, har bir morfologik qo‘shilishi uchun asos bo‘lgan qism sifatida keltiriladi. Bu yerda negiz dastlab tub va yasama turlarga bo‘linadi. Tub negiz sifatida so‘zning o‘zagi keltiriladi. Masalan, ish, suv. Yasama negiz – so‘z o‘zagiga yasovchi affikslar qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan negiz. Masalan, ishchi, sinfdosh, aqlli. Tilshunos negizni bajaradigan vazifasiga ko‘ra ham turlarga ajratadi. Unga ko‘ra: so‘z yasovchi affiks oladigan negiz, leksik negiz deyiladi. Masalan, ish(chi), ish(la) ish(chan), maktab(dosh).

Forma yasovchi affiks oladigan negiz morfologik negiz deyiladi. Masalan, ish(lar), katta(roq), daftar(cha), besh(inchi).

So‘z o‘zgartiruvchi affiks oladigan negiz sintaktik negiz deyiladi. Masalan, ish(ni), ish(im), kel(sin) kabilar.

Bir turdagi affiks birdan ortiq kelsa, negizlar o‘z ichida birinchi leksik negiz, ikkinchi leksik negiz kabi; birinchi morfologik negiz, ikkinchi morfologik negiz kabi; birinchi sintaktik negiz, ikkinchi sintaktik negiz kabi belgilanadi[5-86].

Shu o‘rinda qayd etishimiz kerakki, hozirda adabiyotlarimizda affikslar 3 turga emas, balki vazifasi va so‘zga qo‘shilib anglatadigan ma‘nosiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi: 1. So‘z yasovchi affikslar. 2. Shakl yasovchi affikslar.

So‘z yasovchi affikslar asosga qo‘shilib, yangi ma‘noli so‘z hosil qiladi: o‘t – o‘tloq, arra – arrala.

Shakl yasovchi affiklar asosga qo‘shilib, ma‘noni biroz o‘zgartiradi yoki so‘zlarni o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi. Bu affikslar bajaradigan vazifasi va ma‘nolariga ko‘ra 2 guruhga bo‘linadi:

1) lug‘aviy shakl yasovchilar;

2) sintaktik shakl yasovchilar.

Yuqorida shakl yasovchilarning turi hisoblangan lug‘aviy hamda sintaktik shakl yasovchilarni affiksning alohida bir turi sifatida qayd etiladi.

Mana, biz yuqorida negizga berilgan ta‘riflarning bir nechtasi bilan tanishib chiqdik. Ularda 2 xillik, ya‘ni birida asosga nisbatan ham negiz sifatida qaralganligini, birida esa qaralmaganligini ko‘rdik. Endi esa ikkala qarashni ham o‘zida jamlagan fikrni quyida keltiramiz.

Negiz so‘zning qo‘shimcha qo‘shilguncha qismi hisoblanadi. Masalan, -oq qo‘shimchasi uchun o‘roq so‘zida o‘r o‘zagi negizga teng bo‘lib kelgan, o‘roqchi so‘zida esa o‘roq qismi -chi yasovchi qo‘shilishi uchun negiz vazifasini o‘taydi. O‘roqchilar so‘zida esa -lar qo‘shimchasi uchun o‘roqchi qismi negiz sanaladi. Ammo o‘roqchilardan so‘zida esa negiz o‘roqchilar emas, balki o‘roqchi qismining o‘zi bo‘ladi. Chunki negiz tarkibiga so‘zning shakl hosil qiluvchi va so‘z o‘zgartiruvchi qismlari kirmaydi[4-105].

Ushbu fikrdan negizga nisbatan ham asos, ham yasovchi qo‘shimchani qabul qilgan qism sifatida qarash haqidagi xulosa chiqadi. Shuningdek, bu yerda shakl yasovchilardan holi qismlarnigina negiz deb hisoblash haqidagi xulosa chiqariladi.

Professor Baxtiyor Mengliyev ham o‘z fikrlarida negizga nisbatan yuqoridagi fikrga yaqin ta‘rifni keltiradi. U negizni asos deb ataydi: So‘zning shakl yasovchidan holi qismi – asos deyiladi. Masalan, paxtakorlarga, ishlarimizni so‘zlarining grammatik shaklini olib tashlasak, paxtakor, ish qismi qoladi. Bu qism – asos. Asos 2 xil bo‘ladi: 1) asos holidagi asos: ish, gul, maktab; 2) negiz holidagi asos: ishxona, gulchi[3-122]. Ushbu fikr tilshunos S.Usmonovning qarashlariga hamohang.

Biz yuqorida negizga nisbatan bildirilgan fikr va qarashlar bilan tanishib chiqdik. Koʻrinadiki, ayrim qarashlarda negizni soʻzning asos shakliga soʻz yasovchi affiks qoʻshilishi bilan hosil boʻlgan yangi forma sifatida koʻrganliklarini, shuning uchun tub emas, deb hisoblaganliklarini, ayrimlarida esa soʻzning leksik maʻno ifodalovchi qismi sifatida taʼriflagani holda soʻz yasovchi qoʻshimchalarni qabul qilishi mumkinligi va bu holda tub boʻlishi ham boʻlmasligi eʻtirof etiladi. Bu taʻriflarning maqbuli sifatida esa quyidagilarni keltiramiz.

Tilshunos S.Usmonovning negizga bergan taʻrifi uning mohiyatini toʻliqroq ochib berishga yordam beradi. Yaʻni u bu yerda negizni soʻzning leksik maʻno ifodalovchi funksional qismi sifatida taʻriflagani holda, morfem qism sifatida oʻzakni ham rad etmaydi. Ularni faqat soʻz tarkibida bajaradigan morfologik vazifasiga koʻra farqlaydi. Qolgan ishlarda esa soʻzni morfologik elementlarga boʻlmaganligi sababli soʻz tarkibidan asos va negizni ajratishda qiyinchiliklar tugʻiladi. Tilshunosning negizga qanday qoʻshimcha qoʻshilishiga koʻra ajratgan turi ham maqsadga muvofiq, lekin hozirda shakl yasovchi affiksning tarkibiga kirgan turlari, yaʻni lugʻaviy shakl yasovchi hamda sintaktik shakl yasovchilarni oʻsha paytdagi eski qarashlar boʻyicha affiksning alohida bir turi sifatida kiritish toʻgʻri emas. Aksincha, shakl yasovchi affikslarni bir butunligicha shakliy negiz deb, uning tarkibiy qismlari, lugʻaviy shakl yasovchi olgan qismni lugʻaviy negiz, sintaktik shakl yasovchi olgan qismni esa yuqoridagidek sintaktik negiz, deb atasak maqsadli boʻlardi.

Savollar tugʻiladi: Nega biz bu yerda shakl yasovchilar qoʻshilgan qismni ham negiz sifatida oldik? Hech qanday qoʻshimcha olmagan qism qanday vazifa bajaradi?

Boshqa qarashlarda ham shakl yasovchi qoʻshilgan qism negiz sifatida olinmagan. Bu yerda shakl yasovchi qoʻshilgan qismni ham negiz sifatida olinganligining sababi, u qoʻshilgan qism boshqa bir shakl yasovchi uchun negiz boʻlishi mumkin. Masalan, bolalarni soʻzida bolalar qismi -ni sintaktik shakl yasovchisi uchun negiz vazifasini bajaryapti.

Yuqoridagi taʻrifda soʻzni tarkibiy qismlarga ajratilganda morfema qism va funksional qismlarga ajratilgandi. Morfema qismiga soʻzning eng kichik maʻnoli qismlari kiritilgan. Hech qanday qoʻshimcha olmagan qismni morfema qismining tarkibidagi oʻzak(asos) deb hisoblasak, toʻgʻri boʻladi, bizningcha, chunki unga biror affiks qoʻshilmaguncha funksional vazifa bajara olmaydi.

Negizga bildirilgan fikrlarga xulosa qiladigan boʻlsak, negiz soʻz tarkibida funksional vazifa bajaruvchi, soʻzning lugʻaviy maʻnosini anglatuvchi qismi, degan fikr maqbul sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduazizova N. Buxoro tumani toponimlarining morfem xususiyatlari// Til va adabiyot ta‘limi, 2019. №10.

2. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966. – 362 b.

3. Mengliyev B., Xoliyorov O‘. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. – Toshkent, 2018.

4.Mirtojiyev M. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992 – 168b.

5. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – 255 b.

THE CONCEPT CONUNDRUM: EXAMINING ITS DEFINITION AND SCOPE ACROSS FIELDS

Sitora Xasanova,
Samarkand Institute of Economics and Service,
Department of “Teaching Languages”,
an assistant teacher
hasanovasitora1997@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola turli fanlarda "kontseptsiya" tushunchasini o'rganadi va uning kognitiv tilshunoslikdagi ahamiyatini yoritadi. Unda atamaning fanlararo aloqadorligi va uning to‘liq ma’nosini aniqlashdagi qiyinchiliklar muhokama qilinadi. Kontseptsiyaning tarixiy kelib chiqishi va lingvistik yondashuvlari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqotchilar kontseptsiyani bilim va madaniy g'oyalarni o'z ichiga olgan ong birligi sifatida ko'rishadi.

Annotation: This article explores the concept of "concept" in various disciplines and highlights its significance in cognitive linguistics. It discusses the interdisciplinary nature of the term and the challenges in defining its complete meaning. The historical origins and linguistic approaches to the concept are also examined. Researchers view the concept as a unit of consciousness encompassing knowledge and cultural ideas.

Аннотация: В данной статье исследуется понятие «концепт» в различных дисциплинах и подчеркивается его значение в когнитивной лингвистике. В нем обсуждается междисциплинарный характер этого термина и проблемы определения его полного значения. Также рассматриваются историческое происхождение и лингвистические подходы к данному понятию. Исследователи рассматривают это понятие как единицу сознания, охватывающую знания и культурные идеи.

Kalit so'zlar: trivojlanish, tarkibiy, madaniyat, tarixiy, dunyoqarash, ta'lim, milliy dastur, muloqot, o'zlashtirish, kognitologiya, semasiologiya, psixolingvistika, sotsiologiya.

Key words: development, constituent, culture, historical, outlook, education, national program, communication, acquisition, cognitology, semasiology, psycholinguistics, sociology.

Ключевые слова: развитие, составляющая, культура, историческая, мировоззрение, образование, национальная программа, коммуникация, комплектование, когнитология, семасиология, психолингвистика, социология.

The development of human society is the development of all its constituent cultures, and consequently of all languages. Cultures undergo a certain historical development both independently and (to a much greater extent) in interaction with other cultures. Contacts occur in all spheres - politics, economics, art, everyday life - and lead to significant changes in lifestyles, world outlooks and, of course, language. Cultures borrow phenomena and concepts from each other; languages borrow their denominations. In this way, cultures and languages of different peoples are enriched. After the independence of the Republic of Uzbekistan, great changes are taking place in all spheres of our country. In our country, great attention is paid to the field of education and the teaching of foreign languages. As proof of this, we can point to the laws on the national program "Training of personnel", the law on "Education", and the laws on "Actions to further enhance the method for learning foreign languages. It has to be improved how foreign language learning is organized across the educational system, as well as how instructors' credentials are raised and current instructional and methodological resources are provided.

In order to create conditions and opportunities for the development of international cooperation and communication, starting from the 2013/2014 academic year, foreign languages, mainly English, will be taught in all regions of the republic in the form of game-style lessons and oral speech lessons from the first grades of general education schools, and from the second grade , begins step by step with the acquisition of the alphabet, reading and grammar; some special subjects, in particular technical and international 65 4 specialties, are taught in foreign languages in higher education institutions; In the "Strategy of Actions" in the five priority directions of the development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021, adopted by the Decree of the President, important tasks on the fundamental improvement of the quality of education have been defined. the process of implementing these tasks, it is necessary to update the state educational standards, curriculum and plans in all subjects, to further improve the quality and content of teaching. In this regard, on April 6, 2017, the Cabinet of Ministers approved "State educational standards of

general secondary and secondary special, vocational education". "Improved state education standards cannot be introduced into the national education system by a single decision or order". Therefore, professional competence is important along with personal maturity in order to harmonize all the innovations in the society.

It is known that the activity of thinking takes place in the conditions of activation of cognitive structures and their alternation with linguistic structures [12, 79]. Researchers consider the concept as the main category of cognitive linguistics and note that its definition and description is the main task and goal of cognitologists [8, 15]. Currently, the problem of "concept" attracts everyone's attention. The reason for the widespread use of this term in fields such as cognitology, semasiology, linguoculturalism, psycholinguistics, and pragmalinguistics is the convergence of linguistics with the sciences of psychology, philosophy, sociology, and the activation of interdisciplinary relations.

In fact, each of the multidisciplinary research directions that arise as a result of interdisciplinary cooperation is obliged to refer to a certain set of common concepts and terms in the process of their independent appearance. Some of these terms are used in the same way in all fields, but it is important to know the degree of congruence of their content in these fields. After all, no matter how much we try to emphasize the uniqueness of the term, it is impossible not to admit that the meaning that adapts around its general, in other words, referential meaning is not devoid of connotative signs. This can be observed in the example of terms used within different disciplines and areas.

"Concept" is one of the same terms used in studies of such sciences as philosophy, psychology, linguistics, cultural studies, sociology. So what does the concept mean? What is its content, what does it cover? The complete answer to these questions has not yet been found, and it is doubtful whether it will be found. There are, of course, reasons for suspicion. First of all, it should not be forgotten that the concept of "concept" is a very abstract phenomenon, and the "mental structure" at its core does not have a concrete material appearance, but is a structure of mental imagination. Moreover, when the term "concept" is 9 juxtaposed with other mental phenomena such as "concept", "meaning", "content", the problem of determining their mutual relationship and distinguishing their different signs also arises.

It is known that the term "concept" is derived from the Latin word conceptus, which is the adjective form of the verb concipere ("to collect, to hang, to think, to start"). Preserved in all Romance languages (fr.concept; it.concetto-, isp.concepto; port.conceito), this word was assimilated into English from French in the form of concept (conceive - to understand, to imagine). This word, which received the status of a term, later entered the dictionary of scientific communication in all languages (including Russian and Uzbek languages). In fact, the term conceptus is associated

with the emergence of conceptualism in philosophy. The term “concept” is an old and at the same time new concept in linguistics, and it was more closely related to the word “Концепт и слова” written in 1928 by S.A. Askoldov.

In linguistics, the term “concept” started to be used around the middle of the 20th century. Currently, there are two ways that linguistics approaches the term “concept”: linguistics and cognitive linguistics. For example, in the research conducted by A.P.Babushkin, N.N.Boldyryov, E.S.Kubryakova, I.A.Sternin and others on cognitive linguistics, a “concept” is a unit of consciousness that includes received knowledge, acquired experience, human the results of his life activities are considered as a set of ideas and knowledge related to a specific culture.

In conclusion, the concept of "concept" is a central focus in cognitive linguistics, attracting attention across multiple disciplines due to the convergence of linguistics with psychology, philosophy, sociology, and other sciences. While its complete definition remains elusive, the term holds an abstract and imagistic nature. The term "concept" has a historical legacy rooted in the Latin word conceptus and has been extensively studied in linguistics, particularly in cognitive linguistics. It is viewed as a unit of consciousness encompassing acquired knowledge and experiences, representing a set of ideas and cultural knowledge.

Recommendation. In order to promote the development of human society, it is crucial to recognize the interconnectedness between cultures and languages. Cultures evolve both independently and through interactions with other cultures, leading to changes in language, lifestyles, and worldviews. To facilitate this process, it is recommended to prioritize the teaching of foreign languages, enhance educational standards, and improve instructors' credentials.

The Republic of Uzbekistan serves as an example, with its focus on education and foreign language learning through national programs and legislation. Efforts should be made to improve the organization of foreign language learning across all educational levels, update educational standards, curricula, and plans, and ensure the integration of innovations into society through professional competence and personal maturity. Furthermore, interdisciplinary research should continue to explore the abstract and imagistic nature of the concept in cognitive linguistics, fostering collaboration between linguistics, psychology, philosophy, sociology, and other related fields.

Reference:

1. Никитина С.Е. Устная народная культура и языковое сознание. – М.: Наука, 1993.- 189 с.

2. Новикова У. В., Зимина Н. Ю. К вопросу об особенностях языковой репрезентации орнаментального поля художественного текста //

Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2016. № 2 (56): в 2-х ч. Ч. 2. -127-129 с.

3. Тарасова И. А. Модель индивидуальной поэтической концептосферы: базовые единицы и когнитивные структуры \\Русский язык: исторические судьбы и современность: II Международный конгресс исследователей русского языка труды и материалы. М.: Изд-во Моск. ун-та, 2004, 146-147 с.

4. Телия В. Н. Роль человеческого фактора в языке: язык и картина мира / Сост. – М.: Рус. Язык, 1988. –267 с.

5. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. Москва, 1996, - 24 с.

6. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация: Учеб. пособие для студентов, аспирантов и соискателей по спец. Лингвистика и межкультурная коммуникация≫. – М., 2000. – 262 с.

IZOHLI LUG‘ATLARDA TAQLIDNING BERILISHI BILAN BOG‘LIQ FARQLI YONDASHUVLAR QIYOSI (O‘ZBEK TILINING IKKI VA BESH JILDLI IZOHLI LUG‘ATLARI ASOSIDA)

Xaydarova Xurshida Fayzulla qizi
QarDU tadqiqotchisi, Qarshi shahridagi Prezident maktabi o‘qituvchisi
khurshida_khaydarova90@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘atlari”da (2 va 5 jildli) mavjud ba’zi taqlidlarning berilishi bilan bog‘liq farqli yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, kelgusida yaratiladigan izohli lug‘atlarda taqlid so‘zlarning kiritilishi bilan bog‘liq tavsiyalar beriladi.

***Kalit so‘zlar*:** Taqlid so‘zlar, izoh, illyustrativ misol, farqlilik, almashish, o‘zgaruvchanlik.

Abstract: In this article the different approaches related to giving some imitations in the “Annotated dictionaries of the Uzbek language” (volumes 2 and 5) are compared. Also, recommendations are made regarding the inclusion of imitation words in explanatory dictionaries to be created in the future.

Key words: Imitation words, explanation, illustrative example, difference, exchange, variation.

Izohli lug‘atlardagi so‘zlar va uning tarkibiy qismlari lug‘at maqolasini tashkil etadi. Bosh so‘zni izohlash uchun kiritilgan tavsiflar lug‘at maqolasida bosh so‘zning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. 2 va 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘atlari”ni qiyosiy o‘rganganimizda taqlidlarning ma’nosini aniqlashtirish

vazifasini bajaruvchi izohlar tarkibida o‘zgarishlar sodir bo‘lganligini, shuningdek, illyustrativ misollari bilan nomuvofiq kelgan holatlar, izohlarning so‘z ma’nosidan farqli mazmun ifodalashi, tor doirada kiritilgan izohlar mavjudligini kuzatdik. Maqolamizning ushbu qismida o‘zbek tilining izohli lug‘atlaridagi taqlidlar izohlarni qiyosiy tahlil qilamiz.

Ko‘p ming yillik tarixga ega bo‘lgan o‘zbek tili asrlar davomida doimiy rivojlanishda, taraqqiyotda. Uning rivojlanishida asosiy manba vazifasini xalq so‘zlashuv tili o‘taydi. Xalq nutqida bir narsaning, belgining, holatning, harakatning nomi turlicha bo‘lishi mumkin. Bu tabiiy hol. Zero, tilshunos olim A.Madvaliev ta’kidlaganidek: “O‘zbek tilining lahja va shevalari nafaqat fonetik va morfologik jihatdan, balki leksik jihatdan ham farqlanadi. Shevalararo farqli birliklar va adabiy til leksikasidagi farqli birliklar til taraqqiyoti uchun birlamchi ahamiyatga ega. Leksik farqlar asosida so‘zlashuv nutqining, xalq shevalarining lug‘atini yaratish qiyin va murakkab, katta amaliy ahamiyatli vazifalardan biri sanaladi[14]”.

2 va 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘atlari”dagi taqlid so‘zlarni o‘zaro qiyoslash asosida o‘rganganimizda ikkala lug‘atda mavjud turkumlar bilan bog‘liq quyidagi farqli belgilarni kuzatdik.

2 jildli izohli lug‘at	**5 jildli izohli lug‘at**
Ravish so‘z turkumi sifatida kiritilgan	Taqlid so‘z turkumi sifatida kiritilgan
VANG‘ *rvsh., s.t. salb.* Avjida, baravj. – *Turmush vang‘ degin hali, - dedi Elmurod istehzoomuz.* Shuhrat, Shinelli yillar[15].	**VANG‘ 1** *s.t..* Avjida, baravj. –*Turmush vang‘ degin hali, - dedi Elmurod istehzoomuz.* Shuhrat, Shinelli yillar. **VANG‘ II** *taql.s.* Shovqinli ovozga taqlidni bildiradi. *Miltiqning vang‘ etgan ovozi eshitildi*[16].
2 jildli izohli lug‘at	**5 jildli izohli lug‘at**
Ot so‘z turkumi sifatida kiritilgan	Taqlid so‘z turkumi sifatida kiritilgan
PING-PONG *[ingl.]* Selluloid koptokchani raketka bilan urib, stol o‘rtasiga tortilgan setkadan oshirib, stolga tushirib o‘ynaladigan o‘yin; *stol tennis*[17].	**PING-PONG** *[ingl. Ping-pong – stol tennisining eskirgan nomi; tovushga taqlid so‘z]* Selluloid koptokchani raketka bilan urib, stol o‘rtasiga tortilgan setkadan oshirib, stolga tushirib o‘ynaladigan o‘yin;

[14] Саидов. Ў. Иш юритишга оид терминлар тизими, семантикаси ва лексикографик талқини: Филол.фан. бўйича фалс. Докт. …дисс. Автореф. – Қарши, 2023//А.Мадвалиэв. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2017. – 250 б.

[15] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилдли. 1-жилд. – Москва: “Русский язык”, 1981. Б. 172.

[16] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. Б. 440.

[17] Келтирилган манба. 2 жилдли. 1-жилд. – Москва: “Русский язык”, 1981. Б. 586.

stol tennis. *Men shaxmat va ping-pong chempionlarini yutib keldim.* “Fan va turmush”[18].

2 jildli izohli lug‘at

Undov so‘z turkumi sifatida

XI-XI *und.s.* Sekin, bosiq tovush bilan kulishni ifodalaydi. *–Xi-xi-xi,– bachkanacha kuldi chol.* Oybek, Qutlug‘ qon[19].

5 jildli izohli lug‘at

Taqlid so‘z turkumi sifatida

XI-XI *taql.s.* Sekin, bosiq tovush bilan kulishni ifodalaydi. *– Xi-xi-xi. Bu menga sir emasdi, do‘stim, - dedi Urfon, og‘zining tanobi qochib.* K.Yashin, Hamza[20].

2 jildli izohli lug‘at

Ot so‘z turkumi sifatida

SHARR *[a]* Yomonlik, yovuzlik; kasofat. *[Kulahmad:] Hazrati oliy hovlimda mehmon bo‘lganlarida, fuqaroni bu yomonlar sharridan xalos qilaman, dedilar.* Mirmuhsin, Cho‘ri[21].

5 jildli izohli lug‘at

Taqlid so‘z sifatida berilgan

SHARR I *[a.]* Yomonlik, yovuzlik; kasofat. *[Kulahmad:] Hazrati oliy hovlimda mehmon bo‘lganlarida, fuqaroni bu yomonlar sharridan xalos qilaman, dedilar.* Mirmuhsin, Cho‘ri.

SHARR II *ayn.* **shar II** *Sevgi deb atalgan bu hislar bahor yomg‘iridek sharr etib o‘tib ketmasmikan?* Mirmuhsin, Umid[22].

2 jildli izohli lug‘at

Ravish so‘z turkumi sifatida

YAL-YAL *rvsh.* Nur sochib; tovlanib; jilolanib. *Atlas ko‘ylaklar mash’aldek yonardi yal-yal.* Shukrullo, Ikki hikoya[23].

5 jildli izohli lug‘at

Ravish so‘z turkumi belgisisiz

YAL-YAL Nur sochib; tovlanib; jilolanib. *Atlas ko‘ylaklar mash’aldek yonardi yal-yal.* Shukrullo, Ikki hikoya[24].

2 jildli izohli lug‘at

Ot so‘z turkumi sifatida

QIY Qo‘y, echki va tuya qumalog‘idan iborat go‘ng qatlami[25].

5 jildli izohli lug‘at

Taqlid so‘z turkumi sifatida ham

QIY I Qo‘y, echki va tuya qumalog‘idan iborat go‘ng qatlami.

QIY II *taql.s.* Ba’zi qushlar chiqaradigan tovushni bildiradi. *Qashqa tomondan inidan bezovta qilingan saqoqushning “qiy-qiy”i eshitildi.* S.Nurov, Narvon[26].

[18] Келтирилган манба. 5 жилдли. 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. Б. 260.
[19] Келтирилган манба. 2 жилдли. 2-жилд. – Москва: “Русский язык”, 1981. Б. 327.
[20] Келтирилган манба. 5 жилдли. 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. Б. 403.
[21] Келтирилган манба. 2 жилдли. 2-жилд. – Москва: “Русский язык”, 1981. Б. 399.
[22] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. Б. 550.
[23] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилдли. 2-жилд. – Москва: “Русский язык”, 1981. Б. 481.
[24] Келтирилган манба. 5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. Б. 110.
[25] Келтирилган манба. 2 жилдли. 2-жилд. – Москва: “Русский язык”, 1981. Б. 573.
[26] Келтирилган манба. 5 жилдли. 5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. Б. 282.

So‘zlar davr bilan hamnafas rivojlanadi. Vaqt o‘tishi bilan so‘z ma’nosi eskirishi, boshqasiga almashishi, yoki yangi ma’no ifodalashi mumkin. O‘TIL da (2 va 5 jildli) mavjud ba’zi taqlid so‘zlar ma’nosida ham vaqt o‘tishi bilan o‘zgarish sodir bo‘lgan. Ayrim taqlidlarning nomlanishi shakl va mazmun tomondan o‘zgarganligini izoh va illyustrativ misollar orqali ko‘rish mumkin.

O‘zbek tilida mavjud barcha so‘zlar, xususan taqlid so‘zlar ham alohida sistema sifatida tasniflanib o‘rganilishi lozim. Taqlidlarni semantik imkoniyatlarini aniqlash, izohli lug‘atda tavsiflanishiga ko‘ra mezonlarni belgilash, taqlidlarni, shuningdek, ba’zi so‘zlar tarkibidagi taqlid ma’nolarini maxsus pometa orqali ifoda etish zarur. Lug‘atlarda so‘zlarning semantik tahlili to‘liq yoritilishi kerak. Lug‘atga tanlangan so‘zlar leksik ma’noni izohlashi bilan bir qatorda uning qaysi o‘rinda qanday ko‘rinishda qo‘llanilishini ham ko‘rsatishi lug‘at imkoniyatlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Саидов. Ў. Иш юритишга оид терминлар тизими, семантикаси ва лексикографик талқини: Филол.фан. бўйича фалс. Докт. …дисс. Автореф. – Қарши, 2023.

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2006-2008.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Москва: “Русский язык”. 1981.

DEHQONOBOD TUMANI DIALEKTINING FONETIK, MORFOLOGIK VA LEKSIK XUSUSIYATLARI

Yusupova Zebiniso,
ChDPU o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi.
Ilmiy rahbar: dotsent ***A. Shofqorov***

Annotatsiya: Mazkur maqolada shevaga xos so‘zlarning fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari yuzasidan so‘z boradi. Xususan, Dehqonobod tumanidagi dialektlar va adabiy til o‘rtasidagi tafovutlarga to‘xtalib o‘tiladi.

***Tayanch so‘zlar*:** dialektizm, lahja, sheva, qipchoq, qarluq, o‘g‘uz, singarmonizm, fonetik, leksik, morfologik xususiyatlar.

Har bir xalq o‘z milliy tilida so‘z yuritadi. Xalq rivoj topsa va aksincha, zavolga uchrasa, uning tili ham u bilan turli past-balandliklardan o‘tadi. Xalq shevasi uning butun borlig‘ini, moddiy va ma’naviy olamini, his-tuyg‘ularini ifoda qiladi. O‘zbek tili so‘zlarga shunchalar boyki, bir hududda eshitgan so‘zlaringizning ikkinchi bir

hududda butunlay boshqacha tarzda aytilayotganiga guvoh bo‘lasiz. Milliy tilning asosini esa shevalar tashkil etadi.

O‘zbek tili uchta yirik lahjaga ajraladi. Bular – qipchoq, o‘g‘uz, qarluq lahjalaridir. Lahja termini o‘zbek, turk tillarida iste’molda bor. Lahjalar ham o‘z navbatida katta-kichik shevalarga tarmoqlangan. Har bir lahjaning fonetik, leksik, morfologik jihatdan o‘ziga xosligi qadimgi urug‘ va qabilalarning turli territoriyada alohida-alohida mustaqil yashashlari muhim ahamiyat kasb etgan [1; 7]. Qipchoq qabilalari qadimda Oltoy o‘lkasida kun kechirgan ekanlar. Bu lahja vakillari O‘zbekiston Respublikasining Toshkent viloyati, Sirdaryo, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida yashaydilar.

Biz qipchoq lahjasiga mansub Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanidagi shevaga xos so‘zlar haqida fikr yuritamiz.

Dehqonobod hududida yashovchi aholi asosan qishloq joylarda yashashadi. Har bir qishloqning nutqida va o‘zaro so‘zlashishida o‘ziga xoslik mavjud. Ya’ni, ular bir-biridan biroz farq qiladi. Masalan, Tog‘aytemir, Beliboyli kabi qishloqlar aholi joylashgan yirik hududlar bo‘lib, ularning har biri shevasi til xususiyatiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Ushbu qishloqlarda singarmonizm hodisasi to‘liq saqlangan. Ular nutqida o‘zbek dialektida mavjud bo‘lgan kontrast (juft) unlilar to‘liq qo‘llanadi.

Tumanning markazi bo‘lgan Qorashina dialektida tojik tilining ta’siri kuzatiladi. Chunki tuman markazida o‘zbeklar bilan birgalikda tojik millati vakillari ham istiqomat qiladi. Tuman markaziga yaqin hududdagi qishloqlar bo‘lgan – Beshbuloq, Bibiqorasoch kabi qishloqlarda esa tojik tilining ta’siri mavjud bo‘lmay, tumanning boshqa hududlariga nisbatan adabiy tilga yaqinlashgan holatni kuzatishimiz mumkin. Ushbu hududlarda ham shevaga oid so‘zlardan keng foydalaniladi. Xususan, fonetik jihatlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, so‘zlarda “y” tovushi “j” tovushiga, “g” tovushi “v” tovushiga, “g‘” tovushi “y” tarzida almashinishi kuzatiladi. “O‘” unlisi bilan boshlanadigan ba’zi so‘zlarga “v” tovushi qo‘shilib, bilinar-bilinmas talaffuz qilinuvchi so‘zlar ham mavjud. Masalan: *yo‘l – jo‘l, yur – jur, tog‘ – tov, sog‘ – sov, belbog‘ – belbov, o‘t – (v) o‘t, tegdi – tiydi, sigir – siyir* so‘lari. Tovush o‘zgarishida regressive assimilyatsiyani ham kuzatishimiz mumkin. Masalan: mahsi – massi. Bu kabi xususiyatlar singarmonizm hodisasining to‘liq mavjudligini ko‘rsatadi. O‘zbek tili lahjalaridan singormanizm eng ko‘p saqlangani ham qipchoq lahjasi hisoblanadi.

Yana shunday fonetik o‘zgarish kuzatiladiki, tovush tushishi va tovush almashinishi bir vaqtda yuz beradi: o‘g‘lim – ulim. Bunda “g‘” undoshi tushib, “o‘” unlisi “u” unlisiga almashmoqda. So‘z oxirida tovush tushishi: sariq-sori, so‘z boshiga tovush qo‘shilishi: eshik-yeshik.

Ushbu dialektning morfologik o‘ziga xosliklari ham mavjud. Xususan, qo‘shimchalardagi shevaga xosliklar ko‘plab uchraydi. Tovush almashinuvi: keldingmi – keldingma, bordingmi – bordingma, gulni – guldi. Bu kabi xususiyatlar qipchoq lahjasidagi umumiy xususiyatlarga ham monand hisoblanadi.

Hatto fe’llardagi yetakchi va to‘liqsiz fe’ldan iborat fe’l shakli ham singarmonizmga bo‘ysunadi. Ammo shunday so‘zlar borki, bu qoidaga bo‘ysinmaydi: bora qol – borag‘ay, kela qol – kelag‘ay.

Ushbu hudud dialekti leksik jihatdan ham adabiy tildan farq qilib turadi. Xususan, Dehqonobod dialektiga xos maxsus so‘zlar ham mavjud. Masalan: *“chuvoq”* so‘zi adabiy tilda uchramaydi. Bu so‘zning ma’nosi soya bo‘lmagan, quyosh nurlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarqoq holda tushib turadigan joy demakdir. Mazkur so‘z o‘zbekcha chuva fe’lidan yasalgan sifat so‘z turkumiga mansub yasalmadir. Dialektal so‘zlardan yana biri *“qushirmoq”* fe’li bo‘lib, ma’nosi biror narsani, asosan eshikni yopmoq, berkitmoq so‘zlari o‘rnida ishlatiladi.

Ushbu dialekt leksikasida so‘zlarning semantik jihatdan farqlangan holda qo‘llanishini ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan: *“tom”* so‘zi uy-joy ma’nosida qo‘llanadi. To‘g‘ri, bu o‘zbek tilida snekdoxa hodisasida bor. Ya’ni butunning bir qismi orqali butun bir uy-joyni ifodalaydi. Lekin ushbu holatda so‘z ma’nosining semantic jihatdan o‘zgarishiga to‘g‘ri keladi. Xuddi shunday holatni boshqa so‘zlarda ham uchratamiz. *Yolg‘on* so‘zi o‘rnida *o‘shak, o‘tirik* so‘zlari, sovumagan suyuqliklarga esa *“ilimiliq”* sifati berilishi holatlari bugungi kunda ham faol muloqotda.

Shaxslarga nisbatan subyektiv qarindoshlik darajasiga ko‘ra turdosh otlar ham adabiy tildan ma’lum darajada farq qiladi. Masalan: *“checha”* leksemasi kelinoyi, yanga so‘zlarining sinonimi sifatida ishlatilishi, *“jezza”* so‘zi esa adabiy tildagi pochcha so‘zining muqobili ekanligini keltirish mumkin. Adabiy tildagi nimcha so‘zi o‘rnida *“qismacha”, “gupcha”,* isiriq so‘zi o‘rnida *“hazarsumat”*, barkash so‘zi o‘rnida “patnis”, mushuk so‘zi o‘rnida “pishak”, sigir so‘zi o‘rnida “inak” so‘zlarining qo‘llanishi biroz susaygan, ammo ba’zi bir hududlarda hali ham keng iste’molda. Bilan ko‘makchisi *minan* tarzida sinteklashadi: ishi bilan- ishminan, qo‘li bilan – qo‘lminan.

Til borasida gap ketganda albatta uning kelib chiqishi, tarixi va shuningdek lug‘atchiligi haqida ham tushunchalar beriladi. Ayniqsa jadid ma’rifatparvarlarining lug‘atchilik sohasidagi faoliyatlari tahsinga sazovordir. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning birinchi yarmi o‘zbek lug‘atchiligiga yaxshigina hissa qo‘shgan adiblarimizdan bir Abdulla Qodiriydir. Uning deyarli barcha asarlarida lug‘atchilikga oid atamalarga dush kelamiz. Adibning “Jinlar bazmi” hikoyasi lug‘atchiligimiz tarixiga yetarlicha xizmat qiladi. Ushbu asar haqida Habibulla Qodiriy “Otam haqida” kitobida Abdulla Qodiriyning “Jinlar bazmi” hikoyasi to‘g‘risida: “...bu hikoya dadamning aytishlaricha, 1916-yilda yozilgan. Lekin birinchi bor 1921-yilda “Sharq chechagi” jurnalida bosiladi”, deb ma’lumot beradi. Bu bolalar jurnali maorif komissarligiga qarashli bo‘lib, birinchi soni o‘sha yili bahorida “Bolalar dunyosi” nomi bilan bosiladi. Ikkinchi sonidan jurnal-ning nomi “Sharq chechagi”ga o‘zgaradi. Unda Sanjar Siddiq, Elbek, Cho‘lpon va boshqalar faoliyat ko‘rsatadi. Julqunboy unda “Jinlar bazmi” hikoyasi bilan qatnashgan. Hikoyada “Otam bu hikoyasini boshlagan vaqtda mening vujudimni qo’rquv o’rab olar edi-da, ichimdan: «Meni ham shunday jinlarga yo’liqtirma», deb tangriga yolborib qo’yar edim”, **yo‘liqtiradimi,** so‘zi “yo‘liqtirama” shaklida kelgan. Ushbu so‘z yo‘liq- ’uchrash-’, ’duch kel-’. Ish kunining oxirida rahbarimizga yo‘liqdim. Bu fe’l qadimgi turkiy tilda yol otidan —(u)q qo‘shimchasi bilan yasalgan (2.ЭСТЯ, IV, 218; DS, 272]. “Bir kim payt topib boqqa bordim, tok juda ham o’sib ketgan, bardidan hatto ikki qarichgacha o’sib chiqqan. “**Bardi**”-qamish o’zagining tagida yer bag’irlab o’sadigan barglari, uni o’rib kelib, tokni yotqizib qo’ndoqlagandan so’ng sovuq urmasin uchun ustiga yopiladi. Uning hozirgi kundagi varianti sifatida botqoq va zax yerlarda o‘sadigan bargi uzun va uch qirra-li, ko‘p yillik o‘simlik; qiyoq [3,115-bet]. Shuningdek asarda hozirgi kunda ham iste’molda bo‘lgan ishkom so‘zini uchratishimiz mumkin. **Ishkom**—toklarni ko‘tarib o‘stirish uchun poya va bag‘azlardan qurilgan arksimon so‘ri [4,267-bet]. Asarda biz uchun biroz notanish bo‘lgan so‘zlar “Istakni* ozroq olgan ekanman. Oxirpeshin* vaqtiga istak tamom bo’lib qoldi” shu holatda keltirilgan. Istak —tol, tut, qayrag’ochning burab yumshatilgan ingichka novdalari, uni tok bag’azlarini bog’lashda oson ishlatiladi. Oxirpeshin — soat 4 lar atrofi, asr namozidan oldinroq payt

[5,4-bet]. Hozirgi kunda shevalarda ko‘proq uchraydigan “chilpimoq” so‘zini ham asarda uchratamiz.

Ushbu so‘z o‘simlikni bo‘yiga o‘sishdan to‘xtatish, hosil to‘plash, tezroq yetiltirish maqsadida ularning bachki shox-larini yoki hosil novdaning uchki qismi-ni yulib yoki kesib tashlamoq; chekanka qilmoq[6, 456-bet]. “Bu yerda biror ziyofat

bo’laturgan bo’lsa, erta bilan uning bir asari ko’rinar edi. Yoshyalanglar kunduz kuni harakat qilganlar-da, xara-ko’chalar, - deb fikrimdan qaytdim”. Bunda **xarako‘chalar”** so‘zi bekorchi ma’nosini ifodalab kelgan. “Men bazm bo’layotgan maydon orqali o’tmoqchi bo’lib, devor nahrasidan oshib tushdim...”. **Nahra** –ushbu so‘z devorning o‘pirilgan joyi ma’nosida kelgan.Abdulla Qodiriy so‘zlarni shunchalik mahorat bilan qo‘llay olganki, o‘sha davr komoritini O‘sar aka obrazi orqali yaratib berolgan. U ” Men ularning men bilan xuddi tanishlarcha muomala qilishlari, **otimni** atab chaqirishlari, qilgan ishlarimni so’rab, hatto boyagi istak chalpib yurganimni bilishlari — meni juda ham ajabga qoldirgan edi”. Bunda obraz tilidan aytilgan ismimni emas balki aynan otimni so‘zi ishlatilgan. Ushbu so‘z asosan shevaga xos. Asarda uchraydigan **vajh** so‘zi ham tarixiy hisoblanib XIX – XX asrlarda ham qo‘llanilgan. Bu so‘zning hozirgi kundagi muqobili “sababdan” so‘ziga to‘g‘ri keladi. Hikoyada musiqa, kuy, qo‘shiq so‘zlari o‘rniga **mashq** so‘zi ishlatilgan: “Sozandalar hamon haligi bosiq mashqni sekin-sekin avjga chiqarib bordilar... Axir chidab turolmadim, yig‘lab yubordim”.Aslida bu so‘z biror faoliyatni puxta o‘zlashtirish yoki sifatni yaxshilash maqsadida uni ko‘p marotaba takrorlash degan ma’noda ishlatiladi. Asar shu darajaga mahorat bilan yozilganki undagi har bir detalga e’tibor qaratilgan bu esa o‘z navbatida asarning mavqeini ko‘targan. Hozir biz o‘qib yurgan hikoya adibning qalami charxlangan, yozuvchilik mahorati oshgan davri mahsulidek taassurot qoldiradi. Aniqroq aytganda, kitobxonlar orasida ommalashgan “Jinlar bazmi” 1936- yildagi nusxa asosida nashrga tayyorlangan. Abdulla Qodiriy mana shu asari bilan ham o‘zbek lug‘atchiligiga o‘z hissasini qo‘shgan. Bugungi kun yoshlari uchun ham ayni mana shunday asarlar lug‘atchilik sohasini o‘rganish uchun yaxshigina manba bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.M.Mirziyoyev. 2019-yil 21-oktabr kuni so‘zlagan nutqidan.

2.ЭСТЯ –Севортян Э. В. Этимологический словарь тюркских языков. I –[V томлар. М.:19743.1989.3ЎТИЛ – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I – II томлар. М.: 1981.

4.Abdulla Qodiriy “Jinlar bazmi” hikoyasi. 1936-37-y.

5.Abdulla Qodiriy “Jinlar bazmi” hikoyasi. 1936-37-y.

6ДС –Древнетюркский словарь. Лгр.; 1969.

7.ЎТИЛ –Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I –II томлар. М.: 1981.

8.ЎХШЛ –Ўзбек халқ шевалари луғати. Тошкент: 1971.

9.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

10.O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 ortiq so‘z va so‘z birikmasi. // A. Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.

11.Абдуллаев ф. Хоразм шевалари. I. Тошкент: 1961.

12.Abdulla Qodiriy. Jinlar bazmi & Bahodir Karim. Bir «go'zal yozg'ich»

13.kh.davron.uz

14.Ziyocom.uz

TIL VA NUTQ TUSHUNCHASI

Asatullayev Lazizbek Asqar o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti p.f.f.d (PhD)
e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson tafakkur olamida til va nutqning o'rni, ularning o'ziga xos ko'rinishlari haqida fikr yuritilib, tilshunos olimlarning til va nutq haqidagi qarashlari, o'zaro aloqadoligi xususiyatlari va nazariy ma'lumotlari amaliy jihatdan xulosalangan.*

Kalit so'zlar: *til, nutq, so'z, fonema, morfema, leksema, konstruksiya, umumiylik, xususiylik, belgi, ma'no.*

Jamiyatda tub o'zgarishlar barcha sohada, ayniqsa tilda o'z in'ikosini topishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. XX asr so'nggida, til uslublarida sezilarli darajada o'zgarishlar sodir bo'ldi: ona tili taqdiri dolzarb masalaga aylandi. Bu haqda Respublika Birinchi Prezidenti Islom Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" nomli asarida: "Ona tilini bilmaydigan odam o'zining shajarasini, o'zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo'q odam", - deya o'z fikrini bildirib o'tgan. [2,B.160]

Til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash ularning munosabat mohiyatini o'rganish arab tilshunosligida VIII-IX asrlarda shakllangan. Til bilan nutqning o'zaro munosabatini yaxshi anglamoq uchun, avvalo, tilning o'zini, uning qanday qurilma ekanlignni aniq his etmoq kerak.

Til - insonning tafakkuri va madaniyatini shakllantiradi, shaxslararo munosabatlarni belgilaydi. Til –deb murakkab muloqat tizimiga yoki shu tizimni o'rganish va ishlatish qobilyatiga aytiladi . Til asosan muloqot vositasi hisoblanadi. Tilni o'rganuvchi sohaga tilshunoslik deyiladi.Til deyilganda ma'lum bir jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan tayyor holga keltirilgan hamma uchun umumiy, ya'ni qabul qilnnishi va qo'llanishi majburiy, fikrni shakllantirish, ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat etadigan birliklar tushuniladi.

Nutq-tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og'zaki va yozma ravishda namoyon bo‘lishidagi jarayonlar va uning natijasi tushuniladi. Til va nutq munosabatlarini umumiy tarzda quydagicha izohlash mumkin. Til va nutq o‘zaro aloqodor hodisalar sifatida e'tirof etilgan. Til ijtimoiy, nutq xususuy hodisa. Tilning butun imkoniyatlari nutqda ifodalanadi.Smernitskiy A.I, Panfilov V.Z, Melnichuk A.S, Solnsov V.M, kabi Praga tilahunoslari sistem tilshunoslik taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shib, til va nutq munosabati tarixi xususida o‘z mulohazalarini bildirganlar. Til va nutq hodisalarini va ularga xos birliklarni tom ma'noda ilmiy –nazariy hamda amaliy farqlash : "til" va "nutq" tushunchariga batamom yangi ma'zmun berilishi F de Sossyur va uning izdoshlari yaratgan ta'limot bilan bog‘liqdir. Biroq, tilning ifoda imkoniyatlari nutq orqali, nutq jarayonida ochiladi. Nutq bo‘lmas ekan, tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi. Nutq faoliyati natijasida nutq shakllanadi, nutq elementlardan tuziladi va til elementlariga ajralib ketadi. Til elementlari esa nutq faoliyati uchun xizmat qiladi.

Til sistemasining bir-biri bilan uzviy bog‘langan tovush tomoni, lug‘at tarkibi, grammatik ko‘rilishi mavjud bo‘lib, ular birgalikda bir butunlikni, sistemani tashkil etadi. Tilning material mohiyati haqida fikr yuritilganda, tilni belgilar sistemasi yoki semiotik sistema deb qarash hozirda tilshunos olimlar tomonidan qabul qilingan. Masalan, professor V. M. Solnsev —Til tipik semiotik yoki belgilar sistemasidir… desa, tilshunos B.V.Kosovskiy —til o‘zining material mohiyatiga ko‘ra belgilar sistemasini yoki semiotik sistemani hosil qiladi, deb alohida qayd etadi.

Til va nutq, dialektikasi nazariy tilshunoslikning, shuningdek, amaliy tilshunoslikning hamda psixologiya, falsafa, mantiq kabi fanlarning ham muhim va murakkab muammolaridan biri bo‘lib, ayni masala jahon tilshunosligining doimiy markazida turadi. Til —tashqi jihatdan ham moddiy ham psixik hodisa. Uning moddiyligi tovush materiyasi bo‘lsa, psixik hodisaligi xotirada saqlanish xususiyatidir. Tilning ijtimoiy vazifasi moddiylikda ko‘rinadi. Tildagi moddiylik so‘z, so‘z birikmasi va morfemalarning tovush materiyasiga o‘ralganligida namoyon bo‘ladi. Xuddi shu xususiyat tildan ijtimoiy maqsadda foydalanish imkoniyatini beradi.

Til va nutq o‘zaro aloqador, bir-biri bilan bog‘lik, biri ikkinchisisiz mavjud bo‘lmaydigan, ammo bir- biridan farqdi bo‘lgan ijtimoiy hodisalardir. Har bir kishining o‘z nutqi bor va nutqida bir yoki bir necha tildan foydalanib gapiradi. Har bir kishining nutqi uning yoshiga, bilimiga, umumiy ma'naviy-madaniy saviyasiga qarab, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bundan esa nutqning individual hodisa ekanligi kelib chiqadi. Til mavhumdir, nutq esa aniqdir, ya‘ni nutqni eshitamiz, akustik qabul qilamiz va ko‘ramiz (matnda). Nutq doimo aniq bo‘lib, muayyan

o‘rinda (joyda) va muayyan vaqtda yuz beradi. Nutq, so‘zlovchining, tinglovchining va predmetning — fikr yuritilayotgan predmetning mavjud bo‘lishini talab qiladi. Nutq - harakatchan, dinamik, jonli bo‘lsa, til —statik, stabildir. Nutq - alohida shaxsga bog‘liq. Til esa buning aksidir. Tilning ijodkori, yaratuvchisi xalq. A.A.Potebnya aytganidek, til xalqning mahsulidir. Nutq baland va past, tez yoki sekin, uzun yoki qisqa, mimikali yoki mimikasiz, qo‘l harakati bilan yoki qo‘l harakatisiz, aniq, yoki noaniq, bo‘lishi mumkin, Til uchun esa bunday ta‘rif to‘g‘ri kelmaydi. Til - tilshunoslik, falsafa, mantiq, tarix, semiotika va boshqa fanlar tomonidan o‘rganiladi. Demak, jonli nutq, nutq faoliyati tilning mavjudlik va taraqqiy qilish shaklidir. Tilni nutq, faoliyatida-nutqda kuzatganimizdagina uning ijtimoiy-amaliy vazifa bajarish mexanizmini ochib berish mumkin. Nutq, faoliyatidagina til va nutqning o‘zaro ta’siri, bog‘likdigi aloqasi amalga oshadi. Nutq, esa til birliklaridan tuziladi va til birliklariga ajralib ketadi. Til birliklari yana nutq, faoliyati — faolligi uchun xizmat qiladi. So‘zlash qobiliyati tushunchasi ostida ma’lum bir jamiyatga mansub shaxsning, shu jamiyatga mansub tildan ogohligi, uning imkoniyatlaridan foydalana olish ko‘nikmasi va darajasi anglashiladi. Nutq esa yuqorida ta’riflangan tilning til qobiliyati asosida ayrim shaxs tomonidan so‘zlash qobiliyati ko‘magida ma’lum bir kommunikatsiya maqsadi uchun ishga solinish yoki qo‘llanish natijasidir. Bir qator olimlar til va nutq o‘zaro farqlanmaydi, aslida farqlanmaydigan bitta obyekt mavjuddir, til va nutq bir narsa, desa, boshqa bir qator olimlar til va nutqni farqlash albatta, kerak bular farqlanadi,degan fikrlarni bildirishgan. Xullas, hozirda til va nutqni, til va nutq, hodisalarini, birliklarini farqlash umumtilshunoslikda, shuningdek, o‘zbek tilshunosligida ham mustahkam o‘rin egalladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev SH. M. “Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini barpo etamiz “O’zbekislon” 2016.

2. Karimov I.A ‘Istiqlol va ma`naviyat”. ‘O`zbekiston’, 1994,-160 b.

3. Normatov A.Struktur tilshunoslik:ildizlari va yo‘nalishlari.Toshkent: Ta’lim,2009.-260b.

4. Rasulov R.Umumiy tilshunoslik. Toshkent:Fan va Texnologiya,2007.-256b.

5. Sayfullayeva R,Mengliyev B,Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M.Hozirgi o‘zbek adabiy tili.Toshkent: Fan va Texnologiya,2009.-416b.

TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTIDA PROFESSOR NIZOMIDDIN MAHMUDOV XIZMATLARI

Boshmanova Dildora Maxram qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
dildoraboshmanova8@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada hozirgi o‘zbek tilshunosligining yetakchi tilshunos olimlaridan biri professor Nizomiddin Mahmudovning o‘zbek tilshunosligi taraqqiyoti rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasi va uning ilmiy merosiga nisbatan qisqacha mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, til taraqqiyoti, tilshunoslik tarixi, struktur tilshunoslik, lingvosinergetika.

Ma’lumki adabiy til har qanday millatning millat ekanligini tasdiqlovchi vositadir. Hozirgi kunda tilshunoslik ilmida yangi-yangi sohalarning yuzaga kelishi, matn muammosining o‘rganilishi bilan bog‘lik ishlar jadal rivojlanmoqda. Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda matn tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabi qator yo‘nalishlar qo‘lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko‘rmoqdalar. Bundan maqsad - nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatda qanday o‘rin tutishini aniqlash bo‘lsa, ikkinchi tomondan, matnning semantik, lingvomadaniy xususiyatlarini yanada chuqurrok o‘rganishdir. Shunday masala sifatida hozirgi kunda tilshunoslik ilmida barchaning e’tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog‘lik bo‘lgan lingvomadaniy masalalari ko‘pchilik tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan bo‘lsada, biroq to‘laqonli o‘z yechimini topgan emas.

O'zbek tilshunosligining yetakchi va zabardast vakillaridan biri Nizomiddin Mahmudov - o'zining butun hayotini ilm-fan ravnaqi va o'zbek tili taraqqiyotiga bag'ishlab kelayotgan tilshunos olimlardan biri. Jamiyatimiz hayotida ona tilimizning o'rnini oshirishga astoydil xizmat qilayotgan Nizomiddin Mahmudov o'zbek tilining turli masalalariga bag'ishlangan 80 ga yaqin darslik, 400 ga yaqin ilmiy-ma'rifiy mavzularga oid maqolalar, shuningdek, bir qancha o'quv qo'llanmalar muallifidir. Ayniqsa, tilshunos olimning “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi”(1995), “O‘zimiz va so‘zimiz”(1997), “Ma’rifat manzillari”, “So‘z estetikasi”(1981), “O‘zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya” (1984), “Gapda forma va mazmun”(1984), “O‘zbek tilda ish yuritish”(1990), “O‘zbek tilini o‘rganamiz. Rasmli lug‘at”(1991), “Til va madaniyat”(1992), “O‘zbek tilining mazmuniy sintaktikasi”(1992), “Turkcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-turkcha lug‘at”(Toshkent,1993, Anqara,1998), O‘zbek tilining nazariy gramatikasi. Sintaksis”(1995), “Til”(1998), “Ma’rifat manzaralari”(1999), “Komillik kaliti.

Ma’naviyatdan o‘zbekcha-ruscha-ingilizcha lug‘at”(1999, 2006), “O‘qituvchi nutqi madaniyati”(2009), “Tilimizning tilla sandig‘i”(2011)[1] deb nomlangan kitoblari va o'quv qo'llanmalari bugungi kunda tilshunosligimizda katta ahamiyatga ega asarlardan hisoblanadi.

Nizomiddin Mahmudov 1951-yilda Farg‘ona viloyatining Buvayda tumanida tug‘ilgan. 1974-yilda ToshDUning o‘zbek filologiyasi fakultetini bitirdi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘zbek tili kafedrasining sobiq mudiri. Hozirgi kunda O‘zR FA Alisher Navoiy nomli Til va adabiyot instituti direktori lavozimida ishlab kelmoqda. Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, ma’naviyat va ma’rifat masalalari bo‘yicha izlanishlar olib borgan. Bir qator ilmiy ishlari AQSH, Turkiya, Ozarbayjon kabi xorijiy mamlakatlarda chop etilgan. Shuningdek, o‘rta maktablarning V-IX sinflari uchun “Ona tili” dasrliklari muallifidir O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi.

Professor Nizomiddin Mahmudov o‘zbek tilshunosligining leksikologiya, semasiologiya, onomastika, nutq madaniyati, uslubshunoslik va leksikografiya sohalari bo‘yicha qator salmoqli ishlar yaratdi. Olimning o‘zbek nutq madaniyati va o‘zbek leksikologiyasi sohasidagi faoliyati – ushbu yo‘nalishlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi ham salmoqlidir.

Tilshunos olim Abdulhamid Nurmonov bilan hammualliflikda yaratgan “O’zbek tilining nazariy grammatikasi” deb nomlangan o'quv qo'llanmasida fanlarning paydo bo'lishi, fanlar sistemasi, fanlar tasnifi, tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi, tilshunoslikning fanlar sistemasidagi o'rni haqida batafsil to'xtalib o'tgan va tilshunoslik fani deyarli barcha fanlar bilan uzviy aloqadorligini ko'rsatib bergan. Bu haqida shunday fikrlarni yozadi: “Hozirgi davrda o’zbek tilining barcha sathlari bo’yicha qator ilmiy-tadqiqot ishlari mavjud. Oliy o’quv yurtlarining o’zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalari uchun tavsifiy xarakterdagi darslik va qo’llanmalar yaratildi. Bu darslik va qo’llanmalarda o’zbek tilining fonetikasi, morfemikasi, so’z yasalishi, leksikologiyasi, morfologiyasi va sintaksisi yuzasidan izchil ma’lumotlar berildi.”[2] Ushbu qo’llanmaning “Kirish”, “Sodda gap” qismi professor A.Nurmonov, “Gapda shakl va mazmun”, (“Sodda gap va qo’shma gap”) qismi professor N.Mahmudov tomonidan yozilgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash o‘rinliki, professor Nizomiddin Mahmudov butun hayoti davomida o'zbek tilshunosligi fanida alohida yo'nalish yaratib, o'ziga xos meros qoldirib, ona tilimizning rivojiga chinakam hissa qo'shib kelmoqda. Nizomiddin Mahmudov o‘zbek tili taraqqiyotiga o‘zbekona ilmiy qarashlar bilan boyitdi, uni yanada takomillashtirdi.

A.Nurmonov haqli tarzda e’tirof etganlaridek, N.Mahmudov “hech qanday baqiriq-chaqiriqlarsiz, ayyuhannos solmasdan, o‘zidan oldingi tilshunoslar qoldirgan ilmiy merosga hurmat bilan yondashgan holda, o‘zbek tilining boshqa

sistemadagi tillardan farq qiladigan o‘ziga xos ichki tomonlarini ishonarli dalillar asosida yoritib berishda o‘ziga xos yo‘ldan borib, havas qilishga arzigulik katta muvaffaqiyatlarga erishdi va haqli ravishda o‘zbek tilshunosligining ustuniga aylandi”.[5] Olim o‘zbek tilshunosligiga qo‘shgan xissasini benihoyatda kattaligi sababli faqat qisqagina o‘z mulohazalarimizni keltirdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab…// O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2012. – B.10.

2.Mahmudov N., Nurmonov A. O’zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis// O’qituvchi. – T., 1995. – B.232.

3.Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi// Mumtoz so’z. – T., 2017. – B.5.

4.Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab…// O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2012. – B.15.

QARAQALPAQ TILINDE METAFORALARDÍŃ LINGVOKULTUROLOGIYALÍQ TALQÍSÍ

Gúlimbetova Tazagúl Dauletbaevna

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı assistent oqıtıwshısı

tazagul.gulimbetova@ndpi.uz

Annotaciya: Bul maqalada qaraqalpaq xalıq jazıwshısı, shayır, dramaturg Keńesbay Raxmanovtıń poeziyalıq qatarları arqalı qaraqalpaq tilindegi metaforalarǵa analiz jasaldı, olardıń lingvokulturologiyalıq áhmiyeti ashıp berildi.

Gilt sózler: metafora, kulturologiya, ápiwayı metafora, konceptual metafora, kognitiv

Аннотация: На примере поэтических стихов каракалпакского народного писателя, поэта, драматурга Кенгесбая Рахманова проанализированы метафоры в каракалпакском языке и выявлено их лингвокультурологическое значение.

Ключевые слова: метафора, культурология, простая метафора, концептуальная метафора, когнитивная

Abstract: Metaphors in the Karakalpak language were analyzed through poetic verses of the Karakalpak folk writer, poet, dramatist Kengesbay Rakhmanov, and their linguistic and cultural significance was revealed.

Keywords: metaphor, culturology, simple metaphor, conceptual metaphor, cognitive

Metafora — grekshe *metaphora* awıstırıw, ózgertiw< *meta* qaytadan, *phora* kóshiremen. Eki predmet yaki qubılıstıń qanday da bir uqsaslıq tárepine tiykarlanıp, onıń birewine tiyisli belgini awıspalı mánide ekinshi predmet penen baylanıstırıp aytıw. Bul jaǵınan ol teńewge uqsas, biraq teńewdey bolıp zatlardı salıstırmaydı, al uqsatadı, megzetedi. Sonlıqtan da, metaforalarda obrazlılıq kúshlirek boladı. Mısalı: qanat, bel, ayaq sózleri samolyottıń qanatı, qudıqtıń beli [Сейдуллаева: 70].

Qaraqalpaq tilinde lingvokulturologiya baǵdarı boyınsha dáslepki izertlewlerden bolǵan Sh. Abdinazimov hám X. Tolıbaevlardıń avtorlıǵındaǵı «Lingvokulturologiya» oqıw qollanbasında metaforalardı payda etiw sistemasın tómendegi tártipte kórsetedi: túrli logikalıq toparlardan eki túrli predmetlerdi alamız, bunda olardıń ulıwmalıq belgileri, ózgesheliklerine súyenemiz (mısalı, *ǵam túni*: sezim — ǵam hám dúnyanıń halatı — qarańǵı, olar ushın ulıwmalıq nárse — unamlı sezimler — jaqtı, unamsız sezimler — qara hám qarańǵı). Demek, metafora mazmunı jaǵınan tómendegi ózgesheliklerge iye: ol oylaw hám bolmıstı ańlaw quralı, ol fundamentallıq mádeniy qádiriyatlardı sáwlelendiredi yamasa milliy-mádeniy dúnyatanımǵa birigip ketedi [Abdinazimov: 96-97]. Sonlıqtan da, kórkem shıǵarma awdarmashısı metaforalardı awdarıwda dál mánisin beriwge qıynaladı. Sapalı awdarmanı ámelge asırıw ushın da awdarmashı tek óz ana tilin meńgerip qoymastan, al awdarma teoriyası boyınsha kerekli bilim, kónlikpeler hám awdarıp atırǵan shıǵarma xalqınıń mádeniyatı haqqında tolıq maǵlıwmatlarǵa iye bolıwı shárt.

Gegeldiń pikirinshe, óz mánisinde qollanılatuǵın sóz óz-ózinen túsinikli ańlatıw, metafora bolsa basqasha ańlatıw, dep esaplaydı [Гегель: 115]. Birneshe ádebiyatlarda metafora jasırın uqsatıw ekenligi jazıladı. Aristoteldiń pikirine góre, uqsatıw da metafora, sebebi olardıń arasında arzımaǵan parıqlar bar [Аристотель: 134].

Insan sóylewinde metaforalardıń jiyi ushırawı bul mexanizmniń belgili bir sisteması yaki dizgini tiykarında úyreniliwi kerekligin talap etken. Sonlıqtan da, alımlar olardı ayrıqsha sistemalarǵa bólip, «metaforiyalıq konceptler» yaki «konceptual metaforalar» dep ataǵan. Birqansha abstrakt konceptlerdiń insan oylawında qanday maǵlıwmatlar bazası tiykarında qáliplesiwi áyne metaforizaciya barısı menen tıǵız baylanıslı. Bunıń ushın eń dáslep konceptual hám ápiwayı metaforalar sistemasın bir-birinen ajıratıp, parıqlap alıw kerek [Qobilova: 596].

Ápiwayı metafora —— tásirsheńlik hám kórkem boyawlardı asırıw maqsetinde ádette ádebiyatshılar tárepinen kórkem shıǵarmada bezew quralı retinde qollanıladı. Mısalı: bala perishte, hayal shaytan, altın gúz, gúmis qıs, ómir pianino, kewil dárya hám t. b.

Konceptual metafora — belgili bir konceptler sistemasın jáne de jaqsıraq túsiniw ushın ádette kúndelik ómirde ápiwayı insanlar tárepinen qollanıladı. Mısalı: waqıt pul, muhabbat bul ot, ǵázep jalın hám t. b.

Jazıwshı, shayır, dramaturg K. Raxmanovtıń «Tuńǵıshımız qız bolsa...» atlı qosıqlar toplamına kirgen dóretpelerinde metaforalardıń stillik qollanılǵanın bayqaymız. Yaǵnıy, avtor óz sezimlerin, kewlinen, júrek tórinen, oyınan ótken barlıq sezgilerin, jaǵdayların oqıwshıǵa jetkeriwde metaforalardı sonday sheberlik penen paydalana alǵan. Usı jerde metaforanıń kórkem ádebiyat dúnyasında qanshelli áhmiyetli ekenligi belgili boladı. Tómende avtordıń dóretpelerinen mısallar keltiremiz.

1. Kóp esittim ómir degen atadan (10)
2. Tábiyat bul uyqısı joq qarawıl (11)
3. Xalqım — meniń jan azıǵım, bay kánim,
4. Xalqım — ǵáziynem (12)
5. Ómir — maydan.
6. Hesh maqseti joq adam —

Sol maydanǵa shanshıp qoyǵan quw sırıq (13)

Keltirilgen birinshi mısalımızda shayır ómirdi ata dep kórsetedi. Belgili, xalqımızda jası úlkendi, ákemizdiń ákesin, basqa úlken jaslı ǵarrılardı ata deymiz. Sonlıqtan, shayır ómirdi sol jası úlken ata kelbetinde kórip tur. Yaǵnıy, ómir de sonday bolıp tozǵan, kóp tájiriybeni ózinde saqlawshı. K. Raxmanov ómirdiń qanshelli uzaq jaslı, tozıwı jetkenin sol qatarlar arqalı jetkerip tur. Ekinshi mısalda tábiyat bul tek átirapımızdaǵı janlı-jansız álem emes, ol pútkil jaratılıs, jaratıwshı, kózimiz kórip hám kórmey turǵan tilsimlerdi basqarıwshı ekenligin uyqısı joq qarawılǵa uqsatıp tur. Haqıyqatında da, sufizm táliymatında Allah taalanı uyqılamawshı, iship-jemewshi, bárqulla oyaw etip túsindiredi.

Úshinshi hám tórtinshi mısallar semantikalıq jaqtan bir-birine jaqın. Birinde xalıqtı azıǵına, tawsılmas bay kánge megzetse, keyingisinde ǵáziynege megzetedi. Azıq insan ómiri ushın eń birinshi zárúr bolǵan derek, olsız adam tiri ómir súre almaydı. Sonıń ushın da shayır basqalarına qaraǵanda birinshi bolıp sol *azıq* sózine xalıqtı megzetip qoyıptı. Bay kán, ǵáziyneniń qunı adam ómirinde qanshelli bahalı bolsa, hárbir insan ómirinde xalıq ta sonday bahalı esaplanadı. Yaǵnıy, jámiyetsiz jetilisken birde-bir insaniyat joq. Hárqanday individ social ortalıqta ózin rawajlandıradı, ómir súredi. Bul jerde xalıq penen birge átirapımızdaǵı álewmetti de sonday ullılap qoyıptı.

Birinshi mısalda shayır ómirdi *ata*ǵa megzetse, besinshi mısalda *maydan*ǵa megzetedi. Dáslep *maydan* sózine berilgen túsindirmege toqtalsaq: 1. Dúz, qula dúz, dalań. Bul maydanda sóz aytpayman bir ózim, Jetkeyseń dep elatıma bul sózim (Ótesh); 2. Ashıq aspan, aspan, keńislik; 3. Atızlıq, ashıqlıq, keńislik; 4. Awıs.

Gúres, urıs. Námártler kirse maydanǵa, Qashatuǵın jerin gózler (Q.Ayımbetov); 5. Awıs. Ilim, bilim, mádeniyat. Jańa awıl bolsa mısal qaladay, Qızsa gúrlep mádeniyat maydanı (I.Yusupov). At shawıp oqı bilim maydanında, Báygiden ozıp keliń el pıraǵı (S. Nurımbetov); 6. Awıs. Miynet, háreket, is. Ol materialın birdey qızǵın miynet maydanınan alıp otırdı (G. Esemuratova) [Қарақалпақ: 119]. Kórinip turǵanınday, shayır biykarǵa ómirdi maydanǵa uqsatpaǵan. Onıń mánisi keń, ózinde kóplegen uǵımdı jámlestirgen. Ómir de tap sonday, keń mánili, sheksiz uǵımlı.

Ómir maydan bolsa, maqsetsiz adamdı sol maydanǵa shanshıp qoyılǵan quw sırıqqa megzetedi. Quw — kebiw, quwraw, kepken, quwraǵan, sawsap qalǵan mánilerin bildirip, sırıq — uzın jińishke aǵash esaplanadı. Maqsetsiz adam bolsa, qurı quw ya qurı sırıq emes, quw sırıqqa uqsatılǵan. Usı orında K. Raxmanovtıń metaforalardan paydalanıw sheberligin aytıp ótiwimiz kerek. Sebebi, mısalda ápiwayı maqseti joq bir adam, quwraǵan, kewip ketken, mort, sawsap qalǵan, maǵızı joq bolıp ketkeni menen birge, oǵan sırıq sózi de sonday ekspressivlik berip tur. Yaǵnıy, jińishke uzın aǵash, onıń ústine ol quw, maǵızı joq. Onday aǵash qálegen gezde sınıp ketiwi, onı kúshli de kúshsiz de sındıra alıwı taqıyıq. Antropecentristlik kózqarastan da quw sırıq birlikleri maqsetsiz adamǵa qarata óz ornında qollanılǵan.

Juwmaqlap aytqanda, lingvomádeniy birliklerden esaplanǵan metaforalar tek ádebiyatta tildiń kórkemligin, estetikalıq kúshin asırıwshı birlik retinde emes, al tálim-tárbiyada, ilim-texnika tarawında, medicina hám basqa tarawlarda da túsindiriwshi qural retinde áhmiyetli. Demek, metaforalar ilim jáne tildi bayıtıp ǵana qoymastan, insan is-háreketin túsiniw, oylaw ushın ózine tán qural da. Olar bar bolǵan álemniń tillik kórinisin ilimiy túsindiriwde eń áhmiyetli dereklerden biri. Sonlıqtan metaforalardı mádeniy jaqtan izertlew arqalı kóplegen máselelerge belgili dárejede sheshim usınıladı, millettiń álem milliy sáwlesi qáliplestiriledi.

Ádebiyatlar:

1. Abdinazimov Sh., Tolıbaev X. Lingvokulturologiya. Nókis. «Qaraqalpaqstan». 2020.
2. Qobilova N., Ollomurodov A. Konseptual metaforalarning lingvomadaniy hamda kognitiv xususiyatlari va til taraqqiyotida tutgan o‘rni // Международный научный журнал «Научный импульс». № 3 (100). Часть 1. Октябрь. 2022. — B. 596.
3. Аристотель. Риторика / Античные риторики. — М. МГУ. 1978. — B. 134.
4. Гегель. — М. 1969. — 115.
5. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. V том. – Нукус. 2023. – B. 50-119.

6. Рахманов К. «Туңғышымыз қыз болса...» (qosıqlar toplamı). — H. 2012. — B. 9—13.
7. Сейдуллаева Д. Тил билими терминлериниң түсиндирме сөзлиги. — H. 2018. — B. 70.

YANGIBOZOR TUMANI DIALEKTINING FONETIK, LEKSIK VA MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Hasanova A'loxon G'ayrat qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi
alaxonhasanova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyati Yangibozor tumani dialektining o'ziga xos xususiyatlari fonetik, leksik va morfologik jihatdan tahlil etilgan, shuningdek, uning adabiy tildan farqli jihatlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: qarluq, qipchoq, o'g'uz, dialektal tarkib, sheva leksikasi, turkiy tillar, adabiy til, semantik xususiyat, lug'aviy qatlam, lisoniy xususiyat, fonetik, morfologik, leksik xususiyat, milliy til.

O'zbek tili boshqa turkiy tillardan ko'p lahjaliligi bilan farqlanadi. Bu esa mos tarzda shevalarning ko'pligini keltirib chiqaradi. Sheva muayyan tilning mahalliy ko'rinishi, uning asosidir. O'zbek tili qipchoq, o'g'uz, qarluq kabi 3 ta til birligi sifatida shakllanib, murakkab dialektal tarkibi bilan ajralib turadi. Unda asosiy 3 ta lahja: qarluq lahjasi, qipchoq lahjasi, o'g'uz lahjasi farqlanadi.

Bu lahjalar tarkibidagi ko'plab shevalar fonetik, leksik va qisman morfologik jihatdan o'zaro farqlansa-da, ularning barchasi ham milliy o'zbek tilining, adabiy o'zbek tilining shakllanishida muayyan darajada ishtirok etgan. O'zbek adabiy tilining me'yorlarini belgilashda Toshkent dialekti fonetik jihatdan, Farg'ona dialekti morfologik jihatdan tayanch shevalar deb olingan. Shuningdek, boshqa shahar shevalari, qipchoq va o'g'uz lahjalari ham adabiy til uchun ma'lum asos vazifasini o'taydi.

O'zbek tili turli mustaqil lahjalarning birikuvi natijasida paydo bo'lgan. Dunyo tillari orasida ko'p lahjaliligi bilan ajralib turuvchi o'zbek tili hamda uning shevalari o'rtasidagi munosabatlar haqida turkiy tillar grammatikasining bilimdoni E.D.Polivanov shunday degan edi: "Turkiy tillarning birortasi ham o'zbek tili singari shevalari bu qadar keskin farqlanmaydi, turkiy tillarning birortasi ham bu qadar dialektal turlilik xususiyatiga ega emasdir".

O‘zbek tilining uch lahjasi turkiy tillarning uchta katta tarmog‘i bilan bog‘liq: qarluq-chigil-uyg‘ur, qipchoq va o‘g‘uz. Bu tillarda so‘zlashuvchi qabilalar taxminan ming yil oldin bir-biridan ajralib chiqqan. XVI asrdan so‘ng, o‘zbek xonliklari davrida shu xonliklar hududida mavjud bo‘lgan qarluq, qipchoq va o‘g‘uz tillari qaytadan yagona til kontiniumi (o‘zaro yaqin shevalar jamlanmasi) bo‘lib birlashgan. Ularni birlashtiruvchi kuch, siyosiy chegaralardan tashqari, Navoiy tili – chig‘atoy yozma me’yori bo‘lgan.

Xorazmda qadimiy va o‘ziga xos qipchoq shevalarini uchratishimiz mumkin. Viloyatda asosan, o‘g‘uz lahjasida gaplashilsada, ba’zi hududlarida qipchoq lahjasi ham mavjud. Xususan, Yangibozor tumani aholisining asosiy qismi qipchoq dialektida so‘zlashishadi. Ya’ni, Yangibozor tumani shevalarida o‘ziga xosliklarni, fonetik, leksik, morfologik xususiyatlarni, so‘zlardagi rang-baranglikni ko‘rishimiz mumkin. Tuman shevalarini o‘zbek adabiy tili, qolaversa, Xorazm shevasi bilan qiyoslab o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yangibozor tumani dialekti fonetik xususiyati o‘zbek adabiy tilidan, qolaversa, viloyat shevasidan ham ayrim jihatlariga ko‘ra farqlanadi. Shuni qayd qilish lozimki, tuman dialektida faqat sporadik ravishda vujudga keladigan (ma‘no farqlash xususiyatiga ega bo‘lmagan) ikkinchi darajali cho‘ziq unlilar mavjud. Ular shevada h, y singari undosh tovushlarning tushishi natijasida, shuningdek, ayrim so‘zlarda qator kelgan ikki unlining qo‘shilishi tufayli ikkilamchi cho‘ziq unlilar vujudga keladi. Masalan: sa:r (sahar), sha:r (shahar), me:nat (mehnat), so:t (soat) va boshqalar. Bundan tashqari, ayrim kelishik qo‘shimchalarini qo‘shilishida ham o‘ziga xoslikni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, -ni tushum kelishigi qo‘shimchasi -i yoki -di shaklida qo‘llanadi: ukami (ukamni) yoki singlimdi (singlimni), kitobdi (kitobni), uydi (uyni) kabilar.

Biroq jo‘nalish kelishigi Xorazm shevasiga emas, adabiy til shevasiga yaqindir, buni viloyat va tuman dialektlarida tahlil qilishimiz mumkin: bog‘ga (bog‘a), sha:rga-shaharga (sha:ra), uyga (uya) va boshqalar. Ayrim so‘zlarda g va k tovushi orqali farqlanishni ko‘rishimiz mumkin. Viloyatning ayrim hududlari g tovushi tarzida talaffuz qilinsa, Yangibozor tumani dialektida esa k tovushi tarzida talaffuz etiladi: ko‘rdi-go‘rdi, keldi-geldi, ketti-getti, kerak-gerak.

Dialektning leksik jihati ham ancha rang-barang va o‘ziga xosdir. Qipchoq shevalariga o‘xshash Yangibozor shevasida qo‘llanib kelinayotgan o‘ziga xos so‘zlar shu sheva vakillarining hayotiy sharoitlari, yashash tarzi, shevaning geografik tarqalishi, shu hududning madaniy-iqtisodiy rivoji kabi omillar ta’sirida paydo bo‘lgan.

O‘rganilayotgan shevada qipchoq tillariga xos umumiy xususiyatlarning mavjudligi bilan bir qatorda mazkur mintaqaga xos xususiy lisoniy ko‘rsatkichlarning ham borligi ahamiyatlidir. Jumladan:

a) harakat fe’llari: o‘tlashmaq [kuchaymoq], o‘narmaq [uddalamoq], sarmalamaq [izlamoq, qidirmoq], sunnikmaq//surnikmaq [qoqilmoq], zingmaq//ziqmaq [uloqtirmoq], cho‘plamaq [terib olmoq], jirpildamaq [likkillamoq];

b) holat fe’llari: aptiramaq [kalovlanib qolmoq], esirmaq [maqtanmoq], elanmaq [yalinmoq], ejashmaq [hazillashmoq] qapishmaq//qapilmaq [ovozini o‘chirmoq], to‘ngmaq//to‘nglamaq [sovuq qotmoq] kabi dialektizmlar xususida fikr yuritilgan.

Belgi-xususiyat anglatuvchi dialektizmlarni ham tahlil qilish mumkin: chug‘ulchiq [chaqimchi], lappas [dangasa], engsa [dimog‘dor], esirak [maqtanchoq], iri [yirik], ulli [katta], ulqan [ulkan], yaling [chaqqon], yampiq [qiyshiq], g‘alting [g‘adir-budir] kabilar. Shuningdek, apcha [opa] dialektizmi ham kichik yoshdagilar nutqida ishlatiladi. Lekin o‘g‘uz lahjasiga xos [apka] dialektizmi tuman dialektiga xos emas.

Dialektning morfologik yoki semantik xususiyatiga mansub bo‘lgan so‘zlar adabiy tilga o‘xshashligi bilan yaqqol sezilib turadi. Yangibozor tumani shevasida “opa” so‘zi “ona” ma’nosida ishlatiladi. Biroq o‘zbek adabiy tilida bu so‘z “singillarning kattasi ya’ni opasi” deganidir. Shunga o‘xshash “ota” so‘zining o‘rnida “aka” so‘zi qo‘llaniladi va adabiy tilimizda “ukalarning kattasi, akasi” ma’nosini anglatadi va shu so‘zga dialektlar o‘rtasida shakldosh hisoblanadi.

Xorazm qipchoq shevalari leksikasi juda boy bo‘lib, bu so‘zlar umumo‘zbek tili, shuningdek, hozirgi o‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibini tashkil qilgan so‘zlar bilan jiddiy tafovutga ega emas. Mazkur leksikaning lug‘aviy qatlamlarini tahlil qilish mazkur sheva o‘zining barcha lisoniy xususiyatlariga ko‘ra o‘zbek tilining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatadi. Xorazm viloyati Yangibozor tumani shevalari lug‘at tarkibining mavzu guruhi ancha keng bo‘lib, ular qipchoq tillariga xos umumiy xususiyatlarni o‘zida aks ettirishi bilan bir qatorda, shu sheva vakillarining hayotiy sharoitlari, yashash tarzi, shevaning geografik tarqalishi, shu hududning madaniy-iqtisodiy rivoji kabi omillar ta’sirida paydo bo‘lgan va o‘zbek adabiy tili rivojida alohida o‘ringa ega. Shuningdek, tuman shevalari leksik qatlamlari va unga taalluqli bo‘lgan bir qator lisoniy xususiyatlar voha shevalariga oid umumxarakterdagi yoki boshqa mavzular bilan bog‘liq holda o‘rganilgan bo‘lib, leksik qatlamlari va grammatikasi hozirga qadar tahlil qilinmoqda va tadqiqotlar olib borilmoqda.

Foydalanigan adabiyotlar:

1. Doniyorov X. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. – T.: 1968.
2. Ashirboyev S. “O‘zbek dialektologiyasi”. – T.: 2021.

3. Sherjanov M., Nurjanov K., Eshjanova Sh. Yangibozor tarixi. – Urganch, “Xorazm nashriyoti”, 2005.

4. Reshetov V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – T.: 1978.

5. Abdullayev F. Xorazm shevalari. 1-tom. – T.: “Fan”, 1961.

HARBIY LEKSIKAGA OID SO‘ZLARNING SINONIMIK QATORI

Hasanova Dildora
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola harbiy soha leksikasida sinonimik qator mavzusida bo‘lib, unda zamonaviy harbiy leksikaga oid so‘zlaring sinonimik qatori haqidagi qarashlar umumlashtiriladi va tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Harbiy soha leksikasi, sinonimlar, sinonimik qator, sinonimik qator chegarasi, bosh so‘z, kuchli ottenkaga ega so‘zlar.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi avvalambor yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas’uliyatnio‘z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog`liq.[1,3-bet].

Istiqlol g‘oyalariga sadoqatli, vatanparvar harbiy kadrlarning yangi avlodini yetishtirishga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaymoqda. Askar va ofitserlarning zamonaviy bilim olishi, harbiy texnika va texnologiyalarni mukammal egallashi, harbiy- vatanparvarlik tarbiyasi bosh maqsad etib belgilangan.[2,1-bet].

Shuningdek, harbiy sohalarga oidleksikaga bo‘lgan ehtiyoj ham sezilarli darajada, nafaqat so‘zlarning ma’nolari balki, ularning izohlari, antonimlari, sinonimlari, paronimlari va h.k. Sinonimlar – talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma’nosi bir xil umumiy bo‘lgan, qo‘shimcha ma’no nozikligi, emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqladigan so‘zlardir. Ana shunday umumiy birlashtiruvchi ma’no bilan o‘zaro bog‘lanuvchi so‘zlar gruppasi sinonimik qatorni tashkil etadi.[3,3-bet].Sinonimik qatordagi so‘zlar nutqning biror turiga, uslubiga xosligi jihatdan ham o‘zaro farqlanishi mumkin.Masalan, urishmoq,solishmoq, yoqalashmoq, mushtlashmoq,so‘kishmoq, tashlashmoq sinonimik qatordagi solishmoq, so‘kishmoq, tashlashmoq so‘zlari oddiy so‘zlashuv uslubiga xos.

Armiya, qo‘shin, lashkar so‘zlari davlat qurolli kuchlarining jami yoki uning biror bir qismi (bo‘lagi)dir. Armiya, asosan, barcha qurolli kuchlar ma’nosida qo‘llanadi. Qo‘shin, asosan, armiyaning ma’lum qismi ma’nosida qo‘llaniladi. Lashkar eskirgan.

Sinonimik qatordagi so‘z adabiy tilga yoki dialektga xos bo‘lishi mumkin. Masalan, harbiy sohaga oid guvoh, shohid so‘zlari biror voqea – hodisani o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, shuni tasdiqlovchi shaxs. Sud yoki tergovdagi ish yuzasidan o‘z bilganlarini aytib berish uchun sudga chaqirilgan kishi.[4,65-bet] Shohid eskirgan, ba’zan shevalarda ham qo‘llaniladi.

Sinonimik qatordagi so‘zlar hozirgi adabiy til nuqtayi nazaridan eskirgan bo‘lishi mumkin. Masalan,ozod bo‘lmoq, erkin bo‘lmoq, hur bo‘lmoq, sarbast bo‘lmoq so‘zlari o‘z erki, huquqiga ega bo‘lgan holatlarga nisbatan qo‘llanadi. Hur badiiyroq. Sarbast esa eskirga, kitobiy uslubga mansub.Urush, jang, muxhoraba, harb dushman tomonlar o‘rtasidagi harbiy harakat olishuv (kurash). Jang ikki tomon o‘rtasidagi olishuv ma’nosi bilan birga, shu tomonlarning qismlari o‘rtasidagi uchrashuv (olishuv) ma’nosida ham qo‘llaniladi. Muhoraba, harb eskirgan.

Sinonimik qatordagi so‘zlar ko‘p yoki oz qo‘llanishiga ko‘ra o‘zaro farqlanishi mumkin. Masalan, yarali, yarador, jarohatli, majruh so‘zlari ma’lum darajada shikastlangan ma’noda. Jarohatli, majruh kitobiy. Majruh juda kam qo‘llaniladi.

Sinonimlar bir umumiy ma’no ifodalasalar-da, lekin ko‘rib o‘tilgan va bundan boshqa o‘zaro farqli xususiyatlari sababli ularning har biri tilda (nutqda) o‘z qo‘llanish o‘rniga ega bo‘ladi. Soqchi, qorovul, qo‘riqchi, posbon so‘zlari qo‘riqlab himoya qiluvchi sifatidagi shaxs. Bunda posbon kitobiy, asosan mamlakatuning chegarasini qo‘riqlovchi ma’nosini bildiradi. Soqchi biroz eskirgan. Qo‘riqchi betaraf.

Sinonimik qatorning chegarasi (bir sinonimik qatorga kiruvchi so‘zlar miqdorini) belgilash uchun avvalo shu sinonimik qatordagi bosh so‘zni aniq belgilash lozim bo‘ladi. Bosh so‘z avvalo sinonimik qatordagi so‘zlar uchun umumiy bo‘lgan ma’noni aniq ifodalashi va barcha uslublar uchun, barcha zamon uchun bir xilda foydalana oladigan so‘z bo‘lishi lozim. Masalan, dushman, yov, g‘anim, ag‘yor, yog‘i. Sinonimik qatorida dushman so‘zi bosh so‘z sifatida tanlangan. Chunki u o‘z qatoridagi boshqa so‘zlar orasida eng keng qo‘llaniladigan va barcha uslublar uchun umumiy xoslangan. Janjal, to‘palon, g‘alva, mojaro, g‘avg‘o, mashmasha, sho‘rish. Kelishmovchilikni ifodalovchi aytishuv (xatti-harakat). Shu ma’noda janjal, g‘alva so‘zlari keng qo‘llaniladi. To‘polon so‘zida belgi darajasi kuchliroq. Mojaro, g‘avg‘o so‘zlari kam qo‘llaniladi. Mashmasha so‘zida belgi darajasi kuchsizroq. Sho‘rish kitobiy, eskirgan. Bulardan janjal so‘zi bosh ma’no ifodalaydi.[5,97-bet].

Harbiy soha leksikasi sinonimik qatorida kuchli ottenkaga ega so‘zlarni ham uchratish mumkin. Sotqin, xoin, xiyonatkor, g‘addor, murtad so‘zlari o‘z tomoniga, to‘dasiga nisbatan xiyonat qilgan, o‘zga tomonga sotilgan. Sotqin ma’noni xoin so‘ziga nisbatan kuchliroq ottenkada ifodalaydi.

Urmoq, kaltaklamoq, do‘pposlamoq, savalamoq, savamoq, solmoq, tushirmoq, so‘kmoq, po‘pillatmoq. Qo‘l, kaltak shu kabilar bilan zarba bermoq. Kaltaklamoq, do‘pposlamoq, savalamoq, savalamoq so‘zlarida birdan ortiq, ko‘p marta bo‘ladi. Bu so‘zlar ayniqsa, savalamoq va do‘pposlamoq so‘zlari ma’noni urmoq so‘ziga nisbatan kuchli darajada ifodalaydi. Do‘pposlamoq asosan odamga nisbatan qo‘llaniladi. Savamoq, savalamoq so‘zlari – kaltak, kamchin kabi narsalar bilan urish ma’nosini bildiradi. Solmoq, tushirmoq so‘zlarida belgi darajasi kuchliroq. So‘kmoq hozirgi adabiy tilda deyarli qo‘llanilmaydi. So‘zlashuv tilida juda kam qo‘llaniladi. Po‘pillatmoq oddiy nutqqa xosdir.

Harbiy soha leksikasini o‘rganish davomida so‘zlarning sinonimik qatorini ham tahlilga tortish bugungi kun yoshlari uchun yaxshiga qulaylik tug‘diradi. Soha leksikasini o‘rganish ham kelajak avlodning ma’naviy olamining rivojlanishiga turki bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.M.Mirziyoyev 2020-y.14-yanvar so‘zlagan nutqidan.

2.Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.2017.

3.Azim Hojiyev, O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati, “O‘qtuvchi” T.1974-yil.

3.O‘zbek tilining izohli lug‘ati (1981) – 1981-yil chop etilgan ikki jildli izohli lug‘at.

4.Sh.Rahmatullavey, O‘zbek tiling etimologik lug‘ati,”Unverstitet” T.2009-yil.

5.O‘zbek tilining izohli lug‘ati (2006–2008) – yuqoridagi lug‘at asosida tayyorlanib, 2006-2008-yillarda chop etilgan besh jildli izohli lug‘at.

6.O‘zbek tilining izohli lug‘ati (2022) – 2022-yil e’lon qilingan, o‘zbek lotin yozuvidagi ilk izohli lug‘at.

ABDULLA QAHHORNING “O‘G‘RI” HIKOYASIDA QO‘LLANGAN ESKIRGAN AMAL-MANSAB NOMLARI

Ruxsora Jahongirova
Namangan davlat universiteti
Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi
3- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning «O‘g‘ri» hikoyasida qo‘llangan mansab nomlari leksik-semantik jihatdan tahlil qilingan

Kalit so‘zlar: *Eskirgan so‘zlar: istorizmlar va arxaik so‘zlar, mansab, ellikboshi, mingboshi, amin, pristav, tilmoch, hokim*

Annotation: In this article the nouns user in the story of Abdulla Qahhor's «Thief» are analyzed lexically-semantically

Keywords: Obsolute words: historicisms anda archaic words, career, ellikboshi, mingboshi, amin, pristav, tilmoch, hokim

Eskirgan so‘zlar tilimizning ma'lum davrida qo‘llanib, hozirgi kunda foydalanilmaydigan so‘zlardir. Eskirgan so‘zlar ikkiga bo‘linadi: istorizmlar va arxaik so‘zlar. Arxaik so‘zlar o‘z muqobiliga ega bo‘lgan, hozirgi kun uchun tushunarli bo‘lmagan, iste'moldan tushib qolgan so‘zlardir. Istorizmlar o‘zi ifodalagan tushuncha bilan birga eskirgan so‘zlardir.[30]

Eskirgan so‘zlar badiiy asarlarda o‘sha davr ruhini berishda qo‘llanadi. O‘zbek adabiyotining zabardast namoyondasi, qisqa so‘zda ko‘p ma'no ifodalash, teran va ixcham fikrlash qobilyati sohibi Abdulla Qahhor asarlarda ham eskirgan so‘zlar alohida ahamiyatga ega. Abdulla Qahhor hikoyalarida oziq-ovqat,kiyim-kechak,kasb-hunar,amal,mansab kabi eskirgan so‘zlar faol qo‘llanadi. Quyida Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida qo‘llangan eskirgan mansab nomlari haqida fikr yuritamiz. Avvalo, mansab ataladigan to‘xtalsak.[31]

Mansab leksemasi o‘zbek tili izohli lug‘atida quyidagicha izohlanadi: mansab, amavazifa, lavozim. Bu ta'rifda mansab termini asli ruscha «doljnost» so‘zining quyidagi ma'nosini ifodalash maqsadida qo‘llab kelinganligi qayd etilgan: xizmatdagi mavqe, biror muassasa, korxona va shunga o‘xshash joylardagi o‘rin, shu bilan bog‘liq xizmati burchlari. Xullas, mansab davlat tizimida biror bir amalni egallovchi va boshqaruvchi shaxsning mavqeyini anglatadi. Hikoya Qobil boboning ho‘kizi yo‘qolib qolishi tasviri bilan boshlanadi.Kampir xamir qilgani turib

[30] Jamolxonov H. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin,2005
[31] Qahhor A. ,,Anor” qissa va hikoyalar to`plami. – Toshkent. 2012

ho‘kizning yo‘qolganini bilib qoladi va dod soladi.Kampirning dodiga to‘plangan odamlar ho‘kizning qanday yo‘qolgani haqida bahslashayotgan bir paytda Qobil boboning qo‘shnisi burunsiz ellikboshi kirib keladi.

Ellikboshi harbiy-ma'muriy mansablardan biri bo‘lib, Markaziy Osiyo xonliklarida yuzboshidan keyingi mansabni ifodalagan. Ayni paytda 50 nafar askardan iborat harbiy qism qo‘mondoni hamda 50 ta askar ajrata oluvchi mahalla yoki qishloq oqsoqolini anglatgan. Ellikboshi mingboshi tomonidan saylangan. Boburning «Boburnoma” asarida ellikboshini ellik urug‘i shaklida qo‘llaydi: «Xossa tobindakim, tamien ilikdin ish kelur yigitlarni ayrilib edi,tamom o‘n-o‘n va ellik-ellik bitilib, o‘n urug‘i va ellik urug‘i tayin etib edim”.[32]

O‘zbekiston SSRda shaharda mahalla qo‘mitasining raisi, qishloqda esa qishloq oqsoqoli ellikboshi deb atalgan. Ellikboshi og‘ilga kirib o‘zicha bir nimalarni taftish qiladi.Qobil boboga ho‘kizi oq poshsho qo‘l ostidan chiqib ketmasa, topilishini aytib ho‘kizni naqd qilib qo‘yadi.

Ellikboshining xizmati uchun biror narsa berish kerak. Axir u ham bu lavozimga osonlikcha erishmagan. Bu “Xudo yallaqagur” shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo‘lish uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining o‘ziga yetti yuz bog‘ beda, bir toy bergani ma'lum. Poshsholikdan oylik yemasa!

Mingboshi ellikboshidan yuqori lavozim hisonlanadi. Mingboshi − XX asrning 20-yillarida bir yoki bir necha qishloq birlashuvidan tashkil topgan ma'muriy idora boshlig‘i. Ellikboshi ketishdan oldin beto‘xtov aminga xabar qilmoqchi bo‘lib chiqib ketadi. Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradi.

Amin leksemasining lug‘aviy ma'nosi « ishonchli kishilar” bo‘lib, asosan, moliya va qishloq xo‘jaligini boshqaruv ishlari bilan shug‘ullanuvchi davlat devoni tomonidan belgilanadigan amaldorga nisbatan ishlatiladi. Amin so‘zining shu ma'nosi, ya'ni bir yoki bir necha qishloqlarni boshqaruvchi amaldor mansabini ifodalashi bir necha ishlarda qayd etiladi. Amin so‘zi tilga olingan zamonda soliq undiruvchi amaldor yoki qishloq oqsoqoli ma'nosida qo‘llangan. Amin ham jo‘yali javob bermay pristavga xabar beraman va o‘zi chaqiradi deb Qobil boboni jo‘natib yuboradi. Pristav − chor Rossiyasida kichikroq hududdagi mahalliy politsiya boshlig‘i. Amindan ham ish chiqmagach Qobil bobo pristavning oldiga o‘zi borishga qaror qiladi, lekin uchta tovuq va yor -birodarlaridan yig‘gan yuzta tuxumi bilan tilmochdan nariga o‘tolmaydi. Tilmoch bir tildagi gap yoki nutqni boshqa tilga tarjima qilib beruvchi tarjimon hisoblanadi. «Yaxshilab tushuntirilgan» pristav bitta kulangir, bitta farangu tovuq, uch so‘m pul olgandan keyin Qobil boboning baxtiga : «Beto‘xtov hokimga xabar beraman",-demasdan: «Aminga bor", – deb qo‘ya qoldi.

[32].Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T., 1960

Hokim leksemasi vazir so‘zi singari eski o‘zbek tilida faol qo‘llangan. Mazkur leksema ham Oktabr to‘ntarishidan to mustaqillik davrigacha eskirgan so‘z sifatida qo‘llanib kelinadi. Hokim arabcha so‘z bo‘lib, «hukm qiluvchi» «buyuruvchi boshliq» degan ma'nolarni bildiradi. Turkiston o‘lkasidagi yurtidagi ayrim shahar yoki muzofotlarda chor hukumatining siyosatini o‘tkazish uchun belgilab qo‘yilgan yuqori mansabli amaldor ma'nosini anglatadi. Hozirgi vaqtda esa respublikamizda hokimyatlar joriy etilganligi munosabati bilan shahar, viloyat hamda tumanlarni boshqaruvchi shaxslar hokim nomi bilan ataladigan bo‘ldi. [33]

Ushbu hikoyani tahlil qilish davomida ellikboshi, mingboshi, amin, pristav, tilmoch kabi eskirgan amal, mansab nomlarini ko‘rdik va izohladik.Shulardan ellikboshi, mingboshi, amin , pristav kabi so‘zlar istorizmlar hisoblanadi, chunki ular o‘zi ifodalagan tushuncha bilan eskirgan va hozir iste'molda emas. Tilimoch arxaik so‘zdir. So‘z eskirgan, lekin uning o‘rnida hozirgi kunda tarjimon so‘zi faol qo‘llanadi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarda tarixiy so‘zlarning qo‘llanishi o‘sha davr ruhini berishda va personajlar nutqini individuallashtirishda muhim uslubiy vosita sanaladi «O‘g‘ri” hikoyasida ham XX asr voqeligi realistik usulda yoritilgan. Bu voqelikni tasvirlashda eskirgan so‘zlarning ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.
2. Qahhor A. Anor: qissa va hikoyalar to‘plami. – Toshkent, 2012.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.1960
4. Mo‘minova O. O‘zbek tilida mansab va unvon nomlarning leksik-semantik tarkibi. – Toshkent: Aloqachi, 2009.

AMALIY LEKSIKOGRAFIYA: ELEKTRON FRAZEOLUG‘AT YARATISH EHTIYOJI

Rashidova Umida Mansurovna,
Sh.Rashidov nomidagi SamDU
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Leksikografik amaliyot til fanining ajralmas va organik qismidir. Shu bilan birga, lug‘at ma’lumotlari tadqiqot materiallari sifatida ishlatilishi mumkin va aksincha – lug‘atning o‘zi ilmiy faoliyatning yakuniy natijasi,

[33]. Mo`minova O. O`zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tarkibi – Toshkent: Aloqachi, 2009.

amaliy natijasi sifatida qabul qilinishi mumkin. Lug‘atlar katta informatsion imkoniyatlarga ega va nazariy konstruktsiyalar va tahlilning boshqa jihatlarini ishlab chiqish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ilmiy rivojlanish – lug‘at teskari aloqasi mavjud bo‘lib, unda lug‘at ma'lum bir ilmiy kontseptsiyani amalga oshirish sohasidir.

Kalit so‘zlar: leksikografik amaliyot , lug‘at, korpus, elektron lug‘atlar.

Hozirgi vaqtda kompyuter leksikografiyasi yo‘nalishi alohida dolzarblik va o‘ziga xos talabga ega bo‘ldi: endi elektron lug‘atlar, korpuslar va ma’lumotlar bazalarini ishlab chiqish va yaratish uning eng samarali sohalari hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishning qiymati nafaqat materialni taqdim etish va tasniflashning vizual va qulay metodlarini ishlab chiqishda, balki elektron lug‘atlar va kompyuter korpuslari allaqachon to‘plangan (ba’zan juda uzoq vaqt davomida) materiallarni keyinchalik ishlash uchun saqlashga imkon beradi.

Maqola mazmunini ochishda “kompyuter leksikografiyasi” va “elektron lug‘at” atamalaridan foydalanildi. V. P. Selegey to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “elektron lug‘at odatda kompyuterdagi lug‘at unga kiritilgan qog‘oz lug‘at bo‘lib, qulay qidiruv va ko‘rsatish vositalari bilan ta'minlangan bo‘ladi”. Bunday lug‘atlarni ishlab chiqaradigan amaliy tilshunoslik sohasi sifatida kompyuter leksikografiyasi o‘ziga xos soha sifatida muhimlik kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar asri lingvistik tadqiqotlarni korpus texnologiyalari asosida tekshirish zaruratini kun tartibiga qo‘ydi. O‘zbek tili frazeologik tizimida somatik komponentga ega frazeologizmlar struktur-semantik, funksional-semantik, lingvomadaniy, pragmatik aspektlarda o‘rganilib kelinmoqda. Shunungdek, ularning tarkibiy-mazmuniy tahlillari amalga oshirilib, frazeologik derivatsiya masalalari maxsus o‘rganilgan. Somatik komponentga ega frazeologizmlar o‘rtasidagi o‘zaro sinonimlik, variantdoshlik,antonimlik munosabatlari ham bir qancha ilmiy maqolalar, monografiyalarda tadqiq etildi. Olib borilgan tadqiqotlardan somatik komponentli frazeologizmlar o‘zbek tili frazeologik fondining katta qismini tashkil etuvchi xazina ekanligi ma’lum bo‘ldi. Biroq, tilshunoslikning ushbu sohasida hali tadqiq etilmagan va o‘rganilmagan ko‘plab masalalar mavjud. Frazeologik birliklarni nazariy o‘rganishga frazeologik materialning yetishmasligi, masalan dialektal frazemalar lug‘atini, somatil frazemalar lug‘ati, frazeologik omonimlar, frazeologik sinonimlarning lug ‘atlarini yaratishga ehtiyoj mavjud.

Leksikografiya tarkibida mavjud frazeografiya sohasi o‘z mohiyat e’tibori bilan ilmiy va amaliy frazeografiyaga bo‘linadi. Amaliy frazeografiya bevosita frazeologik lug‘at yaratishdek mashaqqatli ish bilan shug‘ullansa, ilmiy frazeografiya frazemalarni lug‘atlarda aks ettirishning ilmiy-nazariy tamoyillarini

ishlab chiqadi. O‘zbek tilshunosligida ham amaliy frazeografiya ehtiyojlaridan kelib chiqib XX asrning 60-yillaridan frazeologik lug‘at tuzishning ilmiy-nazariy muammolari bilan bevosita shug‘ullanish boshlangan edi. Lekin tan olib aytish lozimki, mamlakatimizda ilmiy frazeografiya amaliy frazeografiyadan ancha orqada qolib kelmoqda. Hozircha “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da frazemalarni ifodalash tamoyillari, frazeologik lug‘atlarning turlari, bu lug‘atlarda frazemalarning miqdori, frazeologik lug‘atlarda illyustrativ materiallarni berish usullari kabi qator masalalar o‘zbek frazeografiyasida o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda.

M.Umarxo‘jayev jahon tilshunosligida frazeografiyaning shakllanishi va taraqqiyotini quyidagicha uch katta davrga bo‘lib o‘rgangan: a) eng qadimgi zamonlardan XIX asrgacha bo‘lgan davr; b) XIX asr va XX asrning birinchi yarmini o‘z ichiga olgan davr; v) XX asrning 50-yillaridan hozirgi kunlargacha bo‘lgan davr[34].

Turkiy tillardagi, jumladan, o‘zbek tilidagi frazeologik materialni to‘plash, ularni ma’lum bir sistemaga solish, ya’ni amaliy frazeografik ish juda qadimiy va boy tarixga ega. Bizgacha yetib kelgan eng qadimgi turkcha frazeologik lug‘at qatoriga 1480-yilda tuzilgan muallifi noma’lum “Otalar so‘zi” kitobini kiritish mumkin. Bu kitob 1536-yilda Anqarada Velet Izbudak tomonidan nashr etilgan. Asarning ikkita qo‘lyozmasi Sankt-Peterburg fondlarida saqlanmoqda[35]. Keyinchalik 1547-yilda Turkiyada Mustafo afandi tomonidan “Forscha-turkcha frazeologik lug‘at” tuzilgan. Bu asarning qo‘lyozmasi ham Sankt-Peterburgda mavjud[36].

O‘zbek adabiy tilining ajralmas qismini tashkil etuvchi frazeologik birliklar jamiyat vakillarining dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning madaniy an'analarini, empirik tajriba elementlarini, mifologik qarashlarini va axloqiy qadriyatlar tizimini akas ettiradi. Ushbu maqolada frazeologik fondning katta qismini tashkil etuvchi somatik frazeologik birliklarining elektron lug‘atini yaratish bo‘yicha ishining tajribasi xususida fikr yuritamiz. Birinchi bosqichda Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” va besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mavjud somatik komponentli iboralar to‘plandi. Mustaqillikdan keyingi davrda yaratilgan badiiy asarlardan olingan yangi misollar bilan to‘ldirildi. Shuningdek, lug‘atda somatik komponentli dialektal frazemalar ham kiritildi. Ular nutq so‘zlovchilaridan yozib olingan asl og‘zaki matnlarni o‘z ichiga olgan audio materiallarni dekodlash dialekt birliklarini ishonchli tavsiflash va ularni har tomonlama tahlil qilish imkonini berdi.

[34] Умарходжаев М.И. Основы фразеографии. – Ташкент: Фан, 1983. – С. 42-44.

[35] Умаров Э.А. О фразеологических словарях турецкого языка // Сов. тюркология. 1979. № 2. – С. 75.

[36] Баевский С.И. Описание персидских и таджикских рукописей Института народов Азии. Выпуск 5. Двуязычные словари. - М.: Наука, 1968. – С. 75-76.

Ishning ikkinchi bosqichida to‘plangan materialni ideografik tizimlashtirish amalga oshirildi; somatik komponentli, o‘zida dialekt tashuvchilarni taqdim etishda qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi frazeologik birliklar alifbo tartibida guruhlandi, va lingvistik-madaniy jihatdan tavsifi berildi. To‘plangan frazeologik birliklarning korpusini saqlash va ulardan foydalanish, turli xil namunalarni yaratish qulayligi uchun yaratilgan kartoteka elektron shaklga o‘tkazildi. Keyingi mantiqiy bosqich - elektron lug‘atni yaratishdir.

Xullas, elektron lug‘at har qanday ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) asosida yaratilgan avtomatlashtirilgan axborot va ma'lumot tizimlarining turlaridan biridir. Zamonaviy MBBT dan foydalanish qulay saqlash tizimini yaratishga, axborotni qayta ishlashga, turli xil statistik usullarni amalga oshirishga keng funksional imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. -Toshkent, 1992.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildik. -Toshkent, 2006.
3. Rashidova U. O‘zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili (ko‘z, qo‘l va yurak komponentli iboralar misolida): Filol.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD)…diss. – Samarqand, 2018. – 52 b.
4. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 110 b.
5. Abjalova M. (2021). The importance of language corpus in the construction of lexicographic sources. Current Research Journal Of Philological Sciences (2767-3758), 2(12), 161–166. https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02-12-https://masterjournals.com/index.php/crjps
6. Умархўжаев М.И., Назаров К.Н. Немисча-русча-ўзбекча фразеологик луғат. - Т,: 1994. – Б. 147.
7. Калонтаров Я.И. Таджикские пословицы и поговорки в сравнении с узбекскими. - Душанбе, Дониш, 1969. - 434 с.; Калонтаров Я.И. Мудрость трех народов (таджикские. узбекские, русские пословицы, поговорки и афоризмы в аналогии). - Душанбе: Адиб, 1989. - 438 с.

XATIRCHI TUMANINING O‘ZIGA XOS AN’ANA VA URF-ODATLARI

Shirinova Fotima Akmaljon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: A.M.Shofqorov, *CHDPU dotsenti*

Anotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy viloyati Xatirchi tumanining to‘y marosimlardagi o‘ziga xos an’ana tusiga kirgan urf-odatlari xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Xatirchi tumani to‘y marosimi, marosimi qo‘shiqlari, bichuv, unashtiruv, to‘qqiz tovoq marosimi, sarpo, sut puli.

O‘zbek xalqi o‘ziga xos urf-odatlar hamda an’analarga boy xalqdir. Bu udumlar hududiy chegaralangan hamda chegaralanmaganligiga ko‘ra farqlidir. Chegaralangan odatlar shu hudud aholisining etimologik kelib chiqishi bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zbekistonning barcha hududlarida to‘y marosimlari o‘tkaziladi, ammo har bir joyning o‘ziga xos urf-odatlari mavjud.

Marosim arab tilidagi “marsum” so‘zidan olingan bo‘lib, *1-chizilgan; 2-rasm qilingan; 3-odat bo‘lgan* ma’nolarini anglatadi. Har bir inson umri davomida turli maqsadlarda uyushtirilgan va xalq orasida odat tusiga kirgan marosimlarda ishtirok etadi. Ayni paytda, butun xalq qatnashadigan bayramlarni ham marosimlar qatoriga qo‘sha olamiz.” 37

Inson borki, uning nasli davom etadi. Odamzod borki, o‘zlariga juft topib hayotini to‘ldirishadi. Ikki yosh bir-biriga ko‘ngil qo‘yishsa, ularni ham sha’riy, ham qonuniy tomondan nikohlashadi. Shu to‘y marosimigacha Navoiyda o‘ziga xos an’analar amalga oshiriladi. Bo‘lajak kelinning uyiga qizning qo‘lini so‘rash uchun, asosan, ayol kishilar hamda qizni yigitga tavsiya etgan ayol boshchiligida boriladi. Tomonlar rozi bo‘lishsa, ular o‘rtasida dasturxon almashtiriladi. Ya’ni sovchilikka kelgan kishilarning olib kelgan tovoq dasturxoni ochilib, ichidagi narsalar olinib, o‘rniga qiz tomondan yangi dasturxonlik narsalari solinadi. Tomonlar kelishib olishganidan so‘ng *bichuv, hayitlik, unashtiruv* marosimlari o‘tkazilgandan so‘ng to‘y kuni ochiqlanadi. *Bichuv* — bu bo‘lajak kelinga sarpo qilinib, ularni kelinning uyiga tashlab ketish marosimi. *Bichuv* marosimidan so‘ng kelin o‘z dugonalari hamda do‘stlarini holva o‘tirishiga chaqiradi. Qiz dugonalari bilan qolganda esa uning sarposi yoyilib, qizlar orasida talash bo‘ladi. *Hayitlik marosimi* – Xatirchi tumanida unashtirilgan qiz va yigitning uyiga qudalar ularning to‘ylari bo‘lguncha har hayit ayyomida dasturxon hamda sovg‘alar bilan borishadi.

37 O. Madayev, M.Jo'rayev, T. Sobitova, N. Muxitdinova. O'zbek folklori. —T:"Zebo Print", 2022. 74-bet.

Unashtirish (Xatirchida buni non sindirish ham deyishadi) marosimida to‘y uchun soliq solinadi, ya’ni kelin tomondagi to‘y uchun ma’lum miqdorda kerakli narsalar beriladi. Agar kelin Xatirchi tumanining o‘zidan hamda o‘qishga kirmagan bo‘lsa, unga beriladigan sut puli (bizda buni qalin puli ham deyishadi) miqdori juda oz beriladi. *Unashtirish* marosimida to‘y kuni belgilanadi. Kuyov hamda uning do‘stlari kuyov hamda kelin uchun mo‘ljallangan chimildiqning ichida o‘tirishadi va ular uchun *to‘qqiz tovoq* marosimi uyushtiriladi. Birinchi bo‘lib tovoqda to‘sh go‘shti olib kiriladi va buni olib kirish jaroyoni juda antiqa. Ya’ni go‘shtni olib kirishda kelinning yangasi irillaydi. Hamda kelib kuyovga o‘z qo‘li bilan yediradi. Kuyov go‘shtni bir marotaba tishlab qolganini jo‘ralari uchun mo‘ljallangan dasturxonga qo‘yadi. Undan so‘ng esa kelin yanganing tovog‘i uchun kuyov jo‘ralar pul berishadi. Agar kelin yanga berilgan pulga rozi bo‘lsa, indamasdan chiqib ketadi, berilgan pul yangani qoniqtirmasa yana qo‘shishlarini talab qiladi. Shundan keyin esa chimildiqqa tuxum olib kirishadi. Tuxum kuyovning qo‘njiga solinadi. Bu ularga ko‘p farzand tilash uchun qilinadi. Dugonalar kelinning boshida paranji ko‘tarishib, yor-yor, o‘lan aytib uni o‘z uyiga olib borishadi:

Tog‘da toychoq kishnaydi-yoo, ot bo‘ldim deb

Yor-yor-eee, ot bo‘ldim deb,

Uyda kelin yig‘laydi-yo, yot bo‘ldim deb,

Yor-yor-aaa ha, yot bo‘ldim deb...

Undan so‘ng o‘lan aytiladi:

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan-o, o‘lanchi qiz

Vadasida turolgan-o ho, vafoli qiz...

Kelin kuyovning oldiga, ya’ni qizning uyidagi chimildiqqa olib boriladi. Kelinni olib kelishgani uchun paranji ustiga yana kuyov tomon pul tashlashadi. Endi kelin va kuyov o‘rtasida urf-odatlar o‘tkaziladi. Chimildiqqa ikki kampir yotqizilib, “*tush ko‘rish”* degan an’ana bo‘ladi. Tush har bir to‘yda bir xil, ya’ni kelin-kuyov baxtli bo‘lishi bilan tugaydigan hamda ramziy obrazlar ishtirokida ularning hayotida ro‘y beradigan yaxshi kunlar haqida bo‘ladi. Keyin esa chimildiqdan ikkita sham uch marta aylantiriladi. Aylantirish davomida *“Kelin kuyovdan aylasin, kuyov kelindan aylasin”* degan so‘zlar takrorlanadi. Shundan keyin kelin-kuyov ko‘zguga qarashadi. Chimildiqni kuyov yig‘ib oladi hamda o‘z uyiga olib ketadi. Kelin esa o‘zi turgan xonani ko‘ylagi bilan teskari qilib supuradi. Haqiqatdan ham bu udumlar o‘zbek xalqining boy milliy qadriyatlarini aks ettiradi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, o‘zbek xalqining an’ana va urf-odatlari nihoyatda boy. Bu an’ana va urf-odatlar yo‘qolib ketmasligi uchun hammamiz birgalikda harakat qilmog‘imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O. Madayev, M.Jo‘rayev, T. Sobitova, N. Muxitdinova. O'zbek folklori. —T:”Zebo Print”, 2022.
2. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: “Mumtoz so‘z”, 2010.
3. Madayev O., Sobitova T. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T., 2005.
4. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – T., 2009 yil.
5. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi.–Toshkent: Fan, 1995. –168 b. 10. Saidov M.S.

MUOMALA DOIRASIDAN UZOQLASHIB QISMAN O‘ZGARGAN QADIMGI TURKIY TERMINLARI XUSUSIDA

Nurboboeva Charos Azamatjon qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti “G va IBA” ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Safarov Ural Xamroyevich
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti “Geografiya va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.n.
Nizomov Asror
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti “Geografiya va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi professor v.b., g-m.f.n.

Annotatsiya: Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarini ilmiy tahlil qilar ekanmiz, ayrim xalq geografik terminlarining muomala doirasidan uzoqlashib, “iste’mol” dan chetlashganligini, ularning o‘rnini esa tobora o‘zga atamalar egallay borish jarayoni ko‘zga tashlanadi.

Tayanch so‘zlar: Bilga - Bilog‘on aqlli kishi, Bo‘kon - Ko‘r ichak, Turum - Tuya bolasi, Kubaz – Paxta, Yumg‘oq – Yumaloq, Yanchuq – Hamyon, Yag‘an – Fil, Yap - Sel o‘yib ketgan chuqur yer, jar, Tupi – Shamol, Tikuch – Nonpar.

Abstract: Analyzing the work of Mahmud Kashgari “Devonu Lugatit Turk” from a scientific point of view, we can see that some folk geographical terms are leaving the sphere of circulation and are excluded from “use”, and their place is increasingly being taken by other terms.

Basic words: Bilga - Smart man, Bokon - Caecum, Turum - Baby Camel, Kubaz - Cotton, Yumgok - Round, Yanchuk - Wallet, Yagan - Elephant, Yap - Flood, carved deep earth, ravine, Tupi - Wind, Tikuch - Nonpar .

Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarini ilmiy tahlil qilar ekanmiz, ayrim xalq geografik terminlarining muomala doirasidan uzoqlashib, “iste’mol” dan chetlashganligini, ularning o‘rnini esa tobora o‘zga atamalar egallay borish jarayoni ko‘zga tashlanadi. Ushbu jarayonning kechishi tarixiy voqealar fonida yanada yaqqolroq ko‘rinadi. Demak tarixiylik bosqichi qanchalar ko‘p vaqtni o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lsa, ushbu jarayonning ta’siri ham shunchalar orta boradi. Chunki xalqlarning o‘zaro aralashuvi, assimilyatsiyasi izsiz kechmaydi. Balki dastlab ularning tili, so‘zlashuvi, urf-odatlari, dini, kiyinish madaniyati, ro‘zg‘or tutishi kabi etnografik elementlarida o‘sha ta’sir shubhasiz qisman bo‘lsada iz qoldiradi. Shu tariqa til aralashib “boyiydi” bir-birlarini “to‘ldirib” soflik darajasini yo‘qota boradi. Kuchsizroqlari esa tamoman o‘lik holga kirishi ham mumkin. Ushbu jarayon X asrda “Devonu lug‘atit turk” asari bitilmasdan muqaddam ham amalda bo‘lganligi tabiiy hol. Ammo, biz ushbu holatni M.Qoshg‘ariy ilmiy merosisiz isbot eta olmaymiz. M.Qoshg‘ariy merosi asosida ayrim xalq geografik terminlarining muomala doirasidan uzoqlashish jarayonini kuzatish, keyingi ming yillik kesimida tadqiq etish imkoniyatlari paydo bo‘ladi. Hamda ushbu tadqiqot etimologik holati noma’lum bo‘lib qolayotgan toponimlarning asl ma’nosi mazmunini ochib berish uchun xizmat qila boshlaydi. Chunki, abstrakt toponimlarning shakllanishi aynan biz so‘z yuritayotgan ayrim xalq geografik terminlarining muomala doirasidan uzoqlashish jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu holatni tadqiq etmasdan turib, abstrakt toponimlar sonini kamaytirish imkoniyati, maqsad mazmunidan tobora uzoqlasha boradi. Demak, abstrakt toponimlar ro‘yxatining tarix sahifasida o‘sib borish jarayoni ijtimoiy voqe’alar zanjiri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u ma’lum qonuniyatlar tarzida vujudga keladi. Uni hosil qiluvchi ayrim elementlarga misollar keltiramiz (1-jadval).

Muomila doirasidan uzoqlashgan ayrim qadimgi turkiy terminlari

1-jadval

№	Qadimgi turkiy atamalar	Qadimgi turkiy atamalarning X asrdagi mazmuni	Manba	Izoh
1	Bilga	Bilog‘on aqlli kishi	I-403	Ushbu xalq geografik terminini XIII- IX asrlardan e’tiboran arab tilidan kirib kelgan “olim” tushunchasi siqib chiqarib, turk tili leksikasida mahkam o‘rnashib oldi. Natijada “bilga” tushunchasi arxaik ahamiyat kasb eta boshladi.
2	Yefshan	Qo‘y yungini qirqadigan katta qaychi	I-395	Qirqlig‘ atamasi bilan almashgan. Har ikkalasi ham turkiy o‘zakka ega. Qirqlig‘, qirqadigan mazmuniga ega.
3	Bo‘kon	Ko‘r ichak	I-390	Ko‘r ichak, lotin tilida appenditsit termini faol muomalaga kirishgan. Bo‘kon ayrim “Bo‘kontog‘” kabi toponimlar mazmunidagina saqlanib qolgan. Umuman “Bo‘kon” xalq geografik termini pahlavon, yirik ilon, hatto to‘qayzor kabi mazmunlarga ham ega bo‘lgan.
4	Konak	Chovgum Qumg‘on	I-373	Ko‘proq fors tilidagi “obdasta” tushunchasiga o‘rnini bo‘shatib berganligi uchun zamonamizda “konak” so‘zi arxaik ahamiyat kasb etadi va shu boisdan tushunarsiz holga kirgan.
5	Turum	Tuya bolasi	I-377	Zamonamizda “bo‘taloq” so‘ziga o‘z o‘rnini bo‘shatib bergan bo‘lsada, ayrim er kishilar ismida saqlanib qolgan. Shu boisdan hanuz Turumboy, Turumov kabi ism yoki familiyalar uchrab turadi. Yog‘ochdan yasalgan, xususan “Bog‘dodi” foson eshiklarning qulog‘asi ham “turum” deya ataladi. Chunki u eshikni “turg‘azib” turishda faol ishtirok etadi.
6	Kubaz	Paxta	I-296	Kubaz tushunchasi ishlatilmaydi. Shu boisdan u tushunarsiz holatga kirgan. Ba’zan paxta-pomuq atamasi bilan almashib keladi va ayrim toponimlar o‘zagida qayd etiladi. Misol uchun Qashqadaryo vohasining g‘arbiy qismidagi Pomuq cho‘li.
7	Qarg‘u	Eng baland yerga qurilgan minora	I-401	O‘zagida “qarash” fe’li joylashgan, o‘ta tushunarli va xususiyatli atama bo‘lsada zamonamizda ishlatilmaydi va shu boisdan ham tushunarsiz holatga kirgan. U o‘z o‘rnini qorovulxona, Qorovultepa

				kabi atamalarga bo‘shatib bergan. Misol uchun Qorovultepa rayoni.
8	Keja	Kajava-kajava	III - 239	KASHIK. Zamonamizda “keja” ning aynan “kashik” tarzidagi ko‘rinishi mavjud. Kashik eshak, ot kabi transport, ulov vositalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u to‘qim, egar uzra ortmoq tarzida tashlab qo‘llaniladi. U rus tiliga ham kajava-kolyaska tarzida kirib borgan bo‘lishi mumkin. Kolyaskaning-koleso, g‘ildiragi mavjuddir.
9	Suqu	hovoncha	III -246	Suqu – suqmoq fe’li asosida shakllanganligi ko‘rinib turibdi. Chunki hovonchaga dastak suqib, urilib don yoki boshqa maxsulotlar maydalanadi.
10	Suma	Ivitilgan bug‘doy. U quritib tuyuladi. So‘ngra undan ugra osh va non qilinadi. Sharbat uchun qilingan, undirilgan arpa uchun ham bu so‘z qo‘llaniladi.	III - 253	Sumalak. Suma – ivitilgan bug‘doy, lak so‘z yasovchi qo‘shimcha-affikisdir. U erkalovchi ma’noni kuchaytiradi. Navro‘z ayyomi arafasida pishiriladigan maxsus bayram taomi. Sumalakning “se” malak – uch malak, pari, “si” malak-o‘ttiz malak pari kabi majburan tiqishtirilgan forsiy ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, u sumalakning asosiy etimologik mazmuniga jiddiy putur yetkazib buzadi. Noilmiy ahamiyat kasb etadi.
11	Yumg‘oq	Yumaloq	III - 51	Zamonamizda mavjud bo‘lgan “yumaloq” xalq geografik terminining asl ko‘rinishi deya anglash mumkin. Ammo, aynan “yumg‘oq” tuzilishida ma’lum emas. Tuya tezagi “qumaloq” deb atalgan.
12	Yuksak	Angushvona	III - 53	Angushvona, o‘ymoq ko‘rinishlari mavjud.
13	Yanchuq	Hamyon	III - 52	Muomalada mavjud emas. U hamyon, kartmon so‘zlariga almashgan. Aslida yanchuk-yongik yonda olib yuriladigan degan so‘zi o‘ta xususiyatli edi.
14	Yag‘an	Fil	III - 57	Muomalada mavjud emas.
15	Yanon	Fil	III - 386	Muomalada mavjud emas.
16	Yap	Sel o‘yib ketgan chuqur yer, jar	III - 156	Yop ko‘rinishi mavjud. Uni forsiy “ob” tushunchasiga yanglish almashtiradilar. Yop-kanal, Xorazm leksikasida ko‘proq ishlatiladi. Uni ayrimlar “ob” forsiy kelib chiqishga ega, deya yanglish fikrlaydilar.
17	Tupi	Shamol	III - 65	Ayrim “Boyto‘pi” kabi toponimlar mazmunida qisman saqlanib qolgan.
18	Tug‘	To‘g‘on	III - 141	To‘g‘on atamasi tarkibida mavjud forsiy “on”-lar ko‘pchilik ko‘rinishida yetib kelgan. Demak “on” affiksi orttirilgan va

				uning o‘zagida “TUG‘” tushunchasi turibdi.
19	To‘nshu	Shamdon	III - 388	Tarkibida “tun” o‘zagi aniq ajralib turgan turkiy tushuncha, X asrlardan e’tiboran arabiy “sham” va forsiy “don” o‘zakli gibrid tushunchaga o‘z o‘rnini bo‘shatib bergan.
20	Tikuch	Nonpar	III - 339	Muomalada mavjud emas. Tikach varianti Xorazm dialektida mavjud. Ba’zan uning o‘rniga nonpar tushunchasi qo‘llaniladi. Nonpar – ho‘roz patini uchqir tomoni dasta qilinib xamirga gul solish uchun ishlatiladi.
21	Tergi	Dasturxon	I - 403	Muomalada mavjud emas. O‘z o‘rnini forsiy – dasturxon tushunchasiga bo‘shatib bergan.
22	Mitsar	Buloq	I - 374	Muomalada mavjud emas. Turkiy kelib chiqishga ega bo‘lgan buloq tushunchasiga o‘rnini bo‘shatib beradi. Buloq, yuloq. Suv yo‘li demak.

Xulosa qilib aytganda Mahmud Qoshg‘ariy merosi asosida ayrim xalq geografik terminlarining muomala doirasidan uzoqlashish jarayonini kuzatish, keyingi ming yillik kesimida tadqiq etish imkoniyatlari paydo bo‘ladi. Ushbu tadqiqot etimologik holati nomalum bo‘lib qolayotgan toponimlarning asl ma’nosi mazmunini ochib berish uchun xizmat qila boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmud Qoshg‘ariy Devonu lug’atit turk 1 tom T., O‘zb. SSR F.A. nashriyoti. 1960. 433-bet.

2. M.Qoshg‘ariy Devonu lug‘atit turk. O‘zb. SSR FA. nashriyoti. T., 1963.

3. Nizomov A. Beruniyning gidrologik merosi. T., “Fan va texnologiya” 2018.

4. Nizomov A. O‘zbekistonning qadimgi gidrotexnik inshootlari geografiyasi. T., “GIDROINGEO” 2008.

5. Nizomov A. va boshqalar. Toponimika. T.; “SHARQ”, 2013. 119-bet.

6. Safarov U.X., Saydamatov F.R. O‘lkashunoslik. Uslubiy qo‘llanma. T.: TDPU., “ZUXRA BARAKA BIZNES” bosmaxonasi. 2022 y.

7. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: O‘zME, 2004-2009.

OLAM MILLIY MANZARASIGA LINGVISTIK QARASH

Utegenova Aynura
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: tezisda olam lisoniy manzarasi, olam milliy manzarasi, olam ilmiy manzarasi xususida xorij, o‘zbek tilshunoslari tomonidan berilgan ta’riflar keltirilib, ularga munosabat bildirilgan. Butun olam haqidagi tasavvurlar insonlarni hayoti davomida boshqarishi, faoliyatini belgilashi asoslangan.

Kalit so‘zlar: olam milliy manzarasi, olam lisoniy manzarasi, olam ilmiy manzarasi, milliy mentalitet, madaniy qadriyatlar, milliymadaniy kodlar, verbal va noverbal vositalar, olam obrazi.

Abstract: the article presents the definitions given by foreign and Uzbek linguists about the linguistic landscape of the world, the national landscape of the world, and the scientific landscape of the world, and reacts to them. Conceptions about the whole universe are based on the fact that they control people throughout their lives and determine their activities.

Keywords: national landscape of the world, linguistic landscape of the world, scientific landscape of the world, national mentality, cultural values, national cultural codes, verbal and non-verbal tools, image of the world.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda olamning lisoniy manzarasi va olamning milliy manzarasi tushunchalari orasidagi chegarani, albatta, bilish kerak. Olam milliy manzarasi lisoniy manzaraning yuzaga kelishi uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Lingvist O.Kornilov o‘zining «Lisoniy manzara milliy mentalitetning hosilasi sifatida» kitobida ularni shunday tavsiflagan edi: « Olamning milliy manzarasi bu millat tafakkuridagi prototiplar yig‘indisi, olamning lisoniy manzarasi esa shu prototiplarning lisoniy muqobillaridir» [1, 82].

Shu o‘rinda lingvist Z.Sabitovaning olam lisoniy manzarasiga bergan ta’rifini ham keltirish muhim. Unga ko‘ra, «Borliqni idrok etishning tilda aks etgan, millatning ko‘p asrlik tajribalari orqali shakllangan, insonning voqelikka munosabat tarzini belgilovchi, zamonda o‘zgaruvchan, olamning ilmiy manzarasiga nisbatan sodda milliy o‘ziga xos shaklidir» [2, 53].

Olamning ilmiy manzarasi ilmiy bilish taraqqiyotining ma’lum tarixiy bosqichlarida vujudga keladi. U borliq haqidagi olingan, o‘rganilgan umumiy bilimlarning yig‘indisi hisoblanadi. Umuman, olamning ilmiy manzarasi biror sohaga qiziqish va shu qiziqish natijasida muayyan fan, sohaga doir barcha elementlarni jamlashdir.

Lingvist L.M.Dmitrieva olam lisoniy manzarasiga «Olamning til ko‘zgusida aks etishi» [5, 37-41] tarzida baho beradi. Yu.N.Karaulovga ko‘ra, «Olamning lisoniy manzarasi mazkur tilning yaxlit holda olingan butun konseptual mazmunidir» [6, 264].

Ayon bo‘ladiki, olam lisoniy manzarasi til sohiblarining butun olam haqidagi tasavvurlari, qarashlari, tafakkurining natijasi hisoblanadi. Olamning sub’ektiv obrazini yaratuvchi tildir. Hozirgi olamning lisoniy manzarasi xususidagi zamonaviy yondashuvlarda ham til va madaniyatning yaxlitligi masalasi asosiy o‘rinni egallaydi. Ularning mushtarakligi olam lisoniy manzarasida ifodasini topadi.

Bunday nuqtai nazar V.A.Maslova qarashlarida ham aks etgan: «Olamning lisoniy manzarasi – millatning umummadaniy mulki, u ko‘p tarkibli va ko‘p miqyoslidir. Aynan olam lisoniy manzarasi kommunikativ xulq-atvor, tashqi olam va insonning ichki olamini anglash imkonini belgilaydi. U biror-bir davrga xos bo‘lgan ma’naviy, madaniy va milliy qadriyatlarga ega nutqiy tafakkur faoliyati uslubini aks ettiradi» [7, 296].

Tilshunos A.E.Mamatov talqinlarida olam manzarasi olam obrazi tarzida qo‘llangan. Uning bu masalaga taalluqli fikriga e’tibor qaratilsa, unga ko‘ra, «Olam obrazi – bu shaxs tushunchasining konseptual tizimi, qaysiki mentallik asosida izohlanadi, olam manzarasi esa aynan olam obrazi, chunki u til orqali beriladi» [13, 127-129]. Qayd qilish lozimki, inson bu hayotda tug‘ilib, voyaga yetar ekan, til orqali uning tasavvurlarida olam haqidagi lisoniy manzara shakllanib, butun umri davomida yanada mukammallashib boradi. Olam haqidagi tasavvurlar insonlarni boshqaradi. Faoliyatini belgilab beradi. Xulq-atvori, madaniyatini namoyish qilishini ta’minlaydi. Dunyodagi har bir til olamni o‘ziga xos va mos tarzda ko‘radi. Shunday ekan, har qaysi til egasi o‘z mentalitetiga muvofiq holda olamni anglaydi va milliy tilini shu asosda yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. 2-е изд, испр. И доп. –М.: ЧеРо, 2003.

2. Сабитова З.К. Лингвокультурология. –М.: Флинта: Наука, 2013.

3. Худойберганова Д.С. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. –Тошкент: Турон замин зиё, 2015.

4. Яковлева Е.С. Фрагменты русской языковой картины мира // Вопросы языкознания. –Москва, 1994. –№ 5.

5. Дмитриева Л.М. Топонимическая картина мира: отражение бытийных ценностей // Язык. Человек. Картина мира: Мат-лы все Рос. Конф. –Омск, 2000.

6. Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. –М.: Наука, 1996.

7. Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. –М.: Флинта: Наука, 2007.

8. Колшанский Г.В. Объективная картина мира в познании и языке. –М.: Наука, 1990.

9. Ширинова Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадиий таржимада қайта яратилиши: Филол. фан. д-ри …дисс. –Тошкент, 2007.

10. Арутюнова Н.Д. К проблеме функционирования типов лексического значения // Аспекты семантических исследований. Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь. –М.: Советская энциклопедия, 1990.

11. Ахророва Р., Шокирова М. О языковой картине мира // Тилшуносликдаги янги йўналишлар ва уларнинг муаммолари: илм. амал. семинар. матер. –Тошкент, 2013.

12. Шведова Н.Ю. Теоритические результаты, полученные в работе над «Русским семантическим словарем» // Вопросы языкознания. !999. –№1.

13. Маматов А.Э. Ментальность и менталитет в когнитивный сфере // Тилшуносликдаги янги йўналишлар ва уларнинг муаммолари: илм. амал. семинар матер. –Ташкент, 2013.

XX ASR BOSHLARIDA O’ZBEK LUG’ATCHILIGINING TARAQQIY ETISHI

Yaxshiboyeva Muxlisa

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fakulteti O’zbek tili vadabiyoti yo’nalishi 2-kurs 22/1-guruh talabasi

E-mail: muxlisayaxshiboyeva1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek lug'atchiligining XX asrda taraqqiy etishi, tarixi va uning bosqichlari, shu bilan birgalikda o'zbek tilshunosligida yaratilgan lug'atlar haqida yorqin ma'lumotlar aks ettirilgan va tahliliy fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Leksikografiya, elektron lug 'atlar, ensiklopediya, vikipediya, o'quv qo'llanma, imlo lug'ati, leksika, tilshunoslik, leksikologiya.

Lug'atchilik tarixi ya'ni dunyo lug'atchiligi tarixi qadim mingyilliklardan beri rivojlanib kelgan.Shu qatorda o'zbek lug'atchiligi ham bir necha ming yillar avval shakllanib boshlagan. O'zbek lug'atchiligining ilk bosqichi XI asrda bobokalonimiz Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'ati-turk” asarida namoyon bo’lgan.Asar arabchada “Divanu lug'ati-t turk” deyilgan. Ushbu atamada divan-“devon” bunda so'zlarning muayyan izchilikdagi to'plami; lug'at-“so'zlar” degani; uning izohlovchisi bo'lmish “turki”- turk ma'nosida bo'lib, o'sha zamondagi turkiy tilni bildiradi. “Divanu lug'ati-t turki” ning so'zma-so'z tarjimasi “Turk so'zlari devon” bo'ladi [1] Rivojlanishga ildam qadam tashlab kelayotgan jonajon yurtimizda o'zbek leksikografiyasi nafaqat an’anaviy balki zamonaviy lug'at tuzish ishlarini ham o'zlashtirdi. Ayni paytda zamonaviy elektron lug'atlar yaratish ishlari jadallik bilan davom ettirilmoqda.Ko'plab kutubxonalarda mavjud asarlar qatori ilgari nashr qilingan lug'atlarning elektron nusxalarini yaratish bugungi rivojlanayotgan mamlakatlarda asosiy o'rin egallagan.Masalan, kutubxonalarda “ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, “ O'zbek tilining izohli lug'ati” va yana shunga o'xshash bir necha tarjima lug'atlarni ko'rishimiz mumkin. Faqatgina qog'oz nusxa bilan chegaralanibgina qolmay ularning elektron shakllari mutaxassislar tomonidan keng kitobxonlar ommasiga ulardan oqilona foydalanishlari uchun havola qilingan.Bundan nafaqat o'quvchi talabalar, balki o'qituvchilar, mutaxassislar, bilim olmoqchi bo'lgan barcha foydalanishi mumkin.Bundan tashqari, jahon leksikografiyasi tajribasidan o'rin olgan vikipediya lug'atlarini yaratish bo'yicha respublikamizda dastlabki qadamlar qo'yilmoqda.Mazkur lug'atlarning boshqa lug'atlardan ajralib turadigan afzalligi shundaki, o'zining tezkorligi, universalligi va ommabopligi bilan boshqa lug'atlardan farqlanib, kitobxonning vaqtini tejashi, so'ralgan ma'lumotni esa qisqa va aniq ifodalashi bilan ahamiyatlidir. Lug'atlarni asosan ikki turga: ensiklopedik va lingvistik(filologik) lug'atlarga ajratishimiz mumkin. Ensiklopedik lug'at bu so'zlarning o'zini emas, balki ular orqali bildiriladigan predmet va tushunchalarni izohlaydi. Lingvistik lug'atlar esa til birligi hisoblangan so'zning ma'nolarini turli insoniy xususiyatlarini ochib beradi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi va 1991-yilda Mustaqillikning qo'lga kiritilishi o'zbek lug'atchiligida shonli ufqlarni ochib berdi. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab o'zbek lug'atchiligi erishgan tajriba va an’analar negizida turfa turdagi lug’atlar tuzish masalalarini ijobiy hal qilishga kirishdi. Bu borada qo'yilgan jiddiy qadamlardan biri O'zbekiston Milliy ensiklopediyasining nashr qilinishidir. Bunda totalitar tuzum siyosati, sobiq sho'rolar davrida nohaq kamsitilgan ajdodlar hayoti va faoliyatini haqqoniy yoritish singari tushunchalar ifodalangan. Bu ensiklopediya 32 dan ortiq fan sohalariga doir tushunchalar, 60 mingdan ortiq maqolalar keltirilgan. Navoiy asarlari bo'yicha tuzilgan eng katta lug'at hisoblangan “Sangloh lug'ati” haqida juda ko'p ma'lumotlar bor. Bu lug'at Mirza Mahdiyxonning lug'ati.

Uning bu lug'atni tuzishdan asosiy va birinchi maqsadi Navoiy asarlarida uchraydigan qiyin so'zlarning ma'nolarini forsiyzabon xalqlarga ochib berish edi. Shuning uchun u lug'atni “Sangloh” ya’ni toshli yer, toshloq deb atadi.Hozircha bu lug'atning uch nusxasi aniqlangan bo'lib, ular Angliya qo'lyozma xazinalari fondida saqlanadi.

Lug'at yaratishda ham ma’lum bir qonun-qoidalar bor. Barcha lug'atlar tuzilishi, mundarijasi kabilardan qat’i nazar, ana shu tamoyilga amal qilingan holda tuziladi: alifbo asosida tuzilganlik, mavzuiy guruhlarga ajratish, terminologik va boshqa lug'atlar shu tamoyillar asosida yaratiladi. Berilgan material yoki lug'atlarga izohlarning aniqligi, to'g'riligi va to'liqligini ta’minlash tamoyili nazarda tutiladi. Savodxonlik ta’limning bosh masalalaridan hisoblanadi.Bugun o'quvchi talabalarning savodxonligi talab darajasida emasligi ona tili ta’limining asosiy muammosi sifatida qaralmoqda. Albatta savodxonlik masalasini yaxshilashda nafaqat o'quv qo'llanmalar, darsliklar balki lug'atlarning ham o'rni juda muhim.Chunki ta’lim olayotgan talaba yoki o'quvchi so'zlarning xatosiz imlo qoidalariga muvofiq yozilishini imlo lug'atlari yordamida o'rganadi. Institutlarda maktab o'quvchilari va talabalar uchun “O'zbek tilining o'quv imlo lug'ati” nashrga tayyorlandi. Bunda 25000 dan ortiq so'zning to'g'ri yozilishini ko'rsatishga qaratilgan faol qo'llaniladigan, ta’lim jarayonida ishlatiladigan so'zlar qamrab olindi. Imloviy savodxonlikni yaxshilash maqsadida esa mutaxassislar tomonidan “O'zbek tilining katta imlo lug'ati” qayta nashrga tayyorlanib, 90000 ga yaqin so'zning imlo qoidalariga muvofiq shakllari berilgan[2] O'zbek lug'atchiligi asosan XX asrda ulkan yutuqlarga erishdi. XI asrda M. Koshg’ariy tomonidan boshlangan o'zbek lug'atchiligi tarixi XX asrga kelib ham kamol topdi va rivojlandi.

Lug'atlar uch nuqtai nazardan tasnif qilinadi:

1. Hajm nuqtai-nazaridan;
2. So'zlikning berilish nuqtai-nazaridan;
3. Maqsad nuqtai-nazaridan.

Leksikografiya ham amaliy, ham nazariy soha sifatida leksikologiya, uslubshunoslik, fonetikaga hamda til tarixi, tilning grammatik qurilishi haqidagi ta’limotga suyangan holda ish ko'radi.Zamonaviy leksikografiya muayyan davr jamiyatidagi bilimlar majmuini aks ettiruvchi lug'atlarning muhim ijtimoiy vazifasini alohida qayd etadi.Leksikografiya o'zi lug'at tuzish ishi sifatida turli xalqlarda yozuv taraqqiyotining ilk bosqichlarida u yoki bu tushunarsiz so'zning qanday ma’no anglatishini bilish ehtiyoji natijasida paydo bo'lgan. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asari ya’ni lug'atida faqat so'zlar, ularning

ma’nolarini izohlab qolmasdan, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlari kabi ko'p ma’lumotlar manbai hisoblanadi. Bundan tashqari u dastlabki ikki tilli lug'atlardan hisoblanadi. Hozirgi kungacha 10 ga yaqin xorijiy til bilan o'zbekchani qiyoslovchi ko'p tarjima lug'atlari, yoki fan sohalariga oid 100 dan ziyod lug'atlar yaratildi.O'zbek lug'atchillgi kamida mingyillik tarixga ega bo'lsa-da, lug'atlarning ayrimlari ikki, ayrimlari esa ko'p tilli edi.O'tgan asrning 80-yillarigacha o'zbek tilining bugungi ma’nodagi izohli lug'atiga tartib berilmagan. Jonajon O'zbekistonimiz har taraflama zamonaviylashdi.Shu sababli yangi tushunchalar kirib keldi. Ayrim so'zlar boshqa ifodalarga o'rin bo'shatib berdi. Siyosiy-huquqiy o'zgarishlar, ko'p-ko'p so'z istilohlarning qayta tirilishi tufayli leksik qatlamda talay yangi-yangi tushunchalar yuzaga keldi. Shuning uchun lug'atchilikning bugungi zamonaviy talablari ham o'zgarib takomillashib boryapti. Lug'at, asosan hozirgi o'zbek tilida ishlatilayotgan so'zlarni izohlaydi. Lekin hozirgi deganda faqat ayni kundagi til emas, shu zamondagi til inobatga olinadi. O'tgan asrlarda lug'at tuzish ishi mashaqqatli, og'ir va albatta ko'p mehnat talab etadigan soha bo'lganligi bilan tez o'zgaruvchan, yangilanishi zarur bo'lgan til fanining bir bo'limi bo'lib qoldi. O'zbek tili leksikasining katta qismini o'z qatlam leksemalari tashkil etadi. Lug'atlar haqida fikr yuritilar ekan, uning rango-rang ko'rinishi lug'atlarning milliy madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati sifatida namoyon bo'ladi. Lug'atlar hamisha inson- jamiyat-madaniyat xalqlarini birlashtirib turadi. O'quv lug'ati tarixini o'rganish harakatlari Yevropa tilshunosligida ham, rus tilshunosligida ham umumiy lug’atshunoslik masalalarini o'rganishdan ikki-uch asr keyin boshlangan. Yevropada o'quv lug'atchiligi o'z maqsadlariga erishib, bugungi kunda lug'atlarini zamonaviy ko'rinishlarini yaratish ya’ni ularni elektronlashtirish masalalari bilan shug'ullanmoqda[3] O'zbek tilini yanada rivojlantirish, uni butun dunyoga tanitishda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan juda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tilini o'zbekchalashtirish, butunjahon Internet tarmog'idagi milliy segmentni yanada boyitish, o'zbek va xorijiy tillar bo'yicha lug'at va so'zlashgichlarning yangi avlodini yaratish kechiktirib bo'lmas vazifalarimiz ekanligini ta’kidlanib turli islohotlar olib borilmoqda. Shu o'rinda, XX asr boshida yashab ijod qilgan, o'zbek, fors, arab, turk, rus va hind tillaridagi so'zlarni o'z ichiga olgan noyob lug'at kitobini yaratgan ma’rifatparvar bobomiz Ishoqxon Ibratning: “ Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'tiyo qilib, ehtirom ko’rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat-bu Vataniy ishdir”, degan hikmatli so'zlari biz uchun muhim hayot yo'limizni yoritadigan mayoq bo'lib xizmat qilishi kerak”,-deydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek lug'atchiligi ko'p tarix va an’analarga ega. O'zbek lug'atchiligi tarixida ya’ni o'sha davrda yaratilgan lug'atlar buyuk

ajdolarimiz ya’ni bobokalonlarimizning bebaho asarlari haqida qimmatli ma’lumotlar beruvchi asarlar hisoblanadi.Bugungi kunda o'quvchilarning maktab darsliklari tematikasi doirasida chegaralanib qolayotgani, ijodkorlikka yo'naltirilgan zamonaviy lug'atlar bilan ishlamayotganligi ham ta’lim tizimidagi ma’lum bir bo'shliqni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shunga ko'ra ham tilshunosligimizda ham umumfanlar bo'yicha yaratiladigan elektron lug'atlar masalasi dolzarb masalalardan biridir.

Adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg'ariy “Devonu lug'at-t turk” 3-bet
2. Yorqin Odilov, O'zFA o'zbek tili adabiyoti va folklori institute bo'lim mudiri, filologiya fanlar doktori, professor “ O'zbek tili rivojida yangi avlod lug'atlarining o'rni”. Yangi O'zbekiston 2021-yil 4-avgust.
3. Murtazayev G'olib “O'quv lug'atlarining nazariy asoslari”. “Innovative Development in Educational Activities” Volume 2 Issues 8/2023. ISSN:2181-3523
4. https://yuz.uz
5. https://abiturtest.uz
6. https://uz.m.wikipedia.org
7. https://uzpedia.uz
8. http://genderi.org.

SH.SEYTOVTIŃ « XALQABAD» ROMANINDA AYIRIM FRAZEOLOGIZMLERDIŃ QOLLANILIWI

Sultamuratov Juginisbay – *Ájiniyaz atındaǵı NMPI Qaraqalpaq tili kafedrası assistent oqıtıwshısı,* tme: @juginis

Калит сўзлар: роман, соматик иборалар, лексик–семантик, лексик маъно, фразеологизмлар

Ключевые слова: роман, соматические фразеологизмы, лексика-семантический, лексическое значение, фразеологизмы

Key words: novel, somatic phraseological units, vocabulary-semantic, lexical meaning, phraseological units

Аннотация: Мақолада Ш.Сейтовнинг романида қўлланилган соматик иборалар ҳақида сўз юритилган.

Аннотация: В статье обсуждаются соматические выражения используемые в романе Ш.Сейтова.

Annotation: The article discusses the somatic expressions used in the novel by Sh. Seitov.

Túrkiy tilles xalıqlar arasında qaraqalpaq xalqı bay awız ádebiyat úlgileri menen birge bay frezologiyalıq birliklerge iye bolıwı menen ajıralıp turadı. Qaraqalpaq tiliniń frazeologizmlerde tákirarlanbas kórkem-súwretlewshilik imkaniyat, tereń, tujırımlı hám ótkir máni, úlken tásirlilik, anıqlıqtı támiyn ete alǵan qısqalıq sulıwlıq bar. Qaraqalpaq tiliniń kórkemligin, obrazlılıǵın, pikirdi oydı tujırımlı máni menen naǵıslap bezew qásiyetin frezologizmlersiz bahalaw qıyın.

Tilde frazeologizmllerdi ján-jaqlama úyreniwge boladı, sebebi onıń gáp mánisin qubıldırıp, aydınlastırıp beriw múmkinshiligi oǵada keń. Olardan biri frazeologizmlerdi komponentine, sózlerdiń jumsalıwına, semantikalıq bir toparǵa kiriwine qaray tematikalıq jaqtan úyreniw máselesi qaraqalpaq til biliminde búgingi kúnge shekem arnawlı túrde izertlenbey kiyatırǵan máselelerden biri.

Sh.Seytovtıń «Xalqabad» romanında frazeologizmler kóplep ushırasadı. Olar mánilik bildiriliwi boyınsha túrli tematikada, háreketti de, belgini, emotivliktide de bildire aladı.

Mısalı: Seni burınnan **kóz kórgen** adam desek, arqandı júdá qamıs espeseń kerek. (II tom, 206-bet)

Gápte **kóz kórgen** sózi leksika-semantikalıq usılda jasalıp, onda háreket mánisi de bar.

Biraq, gáptegi ańlatatuǵın mánisine qaray is-háreketlik mániden adamnıń qásiyeti yaǵnıy belgisin bildirip, burınnan tanıs, jat emes adam degen mánini bildirip tur.

Mısalı: **Qurıǵan** jeri sol deseń-o. (II tom, 211-bet)

Qurıǵan sózi leksikalıq mánisi boyınsha **ázzi** sózi menen kontekstlik sinonim bola aladı.

Mısalda adamnıń eń ázzi belgisin, ázzi tárepi degendi ańlatıp, qanday sorawına juwap berip sóylew tilinde, ásirese ónimli.

Mısalı: Qızlar toparı bir-ekewi mıyıq tartısıp, **tis qaqqan** qızları sır berejaq emes. (II tom, 298-bet)

Mısalda, **«Tis qaqqan»** frazeologiyalıq sózden háreketlik máni ańlasılǵanı menen kelbetlik sóz shaqabına ótken. Tis qaǵıw-tisin qaǵıw-frazeologizmleri pútkilley basqa mánide, yaǵnıy tisin sındırıw mánisin berse, al tis qaqqan dizbeginde bolsa, oǵada tájiriybeli hám sumlıǵı da bar adam, qanday da nárseniń sırı ishley biletuǵın adamdı bildiredi.

Mısalı: Izbasqannıń adamǵa **pitpegen** shaqqanlıq, mergenlik jawızlıǵı bar, naǵız **júrek jutqan** jalmawız edi. (I tom, 5-bet)

Bul mısalda júrek jutqan-somatikalıq frazeologizmde júrek adam múshesi, ishki dene aǵzası arqalı sol adamnıń asa qanqorlıǵı názerde tutılǵan.

Pitpegen sózinde bolsa, Izbasqandı basqa ápiwayı adamlardan ayrıqshalap kórsetiw ushın jazıwshı tárepinen stillik jaqtan sheberlik penen paydalanılǵan.

Mısalı: Ele ózine kelip **jalshımaǵan** Tolıbaydıń bul gápten **astar izlegendey shaması** joq edi. (I tom, 6-bet)

Jalshımaǵan sózinde is-háreketlik mániden góre, predmettiń belgisi mánisi basım.

Mısalı: Bul ózi, ata - teginde **baylıq bolmaǵan** jigirmalaǵan jıl arıda nanı **qalıńıǵan** baylıqtan **mańlayı ashılǵan** bay edi. (I tom, 6-bet).

Mısalda mańlayı ashılǵan frazeologiyalıq sóz dizbeginde isi ońǵarılǵan, júrisken degen sıyaqlı máni basım. Nanı qalıńıw-frazeologizmi arqalı bardamlasıw, qurǵınlasıw, yaǵnıy adamnıń hal-jaǵdayı názerde tutılǵan.

Mısalı: Jurt ilimniń hikmetine **ushıraǵan** duwayıbánt dep júrgen Izbasqandı Tolıbay bunıńday dep oylap pa?! (I tom, 8-bet).

«Ushıraǵan» sózi grammatikalıq tárepten qaraǵanımızda ushıraw feyiline –*ǵan* kelbetlik feyil forması qosılıw arqalı adyektivaciya qubılısına ótse de, awızeki sóylew tilinde bir nársege jollıqqn adam mánisinde jazıwshı tárepinen orınlı jumsalǵan.

Mısalı: Ózi **ólgen** jer, **kewli qabarıp otırǵan** adamlardı siyasattan túńildirip alamız ba, dep qorıqtı. (I tom, 27-bet)

Mısalǵa alınǵan **ólgen** sózinde qaytıs bolǵan adamnıń úyi názerde tutılǵan, kewil sózi arqalı kelgen frazeologizmde bolsa, adamnıń emociyası, qapashılıq halatı túsiniledi, demek psixologiyalıq halatın, háreketin bildirip, gápte adam sezimi ańlatılǵan.

Mısalı: Jaqan shın júrekten jılawı, «**kelispegen** talayım» dep aytınıp jıladı. (I tom, 59-bet)

Mısalda dıqqatqa alınǵan sóz –*pe* bolımsızlıq hám –*gen* kelbetlik feyil forması arqalı kelbetliklesip kelip, ózin-ózi ǵarǵaw mánisi seziledi. Qaharmannıń ishki halation ańlatıwda frazeologizmler orınlı-ornında qollanılǵan.

Mısalı: Til menen emes, qaǵaz **sóyleytuǵın** jer bolsa deydi. (I tom, 12-bet) Mısalda «**sóyleytuǵın»** jeke stillik frazeologizm bolıp sanaladı.

Tolekeń **jin kózlenetuǵın**, sonday bir keselge ushıraptı. (I tom, 26-bet)

«**Jin kózlenetuǵın»** frazeologiyalıq dizbeginde adamnıń sırtqı kórinisi hám emociyası sheberlik penen jumsalǵan.

Sh.Seytovtıń «Xalqabad» romanınıń leksikasındaǵı ayırım frezeologizmler adamnıń is-háreketlerin, ishki keshirimlerin, minez qulqındaǵı ózgesheliklerdi, psixikalıq halatların kórkem hám tásirli tásirli etip súwretlewde keń paydalanadı. Biz olardıń ayırımlarına ǵana toqtadıq. Bul topardaǵa frazeologzmler ele de ilimiy kóz qarastan arnawlı izertleyalerdi talap etedi.

Ádebiyatlar:

1. Бердимуратов Е. Ҳәзирги қарақалпақ тили. Лексикология. Нөкис, Билим, 1994 .

2. Қарақалпақ тили фрезологиясын үйрениўдиң әҳмийети. «Қарақалпақ тили фразеологиясының актуаль мәселелери». Нөкис. 2011

3. Сейтов Ш. «Халқабад» романы. Нөкис. Қарақалпақстан. 1979.

II SHO‘BA: UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TILLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY YONDOSHUVLARI

XIX ASR IKKINCHI YARMI XX ASRNING BOSHLARIDA O‘ZBEK MA’RIFATPARVARLARINING O‘RNI VA FAOLIYATI

Ya. Madaliyev
M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti professori

Annotatsiya: Maqolada XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida o‘zbek ma’rifatparvarlarining o‘rni va faoliyati yoritilgan. Turkiston jadidlari xalqni qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariat tamoyillarini isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish va milliy muxtoriyatga erish g‘oyasini ilgari suradilar. Jadidlar milliy birlik, ma’naviy-ma’rifiy isloxotlar bilan jamiyatni yangilash, yuksaltirish yo‘llarini izlaganlar.

Kalit so‘zlar: Jadid, jadidlar, jadid yozuvchilari, ma’rifat, ma’rifatparvarlik, iqtisodiy tazyiqlar

Har bir mamlakat va xalq hayotiga yangi ijtimoiy va madaniy-ma’rifiy g‘oyalarning kiribkelishi, shu g‘oyalarning maktab va maorif, matbuot, adabiyot va san’at sohalarida iqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirishi tarixiy sharoit taqozosi bilan ro‘y beradi. XIX asr oxiri – XX asrboshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining boshlanishi kuni kecha feodalizm davrining qonun va qoidalari hukmronlik qilgan o‘lkaga kapitalistik munosabatlar kirib kela boshlashi bilan mahalliy halq uchun yangi hayot chechaklari – jadid maktabi, matbuoti, teatr va adabiyoti kurtak yoza boshladi. Ammo bu madaniy-ma’rifiy voqealar Sahroi Kabirda emas, balki Ibrat, Furqat, Muqimiy, Ahmad Donish singari mashhur shoirlar asos solgan o‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyoti daraxti gullagan zaminda maydonga keldi. Biroq bu hol Turkistondagi jadid adabiyotining vujudga kelish va shakllanish manbalari faqat o‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyoti an’analaribilangina cheklanadi, degan ma’noni mutlaqo anglatmaydi. To‘g‘ri, o‘zbek jadid adabiyotining peshqadam vakillari M.Behbudiy, Hamza, Fitrat, Cho‘lpon va Abdulla Qodiriy ijodida garchand Ibrat, Furqat, Muqimiy, Ahmad Donish singari ustozlarning ma’rifatparvarlik g‘oyalari etakchilik qilgan bo‘lsa-da, bu g‘oyalarning ular ijodida xalq va mamlakat taqdiri ila uzviy bog‘lanib ketganligi bilan ajraladi. Jadid shoir va yozuvchilarining asarlarida ifodalangan ma’rifatparvarlik g‘oyalari erk va hurriyat g‘oyalari bilan, mustaqillik uchun kurash g‘oyalari bilan tutashib ketgan. Jadid yozuvchilari ijodidagi ma’rifatparvarlik g‘oyasining sig‘imi benihoya kengdir.

Shu hol ayrim o‘zbek adabiyotshunoslarining Turkistondagi jadidchilik harakati Fransiyadagi ma’rifatparvarlik harakati ta’sirida maydonga kelgan, deb chiqishlariga sabab bo‘lgan. Shunday adabiyotshunoslardan biri akademik B.Nazarov bo‘lib, u "Turkiston jadidlarining fransuz ma’rifatparvarlari bilan intellektual aloqalari" degan maqolasida bunday yozgan edi: "Jadidlar, umuman, fransuzlar hayotiga, ilmiy-ijtimoiy merosiga katta qiziqish va hurmat bilan qaraganini ko‘rsatuvchi ko‘plab faktlar(ni) keltirish mumkin. Masalan, Fitrat "Sayyohi hindi" (1912) kitobida aytadiki, "Qarshi yo Kitobning biror bir olacha to‘quvchisi Farangistonda yashasa" edi, millioner bo‘lib ketar edi. Behbudiy esa o‘zining "Ikki emas, to‘rt til kerak" (1913) maqolasida butun olam bir-biri bilan gaplashadigan tillardan biri fransuz tilidir, bu tilni o‘rganish zarur, degan fikrni ilgari suradi. Jadidchilik rahnamolari nainki ilmiy yoki publitsistik chiqishlari, balki badiiy asarlarida ham Farangistonga hurmat bilan qaraganini ko‘rsatadilar, asar qahramonlari bu yurt haqida mehr bilan fikr yuritadilar..."

Bulardan tashqari shuni unutmaslik kerakki, ishga qabul qilinayotgan nomzod topshiriladigan ishni bajarishga yaroqligina bo’lib qolmay, balki korxonaning boshqa xodimlar bilan chiqishib ketadigan ham bo’lish zarur. Agar u shu keyingi talabga muvofiq kelmasa, odatda yaxshi mutaxassisning ham bahridan o’tish lozim. Ishga qabul qilingan odam o’z hamkasblariga qo’shilib ketganda o’zini-o’z uyidagidek his yetishi muhimdir. U o’z burchlarini qanday yeplayotganini diqqat bilan kuzatish hamda unga yordam berish kerak, uning yangi joyda o’zini tutib olishi uchun vaqt kerakligini anglamoq lozim.

Xodimlarni tanlash va ularga adolatli baho berish boshqarishning yeng murakkab qirralaridan hisoblanadi. Shu sababli ularni to’g‘ri tanlash va joy-joyiga qo’yishda zarur mas’uliyat bilan yondashilmasa ish yakunlari kutilgan samarani bermasligi aniq. Xodimlarni tanlash uslubi qanchalik puxta ishlab chiqilgan bo’lsa, shunchalik korxonaning mehnat faoliyatida kutilmagan samaradorlikka yerishish amaliyotda isbot yetilgan.

- ✓ Xodimlarni tanlashda ularning ko’p qirrali xislatlarini aniqlash imkonini beruvchi quyidagi maxsus usullar qo’llaniladi:
- ✓ anketa ma’lumotlarini tahlil qilish usuli;

- ✓ ruhiy testlash usuli;
- ✓ amaliy ish o’yinlarini o’tkazish usuli;
- ✓ malakaviy testlash usuli;
- ✓ taqrizlarni tekshirish usuli;
- ✓ suhbat o’tkazish usuli;
- ✓ attestasiyadan o’tkazish usuli;
- ✓ reyting usuli.

Attestasiya jarayonida xodimlarni malakasiga, uning bajarayotgan ishiga yoki lavozimiga loyiqligiga xolisona baho berilishi lozim.

Attestasiya qilinayotgan xodimning ishiga baho berishda uning reja topshiriqlarini bajarishdagi shaxsiy xizmati, mehnat intizomi, o’z vazifasini sidqidildan bajarishi kabilar inobatga olinishi zarur. ana shular asosida attestasiya o’tkazuvchilar ochiq ovoz berish yo’li bilan quyidagi baholarni berishi mumkin:

bajarayotgan lavozimiga loyiq;

xodim ko’rsatilgan nuqsonlarni keyingi o’tkaziladigan attestasiyagacha yo’qosa, bajarayotgan lavozimiga loyiq xodim ko’rsatilgan nuqsonlarni keyingi o’tkaziladigan attestasiyagacha yo’qosa, bajarayotgan lavozimiga loyiq; yegallab turgan lavozimiga loyiq yemas.

Shunday qilib, xodimlarni boshqarishdan asosiy maqsad ularning faoliyatini korxona foydasini oshirishga yo’naltirishdir.

Xulosa

Xodimlarni boshqarish tizimi deganda, korxonada band bo’lgan kishilar salohiyatini rivojlantirish va undan samarali foydalanish, ularning normal faoliyat ko’rsatishi uchun zaruriy shart-sharoit yaratish bo’yicha o’zaro bog‘langan iqtisodiy-tashkiliy va ijtimoiy tadbirlar tizimi tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- ➢ Qosimova D.S. Menejment nazariyasi: darslik. –T.:, Tafakkur bo’stoni, 2011. -336 b.
- ➢ Yermakov V.P., Makiyev Z.G. Menedjment dlya studentov vuzov. – Izd. 5-ye. - Rostov n/D: Feniks, 2008. – 184 s.
- ➢ Gluxov V.V. Menedjment: Uchebnik. 3- izd.- SPb.: Piter, 2009. -608 c.

КОМПЕТЕНТНОСНЫЙ ПОДХОД ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Рахматова Саодат Амракуловна
ст. преподаватель кафедры «Языков»
Самаркандского филиала Ташкентского
университета информационных технологий
mail; rahmatova1867@mail.ru

Abstract: In this paper, the author examines the modern educational paradigm, which proclaims the leading role of the competence-based approach when combined with many others, allows us to raise the question of identifying a possible correlation between the psycholinguistic foundations of teaching foreign languages and the essence of this approach, which is the purpose of this article. First of all, the author notes that in scientific terms, the specified specificity is seen in the perspective from the position of which the vector of the implementation of a specific approach is determined: teaching, learning, or special conditions for organizing their interaction. It also describes the manifestation of psycholinguistic foundations through the prism of the structure of competence in teaching a foreign language.

Key words: psycholinguistics, paradigm, perspective, activity, context, teaching a foreign language, approach, competence structure

Методология обучения любой предметной области знания предполагает строгое соблюдение основ осуществления этого процесса. Психолингвистические основы обучения иностранному языку рассматриваются, главным образом, с позиции известной теории речевой деятельности: закономерности и особенности порождения речевого высказывания, этапы его конструирования и формы реализации, проблема отбора языкового и речевого материала, а также его методическая организация, выбор единицы обучения, специфика принципов обучения и т.д. Современная образовательная парадигма, провозглашающая ведущую роль компетентностного подхода при его сочетании со многими другими, позволяет ставить вопрос о выявлении возможной корреляции психолингвистических основ обучения иностранным языкам и сущности указанного подхода, что и составляет цель настоящей статьи. Для достижения поставленной цели нами обозначено две задачи.

Во-первых, поскольку компетентностный подход сочетается с другими подходами при формировании разнообразных видов компетенций в процессе обучения иностранному языку (ИЯ), важно уточнить в контексте каких подходов присутствует так называемый

«психолингвистический след», значительно влияющий на качество результирующего продукта обучения, то есть качество речи на ИЯ.

Во-вторых, компетенция как ключевое понятие компетентностного подхода, характеризуется собственной структурой, чётко обозначенной с позиций педагогической науки, поэтому важно проанализировать возможную взаимосвязь психолингвистических основ обучения со структурными компонентами феномена компетенции вообще вне специфики её конкретного вида. Последовательно изложим результаты решения сформулированных задач.

Ведущая функция компетентностного подхода в том, чтобы акцентировать внимание на результате образования, т.е. способности личности действовать в различных практических ситуациях, служить основой формирования и развития феномена компетенций / компетентности. Имеющиеся достижения в области компетентностного подхода в отечественной педагогике позволяют конкретизировать его характерологические черты: социальная и личностная значимость формируемых знаний, умений и навыков, качеств и способов продуктивной деятельности человека; четкое определение целей профессионально-личностного совершенствования, выраженных в поведенческих и оценочных терминах; наличие четкой системы критериев измерения, которые можно фиксировать, измерять и обрабатывать статистическими методами.

Формирование, совершенствование и развитие компетенций происходит в контексте разнообразных подходов, что во-многом обуславливает собственно типологическое и видовое многообразие самих компетенций, формируемых в учебном процессе. Интерес представляют те подходы, в рамках которых реализация основных положений теории речевой деятельности получает, либо могла бы получить некоторое новое звучание в практике обучения иностранному языку. Поэтому мы обратились к таким подходам, которые непосредственно сочетают лингвистический, личностный аспекты с учетом новой специфики организации учебного процесса по предмету ИЯ. Прежде всего отметим, что в научном плане указанную специфику мы усматриваем в том ракурсе, с позиции которого определяется вектор реализации конкретного подхода: обучающего, обучающегося или особые условия организации их взаимодействия.

Остановимся на некоторых из них. Коммуникативно-компетентностный подход реализует важную функцию – обеспечить использование широкого арсенала разноуровневых средств языка, которыми владеет личность в данный момент, для достижения прагматических целей; актуализировать адаптационные возможности, опыт и способы преобразовательной

деятельности. Н.И. Чернова трактует названный подход как «…совокупность общих положений, определяющих логику лингвообразовательного процесса, ориентированного на развитие системного комплекса осведомленности» (Чернова, 2007: 28) и определяет его сущность на примере развития лингвогуманитарной компетентности. В данном случае портрет коммуникативно-компетентностного подхода актуализируется в таких чертах личности как способность оперировать энциклопедическими знаниями, отражающими устройство реального мира, знаниями различных предметных областей, включая область профессиональной деятельности человека, пользование ими с целью установить речевой и текстовой контакт с партнером, поддерживать его или прерывать, соблюдая при этом правила и конвенции общения, принятые в данном социуме.

В современных педагогических исследованиях раскрывается сущность мотивационного компонента в структуре разных видов компетенций. Применительно к языковому образованию этот вопрос исследуется О. В. Кирюшиной (2007) в отношении развития специальной познавательной компетентности. Критерии мотивационного компонента достаточно подробно представлены в работе А.Э. Рахимовой (2007).

Их интерпретация сквозь призму психолингвистических основ обучения ИЯ может выглядеть следующим образом: осознанность цели речевой деятельности, интерес к процессу творчества при порождении высказывания, стремление к успеху при решении речевых задач, уровень познавательных интересов, потребностей и стремлений в изучении ИЯ, стремление к поиску дополнительной языковой информации, стремление к коммуникации, к работе в команде. Мотивационно-когнитивный компонент проанализирован Н. И. Черновой (2007) при определении содержания лингвогуманитарной компетентности специалиста с высшим техническим образованием. Их актуализация в процессе обучения ИЯ с учетом психолингвистических основ повысит эффективность реализации компетентностного подхода в современных условиях.

Таким образом, «психолингвистический след» проявляется во многих ключевых подходах, взаимодействующих с ведущим – компетентностным подходом в современном обучении иностранному языку. Прослеживается чёткое проявление психолингвистического аспекта в структуре феномена компетенции вообще вне специфики её конкретного вида. Это доказывает не только возможность, но и необходимость учитывать психолингвистические основы обучения ИЯ при обеспечении требуемого высокого качества соответствующих компетенций.

Литература:

1. Загайнов И. А. Формирование гендерной компетентности педагога в процессе профессиональной подготовки. Автореф. дис. …канд. пед. наук. – Йошкар-Ола, 2007. – 22 с.

2. Сапрыкин В.А. Об образовательной среде // Культурно-образовательная среда: история, современность, перспективы развития. Сб. материалов науч.- практ. конф. вузов России. – Елец: ЕГУ им. А. И. Бунина, 2002. – С. 26 - 30.

3. Тюмасева З.И. Словарь-справочник современного общего образования: акмеологические, валеологические и экологические тайны / З.И. Тюмасева, Е.Н. Богданов, Н.П. Щербак. – СПб.: Питер, 2004. – 464 с.

DUNYODA RUS TILIDA GAPIRISHNING AHAMIYATI

Amirqulov D.N.- *Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi*
Odilova.S.A – *Samarqand iqtisodiyoti va servis instituti dotsenti.*

Annotatsiya: Ushbu maqolamda rus tilini dunyo bo'yicha qancha aholi so'zlashishi va maktablarda rus tilini o'qitish salohiyati bo'yicha. Bog'chalarda, maktablarda, kollej va hattoki oliy ta'lim o'quv yurtlarida rus tilining fan sifatida keng targ'ib etilganligini misollar orqali keltirib o'tganman.

Kalit So'zlar: Chet mamlakatlarda rus tilining o'rni, ruscha madaniyatlarda inson qadri, bola nutqida rus tilining shakllanishi, O'zbek maktablarida rus tili, rus xalqining madaniyati, o'zgacha dunyoqarash, rus tilida milliy madaniyat.

Rus tili – rus xalqining milliy tili, rus milliy madaniyatining bir shakli hisoblanadi. Rus tili dunyoda eng rivojlangan tillardan biridir. U ilm-fan va texnikaning barcha sohalarida boy lug'at va terminologiya, grammatik vositalarning ifodaliligi, qisqaligi va ravshanligiga, dunyodagi narsalarning xilma-xilligini aks ettirish qobilyatiga ega. 2005-yil Iyun oyida "Rossiya Federatsiyasining davlat tili to'g'risida" Federal qonun qabul qilindi. Hozirgi vaqtda rus tili tarqalish darajasi bo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinda turadi. Birinchi o'rinni Ingiliz tili unda taxminan 500 million kishi ona tili yoki ikkinchi til sifatida ishlatishadi. Ikkinchi o'rinda xitoy tili va uchinchi o'rinda ispan tili dunyo bo'yicha keng qo'llaniladigan tildir. Har bir inson hayotida hech bo'lmaganda bir marotaba bo'lsa ham o'z ona tili yoki boshqa tillar haqida qandaydir fikr yuritishi mumkin. O'zbek maktablarida rus shoirlarning asarlari darslik sifatida o'tiladi. Hech o'ylab ko'rganmisiz o'zbek tilidagi darsliklar o'zbek adiblarining asarlari ham rus maktablarida o'tilarmikin. Rus tili nafaqat

Rossiya Federatsiyasining davlat tili. Bu jahon tillar soniga, ya’ni turli davlatlar xalqlari o’rtasida xalqaro muloqot vositasi bo’lib xizmat qiladigan tillarga tegishli. Dunyoda ma’lum bo’lgan ikki yarim mingdan ortiq tillardan xalqaro muloqotni jahon tillari klubi deb ataladigan eng rivojlangan jahon tillari guruhi ta’minlaydi. Tilni jahon tili roliga ko’tarilishi, bu tilda yaratilgan madaniyatning umuminsoniy ahamiyati bilan belgilanadi. Tilning jahon tili maqomi qonuniy ravishda uni xalqaro tashkilotlar yoki konferensiyalarning rasmiy yoki ishchi tili (BMT, YUNESKO va boshqa tashkilotlar) e’tirof etish yo’li bilan belgilanadi. Shunday qilib rus, ingiliz, arab, ispan, xitoy va fransuz tillari bilan birga

BMTning oltita rasmiy tillaridan biri sifatida tan olingan. Til deganda insoniyat jamiyatning barcha davrida mavjud bo’lgan ijtimoiy hodisalar tushuniladi. Tilning asosiy maqsadi aloqa, aloqa vositasi sifatida xizmat qilishdir. Til tafakkur, inson ongi bilan uzviy bog’liqdir, fikr va tuyg’ularimizni shakllantirish va ifodalash vositasi bo’lib xizmat qiladi.

Sayyoramizda 2000 dan ortiq til mavjud. Ular orasida rus tili eng ko’p tarqalganlaridan biri. Tillar bir-biridan farq qilishiga qaramay, ularning har birida boshqa tillar orasida “qarindoshlik” mavjuddir. Rus tili shuningdek Ukraina va Belarusiya Sharqiy slavianlar oilasiga mansub. Rus tili bir vaqtning har qanday tilga xos bo’lgan barcha universal funksiyalarni bajarganligi sababli mavjud va hali ham rivojlanmoqda.

Til yordamida odamlar muloqot qilishadi, bir -birlariga fikrlar, his-tuyg’ular, atrofimizdagi dunyo haqida bilim berishadi. Tilimizdagi har qanday so’z shunchaki tovushlar to’plami emas; uning o’ziga xos ma’nosi mazmuni bor. Va biz xuddi shu ma’nolar bilan o’ylaymiz. Shuning uchun til tafakkur bilish bilan chambarchas bog’liq. Rivojlanayotgan davlatda rus tili faqatgina tilgina bo’lib qolmay yana uchta funksiyani ham bajaradi.

Birinchidan, rus tili rus xalqining milliy tili. U ajoyib san’at va adabiyot yodgorliklarni yaratdi, bu fan va madaniyatning tili. So’zlarning tuzilishi, ularning ma’nolari va o’zaro bog’liqliklari dunyo va odamlar to’g’risidagi bilimlarni boshqalarga yetkazib beradi.

Ikkinchidan, rus tili- bu Rossiya Federatsiyasining davlat tili. SSSR mavjud bo’lgan davrda rus tilida bunday til mavjud bo’lmagan. Hozir bu nafaqat ishda balki uyda odamlarning ehtiyojiga, davlatning rasmiy tiliga, fan, ishlab chiqarish va albatta madaniyatiga ham xizmat qiladigan til.

Uchinchidan, rus tili xalqaro tillardan biridir. Xalqaro munosabatlarda BMT tomonidan ruxsat berilgan rasmiy va ishlaydigan tillar deb e'lon qilingan dunyo tillaridan biri.

Insonning, odamlarning, jamiyatning til hayotisiz imkonsiz, fan va texnika, san'at rivoji. Tilning ma'nosi (nutq, so'z) ko'plab rus maqollari bilan ta'kidlangan. XX asrning o'rtalaridan boshlab rus tili taniqli jahon tiliga aylandi. Rus tilidan tashqari quidagi oltita tilda BMTdagi har qanday hujjat ingliz, fransuz, ispan, xitoy va arab tillarda tarqatiladi. Bugungi kunda taxminan 300 million kishi rus tilida so'zlashadi. Rus tilining boyligi va unda yaratilgan adabiyot butun dunyo bo'ylab ushbu tilga qiziqish uyg'otadi. U nafaqat talabalar, maktab o'quvchilari, balki kattalar tomonidan ham o'rganiladi. Rus tilini mamlakatimizdan tashqari o'qitish uchun 1967-yilda Parijda Xalqaro rus tili va adabiyoti o'qituvchilar assotsiatsiyasi tashkil etildi. Assotsatsiya chet ellik rus tili va adabiyoti o'qituvchilari, uslubiy adabiyotlar uchun turli mamlakatlarning maktab o'quvchilari orasida rus tilidagi xalqaro olimpiadalar uchun nashr etmoqda.

Xulosa. XVI va XVII asrlarda yevropaliklar kreml, kaftan, kopek, pista, kvas kabi so'zlarni o'rganishgan. Yunonistonning mashhur faylasufi uchun qul bo'lgan afsonasi; "Bir kuni Xanthus Ezopga dunyodagi eng yomon narsadan taom tayyorlashni buyurdi. Keyingi kun Xanthus endi eng yaxshi narsadan taom tayyorlashni buyurdi. Ezop yana tildan taom tayyorladi. Xanthus nima uchun ikki safar taom tayyorlashni buyurganda nima uchun tildan taom tayyorlaganini so'radi. Shunda Ezop dunyodagi eng yomon so'zni aytadigan ham eng yaxshisini aytadigan ham til deya javob berdi." Bundan ko'rishimiz mumkinki faqatgina turli chet tillarni yaxshi o'rganishgina emas balki, qanday tilda so'zlashsang ham muloyimlik va odob bilan gapirishni bilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dunyo tillarida rus tiling o'rni.
2. Pavlov N D, Ushakov TN Odamlarning muloqotdagi nutqi.
3. www.google.com

INSON TUYG'USINI ANIQLASH TIZIMI

F.E.Jomonqulova *SamISI dotsenti , t.f.n*

Annotatsiya: Intellektual axborot texnologiyalar – informatikaning kelajagi porloq va tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan ilmiy va amaliy sohasi hisoblanadi. U kompyuterlardan foydalanish bilan bog'liq barcha ilmiy va texnologik

yo’nalishlarga sezilarli darajada ta’sir ko’rsatadi, u jamiyatga ilmdan nima kutilayotgan bo’lsa o’shani bugunning o’zidayoq bermoqda, amaliy ahamiyatga ega bo’lgan natijalar, ularning ko’pchiligi ularni qo’llash mumkin bo’lgan sohalarda tubdan o’zgarishlar qilishga qodir.

Maqolada intellektul axborot texnologiyalarning ilmiy fundamentidagi kalit komponent sun’iy intellekt(SI) hisoblanishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so`zlar: Elektron hisoblash mashinasi, axborotni izlash tizimi, bilimlar bazasi, intellektual tizim, ishchi xotira, ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi, muloqot tizimi, sun’iy intellekt, sun’iy intellekt tizimlari, texnik vositalar, tabiiy til, formal tizim, fikrlashning teskari zanjiri, hisoblash mashinasi, ekspert tizim, yangi axborot texnologiyalar, dasturiy ta’minot, ma’lumotlar bazasi, tushuntiruvchi

Biz inson hayotida hissiyotlarning muhim rol o'ynashini bilamiz. Turli xil daqiqalarda yoki vaqtlarda Inson yuzi qanday his etayotganini yoki qanday kayfiyatda ekanligini aks ettiradi. Odamlar murakkablik, zichlik va ma'no jihatidan farq qiladigan muloqot paytida minglab yuz harakatlarini ishlab chiqarishga qodir. Diqqat yoki niyat tez-tez bir yoki bir nechta alohida xususiyatlarda nozik o'zgarishlar bilan bildiriladi.

Bir yoki bir nechta yuz harakatlarning qo'shilishi yoki yo'qligi uning sharhini o'zgartirishi mumkin. Bundan tashqari, ba'zi bir yuz ifodalari o'xshash umumiy morfologiyaga ega bo'lishi mumkin, ammo turli xil ifoda zichliklari uchun turli xil ma'nolarga ega. Virtual bo'lmagan muloqotda yuz ifodasini noziklashtirish uchun,

Imkoniyatlarni o'qish yoki qiyoslash orqali inson his-tuyg'ularini qamrab oladigan mavjud simulyatordan foydalanaman. Ushbu algoritm avtomatik ravishda funktsiyalarini va ularning harakatlanish ma'lumotlarini chiqaradi, subtly turli xil yuz ifodalarini ajratadi va ekspiratsiyaning intensivligini taxmin qiladi. Fiql miya faoliyatidan foydalanishni his qilishni o'z vazifasini qanday bajarayotganini ko'rsatadi.



1-rasm. Miya faoliyati orqali his-tuyg'ularni aniqlash.

Yuqorida tasvirlanganidek, ushbu BMIning maqsadi miyaning faoliyati orqali mavjud tizimning his-tuyg'ularini aniqlashni cheklashlarni tahlil qilishdir [1]. Miya

faoliyatini ishlatib, his-tuyg'ularni aniqlashda ishlab chiquvchi Robert Horlings inson miyasini Elektroensefalografiya bilan o'lchashga harakat qilganda, u juda qimmat, murakkab va vaqt talab qiladigan vazifalarni bajaradigan eng mushak vazifasini bajargan [3].

Inson hissiyotlari odamlar o'rtasidagi muloqot va muloqotda hissiyot muhim ahamiyatga ega. Tuyg'ulari har kimga sezgir ravishda ma'lum bo'lsa ham, hissiyotlarni aniqlash qiyin. Yunon faylasufi Aristotel tuyg'ularni daromad yoki zavq olish potentsialiga asoslangan ilmiy izlanishlarni **ko'rib chiqadigan rag'bat** deb o'ylardi. Yillar o'tgach, o'n ettinchi asrda, Descartes rag'batlantiruvchi va javob o'rtasida vositachilik qilishni his qildi . Turli xil tushunchalar orasidagi izchillik yo'qligi va quyidagi to'liq ta'riflarni taklif qilishgan:

Emotion - bu neyro / gormonal tizimlar vositasida sub'ektiv va ob'ektiv omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning murakkab to'plamidir:

1. Yuz bergan his-tuyg'ular, quvonch / norozilik kabi hissiy BMIlarga olib boring;

2. Tuyg'u-algoritm bilan bog'liq sezuvchanlik effektlari, baholash, etiketish jarayonlari kabi bilim jarayonlarini yaratish;

3. Yirik sharoitlarga keng tarqalgan fiziologik moslashuvlarni faollashtirish;

4. Har doim emas, tezkor, maqsadli va moslashuvchan xatti-harakatlarga olib boring.

Bu ta'rif tuyg'ularning turli tomonlarini aks ettiradi. Bir tomondan tuyg'u o'ziga xos his-tuyg'ularni tug'diradi va kimdirning xatti-harakatiga ta'sir qiladi. Tuyg'ularning bu qismi yaxshi tanilgan va ko'p hollarda insonning o'zi yoki tashqi dunyoga ko'rinadi. Boshqa tomondan, tuyg'u ham inson miyasining holatini to'g'rilaydi va to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita bir necha jarayonlarga ta'sir qiladi [3]. Fig. 2-bizning maqsadimizga erishish uchun turli xil insoniy his-tuyg'ularni namoyon qiladi [2].



2-rasm: Turli xil inson tuyg'ulari.

Uni aniq belgilashda qiyinchiliklarga qaramasdan, tuyg'u har doim mavjud va inson hayotida muhim omil. Odamlarning kayfiyati ularning muloqot qilish usullariga juda ta'sir qiladi, balki ularning aktyorlik va mahsuldorligiga ham ta'sir qiladi. Ikkita mashina haydovchasini tasavvur qiling, biri baxtli, ikkinchisi juda aqldan ozgan. Ular butunlay boshqacha haydashadi. Hissiyot ham kun ichidagi aloqada muhim rol o'ynaydi. OX kabi so'zni baxtli tarzda aytish mumkin, lekin umidsizlik va xiralik bilan ham ko'p muloqotda bu ma'no tovushi yoki og'zaki bo'lmagan muloqot orqali talqin etiladi. Boshqa his-tuyg'ular umuman tana tili bilan ifodalanadi, zerikish kabi.

Muloqotning katta qismi bugungi kunda kompyuter yoki boshqa elektron qurilmalar tomonidan amalga oshirilmoqda. Ammo, bu o'zaro ta'sirlar odamlarning o'zaro munosabatlaridan juda farq qiladi. Odamlar o'rtasidagi muloqotning aksariyati og'zaki bo'lmagan belgilarga kiradi va bu muloqotning ijtimoiy tomoni muhimdir. Insonlar, shuningdek, kompyuter bilan muloqot qilishda ushbu ijtimoiy jihatni ham o'z ichiga oladi [2,4].

Inson-kompyuter o'zaro munosabatlaridagi tahliliy ishlar kompyuterlarning (robotlar va boshqa mashinalar) inson niyatini tushunishga imkon berish vositalariga qaratilgan, masalan. nutqni aniqlash va imo-ishorani aniqlash tizimlari. So'nggi bir necha o'n yillar davomida ushbu sohada katta yutuqlarga erishgan bo'lsada, ko'plab muammolar mavjud bo'lib, ko'plab BMIchilar ularni hal qilishga urinmoqdalar. Shu bilan bir qatorda, ko'proq tabiiy muloqot uchun muhim bo'lishi mumkin bo'lgan yana

bir muhim, ammo e'tiborga olinmagan aloqa shakli mavjud: tuyg'u boshqalardan nutq yoki ingl. shakllarda xabarlarni mazmunli tushunishda muhim rol o'ynaydi.

Inson kompyuter o'zaro ta'sirida ko'p joylar mavjud, ular his-tuyg'ularni tushunish qobiliyatidan samarali foydalanishlari mumkin. Misol uchun, emosional qobiliyat keyingi avlodning shaxsiy robotlari uchun Sony AFZO kabi muhim omil ekanligi qabul qilinadi. Bundan tashqari, u "aqlli xonada" va "hissiy kompyuter ta'limi" da muhim rol o'ynashi mumkin. Maqsad-tarjimaga qaratilgan harakatlarga nisbatan cheklangan bo'lsada, ba'zi tahlilchilar odam-mashina interfeyslarini tuyg'u tushunchasi bilan amalga oshirishga urinmoqdalar.

Ularning aksariyati yuz ifodasini aniqlashga va nutq signallarini tahlil qilishga qaratilgan. Tuyg'ularni aniqlash uchun boshqa mumkin bo'lgan yondashuv fiziologik signallarni tahlil qilishdir. Bu tuyg'ularni aniqlashning yanada tabiiy usuli ekanligiga ishonamiz, chunki tuyg'u yuz ifodasi yoki nutqiga ta'siri nisbatan oson tarzda bostirilgan bo'lishi mumkin va hissiy holat nerv sistemasi faoliyatida tabiiy ravishda aks ettiriladi. Psikofizyoloji sohasida, insoniy hissiy vaziyatni tadqiq qilish uchun an'anaviy vositalar, markaziy va avtonom asab tizimlaridan fiziologik signallarni qayd qilish va statistik tahlilga asoslangan.

IBMning tahlilchilari yaqinda sichqoncha tipidagi apparat asosida tuyg'ularni aniqlash qurilmasi haqida xabar berishdi. MIT Media Laboratoriyasidagi Picard va uning hamkasblari 1990-yillarning oxiridan boshlab "affektiv kompyuter" ni qo'llashga harakat qilmoqda. Ular fiziologik signalga asoslangan tuyg'ularni aniqlash tizimining maqsadga muvofiqligini namoyish qilsalar ham, uning ishlashning bir necha jihatlari amaliy tizim sifatida ishlatilishidan oldin yaxshilanishi kerak. Avvaliga, ularning algoritmi ishlab chiqish va ishlash testlari qasddan ifoda etilgan hissiyotlarni aks ettiruvchi ma'lumotlar bilan amalga oshirildi [4].

Bundan tashqari, ularning ma'lumotlari faqat bitta mavzudan olingan va shuning uchun ularning tuyg'ularni aniqlash algoritmi foydalanuvchi qaram bo'lgan va muayyan shaxsga moslashtirilishi kerak. Nutqni aniqlash tizimi spikerga bog'liq bo'lgan tizimdan boshlangani sababli, foydalanuvchiga qaram bo'lgan tizimning rivojlanishidan boshlash tabiiydir. Shunga qaramasdan, foydalanuvchilarning mustaqil tizimini amaliyotga tatbiq etish muhimdir, shuning uchun foydalanuvchilarning tizimni tayyorlash bilan shug'ullanishlariga hojat qolmaydi. Bizning ma'lumotimizga ko'ra, fiziologik signalga asoslangan tuyg'ularni aniqlash tizimini namoyish etgan avvalgi BMIlar yo'q, bir nechta foydalanuvchi uchun amal qiladi.

Mavjud tizimlar bilan bog'liq boshqa muammolar - signallarning talab qilinadigan uzunligi. Hozirgi kunda qaror qabul qilish uchun signal monitoringining kamida 2-5 daqiqasi talab qilinadi. Amaliy maqsadlar uchun talab qilinadigan

monitoring vaqtini kamaytirish kerak. Ushbu loyihada fiziologik signallarni qayta ishlashga asoslangan yangi tuyg'ularni aniqlash tizimi taqdim etildi. Bu tizim o'nlab yuzdan ortiq sub'ektlardan olingan fiziologik signalli ma'lumotlar bazalariga tatbiq etilganda, tasodifiy ehtimoldan ancha yuqori ekanligini aniqlaydi [5].

Tizim xarakterli to'lqin shaklini aniqlash, xususiyatni ajratish va naqsh tasnifi bosqichlaridan iborat. To'lqin shaklini aniqlash va ajralib chiqarish bosqichlari diqqat bilan ishlab chiqilgan bo'lsa-da, sinflar ichidagi katta farqlar va sinflar o'rtasida o'xshashlik mavjud edi. Ushbu muammo shu kabi maqsadlar uchun oldingi BMIlar uchun qabul qilingan lineer va kvadratik tasnifilovchi oddiy tasniflagichlar tomonidan hal qilinishi mumkin emas edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. - Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar /— Toshkent : O‘zbekiston, 2017. — 104 b

2. K.H. Park, H.E. Lee, Y. Kim, Z.Z. Bien, "A Steward Robot for Human-Friendly Human-Machine Interaction in a Smart House Environment," in IEEE Transactions on Automation Science and Engineering, vol. 5, no. 1, pp. 21-25, 2008

4. C. Lisetti, S. Brown, K. Alvarez, A. Marpaung, "A Social Informatics Approach to Human-Robot Interaction with a Service Social Robot," in IEEE Systems, Men, and Cybernetics. Special Edition on Human-Robot Interaction, vol. 34 no. 2, 2004

5. Aholini va hududlarni favqulotda vaziyatlardan himoyalash. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2003.

6. Fuqaro muhofazasi me’yorlari va qoidalari. SNiP ITM GZ-93, 1993.

MILLIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA O’ZBEK TILINI O'QITISH VA O'RGANISHDAGI INNOVATSION JARAYONLAR

Dilnoza Yuldasheva *– Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, dotsent*

Annotatsiya: XXI asr iqtisodiy rivojlanishining umumiy vektori “mashinalarning intellektuallashuvi” va mehnatning “dematerializatsiyasi”dir.

Bunda nafaqat an'anaviy pedagogik paradigma "Bilim, qobiliyat, ko'nikma", balki kasbiy ta'lim natijalarini o'lchash uchun malakalar tizimi ham yetarli emas. Ishlab chiqarish funksiyalarining parchalanishi amalda ularning yaxlit, tizimli taqdimoti bilan almashtiriladi, bu "yaxlit" endi bir qator taniqli, yaxshi o'rganilgan kasbiy vazifalardan iborat bo'ladi. O'zbek tilini o'qitish o'quv jarayoni tobora ko'proq talabalarning bilim olishi va muammolarini hal qilishda qo'llash qobiliyatiga asoslanishi kerak. Ushbu maqolaning maqsadi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun mamlakatimiz ta'lim tizimida qo'llaniladigan va qo'llanilishi mumkin bo'lgan innovatsion jarayonlarni o'rganish va rivojlantirishdir.

Kalit so'zlar: innovatsion jarayonlar, innovatsiyalar, mexanizm, muammolilashtirish, qo'shma faoliyat, ijtimoiy faoliyat, kasbiy faoliyat, o'quv funksiyasi, o'quv materiali

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimini chuqur isloh qilish, ta'limning yangi shakllarining paydo bo'lishi, yangi turdagi ta'lim muassasalarining paydo bo'lishi, talaba shaxsini rivojlantirish, uning intellektual qobiliyatlarini shakllantirish uchun ta'limning umumiy yo'nalishi, axloqiy va ma'naviy salohiyat (O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonunida) o'zbek tili fani uchun yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Ular ta'lim mazmuni, o'quv jarayonini tashkil etish shakllari, o'qitish usullari va boshqalar bilan bog'liq bo'lib, nafaqat o'zbek tilini o'qitish nazariyasi va amaliyotida, balki mamlakatimizda yangi tendensiya va yo'nalishlarni o'rganish va tahlil qilish zaruratida yaqqol namoyon bo'ldi. Ushbu maqolada o'zbek tilini o'qitish metodologiyasida ro'y berayotgan yangiliklarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ilmiy-metodik adabiyotlarda "innovatsion jarayonlar" va "innovatsiyalar" atamalari nimani anglatishini tushuntirib berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu atamaning ta'rifi muammosi ancha murakkab, chunki "innovatsiya" tushunchasini aniqlashga haligacha yagona yondashuv mavjud emas, ta'lim sohasidagi innovatsiyalarning umumiy qabul qilingan tasnifi yaratilmagan. Bu sohadagi yetakchi tadqiqotchilar innovatsion jarayonlarni innovatsiyalarni yaratish, ishlab chiqish, foydalanish va tarqatish bo'yicha kompleks faoliyat sifatida tushunadilar. K. Axmedovning fikricha, innovatsiyalar o'zbek tilini o'qitish texnologiyasini takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida ma'lum ongli o'zgarishlardir. Biz ba'zi o'zgarishlarni innovatsiyalar deb aytamiz, hatto ular qayerdadir va qaysidir vaqtda qo'llanilgan bo'lsa ham, lekin hozirgi paytda ular alohida ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim jarayonini rag'batlantirishi mumkin [3].

O'zbek tilini o'qitishda innovatsion jarayon deganda innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish, foydalanish va tarqatish bo'yicha kompleks faoliyat tushuniladi.

Ta'lim sohasidagi innovatsion jarayon ta'lim tushunchalari, o'quv dasturlari mazmuni, metod va usullari, o'qitish va tarbiyalash usullarini yangilash va o'zgartirishdir. Ta'limdagi innovatsion jarayonlarning mohiyatini tushunishda o'zbek tili fanining ikkita eng muhim muammosi - ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish va tarqatish muammosi hamda o'zbek tili fanining yutuqlarini amaliyotga joriy etish muammosi mavjud. Binobarin, innovatsiya predmeti, innovatsion jarayonlarning mazmuni va mexanizmlari shu paytgacha alohida ko'rib chiqilgan, bir-biriga bog'langan ikkita jarayonni birlashtirish tekisligida yotishi kerak, ya'ni innovatsion jarayonlarning natijasi nazariy va amaliy, shuningdek, ularning kesishmasida shakllanadigan innovatsiyalardan foydalanish bo'lishi kerak. Bularning barchasi pedagogik innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish va ulardan foydalanishda boshqaruv faoliyatining ahamiyatini oshiradi [1].

Shubhasiz, o'zbek tilini o'qitishda innovatsiyalarni joriy etish ta'lim sohasi samaradorligini oshirish, talabalarni ijodiy mehnat ruhida yanada samarali tarbiyalash, innovatsion ruh va ijodiy salohiyatni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Bugungi tez o'zgaruvchan jamiyatda shaxsiy rivojlanish va moslashishga (ham ijtimoiy, ham professional) yanada samaraliroq qaratilgan o'zbek tilini o'qitishning zamonaviy, innovatsion usullarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ulardan eng samaralisi hisoblanadiganidan boshlaymiz.

I. Ko'p tomonlama usul

Zamonaviy ko'p tomonlama usul 1920 yilda ishlab chiqilgan "Klivlend rejasi" dan kelib chiqadi. Uning asosiy tamoyillari:

O'zbek tilini eslab yodlab bo'lmaydi, va bunda trening mashqlari tinglovchilarning to'satdan bo'lgan nutqi foydasiga minimallashtirilishi kerak.

1. Til - bu madaniyat. Madaniy bilimlar o'zbek tilini o'rganish jarayonida autentik til materiallari orqali uzatiladi.

2. Har bir dars bitta diqqat markazida bo'lishi kerak, o'quvchilar bir darsda o'quv mazmunining alohida birligini o'rganishi kerak.

3. Grammatika, lug'at kabi, qat'iy mantiqiy ketma-ketlikda o'lchangan qismlarda o'qitiladi: har bir keyingi dars allaqachon mavjud zaxirani oshirishi kerak.

4. O`quv jarayonida nutq faoliyatining barcha to`rt turi bir vaqtda ishtirok etishi kerak.

O'quv materiali uzoq dialoglarda, so'ngra savol-javob ko'rinishidagi mashqlarda taqdim etiladi.

Qoida tariqasida, ushbu usulni o'rganish uchun taklif qilingan matnlar o'zbek tili haqida yaxshi tasavvur beradi. Biroq, o'qituvchining o'rni talabalarning bir-biri bilan bevosita muloqot qilish holatlarida o'rganilayotgan materialdan ijodiy foydalanish imkoniyatini cheklaydi [4].

II. Faol o'rganish

Talaba real hayotda muammoli vaziyatlarni hal qilish zarurati bilan tobora ko'proq duch kelayotganiga asoslanadi. Bu usul shaxsning rivojlanishini tashkil etishga qaratilgan bo’lib, bunda asosiy tamoyil - o'quvchi o'z bilimining yaratuvchisidir. O’zbek tilini o‘qitishning hozirgi bosqichida, albatta, faol o‘rganish ustuvor vazifa hisoblanadi. Zero, o‘quv-idrok faoliyatini samarali boshqarish faqat talabalarning faol aqliy faoliyatiga asoslangan taqdirdagina mumkin bo‘ladi [1].

Oliy o’quv yurtida innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o’zbek tilini o'qitish kognitiv, ijobiy, hissiy, motivatsion, optimistik, texnologik kabi bir qator psixologik yondashuvlarni joriy qilishni o'z ichiga oladi. Bu yondashuvlarning barchasi talabaning shaxsiyatiga qaratilgan.

III. Muammoli o’qitish

Muammoli o`qitish nazariy va amaliy masalalarni, buning uchun yaratilgan muammoli vaziyatlardagi topshiriqlarni yechish orqali o`quvchilarning yangi bilimlarni egallashiga asoslanadi [2].

E.V. Karimova tomonidan muammoliligi "birgalikda ijodiy faoliyat jarayonida ijodiy fikrlashni, ijodiy shaxslararo munosabatlarni, umuman ijodiy shaxsni rivojlantirishning asosiy sharti" deb talqin etiladi. Muammolilikni yaratish yo'li muammoli vaziyatlar, mexanizm - muammolilashtirish - qo'shma ijtimoiy va kasbiy faoliyat jarayonida muammoli o'zaro ta'sir subyektlari tomonidan o'quv materialida muammoni ochish" hisoblanadi va iqtisodiyot yo’nalishida ta’lim olayotgan yoshlarni fanga yanada qiziqtirishga xizmat qiladi.

Rivojlantiruvchi ta'limning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ✓ xotirani ekspluatatsiya qilish emas, balki fikrlash mexanizmlarini shakllantirish orqali talabani kognitiv faoliyat subyektiga aylantirish;
- ✓ bilishning deduktiv usulining ustuvorligi;
- ✓ o'qish jarayonida talabalarning mustaqil faoliyatining ustunligi.

O’zbek tilini o’qitishda muammoli metoddan foydalanish nafaqat talabalarning mustaqilligini rivojlantirishga, balki ularni izlanish va tadqiqot faoliyatiga jalb etishga yordam beradi. Albatta, bunda pedagog va talaba o‘rtasida ijodiy hamkorlik imkoniyatlari ham ochiladi.

Professor Karimova E.V. o’zbek tilini o’qitish jarayonida muammoli vaziyatlar quyidagi funksiyalarni bajaradi, deb hisoblaydi:

- rag'batlantiruvchi funksiya, u yangisini izlash bilan bog'liq bo'lgan samarali, ijodiy fikrlash jarayonlarini rag'batlantiradi;

- o'quv funksiyasi, o'quv materialini o'zlashtirish va yangilash asosida yotgan xotira, xotirada saqlash, ko'paytirish kabi mnemonik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq;

- tashkiliy funksiya, to'g'ridan-to'g'ri rag'batlantirishga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, u o'quv funksiyasiga bevosita ta'sir qiladi, o'quv jarayonini haqiqiy bilish

jarayoniga yaqinlashtiradi, shuningdek, ushbu jarayonni individuallashtirishga yordam beradi;

- nazorat qiluvchi funksiya, faqat yuqoridagi funksiyalar bilan aniqlanmaydi, balki ularga bilvosita ta'sir qiladi. Muammoli vaziyat har doim yangisini izlash bilan bog'liq, shuning uchun fikrlarni shakllantirish mexanizmidan boshlab nazorat amalga oshiriladi, ya'ni o'quvchilar muammoni hal qilish mantig'iga qanchalik to'g'ri rioya qilishlarini aniqlashga imkon beradi;

- yaratilgan muammoli vazifalarda ularning axloqiy, ma'naviy va kognitiv darajaga yo'naltirilganligida tarbiyaviy funksiya namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi vaqtda mamlakatimiz ta'lim tizimida global o'zgarishlar ro'y bermoqda, ya'ni o'zbek tilining roli kuchayishi va yangi ta'lim paradigmasiga o'tish munosabati bilan mamlakatimiz ta'lim tizimiga ma'lum talablar qo'yilmoqda. Jamiyatning ijtimoiy tartibiga muvofiq - ikkilamchi lingvistik shaxs - talabalarda ushbu fanni o'rganishga qiziqishni shakllantirish muammosi alohida maqsad bo'lib qolmoqda. Bunda biz pedagoglar o'rganish jarayonini qiziqarli, ommabop, hamda samarali bo'lishi uchun o'zbek tilini o'qitish metodikasiga o'zgartirishlar ishlab chiqishimiz va kiritishimiz maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

6. Muminov P. Sh. Xalq ijodiyoti nazariyasi masalalari. - T., 2021 yil.
7. Salimov V. D. O'zbek onomastikasi. - T., 2020 yil.
8. Hamrayev A. A. Tilshunoslikka kirish: Darslik. - T, 2011 yil.
9. Karimova V. M. Til va madaniyat. - M., 2020 yil.
10. A.Hojiyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I. Toshkent, 1980.
11. S.Usmonov, M.Mirzayev, I.Rasulov. O'zbek tili. Toshkent, 1978.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TILLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Azizbek Oltinboyev

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi, azizbeeeek2005@gmail.com

Ilmiy rahbar: Odilova S.O.

SamISI dotsenti

Annotatsiya: Uzluksiz ta'lim tizimida ishlaydigan har bir mutaxassis pedagogik bilim bilan cheklanmasdan, o'quvchilariga ta'lim va tarbiya berish uchun maxsus tayyorgarik ko'rishi lozim va metodik zamonaviy yondashuvlarga e'tibor bergan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqola tillarni o'qitishning

zamonaviy yondashuvlari va metodikalari mavzusiga bag’ishlangan.

Kalit so’zlar: O’qituvchi, o’quvchi, ta’lim tizimi, yondashuv, metodika, kompetentli pedagog.

Аннотация: Каждый специалист, работающий в системе непрерывного образования, должен быть специально подготовлен к обучению и воспитанию своих студентов, не ограничиваясь педагогическими знаниями, и должен обращать внимание на современные методические подходы. Данная статья посвящена теме современных подходов и методов преподавания языка.

***Ключевые слова*:** Учитель, ученик, система образования, подход, методика, компетентный педагог.

Annotation: Every specialist working in the continuing education system should be specially trained to educate and educate his students, not limited to pedagogical knowledge, and should pay attention to modern methodological approaches. This article is devoted to the topic of modern approaches and methods of language teaching.

Keywords: Teacher, student, educational system, approach, methodology, competent pedagogue.

Uzluksiz ta’lim tizimida fanlarni o’qitishning asosiy maqsadlaridan tashqari, o’ziga xos bo’lgan maqsadlardan biri bu o’quvchining tafakkurini, fikrlashini rivojlantirishga erishishdan iborat va bu juda ma’suliyatli vazifalardan biri. Chunki, birgina noto’g’ri fikr sababli o’quvchining ongi butun umri davomida noto’g’ri tushuntirilgan fikrni to’g’ri hisoblab fikr yuritishi mumkin. Insonning psixologiyasidan ma’lumki o’quvchilarning 12-15 yoshdagi davrida anatomik va psixologik xususiyatdagi kuchli o’zgarishlar bo’ladi. Shu sababli ham bu davr “o’tish davri” deb ham yuritiladi. Va ushbu jarayonda ta’lim oluvchining ruhiyatida intelektual rivojlanish, ya’ni tafakkur qobiliyatining rivojlanishi boshlanadi. Chunki, bu davrda bolalarda bilim olishga va ko’plab narsalarga qiziqish oshadi. Masalan, o’zini anglash, tarbiyalashga ehtiyoj shakllanadi va o’zini boshqalar bilan taqqoslay boshlaydi.

Hozirgi kun ta’lim tizimini modernizatsiya qilish davr talabi bo’lib turgan bir paytda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ilmiy-axborot hajmi ham kundan-kunga jadal rivojlanib bormoqda. Ilmiy-didaktik, ilmiy-metodik izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish va

ko‘zlanganmaqsadlarga yerishishning samarali yo‘llaridan biri ta’lim tizimiga zamonaviy innovasion-pedagogik va modulli texnologiyalarni joriy yetishdan iborat. Hozirga kunda mamlakatimiz ta’lim tizimiga innovasion-pedagogik, modulli texnologiyalar va zamonaviy ta’lim vositalarini ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish davr talabi bo‘lib qolmoqda. Bu o‘z navbatida, ta’lim jarayonini oldindan loyihalashtirishni amalga oshira oladigan, texnologik bilimlar tizimiga ega bo‘lgan zamonaviy o‘qituvchilarga bo‘lgan talabni oshiradi. Tan olish kerakki, keyingi yillarda inovasion-pedagogik va modulli texnologiyalar bo‘yicha mamlakatimiz olimlari tomonidan samarali ishlar amalga oshirildi. Lekin, chop etilgan ko‘plab ilmiy-metodik adabiyotlarda munozoraga sababchi bo‘layotgan kamchiliklarga yo‘l qo‘yib qilinmoqda. Jumladan, pedagogik amaliyotda keng - 115-qo‘llaniladigan “metodika” va “texnologiya” tushunchalari mohiyatini tavsiflashda ko‘plab adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular ma’lum ma’noda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga to‘sqinliq qilmoqda. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda, mazkur masala yuzasidan ayrim mulohozalarni ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. “Metodika” o‘zaro ta’sir yetishning turli shakllarini o‘rganish asosida mazkur fanni o‘qitish va o‘rganish yo‘llarini ishlab chiqadi va ta’lim oluvchilarga ta’sir yetishning aniq tizimini o‘qituvchilarga taklif yetadi. Bu tizimlar DTS va MT, o‘quv fani dasturi va darsliklarda ochib beriluvchi ta’lim mazmunida o‘z aksini topadi hamda ta’lim metod, shakl va vositalari orqali amalga oshadi. Har bir fan metodikasi didaktika bilan mustahkam bog‘langan va uning umumiy qoidalariga tayanadi. Ta’lim-tarbiya tamoyillariga asoslanib yesa, metodika o‘quv fanining maqsadi, uning ta’lim oluvchi shaxsini rivojlanishidagi ahamiyatini ochib beradi.

Umumiy ma’noda “metodika” tushunchasi ma’lum bir ishni bajarish uchun zarur bo’ladigan metod va usullar tizimidir. Yoki bu tushuncha, ta’limiy maqsadga erishishda qo‘llaniladigan pedagogik usul yoki chora va tadbirlarni qo‘llash yo‘riqnomasi sifatida tushuniladi. Mamlakatimizda ta’limni rivojlantirishning maqsadli dasturiga muvofiq ta’lim tizimi modernizatsiyalash, kadrlarni qayta tayyorlash, o‘quv jarayonini axborotlashtirish, axborot makonlarini yaratish kabilarni amalga oshirish zarur. Sanab tilgan talablar yangi milliy ta’lim tizimining shakllanishiga, inson kapitalining rivojlanishiga, mamlakatimiz iqtisodiyotining mustahkamlanishiga olib keladi.

Xulosa

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, kompetentli yondashuv – bu hozirgi zamon kasbiy ta’lim tizimini mehnat bozorining talab va ehtiyojlari bilan bir qatorga qo’yishga intilishdir. Mana shunday yondashuv o‘qituvchidan o‘quvchiga bilimlarning translyatsiya qilinishini emas, balki amaliy

tajribalar, bilim, mahorat va ko‘nikmalar asosida muvaffaqiyatli harakat qilish imkonini beradigan kasbiy kompetentlilikni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Pedagog-xodimlar uchun yeng muhim vazifa bo‘lib, kompetensiyalarni amaliy jihatdan egallash zarurati sanaladi.

Manbalar:

1. Xasanov A.A., Urokova Sh.B. (2021). Sifrovizatsiya obrazovaniya na sovremennom etape razvitiya informatizirovannogo obщestva. Scientific progress, 2 (1), 300-308.
2. Raxmanova, M. K. (2019). Ta’lim texnologiyalari orqali kasb tanlashda ongli munosabatni shakllantirish. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNI SO‘Z XUSHYORLIGIGA O’RGATISH

Qayumova Mahfuzaxon Alisherjon qizi –

Qo‘qon DPI magistranti

Isaqov Zokirjon Soliyevich *– Qo‘qon davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.*
isaqovzokirjon1@gmail.com

Annotatsiya: maqolada o‘quvchilarning ona tili boyliklarini oshirish uchun amaliy ishlarni tashkillash borasida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: til, nutq, til xushyorligi, masal, irsoli masal, so‘z qudrati.

Mamlakatimizda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi o‘rni va ahamiyatini oshirish, uni zamon talablari asosida rivojlantirish masalasini biz milliy o‘zligimizni anglash, millat ruhini saqlab qolish, yorug‘ kelajagimizni ta’minlashning eng muhim omili, deb bilamiz. Shu ezgu maqsad yo‘lidagi amaliy harakatlarimiz tufayli jamiyatimiz hayotida davlat tilining qo‘llanish doirasi tobora kengayib, u xalq dilining chinakam ko‘zgusiga aylanmoqda[38]. Bu g‘oya zamirida ona tilini mukammal o‘qitish va uni targ‘ibi masalasi naqadar buyukligi vazifa qilib belgilanadi. Bu yuksak vazifani amalga oshirishda ona tili fanini oqitish o‘quvchlarning madaniyatlarini oshiruvchi vosita bo‘lishi ta’kidlanadi. Boshlang‘ich ta’limda til o‘qitish darslarida adabiy san’atlar bilan ishlash barobarida

[38] Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 21-oktabrdagi O‘zbekiston xalqini O‘zbek tili bayrami kuni bilan tabrigidan.

tilga sezgirlik vazifasi yuklanadi. Bu vazifani bajarishda irsoli masal san’ati ustida ishlash darslari juda qo‘l keladi.

Irsoli masal “maqol kiritish” ma’nosini bildirib, she’riyat va nasrda ifodalanayotgan biron fikrni isbotlash uchun xalq maqolini keltirish san’ati sanaladi[39]. Boshlang‘ich sinf darsliklarida ham ma’naviy san’at turlaridan irsoli masal fikrni chiroyli dalillab yakunlash va o‘quvchiga she’r kuchini ta’sirchan, oson yetkazish maqsadida keltirilgan.

Uchinchi sinf darsligi[40]dagi “Ahillik – ulug‘ baxt” qirg‘iz xalq ertagi so‘ngida “Ahillik – ulug‘ baxt”, Olim Qo‘chqorbekovning “Qaysar buzoqcha” masalida “Bo‘linganni bo‘ri yer”, Tolib Yo‘ldoshning “Hunarni sev” she’rida “Hunarli er kam bo‘lmas” maqollari keltiriladi.

“Ahillik – ulug‘ baxt” ertagida bir cholning yetti o‘g‘li bir-birini hurmatlamay, o‘zaro mushtlashishlari hikoya qilinadi, bu holni ko‘rgan qo‘shnilar: “Aqlli cholning o‘g‘illari xo‘p ahmoq bo‘lib o‘syapti-da”, – deb achinishar ekan. Bu holni ko‘rgan chol ko‘p ezilar, biror chora ko‘rishni ko‘p o‘ylar ekan. Bir kuni bu muammoni yechish maqsadida o‘rmondan bosh barmoq yo‘g‘onligida yettita novda kesib kelib, o‘g‘illariga ularni to‘p holda sindirishlarini so‘rabdi. Afsuski, yettovlonning kuchi birlashib turgan novdaga yetmabdi, chol novdalarni o‘g‘illariga bittadan bo‘lib berib, sindirishlarini so‘rabdi, yumushni azamatlar bir onda bajaribdilar. Bu holni ko‘rgan chol o‘g‘illariga inoqlikning hikmatini tushuntiribdi. Ota bir necha muddatdan so‘ng vafot qilibdi, o‘g‘illar esa birdamlik tufayli davlat topib, shod-xurram yashash davomida “Ahillik – ulug‘ baxt” borligiga yana bir bor ishonch hosil qilibdilar.

Xalqimizning: “Ayrilganni ayiq yer, bo‘linganni bo‘ri yer” maqoli ommadan ayrilib, bilag‘onlik qilgan shaxslarga qarata aytilgan. O‘z podasidan arazlab, yakka o‘tlagan buzoqning holatiga ushbu maqol mos kelgan:

Yaylovda bir buzoqcha

Arazlabdi to‘dadan.

Ketib qolib uzoqqa,

Adashibdi podadan.

Yakka o‘zi o‘tlarkan,

[39] Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б.59.

[40] Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 242 b.

Borib yaylov to‘riga.

Buzoq shunda to‘satdan

Duch kelibdi bo‘riga.

Ma’rasa ham qancha u,

Bilmabdi do‘stlari hech.

Maza qilib och bo‘ri

Uni yebdi o‘sha kech.

Bobolar bu haqda der:

“Bo‘linganni bo‘ri yer”.

O‘quvchi buzoqning ahvoligi achinish barobarida o‘z sheriklaridan behuda xafa bo‘lganligi va ajralib hayotini xavfga olib kelganini tushunib yetadilar hamda doimo sinfdoshlari bilan birga sobitqadam bo‘lishga harakat qilishga odatlanish kerakligini bilib oladilar.

“Hunarni sev” she’rida “Hunarli er kam bo‘lmas” maqoli yuqoridagi badiiy asarlardan farqli ravishda she’rning so‘ngida emas, 2-bandda keltiriladi. Demak, ba’zida fikr dalili uchun maqol asar nihoyasida emas, boshqa o‘rinlarda ham keltirilishi mumkin ekan. She’rda bolalarning hunarni sevishga chaqirilib, duradgor, chilangar, binokor, bastakor bo‘lish “... – bu baxt-u iqbol, belga quvvat, ko‘zga nur”, – deyiladi.

To‘rtinchi sinf darsligida Munavvarqori Abdurashidxonovning “Har kim ekkanin o‘rar” ertag[41]i nihoyasida matn sarlavhasi bo‘lgan maqol qissadan hissa sifatida keltiriladi.

Keksalik har kimga ham nasib etavermaydigan ne’matdir. Bu mo‘tabar yoshga kirish, asoga suyanish, nabiralar davrasida yurish, o‘tirishlarning to‘risini egallash barchaning ezgu orzusi sanaladi. Ammo, noshukur kelin va nodon farzand qartaygan otaning nuroniylikning ba’zi tabiiy xatti-harakatlaridan or qiladilar, cholni o‘zlariga ortiqcha tashvish hisoblab, kalta o‘y-xayollar og‘ushiga beriladilar. Maslahat natijasida cholni cho‘l-biyobonga mehr bergan borlig‘i hisoblagan o‘g‘li nabirasi bilan olib boradi. Yaxshiyamki, ko‘pni ko‘rgan cholning:

“Men otamni bir zamon

[41] Matchonov S., Shojalilov A. va boshq. O‘qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: Yangiyo‘l poligraph service, 2019. – B.31-32.

Bu o‘ringa keltirib,

Tashlab ketgan chog‘imda

Qolgan edi termulib.

Navbat keldi o‘zimga,

Sen ham meni keltirding.

Men otamga ne qilsam,

Endi menga sen qilding.

Menga yarar shul o‘rin,

Bir kun senga ham yarar.

El aro bor bir matal:

“Har kim ekkanin o‘rar” arzi o‘g‘lini ziyrak tortirib, umrbod oladigan isnoddan qutqaradi.

O‘quvchi doimo keksalarni ulug‘lash, ularning dono nasihatlarini bajarish burchlari ekanligini ertak orqali yana bir bora anglab yetadilar.

Shukur Sa’dullaning “Laqma it” she’riy ertagida yoz bo‘yi lakillab boshpana qurmagan it qishning ayozli kunlarida mushuk, echki, sigir, xo‘rozning huzuriga borib zorlanib yotishga joy so‘raydi, ammo avvalgi bir necha yillarda ham bu holat takrorlangani sababli va’daboz ko‘ppakni hech qaysi hayvon uyiga kiritmaydi. Sovuq jonidan o‘tgan it: “Yoz bo‘lsa-chi, quray bir uy, Uymas, saroy...” deb hashamatli uy qurishga takror va’da beradi. Ammo yozning issiq kunlari qish sovug‘i itning yodidan ko‘tariladi: “Yoz yemasang qishning g‘amin, Holingga voy, bo‘lgin amin!” deb asar nihoyasida yakuniy xulosa keltiriladi.

Darsliklarda faqat she’riy asarlarda emas, balki nasriy asarlarda ham masal qo‘llash san’at kuzatiladi: “Eng ulug‘ fazilat” ertagi oxirida “Otang erdir, sen ham erdek qiliq qil, Yomonlik aylaganga yaxshilik qil” baytida maqol o‘zlashtirilgan bo‘lsa, “Ilm afzal” ertagida “So‘nggi pushaymon o‘zingga dushman” maqoli fikrni xulosalash sifatida foydalaniladi.

Ma’lumki, el orasida tanilgan shirinso‘z kishilarning nutqlarini tinglasangiz, maqol va matallarni o‘z o‘rnida ishlatishlari bilan kishi e’tiborini o‘zlariga tortadilar. Demak, nutqni chiroyli ifoda etishning talablaridan biri irsoli masal san’ati bilan uni bezab tinglovchiga manzur etish ekan.

Biz davlat tili taraqqiyotini jahondagi yetakchi xorijiy tillar va mamlakatimizdagi turli millat vakillarining tili va madaniyatini rivojlantirish bilan bog‘liq holda ko‘ramiz[42], deb yurtboshimiz bejiz tilimiz kelajagiga yuksak ishonch bilan qarashmagan, chunki til dil tarjimonidir.

O‘QISH DARSLARIDA FORS-TOJIKCHA SO‘ZLAR USTIDA ISHLASH YO‘LLARI

Jamoliddinova Gulrux Nodirbek qizi *– Qo‘qon DPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-kurs talabasi*
Qo‘chqarova Shoxsanam Elbek qizi *– Qo‘qon DPI “Boshlang‘ich ta’lim” mutaxassisligi magistranti*
Isaqov Zokirjon Soliyevich *– Qo‘qon davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.*
isaqovzokirjon1@gmail.com

Annotatsiya: maqolada o‘quvchilarning ona tili boyliklarini oshirishda o‘zlashma so‘zlar ustida amaliy ishlash borasida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, fors-tojik tili, so‘z mas’uliyati, til boyligini oshirish.

Zamonaviy adabiy o‘zbek tilining leksik tarkibi o‘z va o‘zlashgan qatlamdan iborat: o‘z qatlam umumturkiy va sof o‘zbekcha so‘zlardan tashkil topgan bo‘lsa, o‘zlashma qatlamda ko‘plab arabcha, forscha-tojikcha, mo‘g‘ulcha, ruscha va rus tili orqali kirgan baynalmilal so‘zlar bor. Ularning o‘zaro nisbati obyektiv ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar ta’siri ostida turli davrlarda turlicha bo‘lgan. O‘zbek tiliga so‘z o‘zlashtirish jarayoni hozirgi kunda majburiylik asosida emas, balki tillar rivojlanishining obyektiv qonuniyatlariga mos holda amalga oshirilmoqda. Bu siyosat o‘zining progressiv ahamiyatini namoyon etmoqda.

O‘zbek tili rivojida fors-tojik tiliga mansub so‘zlarning beqiyos o‘rni borasida qancha gapirilsa, oz albatta. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich 2023-yil 21-oktabr kuni O‘zbekiston xalqini O‘zbek tili bayrami bilan tabrikladi va Davlat tilini rivojlantirish boshqa tillar va madaniyatlar rivoji bilan uyg‘unlikda ko‘rib chiqilishini bejiz ta’kidlamadilar. Bu uyg‘unlik dastlab tojik tili bilan ona tilimizning uyg‘unligini ko‘rsatadi.

[42] Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 21-oktabrdagi O‘zbekiston xalqini O‘zbek tili bayrami kuni bilan tabrigidan.

Boshlang‘ich ta’lim darsliklari matnlarida fors-tojik tiliga mansub so‘zlarning beqiyos ko‘p keltirilishi o‘qituvchi tomonidan bu so‘zlarga izohlarning berilishini talab etadi, bu borada olib borgan amaliy tajribalarimiz yuzasidan quyida o‘rtoqlashsak.

Fors-tojik tili forsiy – hind-yevropa tillari oilasidagi eroniy tillar guruhining janubiy-g‘arbiy tarmog‘iga mansub til; asosan, Eronda, shuningdek, Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston, Iroq, Birlashgan Arab Amirliklari, AQSHda, Kavkazorti va Markaziy Osiyo respublikalarida tarqalgan.

Fors tili tarixida 3 davr farqlanadi: qadimgi, o‘rta va yangi. Hozirgi fors tili tojik hamda Afg‘onistondagi dariy (forsi kobuliy) tillari bilan birgalikda qadimgi fors (ahmoniylar sulolasi shohlarining mil. av. 6 – 1-asrlarga mansub mixxat yodgorliklaridan ma’lum), o‘rta fors (mil. 3 – 7-asrlar yodgorliklari) va mumtoz yangi fors (9 – 14-asrlar yodgorliklari) davrlarining genetik vorisi hisoblanadi, u o‘rta asrlarda Ozarbayjon, Hindistonda ham adabiy til sifatida qo‘llangan.

O‘zbek xalqi bilan bir hududda yashab, bir havodan nafas olib, bir havzadan suv ichgan forsiylarning adabiy tilimizga ta’siri juda yuqori darajada bo‘lgan. Barg, anor, korxona, nodon, dono, kamtar, tilla, kaptar, dasturxon, dastro‘mol, poydevor, poyafzal, darhol, darvoza, xursand, farzand, do‘st, go‘sht, sust, past, g‘isht kabi fors-tojikcha so‘zlar, hatto yasovchilar: -gar, -kor, -bon, -dor, -shunos, -furush, -boz, -xo‘r, -paz, -soz, -do‘z, -kash, -xon, -go‘y, ham-, -vachcha, ser-, no-, be-, bo-, -boz, -parast, -namo affiksoidlar ham forsiy o‘zlashma sanaladi.

Darsliklardagi matnlar bilan ishlashda so‘zlarning kelib chiqishi qaysi tilga mansubligini o‘rgatish o‘quvchilarning so‘z ma’nosini to‘la tushunish barobarida uzoq vaqt yodda saqlashlariga ham olib keladi. O‘quvchilar so‘z ma’nolari bilan tanishganda darsliklarimizda fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar ham ko‘plab uchraydi, quyida shunday leksemalar bilan o‘quvchilarni tanishtirish yo‘llari bilan fikrlashsak.

To‘rtinchi sinf “O‘qish kitobi”[43]dagi ayrim matnlarda uchragan forsiy so‘zlar ma’nosi bilan o‘quvchilarni tanishtirish xususida to‘xtalsak.

G‘ulom Shomurodning “Ozod Vatan mehri” she’rida: “Tuprog‘i zar, xo‘p hosildor, Bag‘ri bog‘-u chamandir” misralarida zar, bog‘, chaman kabi forsiy o‘zlashmalarni uchratamiz.

Zar (forscha – oltin) 1 Oltin, tilla. *Zar qadrini zargar biladi.* **2** *ko‘chma* Oltin bilan teng, oltinga o‘xshash narsa haqida (O‘TIL. 2-tom. – B.132.)[44]gi ma’nosi ushbu she’rda ishlatilgan.

Bog‘ I (forscha – mevazor, chamanzor, bo‘ston) 1 Mevali daraxt, tok va gul bilan band yer maydoni; mevazor (O‘TIL. 1-tom. – B.349.).

[43] Matchonov S. va boshq. O‘qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: Yangiyo‘l, 2019. – 240 b.
[44] Izohlar O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: O‘ME, 2006-2008 dan qavs ichida keltirilgan.

Chaman (forscha – o‘tloq, gulzor, sayilgoh) Gul ko‘p joy; gulzor, chamanzor, gulshan. Bulbul chamanin sevar, odam – vatanin (O‘TIL. 4-tom. – B.453.).

Tuproqning zarga o‘xshatish barobarida oltin, tilla so‘zlari izohlangach, o‘quvchilarga shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmasi, gap va matn tuzish bilan bilimlari mustahkamlanadi.

Zar tuproq, oltin tuproq, tilla tuproq.

Tuprog‘i zar, tuprog‘i oltin, tuprog‘i tilla.

Men tuprog‘i zar (oltin, tilla) O‘zbekistonda yashayman.

Shukur Sa’dullaning “Yoz” she’rida: “Keldi ko‘klam kabi **soz**, Bizlar sevgan issiq **yoz”** misrasida soz va yoz shakldosh so‘zlar ishlatilgan.

Soz I (forscha – rozilik; ruxsat; kelishuv; moslik, muvofiqlik) 1 Yaxshi, tuzuk, durust, qulay. *Oz so‘z – soz so‘z.*

Soz II (forscha – tor; musiqa asbobi) 1 Milliy musiqa asbob(dutor, tanbur, g‘ijjak)larining umumiy nomi. *Qirqida qo‘liga soz olgan qiyomatda qulog‘ini burar* (O‘TIL. 3-tom. – B.544.). She’riy parchada soz so‘zining qulay sifat turkumiga xos ma’nosi ishlatilgan.

Qudrat Hikmatning “Qish to‘zg‘itar momiq par”she’rida “Yerga serbar oq namat yozilganday yaltirar” misrasida serbar, namat so‘zlari ustida ishlanadi.

Serbar Eni keng; enli. Serbar chit. *Mirzo Ulug‘bek belidagi serbar kamariga osilgan kalitni olib, eshikning qulfini jaranglatib ochdi* (O‘TIL. 3-tom. – B.482.).

Namat (forscha – kigiz) Yungdan bosib ishlangan palos, kigiz. *Chaylaning oldiga solingan namat ustiga oyoqlarini uzatib o‘tirdi* (O‘TIL. 3-tom. – B.15.). She’r misrasini “Yerga keng oq kigiz solinganday yaltirar” gapi orqali izohlasa bo‘ladi.

Abdulla Oripovning “Sharq hikoyasi” she’ridagi *“Ahmoq ekan bular rosa, Insofi yo‘q lavanglar”* misrasidagi lavang (so‘zlashuv tilida ishlatiladi, adabiy tilda lavand (forscha – bo‘sh, dangasa, bekorchi) so‘zi ustida ishlanadi: O‘zini o‘z udda qilolmaydigan, qo‘lidan biror ish kelmaydigan, shalviragan, bo‘shang, noshud. *Boq endi ibrat ila, bo‘lma ko‘p lavand-u go‘l* (O‘TIL. 2-tom. – B.482.).

Anvar Obidjonning “Jo‘ja” she’ridagi “Yorib chiqdim tuxumni, Shunday shovvoz jo‘jaman. Tanib oldim buvimni, Ko‘zi charos jo‘jaman” misralaridagi shovvoz so‘zining ma’nosi ustida ishlanadi.

Shovvoz (forscha – lochin) Har qanday ishni eplay oladigan, qoyil qiladigan epchil; azamat. *Odamning shovvozi qo‘riq ochadi* (O‘TIL. 4-tom. – B.587.).

Shukur Sa’dullaning “Laqma it” she’riy ertagida: “Yurding doim sanqib bekor, Bo‘yning ishga bermadi **yor”.**

Yor – (forscha – do‘st) dilga yaqin kishi; hamdam, do‘st, muhib; yordamchi. Ziyofatga o‘rtoqlar, yor va birodarlar kelishdi. Bu o‘rinda yor so‘zining **Bo‘yni yor bermadi** ibora tarkibida ishlatilishi berilgan: *Biror ishni bajarishga g‘ururi yo‘l*

qo‘ymaydi, istamaydi (O‘TIL. 2-tom. – B.43.). Yor so‘zi shakldoshdosh bo‘lib, fe’l turkumiga mansub: *To‘nkalarni kavlab, bir chekkadan yorilsa, talay o‘tin beradi.*

Boshlang‘ich ta’limda boshqa ish turlari qatori badiiy asar tili ustida ishlashda o‘zlashma – fors-tojikcha so‘zlarni o‘rgatish shu kundagi qo‘shnichilik aloqalarimiz rivojlanayotgan paytda, ta’limiy-tarbiyada alohida o‘rniga ega. Bola kichik maktab yoshdanoq til hodisalariga sezgirlik bilan yondashadi, u olgan bilimlarini amaliy hayotga tatbiq qiladi.

Boshlang‘ich sinf darsliklarining lug‘at tarkibi o‘quvchilar yoshiga mos tarzda o‘zlashma, xususan, fors-tojikcha so‘zlar rang-barang bo‘lib, shu kun o‘qitish tizimi talablariga javob beradi.

Yuqoridagi amaliy ishlarimiz natijasida ona tilimizning tarixiy ildizlarini chuqur organish orqali o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish boshlang‘ich ta’limda o‘zlashma so‘zlarni sharhlab o‘rgatishning o‘rni ta’lim tizimida muhim vositalardan biridir, degan xulosaga keldik.

SHE’R O‘QITISHDA SO‘Z ETIMOLOGIYASI USTIDA ISHLASH

Isaqova Feruzaxon *– Qo‘qon DPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 4-kurs talabasi*
Erkaboyeva Nodiraxon Adhamjon *– Qo‘qon DPI “Boshlang‘ich ta’lim” mutaxassisligi magistranti,*
Isaqov Zokirjon Soliyevich *– Qo‘qon davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.*
isaqovzokirjon1@gmail.com

Annotatsiya: maqolada o‘quvchilarning ona tili boyliklarini oshirishda izohtalab so‘zlar ustida amaliy ishlash borasida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: so‘z, so‘z ma’nosi, o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, imlosi qiyin so‘z, izohtalab so‘z, so‘z mas’uliyati, til boyligini oshirish.

She’r ohang jihatdan ma’lum bir tartibga solingan, his-tuyg‘u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. She’riy nutqni ohang jihatdan ma’lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo‘laklarning izchil va bir me’yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so‘zlar) hisoblanadi[45]. She’riy ohangni his qilmaslik, matndagi so‘zlarning ma’nosini to‘la tushunib yetmaslik she’r yodlashni zerikarli mashg‘ulotga aylantiradi. Ma’nosi anglanmagan matnni yodlash oson kechmaydi. Quyida

[45] Homidiy H. va boshq. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. – B. 92

darslikdagi she’rlarda ma’nosi izohtalab so‘zlar ustida ishlash borasidagi amaliy tajriba ishlarimizdan dalillar keltiramiz:

Miraziz A’zamning “Bolajon hayajoni” she’ri.

Vokzal – (ingl. Vauxhall) yo‘lovchilar va transportga xizmat ko‘rsatish binosi[46]. Angliyadagi saylgoh bog‘ning nomidan kelib chiqqan.

Anvar Obidjonning “O‘zbekistonim” she’ri.

Poloson – Farg‘ona viloyati Oltiariq tumanidagi qishloqlardan birining nomi. Avvallari qishloqlarni yirik shahar nomlari bilan atash rasm bo‘lib, Poloson asli Bolosog‘un so‘zining buzib talaffuz qilinishidan hosil bo‘lgan. Bolosog‘un – Quz o‘rda (hozirgi Qirg‘izistonning To‘qmoq shahri) XI – XII asrlarning yirik savdo-sotiq hamda madaniy markazlaridan biri bo‘lgan.

O‘ktam – boshqalarga o‘z ta’sirini, so‘zini o‘tkazadigan; shijoatli, o‘tkir. Mahallaning o‘ktam yigiti[47].

Himmati ulug‘, xotam, saxiy. Bo‘rixo‘ja uyida ham o‘ktam: singlisiga dashnom berishdan o‘zini tiyardi. M. Osim, Tilsiz guvoh. Mazkur ma’noni anglatgan o‘ktam sifati qadimgi turkiy tilda “fahm-farosat” ma’nosini anglatgan ög otiga -la qo‘shimchasining -da shaklini qo‘shib yasalgan fe’ldan -m qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan: ög + da + m = ögdam > öktam > o‘ktam.

Ko‘chma. Yoqimli, xush ifodali. Endi uning o‘ktam gaplari, qisqa, muayyan buyruqlaridan mamnun edi. O. Yoqubov, Larza.

Bayroq – ma’lum rangda tayyorlanib, maxsus ramziy belgilar tushirilgan mato: yalov, tug‘, tug‘a. Bu ot qadimgi turkiy tildagi “yoyil” ma’nosini anglatuvchi baż fe’lining bay shakliga -ir orttirma va -a kuchaytirish qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan shaklidan -q qo‘shimchasidan yasalgan: bay+ir+a+q=bayiraq >bayraq>bayroq[48]. Bayroq so‘zining kelib chiqishini botroq so‘zi bilan bog‘liqligi haqida taxminlar ham bor. Qadimda turk qabilalari o‘zlari yashab turgan hududlarga ramziy belgi sifatida yerga yog‘och botirib, uchiga mato bog‘laganlar, ya’ni, botroq – chegarani, signalni, xabar berishni bildiruvchi botirib qo‘yilgan yog‘och va matoni bildirgan. Keyinchalik bu davlat ramziga aylanib, har bir mamlakat o‘z bayroqlariga ega bo‘lganlar. Urushda ikki taraf bir-biridan farqlanishi uchun ham bayroq ishlatilgan. Har bir askar o‘z yurtining bayrog‘ini yerga tushirmasdan, doim balandda tutishi shart etib belgilangan. Bayroqning yerga tushishi esa mag‘lubiyat belgisi hisoblangan.

Hamza Imonberdiyevning “Vaqtning hajmi qancha” she’ri.

Gazeta – rus tili orqali o‘zbek tiliga kirib kelgan, kundalik voqealar to‘g‘risida ma’lumotlar e’lon qilinadigan davriy bosma nashr, ro‘znoma. Gazeta so‘zi italyan

[46] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-tom. – Toshkent: O‘ME, 2006. – B. 467.
[47] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-tom. – Toshkent: O‘ME, 2006. – B. 146.
[48] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 1-tom. – Toshkent: Universitet, 2000. – B. 37.

tilida “gazzette” – chaqa pul so‘zidan kelib chiqqan. Odamlar bu xabar yozilgan varaqalarni sotib olish uchun bir gaseta to‘laganlar. Tanga nomi unda tasvirlangan hakka qush (gazza)dan olingan[49]. Ro‘znoma so‘zi esa forscha “ro‘z” – kun so‘zining “noma” – xat, maktub so‘ziga qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.

Samokat – ruscha sam(o‘zi) + katat(g‘ildiratmoq, uchirmoq) so‘zlarining birikishidan hosil bo‘lgan, tik dasta, ikki g‘ildiragi bor, bir oyoqda yer tepib boshqariladigan kichik velosiped[50].

Telefon – [tele..+ yun. phone – tovush, ovoz] uzoqdan turib so‘zlashishga, ovoz, nutqni masofaga uzatishga xizmat qiladigan elektr aloqa qurilmasi va uning signal qo‘ng‘irog‘i hamda gaplashish trubkasi bo‘lgan apparati. Telefonda gaplashmoq. Telefon aloqasining qisqa nomi. Ba’zi gazeta xodimlari materiallarni telefon orqali oladilar. Mushtum. Telefon qilmoq – telefon orqali gaplashmoq[51].

Tursunboy Adashboyevning “Oltin kuz” she’ri.

Xazonrezgilik – barg, xazon to‘kiladigan davr, kech kuz[52].

Baldoq – taqinchoq, zirak. Shevalarda hassa, qo‘ltiqtayoqni bildiradi[53].

Lolagun – lola kabi qip-qizil, lolarang, qirmizi[54].

Tanga – Buxoro xonligida 15 tiyinga, Qo‘qon xonligida 20 tiyinga teng bo‘lgan kumush pul. Bir tanga (yigirma tiyin). Umuman, qog‘oz puldan boshqa oltin, kumush, mis kabilardan zarb etilgan pul. Oltin tanga. Kumush tanga. Tuxumsimon yoki dumaloq shakli foydalanish uchun qulay. Tangalar aversi (yuzi), reverse (orqa tomoni) va gurti (cheti) bilan bir-biridan farqlanadi.

Baliq terisini qoplab olgan qattiq mayda to‘garakchalar. Baliqning tangasi. Ko‘chma. Yiltiroq tangasimon narsa. Azamat daraxtlarning yaproqlari oralab yerga to‘kilgan oyning oppoq tangalariga ajib bir zavq bilan tikilar edi. S.Ahmad, Qadrdon dalalar[55].

Ilyoz Muslimning “Qorning ko‘p xosiyati bor” she’ri.

Xosiyat – arabcha alohida belgi, xususiyat; o‘ziga xoslikni bildiradi. O‘zbek tilida ayol kishining ismi sifatida ishlatiladi, bu so‘zdan xosiyatli, xosiyatsiz sifatlari ham yasalgan; xosiyatxon shaklida atlas turlaridan birining nomiga aylangan[56].

Ayoz – kech kuz, qish va erta bahordagi achchiq sovuq, qora sovuq.

Gripp – fransuzcha grippe – nafas yo‘lining yallig‘lanishi va haroratning ko‘tarilishi bilan xarakterlanadigan yuqumli kasallik.

---

[49] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – 1-tom. Toshkent: O‘ME, 2006. – B. 477.
[50] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – 3 tom. Toshkent: O‘ME, 2006. – B. 436.
[51] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – 4-tom. Toshkent: O‘ME, 2006. – B. 60.
[52] O‘sha asar. B. 376.
[53] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – 1-tom. Toshkent: O‘ME, 2006. – B. 149.
[54] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – 2-tom. Toshkent: O‘ME, 2006. – B. 507.
[55] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – 3-tom. Toshkent: O‘ME, 2006. – B. 661.
[56] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 2-tom. – Toshkent: Universitet, 2003. – B. 488.

Yaxmalak – sirpanchiq, toyg‘oq yer. Tojik tilidagi “muz”ni anglatuvchi yax otiga molidan – ishqala, toyg‘an fe’lining “mol” hozirgi zamon asosidan tuzilgan birlikka -ak qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan, a unlilari ta’sirida o unlisi ham a ga aylangan[57].

Qutbi Nosironaning “Laylakqor” she’ri.

Laylakqor – yirik, pilta-pilta bo‘lib yog‘adigan qor. Laylak va qor so‘zlarining birikishidan hosil bo‘lgan qo‘shma so‘z. Laylak – tumshug‘i va oyog‘i uzun, parlari oq, ola bo‘lgan yirik qush. Arab va fors tilida laqlaq shaklida talaffuz qilinadi. Tojik tilida laglag deb, keyinchalik o‘zbek tilida ham laylak deb talaffuz qilinadigan bo‘lgan. Ko‘pma’noli laqlaqa fe’lining “tumshug‘ini bir-biriga urib tovush chiqardi” ma’nosi bilan hosil qilingan “laq-laq tovushini chiqaruvchi qush”ni anglatadi.

Kaft – arabcha kaff(un) shakliga ega bo‘lgan bu so‘z “qo‘lning bilak uchi bilan barmoqlar oralig‘idagi yassi qismi”ni bildiradi[58].

Iskandar Rahmonning “Vatan mehr qo‘rg‘oni”

Qalqon – qilich, nayza zarbidan saqlanish uchun tashqi tomoni bo‘rtiq qilib ishlangan himoya quroli. Bu ot asli turkiy tildagi “yuqoriga ko‘taril” ma’nosini anglatgan qali fe’lining o‘zlik ma’nosini ifodalovchi -q qo‘shimchasi qo‘shilgan shaklidan –a(n) qo‘shimchasi bilan yasalgan: qali + q + a(n) = qaliqan > qalqan > qalqon.

Posbon – qo‘riqchi, soqchi, qorovul. Bu so‘z tojik tilidagi “qo‘riqlash” ma’nosidagi pos otiga –bon qo‘shimchasini qo‘shishdan hosil bo‘lgan[59].

Iftixor – asosi arabcha faxrlandi, maqtandi ma’nosidagi faxara fe’li bo‘lib, faxr, g‘urur ma’nosini bildiradi.

Qambar Otaning “Polvonman” she’ri.

Raqib – kurashda, tortishuvda bir-biriga qarshi tomon kishisi. Arab tilida ko‘pma’noli raqaba fe’lining “kuzatdi” ma’nosi asosida hosil qilingan bo‘lib, “soqchi”, “kuzatuvchi”, “tekshiruvchi” ma’nolarini anglatadi[60].

Chil – qirg‘ovulsimonlar oilasiga mansub o‘troq ov qushi. …kiyik oviga ketayotgan bo‘lssa, yo‘lida duch keligan kaklik, chillarni ham ayamasdi. Sh.Xolmirzayev, Sayanma. Chil kaklik cho‘l kakligi.

Chil – forscha qirq. Chillada sug‘orilgan bog‘ chil botmon uzum berar.

Chil bermoq – oyoq bilan ilib olgan holda tashlash. Chil kurash usullaridan biri bo‘lib, unda kurashchi bukilgan oyog‘i, panjasi, tovoni bilan raqib oyog‘ini ushlab turadi yoki o‘ziga tortadi. Kurashchi oyoqlarini tizzadan bukkan holda bukish joyini raqibning tizzasiga qo‘yadi, panjalari bilan ko‘targan holda uni raqib oyog‘iga olib

[57] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 2-tom. – Toshkent: Universitet, 2003. – B. 111.
[58] O‘sha asar. B. 199.
[59] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 3-tom. – Toshkent: Universitet, 2009. – B. 195.
[60] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 2-tom. – Toshkent: Universitet, 2003. – B. 355.

boradi hamda qo‘l va gavda harakatlari bilan raqibni gilamga tashlaydi. Chil usuli raqib oyog‘ini keng yozib turgan paytda, bir oyoqda turganda, tana og‘irligini oyoq uchiga olganda, oyoqlarini bukib egilganda qo‘llansa, o‘z samarasini beradi[61].

To‘lan Nizomning “Qaldirg‘och” she’ri.

Qaldirg‘och – qanoti ingichka va uzun, juda tez uchadigan, qora-ola rangli chumchuqsimon qush. Dastlab bu so‘z qarg‘ilach tarzida talaffuz qilingan. Qarg‘ilach ko‘rshapalak nomini ham bildirgan. Keyinchalik tovush o‘zgarishiga uchrab hozirgi holatga kelgan: qarg‘ilach>qardig‘ach>qardirg‘ach>qaldirg‘ach >qaldirg‘och[62].

Qambar Otaning “Yoz keldi” she’ri.

Doshqozon – (forscha dosh – katta o‘choq, xumdon) katta yig‘inlarda, to‘y va marakalarda ko‘pchilikka ovqat pishiriladigan ulkan qozon. Doshqozonning oshi hom bo‘lmas. Maqol. Ko‘chma. O‘rtadagi, umumlashgan mol-mulk. Biz kollektiv doshqozoniga o‘z hissamizni qo‘shayotirmiz[63].

Larzon – daraxt shoxlarining og‘irligidan egilib, tebranib turishi. Bu ot titra, silkin ma’nosini anglatadigan larzidan fe’liga -on qo‘shimchasi bilan hosil qilingan[64].

Bazo‘r – (ba + forscha quvvat, qudrat, kuch) qiyinlik bilan, zo‘r kelgan holda; zo‘rg‘a, arang. Qo‘lini bazo‘r cho‘zib, qo‘ng‘iroq ipini tortdi.

Xullas, kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan ta’limning ilk davridanoq izohtalab so‘z va iboralar ustida ishlash til savodxonligini o‘sishiga hamda bolalarning nutqlarini ongli tushunib tuzishga yo‘l ochadi.

[61] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – 4-tom. Toshkent: O‘ME, 2006. – B. 482.
[62] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 1-tom. – Toshkent: Universitet, 2000. – B. 516.
[63] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – 1-tom. Toshkent: O‘ME, 2006. – B. 651.
[64] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. 3-tom. – Toshkent: Universitet, 2009. – B. 127.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR USTIDA ISHLASH TAJRIBASIDAN

Karimjonova Durdonaxon Xurshid qizi *– Qo‘qon DPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-kurs talabasi*
Qo‘chqarova Shoxsanam Elbek qizi *– Qo‘qon DPI “Boshlang‘ich ta’lim” mutaxassisligi magistranti*
Isaqov Zokirjon Soliyevich *– Qo‘qon davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.*
isaqovzokirjon1@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada 4-sinf o‘qish darsligining 1-bobida berilgan fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar mundarijasi, ularning o‘z va ko‘chma ma’noda ishlatilishi hamda matnda qo‘llangan ma’nolari yuzasida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘z qatlam, o‘zlashma so‘z, til boyligi, bosh ma’no, ko‘chma ma’no, nutqiy xushyorlik, tarixiy haqiqat, nutqiy mukammallik.

Bugungi kunda o‘zligimizni anglash uchun boy tariximiz hamda madaniyatimizni, ota-bobolarimizning unutilmas meroslarini o‘rganish, diniy va dunyoviy tafakkurini bilish zaruriyati kuchaymoqdaki, bu zaruriyatni qondirish uchun esa badiiy va ilmiy asarlarimizni chuqur va ilmiy o‘rganish, har tomonlama tadqiq etish orqaligina bo‘lishi tabiiy holdir. O‘tmish adabiy yodgorliklarini o‘rganish va tahlil etishimiz uchun hukumatimiz tomonidan hozirgi kunda juda ko‘p sharoitlar yaratib berilgan. O‘zbek tilining boy imkoniyatlarini ochib berish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biri sanaladi. O‘zbek tilshunosligi tarixida juda uzoq davrlardan buyon so‘z va uning ma’nolari, kelib chiqish tarixi haqida fikrlar yuritilib kelinadi. Hozirgi kundagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga 80 ming so‘z kiritilgan bo‘lib, unda so‘zlarning ma’nolari atroflicha izohlab berilgan bovlib, lug‘atga talay o‘zlashma so‘zlarga ham o‘rin berilgan. O‘zlashma so‘zlarlarni o‘rganish, tadqiq etish yuzasidan tilimiz jonkuyarlarining olib borayotgan izlanishlari tahsinga loyiq, albatta.

Borliq olam doimo progressiv o‘zgarishda ekan, uning inikosi bo‘lgan til ham o‘zgarishda bo‘ladi. Til ijtimoiy hodisa ekan, albatta, jamiyatdagi barcha o‘zgarishlar unda o‘z aksini topadi. Bugun hayotimizda sodir bo‘layotgan xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik aloqalari til sathlari materiallarini kengayib borishiga o‘zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatmoqda. Fikrimizni tilimizdagi o‘zlashma so‘zlar qatlamining tobora oshib borishi buni isbotlaydi.

Hozirgi o‘zbek tili leksikasi tarixiylik jihatidan ikki qatlamga ajratiladi:

1. O‘z qatlam. 2. O‘zlashgan qatlam.

O‘z qatlam. O‘z qatlamga umumturkiy so‘zlar va o‘zbekcha so‘zlar kiradi. Umumturkiy so‘zlar deganda hamma turkiy xalqlar uchun yagona bo‘lgan so‘zlar. Ushbu so‘zlar turkiy qabilalarning goh qo‘shilishi, goh ajralishi natijasida yuzaga kelgan, hozirda turkiy xalqlar deb nomlanadigan kishilar tiliga mansub so‘zlardir. Umumturkiy so‘zlar hozirgi o‘zbek tili leksikasining asosiy qismini, deyarli yarmini tashkil qiladi. O‘zbek tili sharoitida o‘zbek tili va boshqa til elementlari asosida yaratilgan so‘zlar o‘zbekcha so‘zlar deyiladi. O‘zbekcha so‘zlar o‘zbek tilining o‘z ichki imkoniyatlari asosida, o‘z qonuniyatlari asosida yaratiladi.

O‘zlashgan qatlam. Hozirgi o‘zbek tilining lug‘at tarkibiga tarixiy sabablarga ko‘ra boshqa tillardan ko‘plab so‘zlar kirib kelgan. O‘zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar o‘zlashgan so‘zlar (olinma so‘zlar) deb yuritiladi. O‘zlashgan so‘zlar uyg‘ur, tojik, arab, rus, nemis, fransuz, ispan, ingliz va boshqa tillarga oid [4].

Insoniyat tarixi davomida shunday bir tan olingan haqiqat borki, dunyoda hech bir xalq qo‘shni va qardosh xalqlar bilan umuman aloqada bo‘lmay turib, madaniy jihatdan taraqqiy eta olmaydi. Har bir millat boshqalardan o‘rganishi mumkin hamda o‘rganishi lozim [1, 3].

Mazkur maqolada biz bugungi kunda amaldagi yangi 4-sinf “O‘qish savodxonligi”[6] darsligining birinchi qismida fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar qatlamining berilishini hamda ularni mavzular kesimida taqsimlab chiqishni lozim, deb bildik. Mazkur darslikning 1-qismi o‘n beshta mavzuni o‘z ichiga qamrab oladi hamda jami 144 ta forscha o‘zlashma so‘z berilgan. Birinchi mavzu “Yagonadir Vataning sening!” deb nomlanadi hamda ushbu mavzuda 23 ta fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar ishtirok etgan. Mavzu matnida havo, non, mehr, do‘st, lolazor, giyoh kabi fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar keltirilgan.

Mehr – fors. 1) sevgi, muhabbat, ishq; 2) do‘stlik, iltifot, marhamat, muruvvat; 3) rahm, shavqat, yumshoq ko‘ngillilik [barcha izohlangan so‘zlarning ma’nolari 5-adabiyotdagi ma’lumotlar asosida yoritigan].

Mazkur matnda mehr so‘zining uchinchi ma’nosi ishlatilgan.

Do‘st – fors. 1) do‘st, o‘rtoq; 2) oshiq. Quyidagi gap tarkibida qo‘llangan do‘st so‘zining birinchi ma’nosi izohlangan. “Vatan muhabbati ota-onaga, aka-ukaga, opa-singilga, do‘st-birodarga bo‘lgan mehr bilan qo‘shilib ketadi”.

Daraxt – fors. Matnda daraxt so‘zi quyidagi gap tarkibida o‘z ma’nosida kelgan: “Bu daraxtlar qurigan pallada Amerika qit’asida qurg‘oqchilik bo‘lib, u yerdagi shu navli daraxtar ham qurib qolgan ekan”.

Havo I. – arab-fors. havo, havo II. – arab-fors. faxr, iftixor, g‘urur, or, havo III. – arab-fors. ohang, kuy, navo. Matnda havo so‘zining birinchi ma’nosi qo‘llanilgan: “Inson uchun havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo‘lsa, vatan ham shunchalik mo‘tabardir”.

Non – fors. 1) non. 2) umuman yegulik-ichgulik, yashash, tirikchilik uchun zarur narsa. Mazkur non so‘zining birinchi ma’nosi quyidagi gap tarkibida qo‘llanilgan: “Inson uchun havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo‘lsa, vatan ham shunchalik mo‘tabardir”.

Bog‘ – fors. bog‘, bog‘cha. “Yillar o‘tib bog‘ o‘rmonga aylanibdi”. Ushbu bog‘ so‘zi matnda bog‘, ya’ni mevazor ma’nosida qo‘llanilgan. Bog‘ so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta’riflangan.

Bog‘.I. [f. mevazor, chamanzor, bo‘ston]. Mevali daraxt tok va gul bilan band yer maydoni; mevazor. Olma bog‘i.

Bog‘ II. 1. Bog‘lash uchun xizmat qiladigan narsa va uning bog‘langan joyi, tuguni; bog‘ich.

2. To‘plab, dastalab, belidan bog‘langan pichan, beda, poxol, ko‘kat va sh.k. Bir bog‘ bug‘doy [5, 350].

Giyoh – fors. 1) o‘simlik, nabotot; 2) o‘t, ko‘kat, maysa, o‘lan; 3) giyohvand modda. Matn tarkibida giyoh so‘zi birinchi ma’nosi qo‘llanilgan. “Vatanga muhabbat shu tuproqqa ona qishloq dalalariga, ko‘klam chog‘ida lolazorga aylangan qir-adirlarga, olislarda yuksalgan moviy tog‘larga, hatto yantog‘-u saksovuldan boshqa giyoh unmagan dasht-u sahrolarga bo‘lgan muhabbatdan boshlanadi”.

Lolazor – fors. Lolazor lolalarga to‘la chamanzor, lola ochilib yotgan joy. Matn tarkibi qo‘llagan lolazor so‘zi yuqoridagi o‘z ma’nosini ifodalagan. “Vatanga muhabbat shu tuproqqa ona qishloq dalalariga, ko‘klam chog‘ida lolazorga aylangan qir-adirlarga, olislarda yuksalgan moviy tog‘larga, hatto yantog‘-u saksovuldan boshqa giyoh unmagan dasht-u sahrolarga bo‘lgan muhabbatdan boshlanadi”.

Beqiyos – fors-arab. 1. Misli yo‘q, tengi yo‘q, tengsiz, yakka-yagona. 2. Juda, cheksiz, behad. Ushbu so‘z matnda quyidagi gap tarkibida qo‘llangan bo‘lib, “juda cheksiz, behad” ma’nosida qo‘llangan. “Mukarramligi bilan esa bebaho va beqiyosdir”.

Bu holatda beqiyos so‘zi yasama so‘z hisoblanib, be+qiyos [fors-arab] holatda yasalgan va be- forscha so‘z yasovchi hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yangi nashrdagi 4-sinf o‘qish darsligi tarkibida o‘zlashma so‘zlar katta miqdorni tashkil qiladi. Kelajagimiz egalari bo‘lgan yosh avlodga ona tilimizning tarkibi, uning ayrim so‘zlari qaysi tillardan o‘zlashtirilishi, so‘zlarni qanday qo‘shimchalar asosida yasalishi kabi tilshunoslikning boshlang‘ich bilimlarni berib borish, yosh avlodni ona tiliga qiziqish ruhida tarbiyalashga zamin bo‘ladi. Hamda bu orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lug‘at boyligi sezilarli darajada o‘sadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shodiyev E. Alisher Navoiy va fors-tojik adiblari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989. – 340 b.
2. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985. – 144 b.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarning izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 168 b.
4. https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13795-o-zbek-tili-leksikasida-o-z-va-o-zlashgan-qatlam.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. – Toshkent: O‘ME, 2006 – 2008.
6. Toirova M.E. O‘qish savodxonligi. 4-sinf. I qism. – Toshkent: Edutainment, 2023. – 80 b.

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA TILLARNI O’QITISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Yuldashev X.
SamISI Xim yo’nalishi talabasi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar. Odilova S.O.
SamISI “O’zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqola uzluksiz ta’lim tizimida o’qitishning asosiy metodlari va yangicha yondashuvlar haqida qisqacha ma’lumot berishga qaratilgan.

Kalit so’zlar: Kanada, metod, ilmiy, uzluksiz ta’lim, IELTS, CEFR.

Аннотатция: Целью данной статьи является дать краткий обзор основных методов и новых подходов к преподаванию в системе непрерывного образования.

Ключовые слова: Канада, метод, научный, непрерывное, образование, ИЕЛТС, СЕФР.

Annotation: This article aims to provide a brief overview of the main methods and new approaches to teaching in the continuing education system.

Keywords: Canada, method, academic, IELTS, CEFR, scientific,continuing education.

Avvalo uzluksiz ta’lim tushunchasiga qisqacha tushuntirish berib o’tish maqsadga muvofiq. Uzluksiz ta’limning asosiy prinsipi bu ta’lim va tarbiyaning

uzviy bog’liqligi va bu jarayonning har tomonlama kamol topgan kadrni shakllantirishga yo’naltirish hisoblanadi.

Til bilish bu hozirgi rivojlangan davrda har bir odamdan talab qilinuvchi soha hisoblanadi. Misol uchun xohlagan biror joyga ishga kirish uchun suhbatga borasiz va ularning sizdan so’raydigan asosiy savoli: - Nechta tilni bilasiz?

Shuning uchun ham, hozirgi kunda til o’rganish inson hayotida katta ahamiyatga ega. Til o’rganish uchun yetarlicha sharoitlar ham yaratilishi lozim. Hozirda tillarni samarali tarzda o’rgatish uchun turli xildagi qiziqarli e-kitoblar, o’quvchi uchun qiziq bo’lishi kutilgan mavzuga asoslangan videoroliklardan foydalanmoqda. Tillarni o’rganish borasida samaradorligini nazorat qilish, ya’ni tekshirib turish maqsadida Kanada metodi asosida sertifikatlar joriy qilindi: IELTS va CEFR kabi… Kanada davlatini misol qilib oladigan bo’lsak, mamlakatda davlat va xususiy ta’lim tizimi mavjud. Kanada hukumati ta’limni subsidiyalaydi va bu o’rtacha YaIM ning 6% qismini tashkil qiladi. Ko’rinib turibdiki, Kanada ta’limga boshqa mamalakatlardagi o’rtacha ko’rsatkichdan mutanosib tarzda ko’proq mablag’ sarflaydi. Hozirda mamlakatda har yili har xil yangi yondashuv va metodlar orqali yetuk kadrlar tayyorlanadi va davlat tomonidan ishga taklif qilinadi.

Uzluksiz ta’limda til o’rgatishning asosiy zamonaviy yondashuvlaridan ba’zilarini keltirishimiz mumkin:

1. Kommunikativ til o’rgatish(CLT): CLT o’quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu o’quvchilarga maqsadli tilda o’zaro munosabatda bo’lish va o’zlarini ifoda etish imkonini beradigan haqiqiy materiallar va vazifalardan foydalanishga urg’u beradi.
2. Vazifaga asoslangan til o’qitish(TBLT): TBLT mazmunli vazifalar bajarish uchun tildan foydalanishga qaratilgan. Bu talabalarni muammoni hal qilish faoliyati bilan shug’ullanishga va maqsad tilida topshiriqlarni bajarish orqali til o’rganishga undaydi.
3. Content and Language Integrated Learning(CLIL): CLIL til o’rganishni fan mazmunini o’rganish bilan birlashtiradi. Ushbu yondashuv talabalarga til ko’nikmalarini rivojlantirish bilan birga boshqa fan, tarixiy ma’lumot kabi qo’shimcha bilimlar olishiga sharoit yaratadi.
4. Sinfga teskari yondashuv: bu yondashuv talabalarni sinfdan tashqarida mustaqil tarzda material va manbalar topish, videolar orqali til o’rganish materiallari bilan shug’ullanishga undaydi, dars vaqtida esa topgan ma’lumotlarini munozara qilishga sarflashga undaydi.
5. Loyihaga asoslangan ta’lim: bu ta’lim tizimi talabalarni maqsadli tilde muloqot va hamkorlikni talab qiladigan kengaytirilgan, real loyihalar ustida

ishlashni o’z ichiga oladi. Ushbu yondashuv amaliy tajribalar orqali tilni bilish va tushunishni kuchaytiradi.

Umuman olganda, uzluksiz ta’lim tizimida til o’rgatishning zamonaviy yondashuvlari tilni o’rganish natijalarini yaxshilash uchun real hayotda qo’llash, o’quvchi faolligini oshirish hamda texnologiya va real dunyo tajribalarini integratsiyalashga qaratilgan. Yurtimizda ham uzluksiz ta’lim sifatini oshirish maqsadida turli chora-tadbirlar olib borilmoqda va ishonamizki, bu o’z samarasini tez orada ko’rsata boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’.U.Qurbonova “ Qiyosiy pedagogika”-2014 website: www.buxdu.org
2. Fariza Nosirova https//prezi.com -2022.

НЕОБХОДИМОСТЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Азгаралиева А. *– СамИЭС, студентка группы ИК-721*
Норбоева Д.Ж. *- СамИЭС, старший преподаватель кафедры узбекского языка и литературы*

Аннотация: В данной статье рассматривается и анализируется использование технологии обучения в сотрудничестве на уроках русского языка Основная идея этой технологии - создать условия для активной совместной учебной деятельности учащихся в разных учебных ситуациях. Суть состоит в том, чтобы обучающийся захотел сам приобретать знания. Совместная работа как раз и дает прекрасный стимул для познавательной деятельности, для коммуникации, поскольку в этом случае всегда можно рассчитывать на помощь со стороны товарищей.

Annotatsiya: Ushbu maqola rus tili darslarida hamkorlik ta'lim texnologiyasidan foydalanishni muhokama qiladi va tahlil qiladi.Ushbu texnologiyaning asosiy g'oyasi turli xil o'quv vaziyatlarida talabalarning birgalikdagi faol o'quv faoliyati uchun sharoit yaratishdir. Gap shundaki, talaba bilimni o'zi olishni xohlaydi. Birgalikda ishlash kognitiv faoliyat va muloqot uchun ajoyib rag'batlantiradi, chunki bu holda siz doimo o'rtoqlaringizning yordamiga ishonishingiz mumkin.

Annotation: This article discusses and analyzes the use of learning technology in collaboration in Russian language lessons. The main idea of this technology is to create conditions for active joint learning activities of students in different learning

situations. The bottom line is that the student wants to acquire knowledge himself. Collaboration just gives an excellent incentive for cognitive activity, for communication, since in this case you can always count on help from comrades.

Ключевые слова: обучение, сотрудничество, совместная деятельность, учебные ситуации, коммуникация, обучающийся, познавательная технология.

Kalit so'zlar: o'rganish, hamkorlik, birgalikdagi faoliyat, o'quv vaziyatlari, muloqot, talaba, kognitiv texnologiya.

Key words: learning, cooperation, joint activities, learning situations, communication, student, cognitive technology.

Современное информационное общество предъявляет студентам высокие требования в отношении усвоения учебного материала, в связи с чем резко возрастают перегрузки учащихся и снижается мотивация учения.

Данная проблема в технологии разноуровневого обучения решается введением так называемого базового уровня: одним студентам дают меньший объем материала, а другим - больший, а за счет того, что, предлагая учащимся одинаковый его объем, преподаватель ориентирует их на различные уровни требований к его усвоению.

При этом обязательно овладение всеми студентами общим базовым уровнем подготовки.

Понятие «инновация» с латыни имеет значение обновление и улучшение. В педагогике инновация это «целенаправленное, систематическое и последовательное внедрение в практику оригинальных, новаторских способов, приемов педагогических действий и средств, охватывающих целостный учебный процесс от определения его цели до ожидаемых результатов» [1,24].

Технология обучения в сотрудничестве на уроках русского языка относится к технологиям гуманистического направления в методике. Основная идея этой технологии - создать условия для активной совместной учебной деятельности учащихся в разных учебных ситуациях. Учащиеся разные - одни быстро «схватывают» все объяснения учителя, легко овладевают лексическим материалом, коммуникативными умениями, другим требуется не только значительно больше времени на осмысление материала, но и дополнительные примеры, разъяснения. Такие ребята, как правило, стесняются задавать вопросы при всей аудитории, а подчас просто и не осознают, что конкретно они не понимают, не могут сформулировать правильно вопрос. Если в таких случаях объединить студентов в небольшие группы (по 3-4 человека) и дать им одно общее задание, оговорив роль каждого обучающегося группы в выполнении этого задания, то возникает

ситуация, в которой каждый отвечает не только за результат своей работы (что часто оставляет его равнодушным), но и, что особенно важно, за результат всей группы. Поэтому слабые студенты стараются выяснить у сильных все непонятые ими вопросы, а сильные заинтересованы в том, чтобы все члены группы, в первую очередь, слабые ученики досконально разобрались в материале, а заодно и сильный учащийся имеет возможность проверить собственное понимание вопроса, дойти до самой сути. Таким образом, совместными усилиями ликвидируются пробелы. Это общая идея обучения в сотрудничестве[2,86].

Следует отметить, что недостаточно сформировать группы и дать им соответствующее задание. Суть как раз и состоит в том, чтобы обучающийся захотел сам приобретать знания. Совместная работа как раз и дает прекрасный стимул для познавательной деятельности, для коммуникации, поскольку в этом случае всегда можно рассчитывать на помощь со стороны товарищей. Преподаватель может уделить значительно больше внимания отдельным студентам, поскольку все заняты делом.

Этот вид технологии можно использовать при изучении темы «Имена существительные, которые имеют форму только единственного числа»: студентам дается задание, разделиться на три группы и подобрать слова, имеющие форму только единственного числа: 1 группа - названия групп людей; 2 группа - названия веществ; 3 группа - названия качеств, действий. В каждой группе должен находиться сильный, средний и слабый ученик. Так как от работы каждого студента будет зависеть оценка группы, все участники будут пытаться выполнить задание верно, и слабые студенты будут вникать в суть задания и пытаться выполнить его, а помогать им будут в этом «сильные» студенты. Таким образом, в выполнении этого задания будет задействован каждый студент.

Так же активно используется в практике преподавания русского языка модульное обучение и его элементы. Модульное обучение базируется на деятельностном подходе к обучению: только то учебное содержание осознано и прочно усваивается студентом, которое становится предметом его активных действий. Модульное обучение опирается на теорию развивающего обучения, основы которой были заложены Л.С. Выготским. Реализация этой теории обучения требует, чтобы учащийся находился постоянно в зоне своего ближайшего развития. В модульном обучении это достигается путем дифференциации содержания и дозы помощи студента организации учебной деятельности в разных формах: индивидуальной, парной, групповой, в парах сменного состава.[3,31]

В качестве основы выделяется учебный материал по русскому языку, который включает в себя законченный блок информации, целевую программу действий и советы преподавателя по успешной ее реализации. Учебный материал разделен на тематические блоки, каждый тематический блок укладывается в жесткие временные рамки двухчасового занятия. Для лучшего усвоения содержания тематического блока преподаватель следует этапам жесткой структуры модульного занятия: повторение, восприятие нового, осмысление, закрепление изученного, контроль. Каждый этап начинается с целевой установки и указания системы действий; заканчивается каждый этап урока контролем, позволяющим установить успешность обучения. При помощи модулей преподаватель управляет процессом обучения. На самом учебном занятии роль преподавателя заключается в формировании положительной мотивации учащегося, в организации, координации, консультировании, контроле.

Одним из интереснейших видов технологий обучения является педагогическая мастерская. Мастерская - необычная форма проведения урока - получила развитие в практике французских педагогов, представителей группы нового образования (П. Ланжевен, Анри Валлон, Жан Пиаже и др.)[4,259]. Сущность рассматриваемой технологии заключается в том, что в атмосфере уникальным образом организованного учебного процесса обучающиеся сами добывают и осмысливают знания по русскому языку.

При традиционной организации процесса обучения, в общем, и в частности по русскому языку, источником знания всегда является только преподаватель. В мастерской создаются условия для самостоятельного выдвижения студентами идеи, дальнейшее развитие которой происходит как в индивидуальной, так и в групповой и коллективной работе. В процессе совместного обдумывания проблемы возможен переход обучения на новый качественный уровень, что ведет к новому видению проблемы.

Игровая форма занятий создается при помощи игровых приемов и ситуаций, которые выступают как средство побуждения, стимулирования студентов к учебной деятельности. Игровая технология обладает огромными возможностями. Игра сама организует обучение. Но играть всерьез непросто. Вначале может возникнуть множество проблем: как играть, чтобы не сорвать урок? Как себя вести? Как захотеть играть? Во что играть? Любая игра будет во много раз эффективнее, если играть открыто, то есть обсудить с учащимися, зачем проводится игра, почему правила таковы, можно ли игру усложнить, изменить, улучшить. Нередко такое обсуждение приносит больше пользы, чем сама игра, развивая творческие способности и мышление студента и, кроме того, закладывая фундамент игровой культуры.[5,112]

В связи с этим, мы считаем, что применение инновационных и игровых технологий на уроках русского языка способствует развитию познавательной активности студентов и повышению качества знаний, так как инертность организации обучения, как и слабое освоение и распространение организационных инноваций в сфере образования – сейчас это основная преграда применения новых технологий в учебном процессе. Разработка таких инноваций и их активная реализация, проведение политики в области применения новых технологий в образовании - основной путь повышения эффективности обучения на данный момент.

Литература:

1. Мухина, С. А. Нетрадиционные педагогические технологии в обучении : учеб. пособие / С. А. Мухина, А. А. Соловьева. – Ростов н/Д : Феникс, 2004. – 24-39 с. – (Среднее профессиональное образование).

2.Горшунова Н.К. Инновационные технологии в подготовке специалистов

в системе непрерывного профессионального образования /Н.К. Горшунова // Фундаментальные исследования. – 2009. –№2 – С. 86-88.

3. Доронина Н. Н. Организация учебного процесса в вузе с использованием активных методов обучения: методы обучения студентов в вузе / Н. Н. Доронина // Социология образования. – 2011. – №3. – С. 31–38.

4. Садуакасова Г.М. Использование современных информационных технологий для оптимизации учебного процесса / Г.М. Садуакасова, А.Б. Мысеке, К.С. Бекенаева // Вестник КазНМУ:

спец. выпуск, 25-26 мая 2012. – С. 259-262.

5.Гин, А. А. Приемы педагогической техники [Текст] / А. А. Гин. – М.: Вита-Пресс, 2011. – 112 с.

MUBORAK TUMAN DIALEKTINING MORFOLOGIK VA FONETIK XUSUSIYATLARI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
gumanitar fanlar fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi ***Fatxullayeva Fayoza***
fayozafaz@gmail.com

Annotatsiya: Bilamizki, yurtimizda ilk renessans davrida, til va adabiyot ancha rivojlandi. Respublikamiz hududlarining turli joylarida har xil shevaga xos so‘zlar shakllana boshladi. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati Muborak tumani dialektining morfologik va fonetik xususiyatlari haqida so‘z borgan.

Kirish so‘zlar: Adabiy til, dialekt, lahja, Muborak tumani, fonetik xususiyatlar, morfologik xususiyatlari,

O‘zbek tili o‘zining shevalarga boyligi bilan turkiy tillar orasida alohida o‘rin tutadi.Tariximizga oid adabiyotlar qadimda turkiy urug’ va qabilalar miqdori ancha ko‘p bo‘lganligi to‘g’risida xabar beradi.Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi va u har bir millatning ma’naviy qadriyati hisoblanadi.Ona tili deganda, shevalarni tushunish haqiqatga yaqindir, chunki shevalarning o‘rganilishi natijasida adabiy til me’yorlari ishlab chiqilgan.Shu o‘rinda I.A.Karimovning: ”Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili-bu millatning ruhidir”,- degan so‘zlarini eslash o‘rinlidir.

O‘zbekiston hududidagi viloyat, tuman, qolaversa, qishloqlarning o‘ziga xos shevalari mavjud. Bu shevalar bir-biridan o‘zining fonetik, grammatik, va lug’aviy birliklariga ko‘ra farqlanadi. Shevalar adabiy til tushunchasiga kirmaydi,ammo ushbu shevalar uni boyitish uchun xizmat qiladi. Shevalarni o‘rganuvchi maxsus fan esa dialektologiyadir. O‘zbek tili o‘zining tarixiy taraqqiyotida uchta lahjaning birligidan tarkib topgan.Ular qarluq, qipchoq va o‘g’uz lahjalaridir. O’zbek shevalari asosan 20-30 yillardan boshlab ilmiy asosda o’rganila boshlandi va uning dastlabki tasniflari paydo bo’la boshladi. Inqilobgacha bo’lgan davrda V.Nalivkin, M.Nalivkina, A. Starchevskiy, A.Vishnegorskiy, Z.Alekseyev, N.Ostroumov, T.G’iyosbekovlar jonli til faktlari asosida o’zbek tili lug’ati, qisman fonetik va morfologik xususiyatlarini yoritgan ishlarni amalga oshirganlar. B.To‘ychiboyev va B.Hasanovlar qipchoq lahjasini sharqiy, g‘arbiy va Farg‘ona guruh qipchoq shevalari deb uchga bo‘lishgan.

Ushbu lahjaga xos fonetik, leksik, morfologik xususiyatlar prof. E.D.Polivanov, prof. G‘ozi Olim tasniflarida atroflicha mukammallikda berilgan. g > y: tegdi > tiувъ g‘ > y: yig‘ in > djъуъn y > dj: yol > djol, yəmən > djəmən. Shaxsni

bildiruvchi olmoshlarning jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini olgandan keyingi shakli quyidagichadir: mag‘an,sag‘an, o‘g‘an. Hozirgi zamon davom fe’li -djətir bilan yasaladi. Qaratqich, tushum kelishigi qo‘shimchalarida t /d /n tovushlari almashinadi: -nыng,-ning,-dыng,-ding,-tыng, -ting,-nы,-ni,-dы,-di,-tы,-ti. Mazkur lahja boshqa lahjalardan o‘zining fonetik xususiyatlari bilan farq qilgani kabi leksik xususiyatlari bilan ham farqlanadi.Qarluq lahjasi shevalari to‘rt guruhga bo‘linadi:
1. Toshkent guruhi shevalari

2. Farg’ona guruhi shevalari

3. Samarqand-Buxoro guruhi shevalari

4. Turkiston-Chimkent-Sayram guruhi shevalari

Samarqand-Buxoro guruhiga:Samarqand, Buxoro, Qarshi, Chust, Xo‘jand shevalar kiradi. Qashqadaryo viloyatining Muborak tumani dialekti ham ushbu guruhga mansubdir. Muborak tumani hududi Buxoro viloyati bilan chegaradosh bo‘lganligi tufayli ikki hudud shevalaridagi fonetik xususiyatlari bir-biriga yaqin hisoblanadi. Muborak tumanida aynan bir xil sheva mavjud emas. Yuqorida aytilganidek, shahar vaqishloqlarning ham shevalari mavjud. Tumanda ham bir necha xalqturkman, tojik, o‘zbek, .qisman qozoq va rus millat vakillari istiqomat qiladilar.

Shevaning fonetik xususiyatlari. L umdoshi bilan tugagn so‘zlarga d undoshli affiks qo‘shilganda,progressive assimilatsiya yuz beradi:oldim-allim,keldim-kellim. Shevada qayerda,qayer,qayerga kabi so‘roq olmoshlaridagi q undoshidan keying a va y undoshlari tushib qolib qerda,qer,qerga tarzida talaffuz qilinadi.Undoshlar moslashuvi ham ko‘zga tashlanadi:ol+dim-ollim, bo‘l+dim-bo‘llim.Yana bir fonetik xususiyatlardan biri olmoshlarga –lar qo‘shimchasi qo‘shilganda ba’zi holatlarda asosda,ba’zida qo‘shimchada fonetik o‘zgarishi kuzatiladi.Masalan, bizlar-biza, siizlar-sila tarzida talaffuz qilinadi.

Shevaning morfologik xususiyatlari. O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi o‘rnida jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi kelishini ko‘rishimiz mumkin. Masalan qayerdasan-qayergasan,uydaman-uygaman v.h.k. O‘tgan zamon hikoya fe’lida –ar(bo‘lishsizlik -mas) sifatdosh affiksi tarkibidagi r,bo‘lishsizlikdagi s undoshlari y(j) undoshiga o‘zgaradi:kelar edim – keläjidim, kelmas edim – kelmäjidim. Adabiy tildagi men,sen olmoshlari man, san shaklida ifodalanad. -lar qo‘shimchasi hurmat ma’nosida doimiy ishlatiladi: dadam keldilar yoki dadamlar keldilar.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Muborak tumani dialekti viloyatning boshqa shevalaridan farqli jihatlari mavjud. Ushbu shevani o‘rgansa arzigulik va o‘ziga xos xususiyatlari juda ko‘p. Shunga qaramay, sheva adabiy tildan yiroq emas.

Ko‘p so‘z, ibora va birikmalar adabiy til nuqtayi nazaridan iste’molda foydalaniladi. A.Shermatov, B.Jo‘rayev Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalarini: Yuqori Qashqadaryo shevalari va Quyi Qashqadaryo shevalariga bo‘lib o‘rganadilar. Muborak tumani shevasi Quyi Qashqadaryo shevalariga mansubdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Ashirboyev “O‘zbek dialektologiyasi”
2. B.Tòychiboyev "O'zbek dialektologiyasi",2004
3. T.Enazarov "O'zbek dialektologiyasi",2012
4. Y.Saidov “O‘zbek dialektologiyasi”
5. E-library.uz
6. tsuull.uz

HARBIY LEKSIKOGRAFIYADA O‘ZLASHMA SO‘ZLAR

Shirinova Fotima Akmaljon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy soha terminlarining tilshunoslik va lug‘atshunoslikka kirib kelish jarayoni haqida so‘z yuritilgan, ularning izohiga qisqacha e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy soha, termin, leksema, avangard, artilleriya, adyunkt, to‘p, minamyot, bastion.

Jahon tilshunosligida soha terminologiyasida kasbga oid til birliklari tushunchasi bilan bog‘liq leksik-semantik xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan bir qator muammolar ilmiy tadqiqot obyekti bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunga kelib ,kasbiy soha tilini o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarildi. Shu nuqtai nazardan, ushbu sohada mustaqillikning daslabki kunlaridanoq o‘zbek tilshunoslari zimmasiga kasbga oid til birliklarini o‘rganish va soha atamalarini tizimlashtirish , shuningdek,maxsus soha lug‘atlarini tuzish bo‘yicha bir qator vazifalar yuklatildi.

Harbiy terminologiya mamlakatimizda endigina shakllanish va rivojlanish bosqichiga qadam qo‘yayotgan bugungi kunda ingliz, rus va boshqa tillar harbiy terminologiyasini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaymoqda. Umuman olganda, harbiy ob’ektni atoqli otlar vositasida ifodalash jarayonida harbiy kasbga doir til birliklarining kichik sinflarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Harbiy terminologiya o‘ziga xos struktur va leksik-semantik xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ingliz tilida harbiy terminologiya sistemasi muayyan struktur

modellarning ustunligi bilan ajralib turadi. Tahlil qilingan materiallar shuni ko‘rsatadiki, ingliz harbiy professionalizmlari ot, sifat, fe`l, shuningdek, ravishdosh so‘z turkumiga xos so‘zlar bilan ifodalanadi. Harbiy terminologiyadagi so‘zlarning o‘zlashma so‘zlar orqali ifodalanganligiga guvoh bo‘lamiz.quyida ushbu atamalardan ba`zilarining izohini ko‘rib chiqishimiz mumkin . Foiz jihatidan substantiv atama va so‘z birikmalar 70%ni, fe’lli atama va so‘z birikmalar 20%ni, qolganini esa ad'ektiv va adverbal atama va so‘z birikmalar tashkil etadi. Shuningdek, harbiy leksikaning maxsus lug‘atlari bo‘g‘inli abbreviatsiyalardan iborat ko‘plab qisqartmalarni ham o‘z ichiga oladi. Harbiy texnologiyalarni rivojlantirishning hozirgi bosqichida mudofaa yangi texnika ishlab chiqarishda alohida o‘rin tutadi, bu talab davom etmoqda. Faoliyatning ushbu yo‘nalishida xorijiy davlatlar bilan hamkorlikning kuchayishi fonida texnik ma’lumotlar almashinuvi yo‘lga qo‘yilmoqda, ishlab chiqarilgan asbob-uskunalarni eksport qilish bo‘yicha hujjatlar rasmiylashtirilmoqda, tadbirkorlik uchrashuvlarida bevosita muloqotlar hajmi ortib bormoqda.

Harbiy sohada “avangard” so‘zi mavjud bo‘lib, u fransuz tilidan “avant” va “garde” – “oldindagi qo‘riqchi” so‘zlarining birikuvidan hosil bo‘lgan . Uning o‘zbek tilidagi izohi quyidagi ma’nolarda qo‘llaniladi:

1.Harbiy yurishlarda asosiy kuchlarni qo‘riqlash uchun oldinda boruvchi askariy qism.

2.Biror xalq, sinf yoki ijtimoiy guruhlarning ilg‘or qismi.

“Adyunkt” so‘zi ham harbiy leksikografiyadagina uchraydigan termindir. Ushbu so‘z lotinchadan tarjima qilinganda “adjunctus” – qo‘shilgan ma’nosini beradi.O‘zbek tilida bu leksemaning izohi harbiy, ilmiy-tadqiqot institutlarida yoki oliy o‘quv yurtlarida nomzodlik dissertatsiyasi ustida ilmiy- tadqiqot olib borayotgan oliy ma’lumotli yoki magistr darajasidagi mutaxassis ma’nosini beradi.

O‘zbek tilida bir so‘zning turli ma’nolarda qo‘llanilishiga ko‘p guvoh bo‘lamiz. Mazkur xususiyat harbiy leksemalarda ham mavjud. Masalan, “artilleriya” – tayyorlamoq, shaylamoq tarjimasini beradi. Harbiy sohada esa quyidagi ma’nolarda qo‘llaniladi:

1. To‘p, minamyot va shu kabi otish qurollari majmui.

2.Shunday qurollar bilan qurollangan qo‘shin turi.

3.To‘p, zambaraklar, ularning tuzilishi va urushda qo‘llanilishi haqida fan.

Shu chog‘ artilleriya qismlari og‘ir to‘plari bilan o‘ta boshladi.(Oybek)

Yuqoridagi jumlada qo‘llangan artilleriya termini otish qurollari bilan qurollangan qo‘shin turini ifodalash uchun qo‘llanilmoqda.

Bastion fransuzcha “bastion” – mustahkam qo‘rg‘on ma`nosini beruvchi harbiy birlik hisoblanadi .Atrofi mustahkam devor bilan o‘ralgan , odatda besh

burchak shaklida quriladigan, har bir burchagida o‘qotar nuqtasi bo‘ladigan harbiy istehkom izohini beruvchi so‘z sifatida qo‘llaniladi.

Hozirgi kunda bir qator umumiy harbiy lug‘atlar nashr etilganiga qaramay, o‘zbek harbiy terminologiyasi uchun yagona qo‘llanma bo‘lib, uning hozirgi holatini aks ettirmaydi, bu yesa batafsil lingvistik tadqiqotlarni talab qiladi. Harbiy transport vositalari va tank qurish tili atamalarining o‘zbekcha ekvivalentlarini dekodlash va izlash muammolari alohida ahamiyatga ega.

Harbiy terminlar sohasida atamalarning paydo bo‘lishining manbalari va ekstralingvistik xususiyatlari aniqlanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun o‘zbek tilida ham, ingliz tilida ham harbiy transport vositalari sohasidagi terminologiya tizimini etimologik tahlil qilish va qiyosiy o‘rganish usuli va til hodisalarining ilmiyva texnik faktlar bilan bog‘liqligi hamda Qurolli Kuchlarning tarixiy rivojlanishi nuqtai nazaridan foydalaniladi. O‘zbek harbiy terminologiyasida juda ko‘p terminologik birikmalarning ishlashi shoshilinch lingvistik muammolarni hal qilish uchun butun terminologiya tizimini har tomonlama o‘rganish zarurligini keltirib chiqaradi.

Tez miqdoriy o‘sish va sifat o‘zgarishining sababi yangi texnologiyalar va yangi uskunalarni jadal rivojlantirish va joriy etishdadir. Ushbu sohada an'anaviy qabul qilingan terminologiya usullari tilshunoslik adabiyotida ilgari ta'riflanmagan terminlarga o‘z o‘rnini bermoqda. So‘nggi yillardagi harbiy davriy nashrlarni o‘rganish ularni o‘rganish uchun boy materiallar beradi. Mutaxassislarning nutqida hali lug‘at fiksitsiyasini olmagan ko‘plab terminologik yangiliklar mavjud. Harbiy sohada ro‘y berayotgan faol jarayon uning doirasida faoliyat yurituvchi atamalar tizimini rivojlantirishning kamroq intensiv jarayonlarini keltirib chiqaradi, bu borada o‘rganish juda dolzarb ko‘rinadi

Xulosa

Harbiy terminologiya sohasidagi tadqiqotlar mahalliy tilshunoslarning asarlarida keng yoritilgan bo‘lsada, xorijiy manbalar yetarli miqdorda mavjud. Shuni ta’kidlash kerakki, xorijiy adabiyotlar, asosan, ma’lumot uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unga lug‘at va ensiklopedik nashrlar kiradi. Harbiy terminologiyani o‘rganishning turli jihatlariga qaramay, bizning ma’lumotlarga ko‘ra, harbiy qurilish va transport vositalarining tilini to‘liq o‘rganish mavjud emas.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - Toshkent : O‘zbekiston, 2017

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori.

3. Ismailov G‘. O‘zbek tili terminologik tizimida semantik usulda termin hosil bo‘lishi. Filol.fan.nomz.diss.avtoref.-Toshkent,
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent—2020.
5. www. ziyonet. uz
6. www. oriens. uz
7."Quyosh qoraymas". Oybek.

ELEKTRON LUG‘ATLAR VA ULARNING YARATILISHI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
Talabasi ***G‘aniyeva Gulshan***

Annotatsiya: Ushbu maqolada lug‘atning umumiy konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan elektron lug‘atlardan foydalanishning ahamiyati, ularning yaratilish bosqichlari va maqsadlari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Elektron lug‘atlar,lug‘at tuzishning analitik bosqichlari,lug‘at yaratish talablari, leksikografikva tashqi faktorlar, ma’lumotlarni tahlil qilish asosida konseptual bosqichlar.

Bugungi kunda dunyoda turli madaniyatlarning vujudga kelishi, tillar rivojlanishi va ularni o‘zlashtirishga oid texnik imkoniyatlarning kengayishi jamiyatdagi kishilar dunyoqarashinini tubdan o‘zgartiradi. Hozirda tilga bo‘lgantalab va ehtiyoj ortib borayotgan bir davrda, elektron lug‘atlartuzish va unga bo‘lgantalab ham yetarlicha. Bu talab va ehtiyojlar amaliy va nazariy leksikografiya nazariyasi fanining yana bir bosqichga ko‘tarilishiga olib keladi.

Elektron lug‘atlar garchi foydalanuvchilar doirasida anchayin mashhur bo‘lsa-da, biroq olimlar orasida ushbu leksikografik mahsulotning dizayn bosqichlari haqida yagona nuqtayi nazar, yagona yondashuv yo‘q. Boshqacha qilib aytganda, o‘ziga xos texnik yechimlarni o‘z ichiga olgan elektron lug‘atlar yaratish bosqichlari batafsilroq bayon etilgan bo‘lib, aksar hollarda lug‘at tuzish ma’lum bir nazariya emas, balki mavjud dasturiy qobiq orqali amalga oshiriladi. E’tibor qilish kerakki, lug‘atni yaratish talablari juda muhim bosqichlardan oldin keladi. Xususan, har qanday lug‘atni tuzish analitik bosqichdan boshlanishi kerak. Bu ma’lum bir sohada leksikografik mahsulotlar maydonidagi haqiqiy vaziyatni va foydalanuvchilarning zaruriy ehtiyojlarini tahlil qilish, yangi lug‘atni yaratish dolzarbligi va maqsadga muvofiqligini aniqlash, uning parametrlarini tanlashga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish jarayonini qamrab oladi.Lug‘at parametrlariga va uning yaratilish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar orasida leksikografik va tashqi faktorlar mavjud bo‘lib, bunda birinchi faktor lug‘at foydalanuvchilarining

ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq sanalsa, ikkinchi faktor haqiqiy sharoitlardan kelib chiqqan holda lug‘at loyihasini yaratishni taqozo etadi [1, B. 66-70].

Leksikografik omillar foydalanuvchilar, foydalanuvchilar faoliyati tabiati, foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlari, shuningdek, axborot izlash va idrok xususiyatlari bilan bog‘liq ehtiyojlarini o‘z ichiga oladi. Tashqi omillar esa resurslar, ushbu resurslarni taqdim etuvchi tomonlarning talablari, ommaviy axborot vositalari bilan bog‘liq cheklovlar hisoblanadi.Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, yaratilayotgan lug‘atning mavzu sohasini tanlashga ijtimoiy buyurtma, kompilyatorning mavzu malakasi darajasi, materiallarga kirish imkoniyati, tanlangan sohaning o‘ziga xos xususiyatlari jiddiy ta’sir qilishi mumkin. Lug‘at tuzishning dastlabki bosqichida olingan ma’lumotlarni tahlil qilish asosida (ya’ni, konseptual bosqichda) lug‘atning umumiy konsepsiyasini ishlab chiqiladi. Bunda lug‘atning turi va maqsadini aniqlash, leksikografik materiallarni tavsiflash tamoyillari, dizayn funksiyalari, makro va mikrostrukturasi, tuzish uchun materiallar (asosiy manbalar, bosma leksikografik asarlar, nomenklatura kodlari, mualliflik ishlanmalari va b.q.) tanlash ishlari amalga oshiriladi. Umuman leksikografiya tilning lug‘at tarkibini o‘rganuvchi sohasidir.Lug‘atlar til birliklarini jamlash, tartiblash, guruhlash va ma’nosini keng yoki tor ma’noda,planda izohlashga mo‘ljallangan bo‘ladi. So‘z ma’nosi uning qo‘llanilishi haqida ko‘plabtadqiqotlar olib borilmoqda. Tildagi so‘zlarning barchasini bir lug‘atda jamlash va to‘liq (hech bir jihatini qoldirmay) qiyin va imkonsizdir.

Elektron lug‘at leksikografik obyekt sanalib, shuning uchun uni yaratishdaleksikografik birliklarni ta’riflashning umumiy tamoyillari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, V. Dubichinskiyleksikografik tavsifning besh asosiy tamoyilini ajratadi. Bular quyidagilar:

1) Leksikografik asarlarning uzluksizligi – ma’lum bir lug‘at materialining bayoni doimo mavjud leksikografik an’analarga asoslanadi;
2) Lug‘atlar yaratishda subyektiv omil alohida ahamiyat kasb etadi;
3) O‘zgarmas pragmatizm bilan bog‘liqlik;
4) So‘z turkumlarini tanlashda normativlikka asoslanish;
5) Leksikografik asarlarning nazariy va amaliy xilma-xilligi [2,B,5].

Lug‘atdagi ma’lumotlar majmuasini yaratish xilma-xil va murakkab tuzilishga ega bo‘lishi mumkin, chunki elektron lug‘at tuzilishi uchun yagona umumiy qabul qilingan tizim mavjud emas.

Elektron lug‘atlarning afzalliklarini ko‘rib chiqamiz. Foydalanuvchi lug‘atdagi tegishli ma’lumotlar iloji boricha aniq bo‘lishini xohlaydi.

Lug‘at javobining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u so‘z yoki ibora haqida juda xilma-xil ma’lumot beradi, nafaqat tarjima o‘yinlari, balki bir nechta mumkin bo‘lgan asosli alternativalardan faol tanlovni o‘z ichiga oladi. “Qog‘oz” lug‘atlari muqarrar ravishda eskirgan. Bu, ayniqsa, so‘zlashuv so‘zlari uchun to‘g‘ri keladi. Elektron lug‘atlar kabi ommaviy dasturiy mahsulotlar tez-tez versiyalarining o‘zgarishi va minglab foydalanuvchilarning doimiy mulohazalari bilan ajralib turadi. Shuning uchun elektron leksikografiya haqiqiy leksikografiya hisoblanadi.

Biroq, lug‘atning so‘rovga yetarli darajada javob berish muammosini hal qilishga urinish muqarrar ravishda qog‘oz lug‘atdan o‘tkazilgan lug‘at materialining qarshiligiga duch keladi.

Elektron lug‘atlar nafaqat transkripsiyani o‘z ichiga olishi, balki so‘zlarni talaffuz qilishi ham mumkin. Bu erda ham ikkita yondashuv mavjud. MultiLeksdaovoz sintezatori o‘rnatilgan hamda barcha so‘zlar talaffuz qilinadi. Biroq, transkripsiya bilan nazorat qilmasdan, bunday yondashuvga to‘liq ishonish xavflidir. Sintezator urg‘uni noto‘g‘ri qo‘yishi yoki hatto so‘zning talaffuzini buzishi mumkin.

Yaxshi elektron lug‘atlarning eng muhim afzalligi nafaqat lug‘aviy maqola bo‘yicha, balki lug‘atlarning katta hajmi bo‘ylab bir vaqtning o‘zida qidirishidadir, bu esa qog‘oz versiyada haqiqatga ham to‘g‘ri kelmaydi. Bunday qidiruv so‘zning ko‘p qirrali portretini yaratadi, lug‘at maqolasining tubidan nafaqat uning qo‘llanilishi va so‘z ishtirok etadigan iboralar to‘plamining o‘ziga xos ifodalarini, balki so‘z yasalishida bo‘ysuniladigan qonuniyatlarni ham ochib beradi. Hatto mobil elektron lug‘at ham tilning barcha lahzali harakatlarini aks ettira olmaydi, lekin u ushbu o‘zgarishlarni ochish va tushunish uchun kalit bo‘lib, foydalanuvchini leksikografning hammuallifiga aylantira oladi.Bu elektron lug‘atlarning ijobiy tomonlari albatta. To‘g‘ri semantik tarjima talab qilinganida bu juda muhim hisoblanadi, chunki bunda nafaqat mos keladigan iborani tanlash, balki keng ma’noda, bir madaniyati boshqa tilda ko‘rsatish degani.Bunda foydalanuvchidan ham mahorat talab etiladi ya’ni u aynan elektron ular ko‘rsatganidek tushunmasdan, balki u aytmoqchi bo‘lgan ma’noga yaqinrog‘inio‘zi topishiga to‘g‘ri keladi.

Xulosa qilish mumkinki, elektron lug‘at yaratish ichki va tashqi aloqalar yig‘indisidagi murakkab tizimni loyihalash va uning tarkibiy qismlarini tashkil etishni o‘z ichiga oladi. Shuning barobarida, ayni paytda elektron lug‘atni loyihalash bosqichlarining yagona qat’iy tizimi mavjud emas. Shuningdek, elektron lug‘at tuzishning muhim bosqichlari texnologik va konseptual bo‘lib, bu tuzuvchidan alohida ahamiyatli yondashuvni talab qiladi. Aks holda zamonaviy leksikografiya talablariga javob bermaydigan mahsulot yaratilishiga olib kelishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, ta’lim jarayonida foydalanish uchun mo‘ljallangan elektron lug‘atlar ishlab chiqishda o‘ta dolzarb bo‘lib, tahliliy va konseptualbosqichdagi har qanday

e’tiborsizlik, ehtiyotsizlik ta’lim resursidan foydalanishda didaktik tamoyillarning buzilishiga olib keladi.Elektron lug‘atlarni yaratish:

-amaliy leksikografiyaning istiqbolli, faol rivojlanayotgan sohasidir;

-elektron lug‘at qidirish vaqtini qisqartiradi, cheklanmagan hajmdagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, bir vaqtning o‘zida qidiruvni nafaqat lug‘at yozuvining nomi bilan, balki butun lug‘atlarning katta hajmida ham amalga oshiradi;

-bu qog‘oz ko‘rinishida haqiqiy emas, so‘zlarni va lug‘at yozuvlarini o‘qiydi, ulardan foydaalanish ham osondir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кудашев И. S. Проектирование переводных словарей специальных .
2. Дубичинский B.V. Лексикография: навч.- метод. Постиб. Харкив: НТУ “ХПИ”, 2012.
3. Po‘latov A. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B. 126.
4. Xusainova Zilola Yuldasheva.“Elektron lug‘at amaliy leksikografiyaning rivojlanishining yangi bosqichi sifatida”. Maqolasi.
5. Yodgorov Umidjon Saydillao‘g‘li. “ Elektron lug‘at, axborot-qidiruv tezarusi va ontologiyalarni ishlab chiqish vositalari”.
6. Abduvaxobov G‘iyosiddinG‘ayrato‘g‘li“Amaliy tilshunoslik : Elektroni lug‘atlaryaratish konsepsiyasi” nomli maqolasi.

TILSHUNOSLIK , UNING O`QITISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Danayeva Zulhumor Abdusodiq Qizi

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti 1-kurs talabasi

xumoradanayeva@gmail.com

Kristina Konstantinovna Ivanova

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilni o’rganishning asosiy va umumiy sabablari, chet tillarini o’rganishning eng samarali hamda foydali usullari, tillarni o’qitishning zamonaviy va ommalashgan metodlari qolaversa, bu jarayondagi ba’zi asosiy muammolar va ularning innovatsion yechimlari haqida, shuningdek chet

tillarini tez va natijaviy o’qitish uchun zarur bo’lgan ba’zi metodlar va ularda samarali foydalanish borasida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Til, tilni o’rganish, samarali til o’rganish, chet tili, muammolar, talaba, o’quvchi, metodika, pedagog, psixolog, didaktika,innovatsiya

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Milliy o’zligimizning timsoli bo’lgan, ma’naviyatimiz asosi bo’lgan ona tilimizga e’tibor yanada kuchaytiriladi. Albatta, oilamizda ham chet tilini bilish, albatta, kerak, bu hozir zamon talabi. **Lekin ona tilini bilishga majbur qilishimiz kerak. Majbur[65]!”,**-dedi

Bizga ma`lumki, til-bu insonni kamolotga yetaklovchi, muloqot qilish, madaniy ifoda etish, bilimlarni saqlash, kognitiv rivojlanish va jamiyat taraqqiyoti uchun ajralmas qism bo’lish uchun vosita bo’lib xizmat qiladi. Til o’rganishning ahamiyati inson hayotining barcha jabhalariga kirib, inson ruhiy kamolot kaliti, hayotiy tajribasining boyligi hamda xilma-xilligi bo’lib xizmat qiladi. Eng asosiysi til inson mavjudligi uchun asosdir. Bundan tashqari til-tafakkur shakllanishida alohida xizmat qiladigan, keng fikrlash va dunyoni idrok etish usullarini shakllantiradigan va shu bilan birgalikda intelektual rivojlanish va ijodkorlikka ta’sir qiladigan birlamchi vositadir. Yurtboshimiz ta`kidlaganlaridek, har birimiz davlat tiliga bo’lgan e’tiborni mustaqillikka bo’lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishmiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak. Bu oliyjanob harakatni barchamiz o’z oilamizdan, va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak. Bu bilan birgalikda, “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o’rgatish bo’yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo’ladigan yangi tizimni yo’lga qo’yish vaqti keldi. Biz raqabotdosh davlat qurishni o’z oldimizga maqsad qilib qo’ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o’quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim[66].”,-dedi Shavkat Mirziyoyev. Zero chet tilini o’rganish 21-asr insonlari uchun eng asosiy va zaruriy vazifalardan biri hisoblanib bormoqda. Inson jahon bilan hamnafas yashashi uchun til o’rganish dolzarb mavzularda biri bo’lshi kerakligini anglashga harakat qilmoqdamiz. Hozirgi kundagi ta’limga qaratilyotgan katta e’tiborlar,

[65] Gazeta.uz nashridan foydalanildi
[66] https//www.gazeta.uz saytidan foydalanildi

zamonaviy, innovatsion texnologiyalarning keng tatbiq etilishi ham tilni o'rganayotgan yoshlar uchun keng zafarlar, imkoniyatlar va marralar eshigini ochmoqda. Chet tillarni o'rganish nafaqat aqliy tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi, balki shu bilan birgalikda o'zga madaniyat ta'limiy boyliklari bilan tanishish va ularni o'z madaniy hayotiga tatbiq etish orqali kishi shaxsining shakllanish jarayonida muhim ro`l o'ynaydi.

Har bir insonning o'z "MEN"i, dunyoqarashi va didi bo'lgani kabi , tilni o'qitishning ham turli xil metodlari, yo'llari va natijalari mavjud bo'lib, o'quvchilar ham uni turli xil usulda qabul qilib, tahlil qilib keyin xulosa qilishadi. Barchamizga ma'lumki bugungi kunda chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Bu talabni samarali qondirilishi uchun esa pedagoglar tinimsiz izlanishda bo'lishi va metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirishi orqali o'quvchi-talabaning to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni takkomillashtirishga erishishi kerak. Zero, sifatli va samarali ta'lim nafaqat, o'quvchi va o'qituvchilar uchun balki, davlatimiz va jamiyatimizning rivojlanishi uchun muhimdir. Lekin biz chet tillarini o'qitish jarayonida turli xil to'siq va muammolarga duch kelishimiz mumkin. Quyida ularning ba'zi turlari sanab o'tilgan:

1. Gramatikaga haddan tashqari e'tibor qaratish: Muloqot hisobiga gramatika qoidalar va tuzilmalariga real hayotiy vaziyatlarda tildan ravon foydalanishga to'sqinlik qilishi ham mumkin.

2. Gaplashish va tinglash ko'nikmalarining e'tiborsiz qoldirilishi: Ba'zi hollarda birinchi navbatda o'qish va yozishga katta e'tibor qaratilib, o'quvchilarning haqiqiy muloqoti uchun zarur bo'lgan nutq va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor berilmasligi mumkin.

3.Madaniy konteks yetarli bo'lmasligi: O'quv dasturiga maqsadli tilning madaniy jihatlarini integratsiya qilmaslik, o'quvchilarning til konteksti va undan foydalanish haqidagi tushunchalarni cheklashi mumkin.

4. Differensiyaning yetishmasligi: Talabalarning turli ehtiyojlari va o'rganish uslublariga javob qaytarmaslik ba'zi o'quvchilarning nofaollashishiga va cheklangan holda rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

5. Texnologiyalardan samarasiz foydalanish yoki umuman foydalanmaslik: Aniq natijaviy maqsadlarsiz texnologiyalarga haddan tashqari ishonish yoki ta'lim sifatini oshirishga yordam beradigan vaziyatda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnoligiyalaridan umuman foydalanmaslik.

6. Cheklangan materiallar (yoxud bir xillik): Talabalarga haqiqiy dunyo materiallari, videolar, audiolar, kabi asl materiallarning yetishmasligi ularning tabiiy tildan foydalanish qobilyatini shakllantirish va tushunishga to'sqinlik qilishi mumkin.

7. Baholash va fikr-mulohazalarning noadekvatligi: Muntazam, konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etmaslik va cheklangan baholash usullaridan foydalanish talabalarning muvaffaqiyati va motivatsiyasiga to'sqinlik qilishi mumkun.

8. Motivatsiya va ishonchning pastligi: O'quvchilarda chet tilidan foydalanishda motivatsiya va o'ziga ishonchni uyg'otadigan, qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi o'quv muhitini yaratmaslik, talabalarning ishtiyoqini so'ndiradi.

9. Individual ishlamaslik: Til o'rganuvchilarning har biri bilan yakka tartibda shug'ullanmaslik, ularning xarakterini bilish va psixolog sifatida yordam berishdan mahrum etishi mumkin.

10. Empatiya va sabr-toqatning yetishmasligi: Tushunish va sabr-toqatning yetishmasligi-qiyinchiliklarda o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va qo'llab-quvvatlovchi, tarbiyalovchi o'quv muhitini yaratish imkoniyatidan mahrum etishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchi samarali va ilhomlantiruvchi o'qitish imkonini beradigan fazilatlar va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur va yetarlidir. Ushbu xususiyatlardan ba'zilari quyidagilardir:

1. Mavzu bo'icha mutaassislik: O'tilayotgan fanni ya'ni, chet tili o'qituvchisi misolida uning linguistik va madaniy naunslarni chuqur tushunish har tomonlama sifatli ta'lim berish uchun zarurdir.

2. Ta'lim berishga ishtiyoq: O'qitishga bo'lgan ishtiyoq va chinakam muhabbat yuqumli bo'lib, talabalarni tarqatma materiallar bilan shug'ullanishga va o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini shakllantirishga ilhomlantirishi mumkin.

3. Moslashuvchanlik: o'qitish usullarini turli xil o'quv dasturlariga moslashtirish va individual talablarnining ehtiyojlariga moslashtirish qobilyati barcha talabalarning ta'limdan samarali foydalanishini ta'minlaydi.

4. Samarali muloqot qobilyatlari: Aniq va jozibador muloqot tez va oson tushunishni kuchaytiradi va ishtirok etishni rag'batlantiradi.

5. Madaniy sezgirlik: Til o’rganish asnosida talabalar madaniy qadriyatlar chorahasiga duch keladi undan ijobiy foydalanib, to`g’ri xulosa chiqarish uchun ham dars beruvchi til va unga bog’liq madaniyatni har tomonlama tushunish va qadrlashni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

6. Innovatsion va ijodiy yondashuv: Turli xil o’quv uslublariga mos keladigan turli xil va rag’batlantiruvchi o’quv faoliyatini o’z ichiga olish o’quvchilarning faolligini va ta’lim natijalarini oshirishi mumkin.

7. Tekshiruv va baholash: Konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etish va turli baholash usullarini qo’llash talabalarning rivojlanishi va taraqqiyotini tushunishini osonlashtiradi.

8. Texnologiya integratsiyasi: Zamonaviy axborot texnologiyalaridan mohirona foydalanish samarali va oson o’zlashtirishni ta’minlash hamda o’rganishni qo’llab- quvvatlash uchun qo’shimcha resurslarni taqdim etishi mumkin.

O’qituvchi faqat o’z kommmunikativ mahoratini emas, balki talabalarning ham madaniyatlararo mulaqotini shakllantirishi lozim. O’qituvchi talaba-yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunishi, ularning ijtimoiy qarashlarini, ijtimoiylashuv jarayonlarini puxta bilish talab etiladi. Shuni alohida ta`kidlash lozimki, pedagogik, madaniyatlararo mulaqot yakuniy natijasiga ko’ra muaffaqiyatga erishishi yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashi bu pedagog-muallimning qanday muomala metodini tanlashi va uni qanday amalda qo’llay olishiga bog’liqdir. Pedagog dars davomida nafaqat o’zi ishlashi, balki o’quvchilarini ham qiziqtira olishi, o’z fikrini bayon qila olishga o’rgatish lozim. Pedagogning innovatsion faoliyati o’z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, amalga oshirish va tahlil qilish, natijaviylikka baho berishni ham qamrab oladi.

Dunyo tobora o’zaro bog’lanib borar ekan, ko’p tillarda muloqot qilish qobilyati yangi va keng imkoniyatlar eshigini ochadigan, madaniyatlarni tushunishni kuchaytiradigan qimmatli mahoratdir. Til o’rganish-bu global fuqarolikka sarmoya, diplomatiya, hamkorlik va o’zaro hamkorlikni rag’batlantirishdir. Chet tilini o’rganish ko’p qirrali ta’limot bo’lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o’zgarishlarni boshidan kechiradi. Aynan shu davrdan muvaffaqiyatli o’tishi uchun ham o`qituvchi o’z ustida ko`p ishlashi lozimdir. Yuqorida sanab o’tilgan har bir xususiyatlar sifatli ta’lim natijasida erishiladigan farovon kelajak kalitlari desak mubolag’a qilmagan bo’lamiz. Hech bir inson mukammal bo’lmaydi, zero hammaning kamchiligi bordir, shunday ekan biz o’qituvchilardan mukammalikni

talab qilishimiz maqsadga muvofiq ish emasdir. Shunchaki ishini sevsa va uni sidqi dildan bajarsa kifoya.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishida Shavkat Mirziyoyev so'zlari. 2021-yil 6-may.gazeta.uz

2.https://cyberleninka.ru

ABDULLA QAHHOR FRAZEMALARI

F.Maxammatova

(SamDU,1-bosqich magistranti)

Annotatsiya*:* Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning frazeologik novatorligi haqida so`z boradi. Uning qalamiga mansub " Sinchalak" qissasidagi *burun, og'iz, quloq, yelka* somatik frazemalari jamlanib, ularning qissa lingvopoetik tizimida tutgan o'rniga munosabat bildirishga harakat qilindi.

Kalit so`zlar*:* frazeologik novatorlik, somatik frazemalar, burun, og'iz, quloq, yelka semali frazemalar.

Аннотация: В этой статье рассказывается о фразеологическом новаторстве Абдуллы Каххара. Соматические фразеологизмы частей человеческого тела (нос, уста, ухо, плечо) в повести "Птичка-невеличка", принадлежащему его перу, а также попытались выразить свое отношение на его место в в своей повествовательной лингвопоэтической системе.

Ключевые слова: фразеологическое новаторство, соматические фразеологизмы, нос, уста, ухо, плечо, семантические фразеологизмы

Abstract: This article elucidates the phraseological innovation introduced by Abdullah Kahhar. The tale "Sinchalak" includes somatic phraseological units encapsulated the physical expressions of the nose, mouth, ears, and shoulders These units are used by the author to convey their perspective on the role of these bodily parts within the narrative and poetic structure of the story**.**

Keywords: phraseological innovation; somatic phraseological units; nose; mouth; ear; shoulder; semantic phraseological units

O'zbek tilshunosligida buyuk so'z ustasi Abdulla Qahhorning frazemalar qo'llash mahorati tadqiqot ob'yekti bo'lgan. I.Qo'chqortoyev 1965 yilda "Abdulla

Qahhorning farzeologik novatorligi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan, 1967 yilda "Badiiy so‘z ustasi" nomli kitob nashr ettirgan. Bu manbalarda ijodkorning poetik individualligi haqida yetarli darajada ilmiy ma'lumotlar va xulosalar berilgan.[67]

Jumladan, olim Abdulla Qahhorning frazeologik novatorligi, xalq frazeologiyasiga, xalqning maqol va matallarga ijodiy yondashuvi bu til vositalarini keltirib chiqargan sharoit hamda falsafiy-axloqiy umumlashmalari natijasidir, degan fikrni aytgan va e'tiborini adibning yangi iboralar yaratish mahoratiga qaratgan. *Osmon uzoq, yer qattiq*iborasi zamirida yuzaga kelgan *osmon yaqin, yer yumshoq* iborasi tahlil qilingan.[68]

Lekin keyingi yillarda tilshunoslik ilmiga ham kompyuter lingvistikasi yutuqlarining tatbiq etilayotgani badiiy matn tahliliga yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda. Har qanday badiiy matnga kompyuter maxsus dasturlari asosida ishlov berish va buning natijasida tuzilgan alfavitli, chastotali va ters lug‘atlar matnning lingvistik tahlili uchun ishonarli va to‘laqonli material bermoqda. Bugungi o‘zbek tilshunosligi A.Qahhor yaratgan badiiy-publisistik meros yuzasidan ana shunday manbaga ega.[69]

Biz ushbu maqolada A.Qahhor frazemalari tahlilini maqsad qilib olganimiz "Sinchalak" qissasining ham ana shu tartibdagi lug‘atlari tuzilgan. Ana shu lug‘atlar asosida *burun, og‘iz, quloq, yelka* somatik frazemalari jamlanib, ularning qissa lingvopoetik tizimida tutgan o‘rniga munosabat bildirishga harakat qilindi.

Burun semali frazema. Xalq orasida *burun* somatizmi bilan bog‘liq iboralar anchagina: *og‘zi-burnini dabdala qilmoq, burningni art, burunning tagida, qo‘lini burniga tiqib qolmoq, ikki qo‘ling burningda, ikki qo‘lini burniga tiqib, burnidan chiqarmoq, burnidan buloq bo‘lib chiqmoq, burnidan buloq bo‘lib oqmoq, burningdan kelsin, burnini suqmoq, burnini tishlamoq, burnini jiyirmoq, jahli burnining ichida turmoq, og‘iz-burni qon bo‘lmoq, og‘iz-burnini moylamoq, og‘iz-burun o‘pishmoq, burnidan ip o‘tkazib olmoq, burnini yerga ishqamoq, yegan ichgani burnidan chiqmoq, burnini qonatmoq, eldan burun, ajaldan besh kun burun, burnidan ip o‘tkazib olmoq* singari ko‘plab iboralar mavjud.[70] Ular orasida aziyat chekmoq, jabr ko‘rmoq ma'nosidagi *butun+qonamoq* kompanentli frazema ham bor. "Sinchalak" ibora shu mazmunda qo‘llanilgan:– *Mish-mish? Raisning hali **burni** qonamasdan turib, unga qazilgan go‘r ustida dutor chertib, childirma bazm qilganingiz ham mish-mishmi?* (118). Matndagi *burnini jiyirmoq* iborasi ham xalqona:. *Men pardoz ham qilishim kerak, pardoz qilmasam, erim **burni**ni jiyiradi*

(165). Ammo *burni uzun* A.Qahhor badiiy tafakkurining mahsuli:*Muxbirlarning **burni** uzun bo‘ladi, uch kilometrdan hid oladi* (134).

Ijodkor mubolag‘a tarzida qo‘llagan *iyagi **burni**ga tegib qolmoq* iborasi ham original: *Urushning tagi ko‘rinib qolgan kunlar edi, bir kuni qarasam, Eshonning iyagi **burni**ga tegib qolibdi; surishtirib bilsam, kimdir: «Urush yana cho‘zilar emish, yetti yashardan yetmish yashargacha hamma erkak zoti askarlikka olinar emish», deb Eshonning ko‘ngliga g‘ulg‘ula solibdi* (141). Matnda tirishib, qo‘rquv va vahimadan kichraymoq ma’nosidagi bu ibora boshqa o‘zbek ijodkorlarida uchramaydi.

“Sinchalak”da *yelka* so‘zi bilan bog‘liq ikkita frazema uchraydi: *yelkasiga oftob tegmoq, yelkasidan tog‘ tushmoq: Bularning hammasi ham Ismoiljonni eng muvofiq nomzod hisoblar, lekin ba’zilar raisning ko‘nishiga shubha bilan qarar edi, chunki bir vaqt Ismoiljon birmuncha masalalarda rais bilan kelisholmay uning nazaridan qolgan, yaxshi brigadir bo‘lsa ham **yelkasiga oftob tegmas** ekan* (80). *Qalandarov **yelka**sidan bir tog‘ tushganday bo‘lib, quvonchi ichiga sig‘masa ham, o‘zini tutib: – Durust, durust! – dedi* (153). Bu iboralar xalq orasida bor.

Og‘iz semali frazema. Xalq orasida bu so‘z bilan bog‘liq iboralar ham anchagina. A.Qahhorning “Sinchalak”da qo‘llaganlari esa quyidagilar: *bir og‘iz gapirmoq, bir og‘iz so‘z, bir og‘iz so‘ramoq, bir og‘izdan, og‘iz ochmoq, og‘iz rostlamoq, og‘iz solmoq, og‘izboylar, og‘izga olmoq.og‘izga tushmoq*.

Qissada tasvirlangan bir necha majlislar jarayonida rasmiy uslubga xos bo‘lgan *bir og‘izdan* iborasidan foydalangan: *bir ovozdan tasdiqlanmoq* (148), *bir og‘izdan ma’qullanmoq* (166) kabi. Quyidagi gap esa u g‘oyatda ixcham va obrazli tasviriy ifodaning shakllanishida ishtirok etgan: *Sizni hisobga olinmaganda, Ismoiljon Normatov bir **og‘iz**dan o‘tdi* (89).

Xalq tilida *og‘iz ochmoq* iborasi bor. A.Qahhor undan foydalangan: *Qalandarov bu safar nima bo‘lib unga o‘rnidan turib qo‘l berdi va mehmon to‘g‘risida **og‘iz** ochishi bilan, Saida: – Xabarim bor, – dedi-da, boyagi qog‘ozni uzatdi* (153). Ayni paytda, unga muqobil tarzda *og‘zi rostlamoq* variantini yaratgan: *Nosirov bir nima demoqchi bo‘lib **og‘iz** rostlaganda eshik sekin ochildi-yu, Arslonbek Qalandarovning shopday, rayonga mashhur mo‘ylovi, yuzi ko‘rindi* (50).

Og‘izboylar bir udum sifatida xalq etnogrfiyasida bordir. Ammo uni A.Qahhordagiday *Hurinisoning ota-onasi Asad boyvachchaga rozilik berib, «**og‘iz**boylar» bo‘ladigan kunlari Qalandarov bir nima qilibdi-yu, ishni buzibdi, bir haftaning ichida hamma rasm-rusmni joyiga qo‘yib, Hurinisoni nikohlab olibdi* (63) tarzida qo‘llanishini boshqa idojkorlarda uchratmadik.

***Quloq* semali frazema**dan “Sinchalak”da *ko‘z-quloq bo‘lmoq, qulog‘i yonidan o‘tkazmoq, qulog‘i qizarmoq, qulog‘iga kirmoq, qulog‘iga erish tuyulmoq, qulog‘igacha baxtga botmoq, qulog‘im sizda, qulog‘ini buramoq, quloq bermoq,*

quloq solmoq. quloq osmoq, quloqqa kirmoq, quloqqa quymoq, quloq-miyani yemoq, quloqni qomatga keltirmoq tarzida samarali foydalanilgan. Ularning bir qismi xalq tilida faol qo‘llaniladi.

Ammo ayrimlari A.Qahhor ijodiy laboratoriyasida qayta ishlangan va bir qadar mukammallashtirilgan iboralardir.

Qalandarov og‘zidan bunaqa gaplarni, ehtimol, juda ko‘p eshitgan va har safar saragini olib, puchagini ***qulog‘i yonidan o‘tkaza bergan*** *va shunga o‘rganib qolgan bo‘lsa* (69). Misoldagi *qulog‘i yonidan o‘tkaza bermoq* tilimizdagi *u qulog‘idan kirib, bu qulog‘idan chiqmoq* iborasiga yaqin, balki shu negizda yaratilgandir. Ammo ularning biri o‘rnida ikkinchisini qo‘llab bo‘lmaydi. Chunki xalq iborasida e’tiborsizlik ottenkasi bo‘lsa, A.Qahhor yaratgan frazemada gaplarni saralash va keragini olib qolish ma’nosi bor.

Quyidagi: *–Qanaqa qilib? Masalan, sizning jiyaningizni o‘qituvchi o‘ziga qanaqa qilib rom qilishi, bosib olishi mumkin? Qalandarovning jag‘i qimirlab, tomirlari bo‘rtdi,* ***quloqlarigacha qizarib ketdi*** (117). *Kozimbek shu gapni aytishga aytdi-yu, domlasidan olgan ta’limini birinchi marta ishlatganidanmi, yoki tili shundoq desa ham yosh ko‘nglining allaqaysi burchi uni yolg‘onchi qilayotganidanmi, har nechuk,* ***quloqlarigacha qizarib****, kiyik ko‘zlari yiltirab ketdi* (134) misollari tarkibidagi *qulog‘i qizarmoq* frazemasi yasalishiga xalq tilidagi *yuzi qizarmoq* iborasi tayanch manba bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Yuzning qizarishi odatda uyalish, hayajonlanish kabi hissiyotlar natijasi. Quloqlargacha qizarib ketish esa bu hissiyotlarning ifodasining undan-da yuqori ifodasidir. Bu ifodalash ham yetarli bo‘lmaganidanmi ikkinchi gapni yozuvchi *kiyik ko‘zlari yiltirab ketdi*tarzida davom ettirib, ifodani *yiltiramoq* so‘zi hisobiga yanada kuchaytiradi.

Qulog‘igacha botmoq iborasini xalq odatda qarzdor kishiga nisbatan ishlatadi. Yozuvchining *Lekin Manzuraxon baxti bor qiz ekan – Kozimbekning qo‘liga tushgan qizni* ***qulog‘igacha baxtga botdi*** *deyabering* (64) gapi tarkibida frazemani *baxt* so‘ziga nisbatan qo‘llaganligi esa uning badiiy mahoratidan dalolatdir.

Qulog‘ini buramoq. Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da keltirilgan *qulog‘ini burab qo‘ymoq* iborasining *boshqa takrorlamaydigan qilib ta’zir bermoq, nima deyish,nima qilish haqida oldindan maxsus tayinlamoq* tarzida ma’nolari izohlangan. Ammo A.Qahhor uni yana ham xalqchil tarzda – *mashina haydash, mashinani boshqarish* ma’nosida qo‘llaydi:– *Dehqon bilan ishchining mehnatini baravar qilmang, ishchi mashinaning* ***qulog‘ini buraydi****, xolos, – dedi* (128).

“Sinchalak” matnida *quloq* ishtirokida eng ko‘p ishlatilgan frazema *quloq solmoqdir.* Ayni paytda, u*quloq osmoq, quloq bermoq*iboralari bilan o‘zaro sinonim holatda ham qo‘llangan: *Saida borganda rais hamon o‘shanday, so‘rida oyog‘ini osiltirib, navbatma-navbat gapirayotgan ikki kishining so‘ziga diqqat bilan* ***qulo****q*

solib o‘tirar edi (58).*Payqash uyoqda tursin, o‘qituvchilarning dodiga* ***quloq ocadigan*** *kishi bo‘lmadi!* (150). *Saida uning maqtovlariga juda ahamiyat berib, «Umidaga qoyil» degan ma’noda bosh chayqab* ***quloq berar ekan****: –Qani endi mana shunaqa uquvli, epchil, g‘ayratli odamlar byuroda ko‘proq bo‘lsa! – dedi* (78). Mana bu – *Kolxoz dehqonning ham qo‘liga* ***mashinaning qulog‘ini berib qo‘yibdi-ku****, hozirning o‘zida ketmonga qancha ish qoldi?* (128) misolidagi *mashinaning qulog‘ini berib qo‘ymoq* iborasi esa ham qahhorona, ham xalchil frazemadir.

O‘zbekiston Qahramoni O.Sharafiddinov ta’qidlaganidek, “Abdulla Qahhor tilining yana bir fazilati uning milliyligidadir. Uning tilida o‘zbek tilining ichki hayoti yorqin ifodalanadi. Bu milliylik, birinchi navbatda, xalq tilining ruhiga juda chuqur kirib borilganida, shu ruhni o‘z asarlari tiliga ko‘chira olganida ko‘rinadi”.[71]

Ulug‘ so‘z san’atkori Abdulla Qahhorning ijodi haqida gap ketganda hamisha uning tilga nihoyatda katta mas’uliyat bilan qaraganligi aytiladi. Birgina “Sinchalak” qissasidagi ayrim somatik frazemalar tahlili ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Adabiyotlar:

1. Kuchkartayev I. “Фразеологическое новаторство Абдуллы Каххара”: Avtoref.dis. …kand.filol.nauk. ¬– Tashkent, 1965; **Qo‘chqortoyev I.** Badiiy so‘z ustasi. – Toshkent: O‘zKP Birlashgan nashriyoti, 1967, -32 b.

2.Karimov S., Qarshiyev A., Isroilova G. Abdulla Qahhor asarlari tilining lug‘ati. Alfavitli lug‘at. – 434 b.; Chastotali lug‘at. – 420 b.; Ters lug‘at. – 423 b. – Toshkent: O‘zME nashriyoti, 2007.

3.Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik tug‘ati. - Toshkent: “Qomuslar Bosh tahririyati”, 1992.

4.Sharafiddinov O. Iste’dodjilolari. – Toshkent: Ad.t vasan’atnashriyoti, 1976, -148-149 b.

5.Qo‘chqortoyev I. Badiiy so‘z ustasi, – Toshkent: O‘zKP Birlashgan nashriyoti, 1967-B.27-28.

DAVLAT TILIDA ISH YURITISH ASOSLARI

Olloyorov Sherzod O‘ktamboy o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti p.f.f.d (PhD)
e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat tilida ish yuritish asoslari, uning tili o‘ziga xos uslub va xususiyatlari, bugungi kunda tutgan o‘rni hamda dolzarbligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: davlat tili, elektron, imzo, hujjat, kalit, axborot, qism, o’zbek tili, tinish belgilari.

O‘zbekistonning milliy mustaqilligi hech bir istisnosiz ona tilimiz rivoji uchun ham keng yo‘l ochdi. Davlatimizning asosiy qonuni– Konstitutsiyamizda “Davlat tili haqida”gi Qonun boshqa rasmiy hujjatlarda o‘zbek tilining huquqiy maqomi va istiqboli aniq ko‘rsatib berilgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqida bu borada qilinadigan keng ko‘lamli ishlarning to‘laqonli tarixini chizib berar ekan, bu ishlarning pirovard natijalarini quyidagicha ifoda etdi: „Muxtasar aytganda, har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim” Shuningdek, Qonunning 8-moddasida O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinishi va e'lon qilinishi belgilangan.

O‘zbek hujjatchiligini shakllantirish va takomillashtirishdagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tili va uslubi masalasidir. Hujjat tayyorlash va rasmiylashtirishda, eng avvalo, o‘zbek tilining barcha asosiy qonuniyatlari va qoidalarini ma’lum darajada tasavvur etish zarur. Har bir rahbar, boshqaruv muassasalarining xodimlari, umuman, faoliyati ish qog‘ozlarini tuzish bilan bog‘liq kishi o‘zbek tilining imlosini, tinish belgilari va uslubiy qoidalarini egallagan bo‘lishi kerak. Hujjatlar matnining xolislik, aniqlik, ixchamlik, lo‘ndalik, mazmuniy to‘liqlikdan iborat zaruriy sifatlari hujjatchilik tilining o‘ziga xos uslubi, undagi o‘ziga xos so‘z qo‘llash, morfologik va sintaktik xususiyatlar orqali ta’minlanadi. Hujjatlar tilida ot turkumiga oid so‘zlar ko‘p qo‘llanadi. Hatto fe’l bilan ifodalanuvchi harakat va holatlar ifodasi uchun ham otga yaqin so‘z shakllari

tanlanadi, ya’ni ,,harakat nomi” deb ataluvchi so‘z shakllari faol ishlatiladi: ,, …tayyorgarlikning borishi haqida “ , ,,…qarorning bajarilishi to‘g‘risida…”, ,,…yordam berish maqsadida…“, ,,…qabul qilishingizni so‘rayman” kabi. Hujjatlarning mohiyati va maqsadiga muvofiq ravishda, ularda so‘roq va undov gaplar deyarli qo‘llanmaydi, asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi. Zero, hujjatlarda tilning ikki vazifasi – xabar berish va buyurish amalga oshadi. Masalan, ma’lumotnomada axborot ifodalanadi, buyruqda buyurish aks etadi, bayonnomada ham axborot (,,Eshitildi…”), ham buyurish (…,,Qaror qilindi…”) o‘z ifodasini topadi. Elektron raqamli imzo elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elekrton hujjatdagi axborotda xatolik yo‘qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo turidir. Elektron raqamli imzoning yopiq kaliti – elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, faqat imzo qo‘yuvchi shaxsning o‘ziga ma’lum bo‘lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo‘ljallangan belgilar ketma-ketligi hisoblanadi.Elektron hujjatdagi elektron raqamli imzo o‘z shartlarga rioya etilgan taqdirda qog‘oz hujjatga qo‘lda qo‘yilgan imzo bilan bir xil ahamiyatga ega bo‘ladi.[2]

Hujjatning har bir turi (qaror, farmoyish, buyruq, xat va bosh.) o‘z mohiyati va vazifasidan kelib chiqib, yuqoridagi zaruriy qismlarning muayyan qismi majmuyiga hamda ularni joylashtirish standart tartibiga egadirki, bular haqida biz ushbu qo‘llanmada o‘sha hujjatlar ustida fikr yuritganda alohida to‘xtab o‘tamiz. Darhaqiqat, yuqorida qayd etilgan ba’zi zaruriy qismlar bir-birini istisno etadi, muayyan hujjatning tarkibiy qismiga ayni vaqtda kirmaydi (masalan, “Hujjatni oluvchi” va ‘‘Tasdiqlash ustxati” zaruriy qismlari bir vaqtda foydalanilmaydi). Hujjat blankasi tarkibiga kiradigan doimiy zaruriy qismlar hujjatda bo‘lishi shart bo‘lgan majburiy qismlardir. Bunday qismlar qog‘ozning standart varag‘iga oldindan kiritilib, bosmaxona usuli bilan yoki maxsus shtamp yordamida ko‘paytiriladi. Bunday qog‘ozlar blanka- bosma ish qog‘ozi deyiladi. O‘zbekiston Respublikasida amaldagi davlat standartiga muvofiq, tashkiliy-farmoyish hujjatlari uchun zaruriy qismlar tarkibidan kelib chiqib, xizmat blankalarining 2 turi joriy etilgan: xatlar blankasi va umumiy blanka.

O‘zbek tilining ham ona tili, ham davlat tili sifatidagi taraqqiyotini ta’minlash, hech bir shubhasiz, milliy manfaatlarimiz himoyasining tamallarini tashkil etadigan harakatlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda davlatimiz rahbari o‘zbek tiliga ko‘p e’tibor beryapti. Shuningdek o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlashi, o‘zbek tilining boy ifoda imkonlarini ko‘rsatadigan izohli va terminologik

lug‘atlarini nashr etish, ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarning o‘zbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qo‘llanishini ta’minlash, natijada esa har bir fuqaro qalbida davlat tiliga ehtirom tuyg‘usini shakllantirishga alohida e’tibor berib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi „O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonini. Xalq so‘zi gazetasi. 2019-yil 22-oktabr

2. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron raqamli imzo to‘g‘isidagi “ gi Qonuni 2003-yil 11-dekabr

3. O‘zbekiston Respublikasining „Davlat tili haqida” gi Qonuni.

4. N.Mahmudov., A.Rafiyev., I.Yo‘ldoshev. Davlat tilida ish yuritish. Akademik litseylar uchun darslik- Toshkent., Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.

TIL TA’LIMIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Pertebaev Meyirbek Baxit o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti p.f.f.d (PhD)
e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish mexanizmlari haqida fikr yuritilgan va uzluksiz ta’lim bo‘g‘inlarida ona tili o‘qitishda interfaol metodlar orqali darslarini tashkil etish ta’lim sifatini oshirishda samara berishi ilmiy xulosalangan.

Kalit so‘zlar: interfaol metod, til o‘qitishda, ta’lim sifati, samaradorlik, o‘quvchi, o‘quv faoliyati, metod.

Yurtimizda mustaqillik qo‘lga kiritilgandan so‘ng ta’lim sohasida bir qator muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Uzliksiz ta’lim yangi rivojlanish bosqichlariga o‘tdi. Bu haqda Birinchi Prezidentimiz I.Karimov: ”Umuman, men fanni ilg‘or, taraqqiyot, progress degan so‘zlar bilan yonma-yon qabul qilaman. Fanning vazifasi kelajagimizning shakl- shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo‘nalishlarini , tabiiy qonuniyatlarini uning qanday bo‘lishini ko‘rsatib berishdan iborat, deb tushunaman. Fan jamiyat taraqqiyotini olg‘a siljituvchi kuch, vosita bo‘lmog‘i lozim” - deb ta’kidlaydi. [2].

Ta’lim sohasida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berib, o'zbek tili va tilshunosligining rivojlanishi yo'lida yangi davr boshlandi: o'zbek adabiy tili ijtimoiy vazifalari doirasining mislsiz kengayishi yo'lida katta imkoniyatlar ochildi. Bugungi kunda jamiyatning ilg‘or taraqqiy etishi, avvalo, fanning oldiga mazmunan va mohiyatan yetuk tadqiqotlar yaratish talabini qo‘ymoqda. Bu ilm-fanning barcha sohalariga yangicha yondashish va zamon talabiga javob beradigan yetuk tadqiqotlarni yaratish lozimligini ko‘rsatadi.

Interfaol so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib, «inter» – o‘zaro va «act» – harakat qilmoq ma'nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol – ya'ni o‘zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi. [3]

Bunday o‘zaro harakat turlariga o‘quvchi va o‘qituvchining maqsadli harakatini kiritish mumkin. Interfaol o‘qitishda o‘qituvchi o‘quv faoliyatninig faol tashkilotchisi bo‘lib, o‘quvchi bu faoliyatning subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Interfaol usullar o‘quvchilardan axborotlarni o‘zlashtirish jarayonidagi faollikni, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, o‘qitish maqsadlarining to‘laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Bugungi kunda o‘qitish tizimidagi eng samarali interfaol o‘qitish metodlari va texnikalariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin bo‘ladi:

Ikki qismli kundalik metodi

Metodning maqsadi – mazkur metod nafaqat matnning mazmunini o‘rganishga, matn mazmunini o‘zining shaxsiy tajribasi bilan bog‘lashga va o‘zlashtirgan axborot, g‘oya, yoki fikrlarga nisbatan o‘z munosabatini yozma ifoda etishga imkon beruvchi oddiy va samarali usul bo‘lib, o‘quvchilardagi shaxsiy pozitsiyani shakllantirishga yordam beradi.

Metodni o‘tkazish tartibi:

1-qadam. Ish daftari vertikal chiziq bo‘yicha ikkiga bo‘linadi.

2-qadam. Chap tomonga o‘quvchi mavzu yuzasidan unda taassurot uyg‘otgan, yoqqan yoki savol tug‘dirgan sitata, g‘oya yoki fikrlarini yozadi (masalan, juda aqlli ta'rif, yoki xato tuyulishi, yoki ma'lumotning bir qismi dalil yoki sabab va boshqalar).

3-qadam. O‘ng tomonda o‘quvchi keltirilgan sitata yoki fikrga o‘zining sharhlarini yozadi, ya'ni o‘z munosabatini quyidagi yo‘nalishlarda bildiradi: Uni bu fikr yoki g‘oyaning nimasi qiziqtirdi va yozib olishga undadi? Bu nima haqda o‘ylashga majbur etdi? Bu fikr bo‘yicha u qanday savollarni o‘yladi?

4-qadam. Matnni o‘qiyotganida o‘quvchi kerakli qo‘shimcha fikrlarni aniqlab, kundalikka yozib boradi.

5-qadam. Ish yakunlagandan so‘ng o‘quvchilar juftliklarda ishlashlari, tahlillarini almashishlari, o‘rtoqlari tahlilida ularga yoqqan fikrni muhokama etishlari va ko‘rsatishlari mumkin.

1. O‘qituvchiga tavsiyalar

1. Siz oldindan sitatalar yoki g‘oyalar sonini belgilab olishingiz mumkin (misol uchun, 2 ta, 4 yoki 5 tadan), - sitatalar mazmuni va yo‘nalishi mutaxasislik, fan yoki mavzuga mos bo‘lishi, kerak.

2. Agarda siz ijtimoiy-tarbiyaviy mavzuda bu treningni o‘tkazmoqchi bo‘lsangiz g‘oyalar yoki sitatalar hayotiy-ijtimoiy mavzularda tanlanishi mumkin bo‘ladi. Bularning barchasi siz o‘z oldingizga qo‘ygan maqsadga va sizning pedagogik uslubingizga bog‘liq bo‘ladi.

«Keys-stadi» metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

«SWOT-tahlil» metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength) – kuchli tomonlari;

W – (weakness) – zaif, kuchsiz tomonlari;

O – (opportunitu) – imkoniyatlari;

T – (tnreat) – to‘siqlar

“Assesment” texnikasi

Maqsadi: baholash, nazorat qilish, ta'lim oluvchilarning bilim darajasi, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli aspektlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi.[3]

«Insert» texnikasi

Metodning maqsadi: Mazkur metod o‘quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

«Tushunchalar tahlili» metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod o‘quvchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda

tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadidia qullaniladi.

Hozirgi zamonaviy jamiyatda o‘quvchi-yoshlarni nafaqat yaxshi mutaxassis, raqobatbardosh kadr sifatida tayyorlash, balkim vataparvar fuqaro, o‘z haq-huquqlarini to‘la anglab, undan ongli foydalana biladigan barkamol shaxsni tarbiyalashning milliy konsepsiyasini yaratish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan sanalmoqda. Umuman, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ona tili darslarini tashkil etishda interfaol metodlar o‘quvchi faolligini oshirishga xizmat qiluvchi, erkin, ijodiy muhitni yaratuvchi, ta’lim samaradorligini kafolatlovchi usul hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz, -T.: O‘zbekiston, 2016.

2. Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. -T.: O‘zbekiston, 1998. - B. 58

3. Ишмуҳамедов Р.Ж., ва бошқ. Таълимда инновациялар. – Т.: “Истеъдод” жамғармаси, 2008. – 180 б.

4. Ziyodova T. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish. -T.: O‘qituvchi, 2001. -80 b.

TA'LIM YETAKCHILIGIDAGI TO'SIQLAR VA YECHIMLAR

Saytova Sh.B.*- Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI I bosqich magistranti*
Ilmiy rahbari: Allaniyazov I.B. *- docent, p.f.n.*

Annotatsiya: Ta’lim muassasalari rahbarligida mavjud bo’lgan to’siqlar va ularga mos yechimlar. Olimlarning talim yetakchiligida to’siqlar haqida tadqiqot ishlari va fikrlari keltirib o’tilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim muassasalari, liderlik, direktor, kasbiy kompotensiya, pedagogik mahorat.

Talimda yetakchilar boshqalarga ya’niy o’qituvchilarga ish taqsimlovchi sifatida tafsivlanib keldi. Aslida esa ta’lim liderlari o’qitish vazifalari ustida ishlovchi ta’lim muassasalarida yoshlarning yaxshi bilim olishlariga o’z hissalarini qo’shadigan shaxs. Fullan (1991): maktab yetakchilari – direktorlar o’qituvchilar

bilan faol ishlaydi, hamkorlikdagi yetakchilik shakli maktabni umumiy maqsadlar bilan yangi imkoniyatlarni shakllantiruvchi shaxs deb hisoblaydi.

Umumiy orta ta’limda liderlarga ya’niy yetakchilarga, ta’lim sifatini oshirish, ta’lim muassalarida maktablarda o’quv jarayoni, hozirgi zamon standartlariga mos bolishi bevosita bog’liq bo’lib hisoblanadi. Liderlarda kasbiy kompotensiya, muloqotga, yechimga ijodiy yondashish qobiliyati rivojlangan, optimallashtirish va yangilash usullarini bilishi, fanlarning rivojlanish tendensiyalarini va asosiy yo’nalishlarini tushunishi kerak. Hozirda yosh avlodga bilim berish sifatini yaxshilash maqsadida ta’lim tizimida tubdan o’zgarushlar bo’lishi liderlarga yana bir qancha vazifalarni yukladi: umuminsoniylikga asoslangan ijtomoiy va iqtisodiy fanlar qadriyatlar va jahon madaniyati, turli xil soatlar hajmini oshirdilar.

Pedagogik amaliyotda ko’pincha rejalashtirgan natijalarga erishishga to’sqinlik qiladigan qiyinchilik sifatida tushuniladi. Flath (1989) va Fullan (1991) ta’kidlashicha ta’lim rahbariyatida sifatini oshirishda tosiqlar juda katta deb quyidagilarni keltirib o’tadi:

- maktab ham jamiyatida direktorlarning haqiqiy ro’li haqida noto’gri tushuncha (shug’ullanuvchi shaxs);
- direktorlarning tegishli vazufalar bilan shug’illanish majburiyatini yo’qligi;
- adekvat salohiyatni oshirish (chuqur o’qitish) dasturlarni yo’qligi.

XXI asr talablari darajasidagi zamonnaviy madaniyatli rahbar kasbini egallashga to’siq bo’ladi. Rahbarlarning kasbiy faoliyatini shakllantirish quyidagi bosqichlarni o’z ichiga oladi: professionalga kirish faoliyati, analitik qidiruv va integratsiya bosqichlari, va albatta pedagogik faoliyat uslubi. Agar maktab o'z maqsadlariga samarali erishmoqchi bo'lsa, unda to'g'ri vaqt boshqaruvga maktab rahbarlari va maktab direktorlari tomonidan tegishli e'tibor berilishi kerak.

Shuning uchun Markos (2017:229) vaqtni boshqarish ongli ravishda nazorat qilish harakati ekanligini ko'rsatadi muayyan tadbirlarga sarflangan vaqt miqdori bo'yicha. Bundan tashqari, Grissom, Loeb va Mitani (2015:773) vaqtni boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lgan direktorlar darslarda ko'proq vaqt sarflashlarini tasdiqlaydi.

Xuddu shunday Oplatka (2004) ta’kidlaydiki, maktablar rivojlanayotgan konteksli sharoitlar: mamlakatlar faoliyati va direktorning ro’lini belgilovchi madaniy qadriyatlar potencial to’siqni keltirib chiqaradi. Maktabda o’quv etakchiligi uchun tizim salohiyatini kuchaytirish maqsadida ushbu to’siqlar bartaraf qilinishi kerak. Brath (1986), Cuban (1984) o’nlab yillar davomida o’quv etakchilarini kuzatdilar. Shunga ko’ra rahbarlarni ku’chli ta’lim etakchiligini amalga oshirishda to’rtta to’siq aniqlandi:

1. O’quv dasturlari va o’quv dasturlari bo’yicha tajribaning etishmasligi (ularning mamuriy rolini o’z zimmalariga olganlarida, ko’pgina direktorlar ishining ushbu qismiga e’tibor berish uchun tajriba va ishonchga emaslar);

2. Kasbiy me’yorlar(ya’niy ta’lim berishni ko’rstadigan uzoq muddatli kasbiy normalar);

3. Tizim talablarining bir xil emasligi;

4. Rollarning xilma-xilligi (direktorning ish kuni ko’plab qisqacha ma’lumotlarni qabul qilish ni o’z ichiga olishi).

Natijada direktorlar uchun zarur bo’lgan uzluksiz vaqt bloklarini rejalashtirish ko’pincha qiyin o’quv dasturini rejalashtirish va baholash, darslarni kuzatish va o’qituvchilar bilan konferensiyalar o’tkazish.

Yana bir ahamiyatli to’siqlardan biri bu ota-ona va bilim beruvchilar o’rtasida aloqa bo’lmasligi sababi ikki taraf ham bir xil bola yaxshi talim olishlari uchun masu’l. Ota-onalarning ishtiroki turli xil harakatlarni, shu jumladan bola uchun muhim maktab ishlarida ishtirok etish, ota-onalar yig’ilishlarida qatnashish, bu yerda ota-onalar va o’qituvchilar bilan o’quvchilarning yutuqlarini, ota-onalarning maktab faoliyatiga jalb etilishini muhokama qiladilar.

Ota-onalarning jalb qilish ota-onaning ham, o'qituvchining ham bevosita va fidoyi ishtirokini o'z ichiga oladim masalan, uyda bolaga yordam beradigan ota-ona va muvofiqlashtiruvchi ota-ona va o'qituvchi bolaga maktabda ijobiy va yaxshi natijalarga erishish uchun imkon qadar ko'proq yordam beradi.

Ota-onalarning o'qituvchilarning mas'uliyatini tushunish darajasi va buning hal qiluvchi roli bolalar hayotida muhim o'ynaydi. O'qituvchi maktab vaqtida o'quvchining ota-onasi, ota-onasi esa ota-ona sifatida qabul qilinadi. O'qituvchi baho berish orqali ota-ona bo'lish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi o'quvchining maktab vazifasi, o'quvchining darsda ishtirok etishiga ishonch hosil qilish va agar o'quvchi kasal bo'lsa, o'qituvchi o'quvchiga g'amxo'rlik qilish uchun javobgardir.

O'quvchilarning ta'limida O'qituvchilar markaziy va faol rol o'ynaydi va ular joylashtirilgan bolalar ustidan muayyan hokimiyatni amalga oshiradilar sababi maktab soatlarida ularning g'amxo'rligi, loco parents "ota-ona o'rnida" (Coetzee, 2012:59).

Turli maktablarda, asosan qishloq joylarida o‘qituvchi sifatida ishlagan tajribamdan kuzatdim ota-onalarning farzandlarining maktab ishlariga jalb etmaslik darajasi juda yuqori. Bu juda aniq ota-onalarning ishtiroki yo'qligi o'quvchining maktabdagi xulq-atvor faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlashimiz kerak, zamonaviy lider bu to’siqlarni maktab bilan ahillikda, hamfikirda engib otishadi. Maktabning qarashlari, maktabning maqsadi, akademik rivojlanishga qaratilgan maktab ehtiyojlari va muvofiqligi asosida. Maktab ishtirokida maktabni yaxshilash rejasini tayyorlaydi,

Maktab direktorining o'zi va o'rnatishda eng yaxshi namunani ko'rsatadi maktab maqsadlari va qarashlarini amalga oshirish va missiyani amalga oshirishda va maktab qadriyatlarini hurmat qilishda. Maktabning qarashlari va missiyasi hamma uchun aniq va tushunarli bo'ladi. Maqsadlar maktab ichida va uning atrofida yoziladi va namoyish etiladi.

Adabiyotlar:

1.Barth, R. (1986). On sheep and goats and school reform. Phi Delta Kappan, 68(4), 293–296.

2.Cuban, L. (1984). Transforming the Frog into a Prince: Effective Schools Research, Policy, and Practice at the District Level. Harvard Educational Review, 54(2), 128–151.

3.Markos Mekuria (2017). Implementing Instructional Leadership Style: A Challenge for School Effectiveness in Primary Schools of Kambata-Tembaro Zone, Ethiopia.

4.Oplatka, I. (2004). The principalship in developing countries: context, characteristics, and reality. Comparative Education, 40(3): 427-445.

5.Fullan, M. (1991). The new meaning of educational change. New York: Teachers College Press.

6.Flath, B. (1989). The principal as an instructional leader. ATA Magazines, 69 (3), 19-22.

7.Grissom, J.A., Loeb, S. & Mitani, H. (2015). Principal Time Management Skills. Journal of Educational Administration, 53(6):773-793.

RASMIY- IDORAVIY USLUB VA UNING QO‘LLANISH SOHALARI

Sharifov Dilmurod Dilshod o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti p.f.f.d (PhD)
e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

***Annotatsiya*:** Mazkur maqolada rasmiy-idoraviy uslubning o'ziga xos xususiyatlari, qo'llanilish sohalari va huquqiy madaniyatni bugungi kundagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalitlar so‘zlar: rasmiy- idoraviy uslub, o‘zbek tili, davlat tili, hujjat, yozishmalar, ish qog‘ozlari.

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor berila boshlandi. «Ta'lim to‘g‘risida»gi Qonun, «Kadrlar

tayyorlash milliy dasturi», «Davlat ta’lim standartlari»ning chop etilishi ushbu jarayonlardagi eng muhim bosqch sifatida xarakterlanadi. O’zbek tili xalqimiz uchun milliy o’zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir.

O‘zbek tili o‘zbek millatining davlat tilidir. Vatanimizdagi 14 millionga yaqin xalq o‘zbek tilini ona tilim deydi. O‘zbek (turkiy) tili qadimiy tillardandir. Dastlabki yozma yodnomalar VI-VII asrlarga oid O‘rxun-Enasoy yozuvlarida uchraydi. X-X1 asarlardan boshlab o‘zbek (turkiy) tilda yirik asarlar yaratila boshlandi. Jumladan: Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» asarlari. Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Xorazmiylar turk (o‘zbek) 20 tilining rivojlanishida katta xizmat qildilar. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1989-yil 21-oktabrdagi sessiyasi o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berdi, o‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili deb e’lon etildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida shunday deyilgan: “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”.[2]

”Davlat tili” tushunchasiga izoh beradigan bo‘lsak, bu degani til boshqa davlat ramzlari qatorida qonun asosida davlat himoyasiga olingani, til bilan bog‘liq masalalar davlat darajasida hal qilinadi, deganidir. Bu qonun bilan o‘zbek millatining ma’naviyatini, ruhiyatini, qadrini ko‘rsatadigan muhim omil, ya’ni tilning maqomi huquqiy mustahkamlandi. Mazkur huquqiy asos orqali yangi shakllanayotgan davlatning, hukumatning, uning yangi rahbarining elga, yurtga nisbatan e’tibori, ehtiromi namoyon etildi.

Hozirgi kunda o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzi oshib, faol muloqot vositasiga aylanib bormoqda. Turli darajadagi rasmiy uchrashuvlar, muzokaralarda tilimiz keng qo‘llanilayotgani, xorijdagi ko‘plab universitetlar, ilmiy muassasalarda o‘zbek tili markazlari tashkil etilib, ularda ona tilimizni o‘rganishga qiziquvchilar safi tobora ortib bormoqda.

Shaxsning huquqiy madaniyati – bu har bir kishining o‘z faoliyatida va huquqiy ongida subyektiv tarzda shakllangan huquqiy bilim, ya’ni amaldagi huquqqa munosabatni ifodalovchi tasavvurlar, qarashlar va tuyg‘ular yig‘indisida namoyon bo‘ladi. Rasmiy-idoraviy nutq uslubi jamiyatdagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi uslubdir. Bu uslub hujjatchilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga ko‘ra, yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, aktlar, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, idora hujjatlari, e’lonlar va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va

ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy qoliplar, kasb-hunar so‘zlari, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo‘llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta‘minlaydi. Rasmiy-idoraviy uslub, boshqa uslubdan lug‘aviy va grammatik xususiyatlari jihatidan farqlanadi. Rasmiy uslubda so‘z va so‘z shakllarini qo‘llashda muayyan chegaralanishlar mavjud. Xususan rasmiy ish uslubida tor doiradagi kishilargina tushunadigan so‘zlar o‘xshatish, mubolog‘a kabi obrazli va taffakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi shakllar ishlatilmaydi. Matn birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs tilidan yoziladi. Rasmiy ish qog‘ozlari matnini tuzishda turg‘unlashgan qoliplashgan so‘z birikmalaridan keng foydalaniladi.[3]

Tayyor nutq qurilmalari (shu asosda; shunga ko‘ra; ma’lum qilamizki; ...ni e’tiborga olib; ...ga ko‘ra; ...biz, quyida imzo chekuvchilar, ...ga asosan (muvofiq); ...uchun, ...dan kelib chiqib; ...sharti bilan; ...berilsin, ...taqdirlansin kabi) hujjat matnining darak-hikoya xarakterida bo‘lishini, so‘zlarning bir ma’noda ishlatilishini, badiiy-tasviriy vositalarning bo‘lmasligini, fe’lning majhullik va buyruq-istak shakllarining, qo‘shma gap turlarining keng qo’llanishini talab qiladi. Til materiali hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi. Bunday uslubdagi hujjadlar qisqa va aniq barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Rasmiy- idoraviy uslubda eskirgan so‘z va iboralar o‘rni bilan ishlatilishi mumkin. Rasmiy-idoraviy uslubi leksikaning yana bir xususiyati unda proffisional yurudik, diplomatik, ma’muriy terminologiyaning mavjudligidir.[4]

Rasmiy-idoraviy hujjatlarning tayyor andozalari ishlab chiqilgan bo‘ladi. Mazmuni aniq va ayon bo‘lib, yozma nutq shaklida amal qilinadi. Ortiqcha izoh va takrorlar bo‘lmaydi. Bu uslubda xolis baholash, qat’iy undash, buyurish ohangi ustuvor bo‘ladi. Rasmiy yozishma va xujjatlar uslubi iqtisodiy, yuridik va diplomatik munosabatlarda, davlat idoralari, sudlar, savdoga doir o‘zaro muammolarda aloqa qilish uchun ishlatiladi. Sintaktik jihatdan rasmiy uslubning jumlalari ikki tarkibli: sodda yoyiq gaplardan va ixcham shakldagi qo‘shma gaplardan tashkil topgan bo'ladi. Rasmiy uslub yozma nutq me’yorlariga to‘la asoslangan holda shakllanadi. Shuning uchun rasmiy uslubda ifoda shakllari ma’lum tartibga asoslangan holda aniq tuziladi.

Rasmiy uslub deyarli yozma shaklda ro‘yobga chiqadi. Rasmiy uslub hozirgi o‘zbek tilining davlat-ma’muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarida namoyon bo‘ladigan ko‘rinishidir. Qonun matnlari, farmonlar, farmoyishlar, buyruqlar, xullas, barcha rasmiy ish qog‘ozlari ana shu uslubda shakllanadi.

Rasmiy ish yuritish uslubining asosiy xususiyatlari:

- Badiiy tasvir vositalari bo‘lmaydi;
- Uysub leksikasi kitobiy va xolis so‘zlardan iborat bo’ladi;
- Uslubda professional tereminologiya mavjud bo‘ladi;

- Eskirgan so‘z va iboralar o‘rni bilan ishlatiladi;
- Hujjatlar matni turg‘unlashgan, qoliplashgan so‘z birikmalaridan ko‘proq foydalaniladi.

Rasmiy uslub quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Sof qonunchilik uslubi (qonun, farmon, fuqarolik va jinoiy aktlar, nizomlar uslubi).

2. Idoraviy –devonxona uslubi (buyruq, ariza, talabnoma, bildirgi, tavsifnoma, tarjimayi hol, ishonchnoma, dalolatnoma); diplomatik uslub (nota, bayonotnoma, bitim, konvensiya va boshqalar).

Ish qog‘ozlari va hujjatlarning xilma-xilligiga qarab ularga oid atamalarning me’yorlashuvi va chegaralanuvi ham kuzatiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunning 8-moddasida O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinishi va e’lon qilinishi belgilangan. Mazkur norma “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi Qonun 26-moddasining to‘rtinchi qismida yanada aniqlashtirilgan. Unga asosan, “qonun loyihasi va unga ilova qilinadigan hujjatlar qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan Qonunchilik palatasiga davlat tilida kiritiladi”. Ushbu normalarning ijrosi amalda ta’minlanayotganini hozirgi kunda Qonunchilik palatasiga kirtitilayotgan qonun loyihalari misolida yoki Oliy Majlisda qabul qilinayotgan qonunlar o‘zbek tilida qizg‘in muhokama etilayotganligida ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.

2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2001-yil, 6-bet.

3. O‘zbek tili stilistikasi. T. 1983.

4. Qo‘ng‘urov R,. Begmatov E,. Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T. 1992.

TAFAKKUR BIRLIGI SIFATIDA KONSEPTNING TILSHUNOSLIKKA TATBIQI MASALASI

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti,Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi ***Yusupov Murodali***
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali akademik litseyi o'qituvchisi ***Ubaydullayeva Yulduz***

Annotatsiya: Maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari sirasida keng rivojlanib borayotgan kognitiv tilshunoslik aspekti sanalagan, aslida mantiq fanining asosisy tushunchalaridan sanalgan konsept atamasi, uning mohiyati, tilshunoslikka tatbiqiq masalasi ko'riladi. Jahonda va Respublikamizda amalga oshirilayotgan konseptologik ishlar asosida konseptosferani to'g'ri va aniq tahlil qilish masalasi asoslanadi.

Kalit so'zlar: konsept, kognitiv tilshunoslik, konseptosfera, mantiq, tafakkur

Konseptning lisoniy modellashuv jarayoni yana bir muhim mental bosqichni bosib o‘tadi. Voqelikning tafakkurdagi umumlashgan in'ikosi - obrazning mantiqiy "qayta ishlanishi" natijasida hosil bo‘lgan konsept lisoniy "libos" olishdan oldin ushbu "libos" ning tasavvurdagi aksi - model yuzaga keladi. Lisoniy voqelanish rejasi paydo bo‘lgan zahotiyoq uni amalgam oshirish uslubi izlanadi. Reja hamda "so‘zsiz" model nolisoniy yoki "botiniy nutq" jarayonida yuzaga keladi.[72] Botiniy nutqning yuzaga kelish muammosi bilan shug‘ullangan psixolog va psixolingvistlar ushbu hodisani turli cha talqin qilib kelishmoqda. Ulardan ayrimlari botiniy nutqni oddiygina qilib, o‘z-o‘ziga gapirish bilan tenglashtirsalar, boshqalari uni alohida tashqi (zohiriy) nutqdan butunlay farq qiluvchi hodisa sifatida ta'riflaydilar. Biroq, eng muhimi, botiniy nutq zohiriy nutqning asosini, negizini tashkil qilishini olimlar e'tirof etib kelishmoqda. Darhaqiqat, nutqiy faoliyat ijro (talaffuz) va eshitish (mazmun,idrok) bosqichlaridan tashqari yana bir bosqichni o‘z ichiga oladi. Bu tashqi yoki zohiriy nutqni rejalashtirish bilan bog‘liq yashirin jarayondir. Bo‘lg‘usi nutqiy hatakat niyat va rejadan boshlanadi va ushbu reja nutqiy faoliyatning "ichki harakatchan sxemasi" vazifasini o‘taydi.

Ichki sxema o‘ziga xos dasturlash xizmatini o‘tab, lisoniy nomlanish lozim bo‘lgan konseptning mundarijasida mujassamlangan asosiy mazmuniy xususiyatlarni aks ettirmog‘i darkor. Botiniy nutq konseptning lisoniy voqelanishini ta'minlovchi jarayondir. Ushbu jarayonda bo‘lg‘usi lisoniy birlikning tuzilishi va

[72]Муҳамедова С. Когнитив лингвистика: вужудга келиши, асосий тушунчалари ва йўналишлари .- Т; Фан , 2007. – 46 б

mundarijasi shakllanadi.

Botiniy nutq jarayonida konsept, birinchidan, ma’lum mazmun shaklini olsa, ikkinchidan, lisoniy belgi tanlovi bosqichiga tayyorgarlik ko‘radi. Xuddi shu hozirlik lisoniy modellashuvdan oldingi harakatlar vositasida nominativ birlikningdenotativ asosini mazmunan boyitadi. Bu bilan lisoniy tanlov imkoniyati hamkengayadi. Lisoniy tanlov esa alohida ko‘rinishdagi lisoniy tafakkur faoliyatinatijasidir. Bu faoliyatning ko‘chishi til o‘zlashtirish va nutqiy qobiliyat hosil bo‘lish jarayonlariga mos ravishda kechadi. Ma’lumki, inson til va moddiy olamni bir xil uslubda hamda bir xil yo‘nalishda o‘zlashtiradi. Moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet - hodisalar haqida tushuncha tug‘ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna - konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishni taqozo qiladi. Bu xildagi ko‘p bosqichli linvopsixik faoliyatning natijali (natija muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo‘lishidan qat’iy nazar) kechishida asosiy rolni lisoniy xotira o‘ynaydi.

Tilshunos uchun eng muhimi tafakkur birligi bo‘lgan konseptning tilda (aniqrog‘i nutqda) aks etishini ta’minlovchi strukturalar, harakatlar, qoidalarni aniqlashdir.O‘zbek tilshunosligida lisoniy hodisalar mohiyatini ochib berishga kognitiv nuqtai nazaridan yondashilgan ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelmoqda.[73] Bu o‘zbek tilshunosligida mazkur sohada ham ma’lum yutuqlar qo‘lga kiritilayotganligidan dalolat beradi. Tilshunoslikda mentallik xususiyatiga ega bo‘lgan til birliklari belgilar tizimi sifatida tushuniladi va ular vositasida inson o‘zini o‘rab turgan ob’ektiv olamga xos xususiyatlarni asta-sekinlik bilan anglaydi, voqelik faktlarini o‘zlashtira boradi. Ana shu holatda tilning o‘z ijtimoiy vazifalarini namoyon etishi bevosita amalga oshiruvchini – inson ishtirokini taqozo qiladi. S.Muhamedova to‘g‘ri qayd etganidek,”An’anaviy tilshunoslikda, asosan, belgining ifoda plani va mazmun planiga e’tibor qaratilar edi, kommunikatsiya jarayonining realizatori bo‘lgan insonning o‘zi esa tadqiqotchilarning nazaridan chetda qolib keldi”[74]. Zamonaviy tilshunoslikning an’anaviy tilshunoslikdan farqi shundaki, unda lisoniy hodisalar mohiyatini ochib berishda belgining ifoda va mazmun planiga emas, balki mazkur jarayonni amalga oshiruvchi inson omiliga, insonning bu jarayondagi o‘rniga alohida e’tibor qaratiladi. Kognitiv tilshunoslik shu asosda inson ongidagi milliy-madaniy, ruhiy-falsafiy, qomusiy, mantiqiy bilimlari zaxirasi va ularni nutqning og‘zaki va yozma shakli orqali namoyon

[73] Аюб Ғуломов ва ўзбек тилшунослиги масалалари илмий мақолалар тўплами.- Тошкент:ЎзМУ, 2007. 22-б.

[74] *Муҳамедова С. Когнитив лингвистика: вужудга келиши, асосий тушунчалари ва йўналишлари.- Т; Фан , 2007 й 59 б*

bo‘lishini ta’minlovchi vosita – tilni ongga bog‘liq holda o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qo‘yadi va lingvistik tadqiqotlarda shunga asoslanadi.Tilni shunday tushunish va uni tadqiq qilishga bo‘lgan bunday yondashuv *tilga kognitiv yondashuv* nomini oldi.

Foyadalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Аскольдов С. А. Концепт и слово. Русская словесность. От теории словесности в структуре текста. Антология. – М.: “Akademia”, 1997. – с. 274.
2. Аюб Ғуломов ва ўзбек тилшунослиги масалалари илмий мақолалар тўплами. – Тошкент:ЎзМУ, 2007. – 22-б.
3. Англо - русс кий словарь по лингвистике и семиотике: Ок. 8000 терминов / University Press, 1976. – 1368 p. (COD).
4. Alston, William P, “Tillich’s Conception of a Religious Symbol,” in Sidney Hook (ed.), *Religious Experience and Truth*, New York.: New York University Press, 1961. –20p
5. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-T.:, 2004. – B345
6. Иванцова Е.В. О термине “языковая личность истоки+проблемы” перспективы использования.Вестник Томского государственного университета. Филология, №3, 2000, с. 13–21
7. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград.: "Перемена",2002 – с. 331
8. Кассирер.И. Опыт о человеке: Введение в философию человечесий культуры//Проблемы человека в западной философии.М.: Прогресс.1977.-261с..
9. Collins COBUILD English Language Dictionary. – London: Collins, 1990. –1703 p.
10. Муҳамедова С. Когнитив лингвистика: вужудга келиши, асосий тушунчалари ва йўналишлари. – Т.: Фан , 2007. – 59 б
11. Муҳамедова С. Когнитив лингвистика: вужудга келиши, асосий тушунчалари ва йўналишлари. – Т.:Фан , 2007. – 59 б
12. Ma’rufovZ. M. O‘zbek tilining izohli lug‘ati . – Moskva.: Rus tili nashriyoti, 1981. –B59

ALISHER NAVOIY - O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING ASOSCHISI SIFATIDA

Xalikova Lola Nazarovna *SamISI*
“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi i.f.d, professor

Keng jamoatchilikning diqqat e’tiborida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy badiiy so‘z va nazm mulkining sultoni, badiiy ijodiyotining sermahsul va zabardast sohibi sifatida gavdalanishiga shubha yo‘q. Ammo uning zabardast olim, tarix, adabiyot va tilshunoslik kabi fanlarning ham mohir bilimdoni ekanligi esa juda kam tilga olinadi. Masalan, uning o‘zbek tilshunosligi sohasida bajargan ishlari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. U til ilmining etuk qobiliyatga ega bo‘lgan olimi, o‘zbek tilshunosligining ilk tadqiqotchisidir. Olimning butun ijodiy faoliyatida o‘zbek tiliga va unga bo‘lgan munosabati, e’tibori asosiy o‘rinni egallaydi. Navoiy ijodi sinchiklab o‘rganilib qaralsa, uning o‘zbek tilining taraqqiyoti uchun astoydil qayg‘urishi va bu yo‘ldagi tinimsiz kurashlari yaqqol o‘z aksini topadi. Bu uning uch yo‘nalishdagi faoliyati bilan bog‘liq. Birinchidan, badiiy so‘z mulkining sultoni sifatida o‘zining badiiy asarlarida 26 mingdan ortiq so‘zni taxminan 1,5 million marta qo‘llangan Navoiyning favqulotda til bilimining bilimdoni ekanligini tan olmasdan hech kimning iloji yo‘q...

O‘zbek adabiy tilini ijtimoiy-siyosiy jihatdan himoya qilish, uning davlat tili darajasidagi mavqeiga ega bo‘lishi sohasida olib borgan kurashlari esa Navoiy faoliyatidagi ikkinchi yo‘nalishni tashkil etadi. CHunki u o‘zining davlat arbobi darajasidagi faoliyati davrida bu sohada ancha samarali natijalarga erishadi.

Ammo Navoiy o‘zbek tilining ravnaqi va amalga keng qo‘llanilishi sohasidagi bu kabi ishlarini qoniqarli deb bilmaydi. O‘z maqsadining to‘liq amalga oshuvida eng muhim va o‘ta murakkab bir muammoni hal etish lozimligini etuk olim sifatida sezadi. U ham bo‘lsa, e’tibordan ancha chetda qolgan o‘zbek tilining ilmiy jihatdan o‘rganilishi masalasi edi. Navoiy xuddi ana shu murakkab ishga qo‘l urdi. Bu esa Navoiy ijodiy faoliyatining uchinchi yo‘nalishini tashkil etadi. Olimning 1499 yilda yozilgan “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari ana shu maqsadni amalga oshirish mahsuli edi. Ushbu asar o‘zbek tilshunosligida yaratilgan birinchi ilmiy-nazariy ish edi. Unda o‘zbek tilining leksik boyligi, uslubiyati, atamashunosligi va ba’zi bir fonetik-grammatik sohalari ixcham va mazmundor tarzda ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilgan. Shu kabi o‘zbek tilining ichki va tashqi imkoniyatlari tahlil etilgan hamda o‘zbek tili qiyosiy tilshunosligiga asos solingan.

Alisher Navoiyning til bilimdoni ekanligini isbotlovchi dalil-“Muhokamat ul-lug‘atayn” asaridir. Bu asar o‘z zamonasida beqiyos shijoat va jasurlik namunasi bo‘lgan bo‘lsa, keyingi asarlar tilshunosligi uchun esa tillarni qiyosiy tadqiq etish sohasida benazir. Ammo tilshunoslar nazaridan chetda qolib ketgan, etalon-manba

bo‘lib hisoblanadi. Asar hajmi jihatdan unchalik katta bo‘lmasa-da, mazmun-e’tibori bilan g‘oyat puxta, mukammaldir. Bundan muqoyasa (muhokama) turk va sart tillari misolida bayon etilgan. Tillarni qiyosiy o‘rganish bir til doirasida va ikki yoki undan ortiq tillar doirasida qiyoslash bilan shug‘ullanadi.

“Muhokamat ul-lug‘atayn”da Navoiy turk tilining leksik qatlamini (bir qancha misollar asosida) sart (fors) tili bilan muqoyasa qilgani, o‘z fikrlarini tasdiqlash maqsadida ko‘p hollarda turkiyda yaratilgan, to‘g‘rirog‘i o‘z she’rlaridan misollar keltiradi. SHoir bu bilan chegaralanmasdan, forsiyda ham turkiydagi ma’noni anglatuvchi (ifodalovchi) vositalar yo‘qligiga ishora qiladi.

So‘zga, nutqqa, tilga va umuman tilshunoslikka munosabat, avvalo, tovushdan boshlanadi. SHuning uchun so‘z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy nafaqat so‘zga, balki har bir tovushga, uning to‘g‘ri talaffuzi va to‘g‘ri yozilishi, urg‘u, harf va tovush munosabatiga, so‘zlardagi ohangga jiddiy e’tibor beradi. Bu borada buyuk tovushshunos olim sifatida qator saboqlar beradi:

Qaysi bir kotibki, ul so‘zga qalam surgay xilof,

Ul qora yuzluk boshi bo‘lsun qalam yanglig‘ shikof,

satrlarida aytilgan fikrni go‘yo hozirgi yozma savodxonligimizga hazratning bundan besh yarim asr burun bergan bahosi deb tushunsak ne ajab!

“Jadid tilshunosligi” g‘oyasini “qamash” maqsadida 1940-yillardan keyingi darsliklarimizda o‘zbek tilida ham huddi rus tilining egizagidek olti (6) unli tovush bor deb o‘qitilib kelindi. Biroq “Muhokamat ul-lug‘atayn”da o‘zbek tilidagi to‘qqiz unli tovushi izohlanadi. Hozirgi o‘zbek tili eski o‘zbek tilining tadrijiy davomi bo‘lganligi sababli bu unlilarning barchasi bizning nutqimizda saqlanib qoldi. Ularni chalkashtirish esa, so‘zning yo‘sinini, ko‘rinishini buzadiki, bu borada bobomiz shunday demish:

So‘zki, vasfida har namat bo‘lg‘ay,

Rost bo‘lsa, dog‘i g‘alat bo‘lg‘ay.

“Muhokamat ul-lug‘atayn”dan so‘zlar etimologiyasi, kelib chiqishining tovush jarayonlariga aloqadorligi haqida ham etarli saboqlar olamiz:

Mengizlari gul-gul, mijjalari xor,

Qobog‘lari keng-keng, og‘izlari tor.

qop+qoq qob+oq qovoq.

“Muhokamat ul-lug‘atayn”da o‘zbek tilida fonetik usul bilan so‘z yasash ham sermahsul ekanligi qayd etiladi:

Uzoringni ocharg‘a qimsanurmen,

Vale el ko‘rmagiga qizg‘anurmen.

Odatda urg‘u so‘z ma’nosining nozikliklarini ifodalashda muhim o‘rin tutadi. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da urg‘uning “tajnis” san’atini yaratishdagi xizmatlariga chiroyli ishora bor.

CHun nariyu hurdur oting begim,
San’at ichra dev erur oting, begim,
Har hadangikim, ulus andin qochar,
Notavon jonim sari oting, begim.

Zero, Navoiyning tovushshunoslikka doir saboqlarini sinchiklab o‘rganish o‘zbek tilshunosligining shu sohasidagi kemtiklarini to‘ldirar, degan umiddamiz.

ДИСТАНЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ, КАК ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Турсунова Шахноза Бердикуловна
преподаватель
Самаркандского государственного
архитектурно -строительного института
mail; shanashan7773@gmail.com

Annotation: The author considers the issues of innovative teaching of foreign languages through distance learning. Speaking about the effectiveness of distance learning, we consider the organization and methodological qualities of the materials used, as well as the skills of teachers involved in this process.

Keywords: methodology, science, language, information, memory, learning, access, learn, goal, distance.

Сегодня методика преподавания иностранного языка является очень живой наукой со своими особенностями и проблемами. Одной из самых актуальных проблем на сегодняшний день является вопрос об отборе материала, особенностях использования приёмов и способов работы. Об этом и был обусловлен выбор данной темы.

Задачей данного исследования было выделение основополагаюших методических принципов, основных методов обучения иностранным языкам на сегодня: коммуникативная, проектная, интенсивная, деятельностная методики и методика дистанционного обучения.

Дистанционная форма обучения это является самой молодой среди остальных методов обучения иностранных языков. На сегодняшний день в нашей стране это форма обучения была известно как законная. В практике обучения иностранным языкам оно применялось не очень широко в других областях. Существовали заочные курсы обучения иностранным языкам также существовали учебные теле и радио передачи для желающих изучать

иностранный язык. Языковые же факультеты и ВУЗЫ ограничивались вечерними отделениями, поскольку обучить практическому владению иностранного языка в условиях эпизодических встреч с преподавателями дело практически безнадежное.

В последние годы университеты различных стран обратили внимание на то, что существует возможность использования компьютерных телекоммуникационных технологии для целей обучения на расстоянии, в том числе и иностранным языкам.

Дистанционное обучение - способ реализации процесса обучения, основанный на использовании современных информационных и телекоммуникационных технологий, позволяющих осуществлять обучение на расстоянии без непосредственного, личного контакта между преподавателем и учащимся.

На наш взгляд, дистанционное обучение - это, прежде всего отсутствие необходимости ходить в какое - либо учебное заведение в строго предписанное расписанием время, выполнять программу курса в уставленном порядке. ДО обеспечивает возможность учиться тогда, когда удобно, в том темпе и в такие сроки, которые выберет обучающийся.

К плюсам дистанционного образования можно отнести:

- Обучение в индивидуальном темпе - скорость изучения устанавливается самим учащимся в зависимости от его личных обстоятельств и потребностей.
- Свобода и гибкость - учащийся может выбрать любой из многочисленных курсов обучения, а также самостоятельно планировать время, место и продолжительность занятий.
- Доступность - независимость от географического и временного положения обучающегося и образовательного учреждения позволяет не ограничивать себя в образовательных потребностях.
- Мобильность - эффективная реализация обратной связи между преподавателем и обучаемым является одним из основных требований и оснований успешности процесса обучения.

Но существуют и очевидные минусы:

- Отсутствие очного общения между обучающимися и преподавателем. То есть все моменты, связанные с индивидуальным подходом и воспитанием, исключаются. А когда рядом нет человека, который мог бы эмоционально окрасить знания, это значительный минус.

▪ Необходимость наличия целого ряда индивидуально-психологических условий. Для дистанционного обучения необходима жесткая самодисциплина, а его результат напрямую зависит от самостоятельности и сознательности учащегося.

Дистанционное обучение это способ реализации процесса обучения, основанный на использовании современных информационных и телекоммуникационных технологий, позволяющих осуществлять качественное обучение на расстоянии без личного контакта между преподавателем и учащимся. Дистанционное обучение имеет свои минусы и плюсы, но основным плюсом является сокращение затрат на обучение персонала и экономию времени. Кроме, того выделяется ряд характеристик, которые должны быть присущи любому виду дистанционного обучения, чтобы его можно было рассматривать как эффективное:

Дистанционное обучение предполагает более тщательное и детальное планирование деятельности обучаемого, и организацию: четкую постановку задач и целей обучения; доставку необходимых учебных материалов; ключевое понятие образовательных программ дистанционного обучения – интерактивность.

Курсы дистанционного обучения должны обеспечивать максимально возможную интерактивность между обучаемым и преподавателем, обратную связь между обучаемым и учебным материалом, а также давать возможность группового – обучения.

Структура курса дистанционного обучения должна быть модульной, чтобы обучаемый имел возможность осозновать свое продвижение от модуля к модулю, мог бы выбрать любой модуль по своему усмотрению или по усмотрению руководящего педагога, в зависимости от уровня обученности. При этом следует отметить, что модули большего объема заметно снижают мотивацию обучения.

В настоящее время современные информационные технологии дают неограниченные возможности решения проблем дистанционного обучения, так как возможно хранение, отработка и доставка информации на любое расстояние любого объема и содержания.

И наконец, выделим специфические черты методики дистанционного обучения, специфической чертой обучения иностранному языку дистанционно является самостоятельная практика каждого обучаемого в том виде речевой деятельности которым он овладевает в данное время. Также специфической чертой интерактивность, на основе которой строится деятельность каждого обучаемого и руководство педагога. Учебный процесс строится таким образом, чтобы педагог имел возможность на протяжении

всего курса отспеживать, корректировать, контролировать и оценивать деятелльность обучаемых.

Цель данной статьи показать неограниченные возможности дистанционного обучении на сегоднящей день. Дистанционное обучение увеличивает доступ изучить возможности и тем кто не сможет присуствовать обычном посящении кто не сможет присутствовать в обычном посешении занятии но при этом, получать все необходимые материалы и усвоит можно по этапно и самостоятельно.

Литература:

1.Виткин Ж.Л. Эволюция методов обучения иностранному языку в XX веке.

Виткин Ж.Л. ИЛШ. 2001. №2. с.23-29

2.Бим И.Л. Основные направления организации обучения иностранному языкам// Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 1-2.

4.Михайлова А.В., Андреева А.Б. Опыт внедрения дистанционного обучения на примере // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 1-2.

ESKI LUG'ATLARDAGI AYRIM SO'ZLARNING BUGUNGI KUN MORFEMIK TAHLILI

Fayzullayeva Munisa Fozil qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shavkat Rahmatullayevning ''O'zbek tili morfem lug'ati'' kitobidagi ba'zi so'zlar morfemik tahlil qilinadi va bugungi kunda yozilishi ikkilantiruvchi bo'lgan so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tili qoidalariga asosan tahrirlanadi. So'zlarning asos va qo'shimchalarga to'g'ri ajratilishi hozirgi o'zbek adabiy tilining muqobil qonun qoidalarini ishlab chiqishiga yordam beradi.

Kalit so'zlar: lug'at, qo'shimcha, asos, morfemik tahlil, lug'aviy shakl yasovchi va sintaktik shakl yasovchi morfemalar.

1989-yil 21-oktyabrda O'zbekiston Respublikasining ''Davlat tili to'g'risida''gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning qabul qilinishi respublikada o'zbek tilining mavqeyini qonunan mustahkamlab qo'ydi. Davlat idoralaridagi hujjatlar televideniya, radio, ilmiy anjumanlar va shu kabi muhim sohalarda rasmiy

til o‘zbek tili deb belgilandi. Va shu bilan birgalikda o‘zbek xalqining milliyligini saqlashda, madaniy meroslarni asrab qolishda muhim rol o‘ynadi. O‘zbek tili davlat tili darajasiga ko‘tarilgandan so‘ng, til rivoji uchun muhim ishlar amalga oshirildi. Xususan, so‘zlarning imloviy, frazeologik, morfemik lug‘atlari ishlab chiqildi.

So‘zlarning eng kichik ma’noli qismlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limiga morfemika deyiladi. Morfemika bo‘limi o‘z ichida morfemalarni o‘rganadi. Morfema so‘zning eng kichik ma’noli qismidir. Morfema asos va qo‘shimchalarga ya’ni yetakchi morfema va ko‘makchi morfemalarga ajraladi. Asos yetakchi morfema hisoblanib so‘zning asosiy ma’nosini ifodalaydigan va mustaqil qo‘llana oladigan tub ma’noli qismidir. Ko‘makchi morfema ya’ni qo‘shimcha esa asosga qo‘shilib unga yangi yoki qo‘shimcha ma’no yuklaydigan qismidir. Masalan, ‘‘beg‘uborlikning’’ so‘zida bitta yetakchi morfema, uchta ko‘makchi morfema qatnashgan. “g‘ubor” asos, -be, -lik, so‘z yasovchi ko‘makchi morfema -ning esa sintaktik yasovchi morfema hisoblanadi.

Asosga bir necha qo‘shimchalar qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida uning ma’nosi o‘zgarib boraveradi. Masalan, bil-im, bil-im-don, bil-im-siz, bil-im-don-lik. Ushbu so‘zlarning asosi ‘‘bil’’ so‘zi, lekin unga yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida so‘zning ma’nosi o‘zgarib bormoqda.

So‘zlarning to‘g‘ri yozilishi,morfemik tahlil qilinishi, izohlanishini yagona qolipga solish maqsadida turli xil lug‘atlar ishlab chiqilgan. Ushbu lug‘atlar esa o‘zbek tili adabiy qoidalari asosida tuziladi. Bu sohada Filologiya fanlari doktori, Professor Shavkat Rahmatullayevning qo‘shgan hissasi keng ko‘lamni tashkil qiladi. Muallif so‘zlarni morfemalarga ajratish to‘g‘risida ‘‘O‘zbek tili morfem lug‘ati’’ kitobini ishlab chiqqan. Bu kitobda tahminan 42 mingdan ziyod so‘zlarning morfemik tahlili, asos va qo‘shimchlar haqida ta’rif va adabiy normalar haqida so‘z boradi. Ushbu kitob ancha oldin, ya’ni 1977-yil nashrdan chiqqanligi bois undagi ba’zi so‘zlarning morfemik tahlili hozirgi kunda amalda bo‘lgan o‘zbek adabiy tili me’yorlaridan farq qiladi. Masalan, “abadiylashtirmoq” so‘zi ushbu lug‘atda quyidagicha tahlil qilingan:

Abad/iy/la/sh/tir/moq.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili qoidalariga muvofiq yasama so‘z tarkibidagi har bir so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilgan paytda yasalayotgan so‘z ma’no anglatishi lozim. Lekin yuqoridagi tahlilga qaraydigan bo‘lsak, abad/iy/la so‘zining ma‘nosi mavjud emas. Lug‘atdan olingan boshqa bir qancha so‘zlardagi morfemik tahlillar ayni paytda amalda bo‘lgan adabiy til me’yorlariga mos kelmaydi. Ularni hozirgi o‘zbek adabiy tili qoidalariga asoslanib morfemik tahlil qilinsa, quyidagicha o‘zgarishlar hosil bo‘ladi:

avay/la/moq - avayla/moq

aylan/a - aylana

banda/chi/lik - banda/chilik

basket/bol - basketbol

ino/q/lik - inoq/lik

kun/duz/i - kunduzi

kuch/siz/la/n/tir/moq - kuch/siz/lan/tir/moq

leks/ema - leksema

lug‘a/viy - lug‘aviy

sov/chi/lik - sovchi/lik

uzo/q - uzoq

tonna/la/b - tonna/lab

foyda/la/n/moq - foyda/lan/moq

xabar/la/sh/moq - xabar/lash/moq

rah/namo/lik - rahnamo/lik

ro‘y/xat - ro‘yxat

dushman/chi/lik - dushman/chilik

jidd/iy – jiddiy

Yuqoridagi misollardan ma’lumki, ushbu lug‘atda asosan -lan, -lash, lab, kabi qo’shimchalari -la shaklida ajratilganligini ko’ramiz.

Xulosamiz shuki, “O’zbek morfem lug’ati” kitobidagi ba’zi so’zlar hozirgi o’zbek adabiy til qonun-qoidalarga muofiq tahlil qilish, shu qoidalarga binoan tahrirlash, hozirda iste’molda bo’lmagan so’zlar hajmini qisqartirish hamda bugungi kunda tilimizda qo’llanayotgan yangi so’zlarni ushbu kitobga kiritish maqsadga muvofiq ish hisoblanadi.

QUTADG‘U BILIG”DOSTONIDAGI OT SO‘Z TURKUMIGA OID SO‘ZLAR TAHLILI

Musirmonova Xurshida Erkin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya*:* ”Qutadg’u bilig”dostonidagi ot so’z turkumiga tegishli bo’lgan so’zlar izohi va otlarning morfemik tahlili. otlarning yasalishi haqida qisqacha izoh.

Kalit so’zlar: ot so‘z turkumiga oid so‘lar, morfem tahlil, ”Qutadg‘u bilig’’ dostonidagi ba’zi gaplar tahlili,so‘lar izohi.

O’zbek tilshunosligida o‘rni nihoyatda beqiyos bo‘lgan nodir asarlarimizdan biri hisoblangan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” “Qutga,ya’ni baxt-saodatga erishtiruvchi bilim” dostonidir.Uni bobakalon shoirimiz Yusuf Xos Hojib bundan 920 yil oldin—1069 –yilda yozgan.

Mazkur kitob shoirning o’zi aytganidek:

Boshidan oxirigacha donolar so’zi,

Guyoki tizilgan marjondek o’zi.

Mana shu ikki satrdan ham asar qanday ruhda yozilganligini tushunib olsak bo‘ladi.Shuningdek,”Qutadg’u bilig” dostoni Turkiy tildagi dastlabki yirik yozma badiiy doston hamda o‘zida turkiy xalqlar og’zaki ijodi an’analarining juda ko‘chli tasirini saqlagan doston hisoblanadi.

“Qutadg’u bilig”dostonida ot so‘z turkumiga tegishli bo‘lgan so‘zlarning izohini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak,dostonda *“Avag’”,*ya’ni “noz,injiqlik,mug’ombirona xatti-harakat”degan ma’noni bildiradi.”*Adash*”(biror bir kimsa bilanismi bir xil bo‘lgan odam : ko‘chma ma’noda dust, birodar, og’ayni, madadkor), ”*Adaq*” (oyoq), ”*Adiq*” (ayiq), ”*Adruk*” (ayirma ,farq, tafovut), ”*Azg’on*” (sahro chechaklaridan biri), ”*Aytig’*” (so‘roq, savol, surishtirish), ”*Ayg’ir*” (uch-turt yosh orasidagi erkak ot:burjlardan birining nomi), ”*Al*” (qo’l), ”*Alin*” (peshona, manglay), ”*Apa*” (odam, inson), ”*Ari*” (xari, ”eshshak” ,o’tirishga muljallangan yog’och kursi), ”*Art*” (tepalik, balandlik, do’nglik ,dovon), ”*Artut*” (sovg’a, tortiq), ”*Arqish*” (karvon), ”*Arg’uvon*” (arg’uvon daraxti, ko’ch, arg’uvoniy rang, qizillik), ”*Asri*” (qoplon), ”*Ayak*” (idish, lagan, kosa, qadax) kabi so’zlar izohi berilgan.Bundan tashqari “Aqil-idrok”so’zi qiyosida quydagicha

izohlanadi:O’zg’urmishning Kuntug’di eligga yozgan xatida aqil-idrok ham eslatiladi.Aqil-idrokning turkey atamasi “o’g”dir.Bu so’z asardagi yetakchi qahramonlardan birining nomi tarkibida ham uchraydi.U O’gdulmish edi.O’zg’urmishning “mendan ham ko’proq nafi tegadiganlar ham bor.Bu—bilim,aql-idrokdir”degan gapining:”Men xushyorlik,salomatlikdan tashqari naf beradigan kishi—aql-idrok,ya’ni O’gdulmish ham bor”,degan ma’nosi mavjud.

O’zum ko’rgitar o’z qilinchin senga,

Ayur qilqim irsal,inonma menga…

Bu misradagi “*qilinchin*”so’zing ma’nosi “*qiliqlarimni*” ma’nosini bildiradi.Tushum kelishigi hisoblangan “*-ni”* qo’shimchasining *“n”*shakli qo’llanilgan. Tushum kelishigining bu shakli ko’proq she’riyatda ishlatiladi va bu shaklini qisqargan shakli deb ham o’rganamiz.”*O’zum* “so’zi “*o’zimni*”ma’nosini bildiradi.Bu so’zni morfemik tahlil qilganimizda “o’z”so’zi asos “*im*”egalik qo’shimchasi”*um*”shaklida qo’llangan.”*Ko’rgitar*” so’zi “*ko’rsatar*”ma’nosini bildiradi.Bunda ko’r asos “git”orttirman nisbat qo’shimchasi ”sat” qo’llanilgan.”Ishonma”so’zining “inonma shakli qo’llanilgan.

Dostonda shaxs nomlarining ham izohini berib o’tgan Boqijon To’xliyev. ’’ Afrosiyob”,ya’ni shaxs nomi ,Turonning afsonaviy qahramoni Ali Er To’nganing tojikcha nomi,kift,hovuch ma’nolarini bildiradi.

Birisi kuchaydi uchin bossa sal.Bu yerda gap kishi mijozlarining ko’rinishi haqida boryapti.An’anaviy tibbiy qarashlarga ko’ra ,kishi mijozi to’rtga bo’linadi.U issiq,sovuq,ho’l va quruq bo’lishi mumkin.

Bo’z yer iporlandi qor-u muz ketib.Aslida “*qor-u muz*”o’rnida “*kofur*”so’zi qo’llangan.Ipor va kofur kasallik adabiyotimizda o’zaro tazod(zid ma’noli so’zlar)ni tashkil etib,biri yaxshilik,ko’karish,yoshlikni,keyingisi oqlik,keksayish,halokatni anglatadi.Ular ko’pincha qorang’u kecha va yorug’ kunduzning, yoxud umuman yoqimlilik ramzining ifodasi sifatida qo’llangan.Ular muattar hidlar timsoli sifatida ham ko’p ishlatiladi.

Otlarning yasalish ikki xil usul bilan yasaladi.1.Afiksatsiya usuli 2. Kompozitsiya usuki bilan yasaladi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutqdg’u bilig” dostonida otlarning yasalishi ko’plab uchraydi. Qo’shimchalarni hozirgi qo’shimchalarga tadbil qilib ko’radigan bo’lsak hozirda biz uni qo’shimchalarning arxaik shakli sifatifa o’rganamiz.

Ba’zi qo’shimchalar hozirgi morfemikalar bilan bir xil.Bunga misol sifatida “inonsiz”,ya’ni “ishonchsiz” so’zidagi “siz”qo’shimchasi hozirgi kundagi qo’shimcha bilan bir xil qo’llanilgan.

“Li”qo’shimchasining arxaik shakli”liq” hisoblanadi.Bunga isbot sifatida:

Qamug’ uch adaqlig’ emitmas bo’lur,

Uchagu turur tuz,qamitmas bo’lur.

Birninchi misradagi “adaqlig’” so’zi “oyoqli’’ ma’nosini bildiradi.Jumlalardan aniq bo’lib turibdiki”li” qo’shimchasining “liq “ arxaik shakli bo’lib kelgan.

“Qutadg’u bilig”dostoni tilshunoslikda hamda adabiyotga juda muhim bo‘lgan asar hisoblanadi.Bu asar ilmiy ,tarbiyaviy jihatdan hozirgi va keyingi avlodlarga birdek kerak asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To ‘xliyev B.Qutadg’u bilig.--Toshkent :”O‘zbekiston” 2019.

2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.--Toshkent “Talqin” 2005.

3. Sayfullayeva . R. Hozirgi adabiy o’zbek tili--Toshkent 2009.

4. Rahmatullayev. Sh. Hozirgi o’zbek adabiy tili—Toshlent ”Universitet” 2006.

5. https://fayllar.org

DAVLAT TILIGA E'TIBOR - MILLATGA E'TIBOR

SamISI "Servis" fakulteti SAT-123-guruh talabasi ***Safarov Aziz***
Ilmiy rahbar:SamISI o'qituvchisi ***K.K.Ivanova***

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarga o'zbek tili darslarida innovatsion metodlardan foydalanish usullari haqida fikr yuritilgan. Mamlakatning davlat tili tiling asosiy sohalarda o'rni

Kalit so’zlar: chet tili, kommunikatsiya, ko'nikma, malaka, millat tili , til muhiti, lug‘atlar, grammatik qoidalar.

Yurtimizda davlat tiliga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda buning namunasi o'zbek tilii o'zlikni anglash, millatimizning boyligi faxri va g'ururidir.Har bir davlatning o'z ona tili mavjud.1989-yil 21-oktyabrda "Davlat tili haqida" gi Qonun Qabul qilinishi mustaqilikga erishish yo'lida minim qadam bo'ldi.Davlat tilining

muhim belgilaridan biri uning barcha rasmiy ish yuritilishda to'laligicha qo'llanilishidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 4-moddasiga ko'ra " O‘zbekiston hududida yashovchi har bir shaxsning davlat jamoat idoralari va tashkilotlariga ish yuzasidan taklif ariza hamda shikoyat bilan davlat tilida murojaat etish va javoblari olish huquqi taminlanadi" Qo'shimcha va o'zgarishlar keng xalq ommasi orasida "lotin imlosiga o'tarmikanmiz yo kirilda qolarmikanmiz " degan ikkilanish taraddud kayfiyatini ham uyg'otadi.Holbuki bunday maqsad yo'q edi.Mabodo shunaqa bo'lsa birrov referendumul o'tkazib xalqning fikrini aniqlab olgan maqul bo'lardi. Davlat tiliga bo‘lgan e'tibor ortdi.Bunday e'tibor namunasi sifatida yoshlarning iste'dodi va ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida o'zbek romanchiligining asoschisi Abdullah Qodiriy ijod maktabi, Muhammad Yusuf nomidagi ona tili va adabiyotlarni fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirishtirilgan atoqli shoir va adiblarimiz.O'zbek tili xalqaro miqyosda e'tirof etiladi.

Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish bo'yicha amalga oshiralayaotgan ishlar ko'lamida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 21- oktyabridagi Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparati tarkibiy bo'ljnmasi hisoblangan Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil qilindi.Dunyoga kelgan har bir inson bo'lib yetishishi uchun juda ko'p narsalarni qilish kerak. U o'ziga kerakli bilimni ko'rib eshitib o'rganadi.Eshitib organish til vositasida amlaga oshadi uning imkoniyatlari cheksizdir.Agar til bo'lmay har bir kishining tirikligi uning o'z tajribasiga asoslangan bo'lsa edi, inson shu kungacha hayvon qanday yashasa shunday yashagan va bugungi moddiy-ma'naviy taraqqiyotga erishmagan bo'lardi.Inson faoliyatida til borliqni bilish va fikr almashish vositasida vazifasi ni bajaradi.Til vositasida insoniyat tomonidan jamg'arilgan bu kimlar qayd etiladi, saqlanadi va avloddan-avlodga yetkaziladi. Til millatning ruhining ko'zgusidir. Til insoniyat tomonidan yaratilgan unga xizmat qiladigan har qaysi millatning ijtimoiy-madaniat taraqqiyotga mos tarzda rivojlanib boradi. Har bir millatning tili ikki xil ijtimoiy vazifasini bajaradi bir tomonidan, jamiyat a'zolari orasida o'zaro aloqa uchun xizmat qilib ularni birlashtiradi, ikkinchi tomondan bir millatni boshqasidan ajralib turishni ta'minlaydi.Har bir millatning dunyoda borligi ko'rsatadigon oynavi hayoti til va adabiyoti.Millatning tilini yo'qotish millatning ruhini yo'qotishdir. Inson tafakkurida va tuyg'usining natijasidir o'sha tafakkur va tuyg'ular orqali so'z yordamida mamlakat tabiati va xalqi tarixi ifoda etilgan.Ta'lim olishda zamon va makon g'oyani o'rtadan ko'taradi.Til o'rganishda kundalik turmush tarzida masalan qatnov paytida podkastni tinglash yoki smartfon sozlamalarini maqsadli tiliga o'zgartish.Tilni tushunish va nozik muloqotni

kuchaytirish uchun til va madaniyatning bog'liqligini tan olish.Haqiqiy dunyo kontekslarida til o'rganish kuchaytirish uchun filmlar tomosha qilish adabiyotlarni o'qish mahalliy tadbirda ishtirok etish kabi madaniy tadbirlar bilan shug'ullanish.Tilni barqaror o'rganish uchun ijobiy fikrlash va ichki motivatsiyani rivojlantirish juda muhimdir.Shaxsiy manfatlarini tan olish va real maqsadlarini belgilash muvaffaqiyat uchun poydevor yaratadi. Muhtaram Prezidentimiz Birlashgan Milatlar minbaridan ikki marta (2020-yil sentabr vă 2021-yil mart oyida) o'zbek tilida nutq so'zlashi tarixiy voqea bo'ldi. Bu ona tili jonkuyarlarini yanada ruhlantirib Qonun moddalari ijrosi yuzasidan qilinayotgan ishlarini jadallashtirishga turtki bo'ldi Ammo hali Davlat tili haqidagi qonuni to'la jamiyatimiz hayotiga kirib bordi. Davlat va jamoat idoralarida o'tkazilgan yig'in va majlislarda yagona o'zbek adabiy tili meyorlarda tushunarli gapirilishni yo'lga qo'yish. Bu jarayonda ziyolilar radio-televideniya hamda matbuot xodimlarining ommaga o'rnak bo'lishlari lozim bo'ladi.Jadidchi va buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy: "Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurg'on oynayi hayoti til va adabiyotidir.Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhining yo'qatmakdir " deya millatning til millatning borligini va uni mustaqil bir xalq ekanligini isbotlab turuvchi bir dalil sifatida bo'lishni takidlaydi.O'zbek xalqi yagona xalq bo'lib shakllangandan buyon to hozirgi vaqtgacha ko'plab olim-u mutafakkirlar tilkmiz rivojlanishi uchun o'zlarining ulkan hissalarini qo'shgan.Dostonchilik,musiqachilik, va romanchlikka asos solgan shoir-yozuvchilarimizning o'zbek tilda yaratgan asarlar bugun bugun dunyoni bo'yicha turki tillarga tarjima qilinib o'rganilib chiqilgan.O'zbek tilini davlat tili sifatida ardoqlash va uning rivojiga uchun o'z hissasini qo'shish har birimizning vazifamiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Davlat tilida ish yuritish”Cho'lpon nashiryot-matbaa ijodiy uyi 2007-yil.

2. “O’zbekiston Respublikasining Davlat Konstitutsiyasi”2023-yil.

MAQOLLARDA TUB SO‘ZLAR ANTISEMIYASI

J.E. Ramazonova

BuxDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi,

jasminaramazonova4gmail.com

H.A. Ubaydova

BuxDPI o‘qituvchisi,

hulkarbegim@ubaydova

Annotasiya: Leksik-semantik ziddiyat turlaridan biri hisoblanmish antisemiya hodisasi turli so‘z turkumiga oid birliklarning semantik qarama-qarshiligiga asoslanadi. Mazkur hodisani kontekst namunasi hisoblanmish xalq maqollari tarkibida o‘rganish mahsuldor. Mazkur maqolada tub so‘zlar antisemiyasiga oid ayrim xulosalar o‘zbek xalq maqollari misolida yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: antisemiya, antonomiya, enantasemiya, kontekstual antisemiya, olmosh, son, turli so‘z turkumlari, bir xil so‘z turkumi, semantik ziddiyat, leksema.

Leksik-semantik ziddiyat turlariga faqat antonimiya emas, balki antisemiya, enantasemiya, kontekstual antisemiya kabi hodisalar kiradi.

Antisemiya munosabati o‘zbek tilshunosligida Dildora Abdullayeva tomonidan nomzodlik dissertatsiyasi darajasida o‘rganilgan. Antonimlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning deyarli barchasida mazkur hodisa bir so‘z turkumi doirasida yuzaga chiqishi borasida molohaza yuritilgan. Aksariyat olimlar ularni kontekstual antonimlar sirasiga kiritsa, boshqalari istisnoli holat mavjud ekanini aytib o‘tadi. Bu kabi izohtalab masalalar Dildora Abdullayevaning ilmiy tadqiqot ishida o‘z yechimini topdi. Mazkur tadqiqotda kontekstual antonimlar borasidagi mavjud qarashlar yanada mukammallashtirilib, semantik qarama-qarshilik markaziy planga olib chiqildi. Bu orqali tamomila yangi – antisemiya hodisasi vujudga keldi. “Masalan: baland – past leksemalarining antonimik munosabatiga ularning semantik tarkibidagi qarama-qarshi semalar (“vertikal jihatdan o‘lchami yuqori” – “vertikal jihatdan o‘lchami quyi”) asos bo‘lgan. Ushbu juftlik antonimiyaning mavjud mezonlariga to‘la javob beradi. Lekin ayni shu qarama-qarshi semalar baland – pasaymoq, baland – pastlik leksemalari o‘rtasida ham mavjud. Bunday juftliklarga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Masalan: katta – kichraymoq, oq – qoraymoq, yomon – yaxshilik, uzun – qisqarmoq kabi. Ushbu leksik birliklar lisoniy ifodalovchi sifatida qaramaqarshilikka xos bo‘lgan har qanday xususiyatlarni o‘zida ifodalay oladi. Ularda ham antonimlarga xos bo‘lgan mantiqiy, psixologik, leksik, kommunikativ tomonlar mujassamlashgan. Shunga ko‘ra, lingvistik qarama-

qarshilikning faqat antonimiya mezonlari asosida belgilanishi hodisa mohiyatini to‘liq ochishga imkon bermaydi. Demak, leksik birliklardagi semantik qarama-qarshilik munosabatini faqat antonimiya doirasidagina emas, balki undan tashqarida ham tekshirish maqsadga muvofiqdir. Ana shunday keng doiradagi hodisani biz antisemiya (yunoncha anti – “zid”, sema – “belgi”) nomi ostida o‘rganishni lozim topdik” [1], – deydi muallif.

Tub so‘zlar antisemiyasi – tarkibida so‘z yasovchi qo‘shicha mavjud bo‘lmagan komponentlar semantik ziddiyatini yuzaga keltirgan hodisa. Unda antisemiyani yuzaga keltirgan birliklar faqatgina bir asosdan tashkil topgan bo‘ladi. So‘zlar tarkibida shakl yasovchi qo‘shimchalarning ishtirok etishi ahamiyatsiz. Tub so‘zlar antisemiyasining antonimiyadan farqi ham shunda. Ya’ni antonimiyada mazmun ham shakl ham aynan bir xil bo‘lishi kerak. Antisemiyada esa shakl birlamchi hisoblanmaydi. Bundan tashqari, semantik ziddiyatning bu turini hosil qilgan komponentlar bir asosdan tashkil topgan turli so‘z turkumlaridan ham iborat bo‘lishi mumkin.

Buning yorqin isboti sifatida: past – ko‘tarilmoq; xom – pishmoq; yig‘i – kulmoq; qayg‘u – g‘am[75] kabilarni keltirish mumkin. Antisemiyaning mazkur ko‘rinishi quyidagi maqollar tarkibida o‘z imkoniyatini namoyon etadi: *O‘zga* yurtning gulidan, *o‘z* yurtingning cho‘li yaxshi; *Ko‘pni* sevgan *birni* sevmas.

Ma’lumki, son hamda olmosh so‘z turkumiga oid birliklar antonimik munosabatga kirishmaydi. Son so‘z turkumi aniq miqdorni ifodalagani, olmosh boshqa bir semantik butunlikka ishora qilib, o‘ziga xos atash ma’nosiga ega bo‘lmaganligi sababli mazur so‘z turkumlari doirasida antonimiya hodisasi kuzatilmaydi. Lekin bu bilan son hamda olmosh so‘z turkumiga oid leksemalarda umuman ziddiyat kuzatilmaydi deb bo‘lmaydi. Xususan, o‘z va o‘zga, bir va ming kabi juftliklar matn tarkibidan tashqarida ham zid ma’no kasb etadi. Shu sababli bu kabi zidlanishlarni kontekstual antonimiyadan ko‘ra antisemiya hodisasi doirasida o‘rganish to‘g‘ri bo‘ladi. Leksik-semantik ziddiyatning boshqa turlari kabi antisemik munosabat ham konteks namunasi bo‘lmish paremalar tarkibida o‘z imkoniyatlarini yaqqol aks ettiradi.

Masalan, sonlarning antisemiyasi doirasida miqdor yoki qiymat jiyatidan ham zidlanish aks etadi:

Birni kessang mingni ek.

Birni ko‘rib fikr qil, mingni ko‘rib shukr. (son va son antisemiyasi)

Bunda bir hamda ming kabi birliklar antonimik munosabat hosil qilmasa-da, semasida miqdor jihatdan ortiqlik ma’nosi ifodalanganligi jihatdan antisemiyani yuzga keltirgan. Quyidagi maqollar takibida ham ayni hodisa kuzatiladi:

Bir kalla kalla, Ikki kalla tilla. (son va son antisemiyasi)

Yetti o‘lchab bir kes. (son va son antisemiyasi)

Borga yetti kun hayit, Yo‘qga bir kun. (son va son antisemiyasi)

Antisemik munosabat yuqorida ta’kidlanganidek olmosh so‘z turkumiga oid birliklar tarkibida ham kuzatiladi.

Kishi yurtida sulton bo‘lguncha, O‘z yerida cho‘pon bo‘l. (olmosh antisemiyasi)

Sen ham siz ham bir og‘izdan chiqadi (olmosh antisemiyasi)

Son hamda olmosh so‘z turkumiga oid juftliklar ziddiyatidan tashqari antisemiya hodisasini yuzaga keltiruvchi aksariyat birliklar turli so‘z turkumlariga mansub bo‘ladi:

Bir tupursa el bo‘lar, Ko‘p tupursa ko‘l bo‘lar. (son va sifat antisemiyasi)

Bir o‘zing dono bo‘lguncha, Ko‘p bilan ahmoq bo‘l (son va sifat antisemiyasi)

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, antisemiya hodisasi turli so‘z turkumiga oid birliklarning semantik jihatdan zidlanishiga asoslanadi. Mazkur zidlanish kontekst namunasi bo‘lgan xalq maqollari tarbida sermahsul hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. D. A. Abdullayeva O‘zbek tilida antisemiya: Filol. fan. nom. … diss. avtoref. 10. 02. 01. – T., 2010. – 135 b. – 23 b. – 10 b.

2. R. Shukurov R. O‘zbek tilida antonimlar. – T.: Fan, 1977. – 153 b – 56 b. 52 A.

3. Tursunov, U. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 1992. – 400 b. – 80 b. 22

4. Antonim komponentlar ishtirok etgan o‘zbek xalq maqollari. https://www.pau.edu.tr/pau/tr/duyuru/uluslararasi-turk-dunyasi-yunus-emre-sempozyumu-4 Uluslararasi turk dunyasi Yunus Emre sempozyumu. Ankara: 2021. – 503 b.

5. O‘zbek paremalarida antonimiya. https://jdpu.uz/talimda-filologiyani-rivojlantirishning-global-masalalari/ “Ta’limda filologiyani rivojlantirishning global masalalari” xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Jizzax: 2022. – 30 b.

ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БОБУРА И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ

Комилова Мукаррам Кобилжоновна *СамИСИ. Преподаватель кафедры “Узбекского языка и литературы”*
komilovamukarram@sies.uz
komilova.mukarram29@gmail.com

Аннотация: В статье анализируется духовное наследие великого мыслителя, поэта и государственного деятеля Захириддина Мухаммада Бабура, а также утверждается, что эти взгляды важны и играют огромную роль в повышении духовности молодежи, формировании в ее сердце и сознании чувств патриотизма, самоотверженности, способствуют расширению знаний и повышению культурного уровня молодого поколения.

Ключевые слова: государственный и общественный деятель, творец, мыслитель, Бобурнома, родина, любовь

Annotatsiya: Maqolada ulug‘ mutafakkir, shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning ma’naviy merosi tahlil etilib, bu qarashlar yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning qalbi va ongida vatanparvarlik, fidoyilik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi va ahamiyati beqiyos ekanligi ta’kidlanadi. , yosh avlodning bilimini kengaytirish va madaniy saviyasini oshirishga hissa qo'shish.

Kalit so`zlar: davlat va jamoat arbobi, ijodkor, mutafakkir, Boburnoma, vatan, muhabbat.

Одно из почетных мест в мировой плеяде светил науки, культуры, искусства и общественно-политической деятельности занимает великий Захириддин Мухаммад Бабур. 14 февраля по всему Узбекистану отмечается день рождение великого поэта и просветителя, талантливого полководца и государственного деятеля Захириддина Мухаммада Бабура, внесшего значительный вклад в развитие мировой науки и искусства.

Духовное наследие великого мыслителя, поэта и государственного деятеля Захириддина Мухаммада Бабура играет огромную роль в повышении духовности молодежи, формировании в ее сердце и сознании чувств патриотизма, самоотверженности, честности.

Как отметил Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев в своём выступлении на торжествах, посвященных 26-летию независимости Узбекистана:

«Воспитание здорового и гармонично развитого поколения, целеустремленной и энергичной молодежи, способной взять на себя ответственность за судьбу и будущее Родины, направить на это все свои знания и потенциал, — для нас жизненно важный, главный вопрос»

Воспитание гармонично развитой молодежи как достойных преемников великих предков является важным направлением духовно-просветительских реформ, проводимых в нашей стране. В ходе этого процесса проводится работа по глубокому изучению духовного наследия великих предков, его пропаганды среди населения, особенно среди молодежи. Изучение творчества Алишера Навои и Захириддина Мухаммада Бабура, способствуют расширению знаний и повышению культурного уровня молодого поколения, обогащению мировоззрения юношей и девушек.

В рубаи и газелях Бобура мы постоянно встречаемся с мыслями о дружбе, Родине, честности, добре и зле, почитании родителей, отношении к женщине, к религии, к богатству, о важности обучения, воспитания, повторении себя в своих учениках.

Бабур не встречался с Навои, но есть сведения, что они переписывались. Бабур очень любил Алишера Навои и считал его своим наставником. Вот как он выразил любовь к своему великому современнику:

“Поэт любимый мой, ты средь поэтов – хан.
Твой стих – родник живой, твой стих – стихов султан.
Слова твоих стихов средь слов произнесенных,
Как светлый луч, во мгле пронзающий туман”.

Бабур – выдающийся представитель узбекской литературы, известный узбекский поэт, большой ценитель и покровитель науки, искусства, географ и этнограф, историк и государственный деятель, полководец. За свою короткую 47-летнюю жизнь оставил богатое литературное и научное наследие.

Педагогические поучения Бобура блестяще раскрыты в прекрасном «Трактате об арузе». Это произведение – своеобразный эталон дидактики, где тщательно раскрываются в сопоставительном анализе узбекского и персидского языков законы фонетики, слогообразования, рифмосложения, смыслового акцентирования. Трактат снабжен историческими справками,

примерами стихосложения известных поэтов Востока, подробной аннотацией используемой терминологии.

Сборник его лирических произведений относится к лучшим образцам узбекской лирики того времени. Его прозаические мемуары «Бобурнаме» простым ясным языком описывают обстоятельства его жизни, исторические события, походы в Афганистан и Индию, феодальные междуусобицы. Знаменитое «Бабурнаме», снискало мировую признательность, оригинальные и прекрасные лирические произведения, содержательные трактаты по музыке, рифме, просодии, военному искусству. В своих газелях и рубаи он поднимает такие проблемы человеческих отношений как любовь, дружба, стремление к прекрасному. В поэзии Бабура затронуты вопросы нравственности и духовного совершенства человека. Поэт дает искренние советы как человек в себе должен воспитывать лучшие моральные качества. Бабур проповедовал идеи гуманизма, добра справедливости, любви к родному народу, возвеличивал простого человека

«Страною правя, чти людей труда,
От них не отделяясь никогда,
Забудь свои пристрастья и обиды,
Внимай их бедам, а не то – беда»…

Во многих строках поэта чувствуется философская направленность:

«Тому, кто свет искал
и знания постиг,
Достойный ученик
нужнее всяких книг.
Я много постиг, но нищ учениками.
Быть потому, что сам я ученик».

В «Бабурнаме» подробно описываются география, обычаи народов Индии, приводит факты по этнографии: интересные описания различной одежды индусов, образа жизни простого народа. Кроме географо-этнографических сведений, Бабур не обходит стороной и культурную жизнь регионов. В «Бабур-наме» дается характеристика деятельности ведущих ученых, поэтов, музыкантов – Алишера Навои, Абдурахмана Джами, Шайхима Сухайлий, Биноий, Сайфий Бухарий, Бехзода и др. Пословицы, поговорки, народные предания, приведенные в книге, делают ее неотразимой как ценное историко-литературное, этнографическое произведение. «Бабурнаме» – один из источников по истории народов Средней и Центральной Азии XV-XVI в.в. и сегодня остается настольной

книгой историков, этнографов, филологов, языковедов, философов, географов и других наук. Заслуга Бабура как историка, географа, этнографа , прозаика и поэта в настоящее время признана мировой востоковедческой наукой. Его произведение переведено на многие языки мира.

И в итоге я хотела бы сказать, что Независимость дала нам неограниченные возможности глубже и полнее изучить непревзойдённые грани творчества Захириддина Мухаммада Бабура, сделать его наследие достоянием мировой общественности и его широкое использование в воспитании подрастающего поколения.

Список литературы:

1. Цитаты из выступления Президента Шавката Мирзиёева на торжествах, посвященных 26-летию независимости Узбекистана.
2. С.Хасанов. Бобурнинг «Рисолайи аруз» асари. –Т.:, 1986;
3. У.Эрскин. Хиндистонда Бобур давлати (пер. с англ. Г.Сатимова). – Т.: 1997:

МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ БОЛАЛАР ШЕЪРИЯТИДА ЛЕКСИК ВОСИТАЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

З.Ш.Ашурова *СамИСИ*

“Ўзбек тили ва адабиёти ” кафедраси доц. в.б (Phd)

Аннотация: Мақолада болалар шеъриятида лексик воситаларни ўрганиш, лексик-семантик маъно майдони, лексик бирликлар хусусида тўхталиб ўтилган. Шунингдек, ўзбек тили лексикаси билан йирик тадқиқот олиб борган олимлар хусусидаги тадқиқотлар келтирилиб, лексик воситаларни синоним сўзлар, антоним сўзлар, омоним сўзлар, пароним сўзлар каби қисмлари ҳақида тўхталган.

Калит сўзлар: болалар шеърияти, лексик воситалар, лексик-семантик майдон, сўз, жумла, матн, ҳарф, лирик кечинма, поэтик қонуниятлар, семантик муносабат, поэтик лексика, адабий тил системаси, поэтик нутқ, лирик нутқ, синоним сўзлар, антоним сўзлар, омоним сўзлар, пароним сўзлар

Замонавий болалар шеъриятида лексик воситаларни ўрганиш объектимизга жалб қилинган лирик асарлардаги ўзаро муносабатли нутқни кашф қилишга кенг йўл очиб беради. Негаки, лексик-семантик маъно майдони ҳар бир сўз, жумла, матн таркибида яхлитлаштирувчи, ижодкорнинг мақсад-муддаосини аниқловчи ва ҳал қилувчи роль ўйнаши шубҳасиз. Матн ҳарф, сўз ва сўз бирикмаларидан таркиб топади. Жумлалар яхлит бирикуви лирик

кечинманинг поэтик қонуниятларини юзага чиқаради. Ижодкор феноменини ҳам белгилаб беришга замин ҳозирлайди. Дарвоқе, “Лексик бирликлар лисонда турли семантик муносабат асосида турлича парадигма ҳосил қилган ҳолда мавжуд бўлади. Синонимик, антонимик, градуонимик, партонимик, гипонимик муносабат ана шундай лисоний муносабат турларига киради”[76]. Жумладан, синомик қаторлар, антонимик бирликларда шеър руҳиятида акс этган мавзу ва маъно қирралари ижодкор қалб сезимларининг ифодачиси бўлибгина қолмай, тарихий сўзларни ҳам янгича талқинда юзага чиқишида катта аҳамият касб этади. Тилшунос олим Л.И.Тимофев қайд этишича: “Шеърият лексикаси тамоман ўзига хос бошқа нутқ турларига нисбатан шеъриятда сўзнинг мустақил роли анча сезиларли даражада фарқ қилади”[77]. Шунингдек, поэзия тили учун оҳангдорлик, жозибадорлик, таъсирчанлик, образлилик, ҳайқирик жуда муҳим. Чунки шоир табиат ёки инсон руҳиятини тадқиқ қилар экан, энг аввало, лирик кечинмани, завқни, онг ва туйғуда акс этиш даражасининг нечоғли баланд эканлигига мантиқий урғу беради. Лексик воситаларни юзага келтирувчи – поэтик лексика масаласига ойдинлик киритиш зарур. Негаки, поэтик лексика товуш ва ҳарф уйғунлигида барқарорлашади.

Чунончи “...шеър аввало – гармония. У сўзларни мисраларнинг оҳанг ва ўлчовига мос енгил ва эркин жойлашишини талаб қилади. Шеърий равонлик сўзни сатрларга зўрама-зўракисиз, одатий нутқда қўлланилиб, эркин ишлатилишини мувофиқлаштириб боради” [78]. Лирик нутқ тилига хос бўлган бу каби хислатлар шеърий лексика қатламини юзага чиқаради ҳамда фаол иштирок этади. Шунга кўра, лексик воситалар негизида вужудга келган шеърларда актив ва пассив қўлланилувчи сўзлар ҳам учрайди.

Бинобарин, поэтик нутқ ҳамма вақт ана шу таснифларга таяниб иш кўриши бугунги кунда ҳам ўз долзарблигини йўқотмаган. Шеърий нутқда лексик воситаларнинг аксарияти – синоним, антоним, омоним, паронимларда яққол кўзга ташланади. Айниқса, болалар шеъриятида нарса ва ҳодисалар, табиатда бўлаётган узил-кесил ўзгаришлар, жониворлар қисмати болаларни ҳеч қачон бефарқ қолдирмайди. Демак, лексик воситаларни қуйидаги шаклда қисмларга ажратиб ўрганиш мақсадга мувофиқ эканлигини тақозо этади:

1. Синоним сўзлар;
2. Антоним сўзлар;
3. Омоним сўзлар;
4. Пароним сўзлар.

[76] Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o`zbek adabiy tili. O`quv qo`llanma. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2009. – B.112
[77] Тимофев Л.И. Основы теории литературы. –М., 1971. –С. 268-269.
[78] Короленко В.Г. Русские писатели о языке. Л., 1959. С. 316.

Дарҳақиқат, шеърий матнга эмоционаллик бахш этадиган синонимик қаторлар лирик қаҳрамоннинг аҳвол-руҳиятини ҳам аниқлашга замин яратади:

- Қовун, қовун, қовунжон,
Асал бўлибсан чунон.
Бир тилик ҳам еб бўлмас,
Аммо “тўйдим” деб бўлмас.
Қиём бўлиб кетибсан,
Бунга қандай етибсан?

- Асал бўлса, бол бўлса,
Тилим тилинг тилса,
Бунинг битта сири бор,
Қулоғингга қуйиб ол:
Деҳқон деган дилбар зот,
Мени этгандир бунёд.
Унинг ҳалол меҳнати,
Унинг ширин заҳмати,
Мени шарбат айлаган,
Ҳам сени хўп сайлаган.

Ҳалол ишла, эй ўғлон,
Мисоли Бободеҳқон!
Шунда ҳосил бол бўлар,
Кўплар сендай лол бўлар[79].

Ушбу шеърда қовун ва унинг болалар тилидан баҳоланиши, таҳлил қилиниши, таснифланиши, ўхшатишлар билан жуда чиройли бир тарзда ўзига хос ёритилган. Қовун – ***асал, шакар, бол, шарбат, ширин, қиём*** каби сўзлар билан ўзаро синонимик қаторни ташкил қилади.

[79] Олқор Дамин. Қучоқлайман баҳорни. –Т: “Ўзбекистон”, 2010. –Б. 44.

“OVQATLANISH” KONSEPTINING INGLIZ LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

MN-k-123 guruh talabasi **Jumayev J**
SamISI “Tillarni o‘qitish” kafedrasi
katta o‘qituvchisi **Imamov.N.P**
SamDCHTI **Karimova M.Ya.**

Annotatsiya: Ovqatlanish ingliz madaniyatida faqatgiga ochlikka bo‘lgan tashnalikni bartaraf etuvchi iste’mol turi bo‘lib qolmasdan, balki subyektning rohat olish vositasi sifatida ham lingvomadaniyatda aks etishi yoritib o‘tilgan.

Annotation: It is highlighted that eating in the English culture is not only a type of consumption that quenches the thirst for hunger, but also as a means of enjoyment of the subject, reflected in the linguistic culture.

Аннотация: Подчеркивается, что прием пищи в английской культуре – это не только вид потребления, утоляющий жажду голода, но и средство наслаждения предметом, отраженное в лингвокультуре.

Kalitso’zlar: Kognitiv, konsept, lingvomadaniy, anrotsentirik, semantika.

Key Words: Cognitive, concept, linguomadania, angocentric, semantics.

Ключевые слова: Когнитив, концепт, лингвомаданий, анроцентирик, семантика.

“Kognitiv fanlar” [1, 35] atamasi singari “konsept” atamasi ham “tilning ongda aks etishi”ni o‘rganadigan fan bo‘lib, bir qancha ilmiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Jumladan, kognitiv psixologiya, kognitiv lingvistika kabi fanlarni aks ettirib fikrlash va anglash, ma’lumotlarni saqlash va ishlab chiqish masalalari bilan shug‘ulanadi [2, 58].

Konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma’no umumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug‘ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo‘lishi bilan tugaydi. Konsept - mental tuzilma bo‘lib, u turli tarkibdagi va ko‘rinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir [3, 90].

Lingvomadaniy konseptlar verballashuvi ma’lum ma’noda ma’nolarning verballashuvi, va shuningdek ma’lum bir etnosning lingvomentalitetini aks ettirishi zarur. Xususan, ingliz lingvomadaniyatida “*ovqatlanish*” ma’lum bir ma’noda ingliz etnosining o‘ziga xos madaniyat turi ekanligini ham anglatadi. Jumladan, ovqatlanish konsepti orqali ingliz halqining o‘ziga xos qirralarini anglash imkoni tug‘iladi. Shuning uchun ham “madaniy” va “lingvomadaniy” konseptlar,

o‘zlarining ob’ektida bir-biriga juda yaqin turadi. Shunday qilib ingliz xalqi “ovqatlanish” madaniyati ingliz tilidagi bir qancha leksik birliklarda aks etadi: *to have breakfast, to have dinner, to have supper, to dine, to eat, to devour, to wolf down, to bite* va haozolar. Ushbu ovqatlanish ma’nosinin anglatuvchi so‘z birikmalar ingliz ovqatlanish turlariga tegishli hisoblanib, kunning turli vaqtlaridagi iste’mol bilan bog‘liq.

Masalan: to have breakfast, to have dinner, to have lunch, to have supper.

I had breakfast yesterday but today I didn’t have.

Bilolbek invited his friends to have supper.

“*Meal*” konsepti mental tushuncha sifatida boshqa turli konseplarning belgilari bilan o‘zaro bog‘liqligi bor. Shuning uchun ham tildagi turli leksemalar guruhiga kiradigan sememalar bilan ifodalanadi. Xususan, “*meal*” konsepti *prepare, make, have, serve, eat, finish* kabi fe’l leksemalari va shuningdek, *delicious, enjoyable, elegant, cheap, expensive, nice, terrible, tasty, hot, cold* kabi leksik birliklar yordamida verballashadi. Tahlil etib chiqilgan “meal” konseptining besh turi ingliz “ovqatlanish” komponentining yadrosini tashkil etadi. Mazkur komponentlar ingliz xalqining ovqatlanish bilan bog‘liq vaqt jarayonlarida o‘z ifodasini topadi. Jumladan, “meal” so‘zinig boshqa til birliklari bilan birikishi “ovqatlanish madaniyati”, “ovqatlanish vaqti”, “ovqatlanish jarayonida sub’ektning statusi” konseptual belgilarni ifoda planiga ko‘chiradi.

Madaniy konseptlar – bu, avvalambor, muayyan bir millatning milliy ma’naviy turmush tarzida aks etgan madaniy xususiyati bo‘lib, ularning ma’naviyatiga anrotsentirik yo‘naltirilganligi, sub’ektivligi va o‘sha til sohibining ijtimoiy ongini belgilaydi. Lingvomadaniy konsept – variativ va ko‘p sathli strukturaviy semantik tuzilish hisoblanib, uning tadqiqoti jarayonida komponent tahlilning qo‘llanilishi mikrolingvistik metodnng qiyosiy semantikasida sermahsul yo‘l hisoblanadi [80].

Ushbu misolda dasturxon atrofidagi oilaviy yig‘ilish an’ana yoki boshqacha qilib aytganda oila ritualiga aylanganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunda barcha oila a’zolari yig‘ilgan dasturxon atrofida ovqatlanishdan tashqari muhim oilaviy masalar muxokama qilinishi hamda hal etilishi kuzatiladi.

It was more than just it seemed that they lived and killed for a luxurious *feast* with beautiful ladies or drinking a great deal of alcohol stuff (*Mario Puzo* – The Godfather).

The word *‘mealtime’* meant to him a wink of pause from torture that lasted day and night (*Rudolf Osvaldo* – The Silver Miners).

[80] Апресян Р. Г. Любовь // Этика: Энциклопедический словарь. М., 2001. С. 241–245.

She was definitely aware of the invitation to the *meal* was an opportunity for him to take her word. (*Sharon Foray* – Lust for life)

“Meal” konsepti leksik sathda turli gap bo‘laklariga tegishli bo‘lgan til birliklari yordamida ifodalanadi. Albatta, berilgan konseptning asosiy tushunchaviy xususiyatlari izohli lug‘atlarda to‘laligicha aks etgan. Tahlil etilayotgan konseptning kalit so‘zlarini aniqlashda o‘sha lingvomadaniyatda o‘ziga xos tarixiyligi boshqa til birliklari bilan birikishidagi mahsulligiga asoslanib olib borildi. Shuning uchun ham biror madaniyatni anglatuvchi konseptlar berilgan madaniyat va o‘sha tilning kalit so‘zlari hisoblanadi, hamda ushbu kalit so‘zlar o‘z atrofiga shu madaniyat turining butun ko‘rinishini qamrab oladi. Shuning uchun ham “meal” konseptining tanlanishi ushbu etnosninig ushbu turdagi lingvomadaniyatini ochib berishga qaratilgan. Xususan, “meal” so‘zining etimologiyasiga tub qadimgi ingliz tili so‘zi ekanligi ma’lum bo‘ladi: 725-yildagi qo‘lyozmalarda uchraydi. 1200-yilga kelib, *mele* shakliga o‘zgargan Chambers Dictionary Of Etimology. New York. 2006. –P. 6441284.

Ovqatlanish konsepti ingliz lingvomadaniyatida faqatgina qorin to’ydirish bo’lib qolmasdan, balki kishining rohat olish vositasi, ba’zi til birliklariga birikish orqali shaxsning ijtimoiy statusini, dasturxon atrofida aytiladigan so’zlar orqali bir-biriga bo’lgan hurmatni ham anglatadi.

Adabiyotlar:

1. Жук Е. А. Сопоставительный анализ ядерных предикатов желания в русском и английском языках (прагмасемантические аспекты): Автореф. Дис. Канд. Филол. Наук. Краснодар, 1994. 21с.

2. Зализняк Анна А. Семантическая деривация в синхронии и диахронии: проект «Каталога семантических переходов» // Вопр. языкознания. 2001. № 2. С. 13–25.

3. *Кибрик А. Е.* Когнитивный подход к языку и типология // Вторая конференция по типологии и грамматике для молодых исследователей (Санкт-Петербург, 3–5 ноября 2005 г.): Материалы. СПб., 2005. С. 4-5.

QORAQALPOQ XALQ QO‘SHIQLARIDA EMOTSIONAL-EKSPRESSIV FRAZEOLOGIZMLARNING QO‘LLANILISHI

G.A. Allambergenova

Qoraqalpoq davlat universiteti,

Qoraqalpoq tilshunosligi kafedrasi dotsenti (PhD)

E.Mnajatdinova

Qoraqalpoq davlat universiteti,

1-kurs magistranti

Annotatsiya: Frazeologizmlar – qoraqalpoq tilining tovush, lug‘at, qurilishi, ma’noviy, tarixiy xususiytlarining barchasini o‘zida jamlagan turg‘un so‘z birikmalari bo‘lib hisoblanadi. Ular nutqqa bezak beradi, unga ta’sirchanlik, obrazlilik, badiiy sifat beradi. Qoraqalpoq tili turkiy tillar ichida boy frazeologik fondi bilan mashhur. Frazeologizmlar barcha jamiyat munosabatlarning asosini tashkil qiladigan tabiatning o‘ziga xos ko‘rinishi hisoblangan inson xulq-atvori, tirikchilik usullarini, kasbini, hunarini, psixologiyasini, nutqini, urf-odat, dasturlari bilan turli munosabatlarini, his-tuyg‘ularini, odatlari bilan tushunchalarini, umuman olganda, har tomonlama ifodalab berishda tildagi katta va juda ahamiyatli vosita bo‘lib hisoblanadi. Biz bu maqolamizda qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodining bir turi hisoblangan xalq qo‘shiqlarida frazeologizmlarning qo‘llanilish xususiyatlarini o‘rganamiz. Folklor ijodning bir turi bo‘lgan xalq qo‘shiqlarida qahramon psixologik holatlarini: kuyunish, sevinish, qo‘rqinch, hayratlanish kabi tuyg‘ularini, o‘y-fikrlarini, ma’naviy dunyosini ochib berishda frazeologizmlar orqali tahlil qilindi.

Tayanch so‘zlar: leksika, frazeologizm, atama, lug‘at tarkibi, badiiy matn, semantika, turg‘un so‘z birikmasi, uchirma so‘zlar, uslubiyat

Frazeologizmlar – qoraqalpoq tilining tovush, lug‘at, qurilishi, ma’noviy, tarixiy xususiyatlarini o‘zida jamlagan turg‘un so‘z birikmalari bo‘lib hisoblanadi. Ular nutqqa bezak beradi, unga ta’sirchanlik, obrazlilik, badiiy sifat beradi. Qoraqalpoq tili turkiy tillar ichida boy frazeologik fondi bilan mashhur. Frazeologizmlar barcha jamiyat munosabatlarning asosini tashkil qiladigan tabiatning o‘ziga xos ko‘rinishi hisoblangan inson xulq-atvori, tirikchilik usullarini, kasbini, hunarini, psixologiyasini, nutqini, urf-odat, dasturlari bilan turli munosabatlarini, his-tuyg‘ularini, odatlari bilan tushunchalarini, umuman olganda,

har tomonlama ifodalab berishda tildagi katta va juda ahamiyatli vosita bo‘lib hisoblanadi. Qoraqalpoq tilining badiiyligi, obrazliligi, fikr, tafakkurini chiroyli, badiiy tasvirlash xususiyatini frazeologizmlarsiz ifodalash qiyin. Bunda shu til birliklarining boshqalari almashtirilmaydigan o‘rni bilan xizmati katta. Frazeologizmlardagi qo‘shimcha emotsional-ekspressiv bo‘yoq, oddiy so‘z bilan yetkazib berish mumkin bo‘lmagan ta’sirchanlikni hosil qiladi. Ulardagi turli leksik-semantik hodisalar tilni yanada jilo bag‘ishlab, ma’no o‘tkirligini orttirib turadi.

Xalqimizning boy madaniy qatlami bo‘lgan xalq og‘zaki ijodida ham frazeologizmlarning qo‘llanilish xususiyatlarini ko‘rishimiz mumkin. Ular folklor ijodiyotining mazmunini yanada teranroq anglashga, o‘quvchiga emotsional-ekspressiv ta’sir qilishga sababchi bo‘ladi. Bu haqida Yu.A.Shuplecova shunday fikr bildirgan: “Folklor asarlardagi frazeologiya haqida gap borganda, tilshunos olimlar folklor frazeologiya va folklor frazeologiyasi tushunchalarini har xil rejadagi tushunchalar sifatida ajratib ko‘rsatadi. Birinchi ko‘rsatilgan ma’noda frazeologiya folklor asarlari bilan cheklanib, faqat tildagi ma’lum bir badiiy tasvir vositasi bo‘lib qoladi. Folklor frazeologiyasi, bu ancha kengroq tushuncha bo‘lib, xalq ijodiyoti, shu bilan birga, folklorl frazeologiyaning o‘zida uchraydigan barcha frzeologik birliklarni o‘z ichilga oladi.”[1] –degan fikri o‘rinli hisoblanadi. Shuningdek, qoraqalpoq tilshunosligida frazeologizmlar E.Berdimuratov [2], G.Aynazarova [3], A.Pirniyazova [4] B.Yusupovalar [5,6], J.Tanirbergenov [7], G.Allambergenova [8] ishlarida maxsus o‘rganildi. Qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodi tilida, dostonlarda, ertaklarda, to‘lg‘ovlarda va yana boshqa janrlarning til qurilishida qizil tilin jallaw, qoyday shuwlatiw, uzaǵina at jollap, jaqinina xat jollap, zawqi-sapa súriw, baǵri kabap boliw, kúnniń júzin kórsetpew, insapqa kiriw, ózińólimdar, maliń patshaliq, paymanasi toliw, aqir zaman quriliw, aqsha júzi soliw, bir-bir bayan etiw, badabat uriw, ash-aptada boliw, on tórtten tuwǵan ayday, tanin baǵish etiw, haq nekesin qiyiw, murad-maqsetine jetiw, ǵalawit túsiw, mańlayi qara, zikir saliw, duwa oqiw, tórt túlik mal, tórt túligi say, kún keshiriw va hokazo frazeologizmlar qo‘llaniladi. Folklor ijodiyot ichida xalq qo‘shiqlari o‘z bebaholigi va o‘tkir ma’noliligi bilan boshqalaridan ajralib turadi.

Biz mazkur maqolamizda qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodining bir turi bo‘lgan xalq qo‘shiqlarida frazeologizmlarning qo‘llanilish xususiyatlariga to‘xtab o‘tamiz. Frazeologizmlarning shu kabi imkoniyatlarini folklor ijodning bir turi bo‘lgan xalq qo‘shiqlarida qahramonning psixologik holatlarini: kuyunish, sevinish, qo‘rqinch, hayratlanish kabi tuyg‘ularini, o‘y-fikrlarini, ma’naviy dunyosini ochib berishda chiroyli qo‘llanilganining guvohi bo‘lamiz. Masalan: Quwanish penen ózińdi, Qushaq jayip aldi eliń (Bet ashar); Eldi siylap iyilip, Qayisar qipsha belińiz (Bet ashar). Birinchi misoldagi qushaq jayiw-aq kókireklik, insaniyliq ma’nosini,

ikkinchi misoldagi beli qayisiw frazeologizmi tarkibida boshqa so‘zlar bilan kengayib qiynaliw, sharshaw ma’nolarida ishlatilgan. Sababi misollarda qo‘llanilgan fraeologizmlar asarni o‘quvchiga aniq, yaqqol tushuntirib berishda asosiy vosita vazifasini bajarmoqda.

Frazeologizmlar bilan qahramon xulq-atvorini, ichki dunyosini har xil psixologik holatlarining berilishi yuzasidan G.Aynazarova birdek ikki komponentli frazeologizmlarni bir necha guruhlarga bo‘lib ko‘rsatadi. Inson tavsifiga oid birdek ikki komponentli frazeologizmlar; inson ish-harakatini tasvirlaydigan frazeologizmlar [3;37] A.Pirnazarova o‘z maqolasida bunday frazeologizmlarni quyidagicha bo‘lib o‘rganishni ma’qul ko‘rdi. 1.Quvonch, baxtni ifodalaydigan frazeologizmlar; 2. Hayron qolish, hayajonlanishni ifodalaydigan frazeologizmlar; 3.Qiynalish, qayg‘urish, ko‘ngliga olish kabi tuyg‘ularni ifodalaydigan frazeologizmlar; 4.Qo‘rqinchni ifodalaydigan frazeologizmlar [9;63-64] deb to‘rt guruhga bo‘lib o‘rgangan.

Haqiqatan ham biz yuqoridagi misollarda qo‘llanilgan insonning har xil psixologik holatlarini ochib beruvchi frazeologizmlar: quchoq ochish jayiw-ochiq ko‘ngillilik, mehribon, xipcha beli qayishib-qiynalish, tinkasi qurish-charchash ma’nosidagi frazeologizmlar berilgan.

Frazeologizmlar qisqa qatorlar bilan o‘tkir ma’no ifodalovchi, har qanday asar yaratilishida ma’lum darajada uslubiy vazifa bajaradigan vosita hisoblanadi. Qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodining biri xalq qo‘shiqlarida frazelogizmlarning inson psixologik holatini berishda quvonch, hayratlanish ma’nosidagi frazeologizmlarning mahorat bilan qo‘llanilganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan: Anaw turǵan enesi, Kelin keldi degen soń, Kókke jetti tóbesi (Bet ochar); Kórip kózim qamasar, Júzińe ǵana kelinshek (Bet ochar); Shashiwdi eneń shashiwda, Kewili kóldey tasiwda (Bet ochar); Oń qabaǵim tartadi qayta-qayta, Jurt iyesi Alpamis kelermeken (Aytishuv); Zamanlastan gnap esitip, Qapa kewil xosh bolar (Juwap aytislari); Biykar emesdur bul aytqan sózim, Shad ayleyip buniń sońin sońlasin (Aytishuv); Kelin keldi degende, Kewli ketti eljirep (Bet ochar); Sheshek keledi shel menen, Zulpiń tarapti kún menen (Aytishuv).

Bu misollarda berilgan frazeologizmlar quvonch, shodlik ma’nosida ifodalangan. Birinchi misolda tóbesi kókke jetiw frazeologizmida so‘zlarning o‘rni o‘zgarib quvonch ma’nosida qo‘llanilgan. Keyingi misolda kózi qamasiw frazeologizmi hayratlanish ma’nosida, kewili kóldey tasiw, oń qabaǵi tartiw, kewili xosh boliw, kewli eljirew, zulpi taraw va shad aylew frazeologizmlari esa insonning turli holatlardagi psixologik holatlarini ochib berishda chiroyli qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin. Qoraqalpoq xalq qo‘shiqlarining qaysi turini olmaylik, unda

frazeologizmlarning ma’lum o‘rinlarda shu qo‘shiq qatorning mazmunini yaqqol ochib erishda unumli foydalanganligining guvohi bo‘lamiz. Shuningdek xalq qo‘shiqlarida insonlarning har xil tuyg‘ularini, ya’ni qayg‘uruvchan, jahldor, bir narsa aytsa shuni ta’kidlayveradigan va qiynalaveradigan insonlar holatlarini aniq ochib berishda frazelogizmlarning qo‘llanilganini ko‘ramiz. Masalan: Suwǵa ketkendey salisi, Abeshey eken dawisi (Aytishuv); Baldizim, sorama baqtim qaradi, Ayrilip apańnan ishim janadi (Aytishuv); Birew aytsa bir gapti, Izine túsip qoymaǵan (Bet ochar); Alistan kózin qizartqan, Usnatdin degen qaynaǵań (Bet ochar); Qabaq úyip shiqpasin, Kúlip kelgen qonaǵiń (Bet ochar); Aspandi jerge túsirgen, Ot jaqpay qazan pisirgen (Bet ochar); Tulipqa tiqqan toraqtay, Murinlari oraqtay (Bet ochar); Kelmey atirip iyttey qapqan, Iyt peken buniń dayisi (Aytishuv).

Yuqorida keltirilgan misollardagi salisi suwǵa ketiw-qapalaniw, ishi janiw-qiynaliw, izine túsiw-qadaǵalaw, kózin qizartiw-jaman kóriw, qabaq úyiw-ashiwlaniw, aspandi jerge túsiriw-bir narseni qapiltiw, tulipqa tiqqan toraqtay-túr bermew, bir turista otiriw, iyttey qabiw-baqiriw ma’nosida ishlatilgan frazeologizmlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu keltirilgan frazeologizmlar xalq qo‘shiqlarida qo‘llanilishi o‘quvchiga asar mazmunini aniq, oson tushunishiga turtki bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda frazeologizmlarning qaysi asarda qo‘llanilishiga qaramasdan kam so‘z bilan ko‘p ma’no bera oladigan, aytmoqchi bo‘lgan fikrni qisqa va tushunarli qilib berishda unumli qo‘llaniladigan til birligi sanaladi. Til orqali og‘zaki va yozma turda aloqa jarayonida frazeologizmlarni qo‘llanishga katta zaruriyat bo‘lishi seziladi. Shu bois, frazeologizm tilning lug‘at tarkibida alohida o‘rin egallaydi, u lug‘at tarkibidagi ma’nolarining ixchamligi, jiloligi, o‘tkirligi va h. kabi sifatli belgilari bilan ajraladi. Qoraqalpoq xalq qo‘shiqlarida qahramonning har xil psixologik holatlarini ochib berishda frazeologizmlar uslubiy talabga loyiq qo‘llanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupova B. Qaraqalpaq tiliniń frazeologiyasi ham oni izertlewdiń geypara maseleleri. Tashkent, 2020 120-b.

2. Бердимуратов Е. Ҳәзирги қарақалпақ тили. Лексикология.- Нөкис, 1994, - Б.136-137. «Билим» 188-б.

3. Айназарова Г. Қарақалпақ тилинде теңлес еки компонентли фразеологизмлердиң лексика-семантикалық ҳәм стильлик өзгешеликлери.- Нөкис, 2015, - Б.37. «ҚАрақалпақстан» 72-б.

4. Pirniyazova A. Qaraqalpaq tili frazeologiyaliq sistemasi ham oniń stilistikaliq imkaniyatlari. Nókis, “Qaraqalpaqstan”, 2020.

5. Юсупова Б. Қарақалпақ тилиниң фразеологиясы. Ташкент, «Тафаккур қаноти» 2014. 244-б.

6. Юсупова Б. Қарақалпақ тилинен айырым изертлеўлер. Тошкент, «Байоз» 2016, 104-б.

7. Tańirbergenov J. Qaraqalpaq tilindegi feyil frazeologizmler. Nókis, “Ilimpaz”,2021.

8. Allambergenova G. I.Yusupov shiǵarmalarinda frazeologizmlerdiń stillik qollaniliwi. Nokis. 2019.

9. Қарақалпақ тил фразеологиясының актуаль мәселелери. Нөкис, 2011, - Б.63-64. «Қарақалпақстан» 140-б.

10. Qaraqalpaq folklori V tom (qaraqalpaq xaliq qosiqlari ham salt-dastúr jirlari) 1980

СЎЗ МАЪНОЛАРИНИ ЎҚИТИШ – ШАХС МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШ ОМИЛЛАРИДАН БИРИ

Толыбаева У.
магистрант,
Илмий раҳбар: ***Пирниязова А.К.***
филология фанлари доктори,
профессор в.б.
Нукус давлат педагогика институти

Аннотация: Мақолада олий таълим юртларида қорақалпоқ тилини ўқитиш жараёнида сўз маъноларига эътибор қаратиш, замонавий технологиялардан фойдаланиш ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: лексика, луғат бойлиги, сўз қудрати, технологиялар, глоссарий, таълим, тарбия.

Ҳозирги кунда халқ таълими олдидаги катта вазифа ривожланган демократик давлатлар даражасидаги рақобатбардош ёшларни тарбиялашдан иборат. Шу сабабли халқ таълимида давр талабларига мос таълим ва тарбия беришни дунёлик ўлчамлар даражасида такомиллаштириш, кўтариш талаб қилинмоқда. Шахс маънавиятини юксалтиришда таълим-тарбиянинг ўрни ўзгача. Олий таълим юртларида, хусусан Қорақалпоғистон Республикасида

қорақалпоқ тили буйича таълим бериш борасида маънавий-маърифий тарбия амалга оширилади. Қорақалпоқ тилининг лексикасини, луғат бойлигини ўргатиш орқали тилга ҳурмат ҳамда мухаббат туйғуларини уйғотиш мақсад қилиб қуйилган.

Тилнинг луғатида инсоннинг ўмр кечириб, шодланиб, қайғу-ҳасрат чекиб юрган дамлари, ички кечирмалари ва ҳ. ўз аксини топади. Тилнинг шундай аҳамиятининг бир сири – унинг кўч-қудратидадир. Халқимизнинг донолигининг ажойиб кўриниши бўлган Жийренше шешен, Асан қайғы, Өмирбек лаққы ҳикоялари, узоқ тун давомида айтилганда ҳам тингловчисини зериктирмайдиган достонлар ўша сўз орқали асрдан асрга етиб келган. Сўз устолари Ажиниёз, Бердақ, И.Юсупов, Т.Жумамуратов, Т.Қайыпбергеновлар қорақалпоқ тилининг энг яхши лўғат бойлигини ўз лабораториясидан ўтказиб, халқга ажойиб асарлар яратиб берди. Халқ урф-одат ва анъаналари ҳам ўша сўз билан ифодаланади.

Сўз қудратини, миллий урф-одатларни ёшларга ўргатиш, тушинтириш орқали уларнинг дунёқарашининг, маънавиятининг юксалишига, луғат бойлигининг янги тушунчалар билан бойишига эришилади. Тилшунос олим В.В.Виноградовнинг фикрича:«Маънавиятнинг ўсиши тилдаги ўзгаришларда кўриниши билан сўзга, бадиий асарларга алоҳида талаб қўяди» [2:115-б.].

Ёзувчилар халқнинг урф-одат, анъаналарини, образларни, қаҳрамон портретларини яратишда қорақалпоқ тилининг имкониятларидан махорат билан фойдаланади. Ёш авлодни юксак маънавиятли, гўзаллик рухида тарбиялаш, миллий ғоя, илмий кўз қарашларни шакллантиришда бадиий асарлар катта ахамиятга эга. Баркамол, етук авлодни шакллантиришда моддий, ғоявий таъсир этиш кўчини ўзида бирлаштирган асарлардаги бадиий воситалар талабага тушунарли бўлганда тарбиявий характерга эга бўлади. Бунинг учун қорақалпоқ тили дарсларида бадиий асарлардан парчалар олиб, уларни лисоний таҳлил ишлаб, фойдаланилган бадиий воситаларни аниқлаб, чуқур ўрганиш натижасида мақсадга эришилади.

Шахс маънавиятини шакллантиришда сўз ғоявий қурол сифатида юзага келади. Ҳақиқатан ҳам ўз ўрнида қўлланилган сўзлар чин кўнгилдан айтилган гаплар, маъноли фикрлар доимо одамларнинг хулқ-атворига, рухиятига ижобий таъсир қилади. Аммо, фикр тингловчининг талаб, эхтиёжига, орзу-умидлари ва манфаатларига боғлиқ баён этилсагина таъсирчан ва ишончли бўлади. Чунки: «Омма билан сўзлаганда, уларнинг ақлу идроки даражасига қараб гапиринг» [Ояти карима].

Одомзоднинг ички маънавий олами, шарафи, обру-эътибори унинг нутқида намоён бўлади. Суҳбат ва нутқ одобига риоя қилмаган киши эса шараф хамда обру-эътибордан маҳрум бўлади. Маънавий қиёфасининг ночорлигини намойиш этиб қуяди. Сўз муқаддас нарса, шундай экан, у фақат эзгулик учун хизмат қилиши керак.

Олий ўқув юртлари дастурлари бўйича қорақалпоқ тили дарсликлари материалларида машқлар, мустақил ишлар учун матнлар берилган. Аммо, талабалар ҳамма сўзларнинг изоҳи билан таниш эмас. Демак, педагог ходимнинг ўзи сўзларнинг маъноси ва унинг изоҳи масаласида машғулотлар олиб боришига тўғри келади. Глоссарий тўзиш ёки талабаларнинг ўзларига тўзиб келишни топшириқ этиб бериш орқали ҳам ўларнинг сўз маъноларини билиб олишига ёрдам беради.

Олий ўқув юртларида таълим беришда бир қанча ўқув машғулот технологиялари мавжуд :

ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИ ТЕХНОЛОГИЯСИ

1.Маъруза машғулотлари таълим технологияси.

2. Семинар машғулотлари таълим технологияси.

3. Амалий машғулотлар таълим технологияси.

4. Мустақил таълим технологияси.

5. Кейс-стади таълим технологияси.

6. Лойиҳа таълим технологияси

Қорақалпоқ тили ўқув машғулотларида куйидаги замонавий технологиялардан фойдаланиш мумкин:

ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАР

1. Ақлий ҳужум.
2. Эркин ёзиш.
3. Асосланган эссе.
4. ФСМУ.
5. Блиц-сўров.
6. Блиц-ўйин.
7. Ўқитиш бўйича қўлланма.

8. Ёзма ва оғзаки давра суҳбати.

9. Тушунчаларни аниқлаш.

10. Тушунчалар асосида матн тузиш.

11. Чалкаштирилган мантиқий занжирлар кетма-кетлиги

ГРАФИК ОРГАНАЙЗЕРЛАР

1.Кластер.

2. Б-Б-Б чизмаси

3. Т-чизма.

4. Венн диаграммаси.

5. Концептуал жадвал.

6. Инсерт жадвали.

7. “Нима учун” чизмаси.

8. “Қандай?” диаграммаси.

9. Балиқ скелети.

10. Тоифалаш жадвали.

Сўзларнинг изоҳи бўйича ишлашда ҳам бир қанча метод, технология ва услублар мавжуд. Улардан: семантик таҳлил, сўзларни талабаларга таниш бўлган сўзлар орқали изоҳлаш, кўрсатмали воситалар асосида изоҳлаш, контекст орқали изоҳлаш ва ҳ.

Талабаларнинг лўғат бойлигини ривожлантириш орқали уларнинг ўз фикрларини эркин ифода этишига эришиш мумкин. Сўзлаш ҳам, тинглаб билиш ҳам катта жавобгарлик ва маданиятни талаб этади.

Шахс маънавиятини тарбиялаш бугунги куннинг энг долзарб масаласи. Бу ишда юртимизнинг барча зиёлилари, асосан ўқитувчилар масъулиятлидир. Давлатимизда тарбияни ҳозирги замон талаблари даражасида олиб боришда барча имконлар ва воситалардан самарали фойдалангандагина юксак маънавиятли шахсни тарбиялашга эришиш мумкин.

Бу борада педагогик институтларда қорақалпоқ тили лексикологиясини ўқитишда қўлланиладиган инновацион услублар ҳақидаги ўқув қўлланма нашр этилган. Ўқув қўлланмада талабаларнинг сўз бойлигини ривожлантириш, адабий тил нормаларини теран ўрганиш мақсадида дарсларга

янгича ёндашиш масалалари ёритилган. Таълим-тарбия жараёнини илмий асосда ташкиллаштириш мақсадида дарсларни замонавий технологиялар ёрдамида олиб бориш, хусусан амалий дарсларда талабаларнинг фаоллигини ошириш назарда тутилган. Шу боис бу ўқув қўлланма таълим системасини технологиялаштириш, таълим самарадорлигини оширишда асосий адабиётлардан бири сифатида қўлланишга тавсия этилади [3].

Адабиётлар

1. Базарбаев Ж. ва бошқалар. Руўхыйлық тийкарлары. Нөкис «Қарақалпақстан», 2009.

2. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. Москва, 1981.

3. Pirniyazova A., Shınnazarova S. Házirgi ádebiy til (leksikologiya)di oqıtıwda innovaciyalıq usıllar. Toshkent: Tafakkur qanoti, 2020.

НОВОСТИ НА ЗАНЯТИЯХ РКИ: МЕТОДИЧЕСКИЙ АСПЕКТ

Колосова Елена Ивановна
к.ф.н., доцент кафедры РКИ
Казанский (Приволжский) федеральный университет
Институт филологии и межкультурной коммуникации
Казань, Россия
hkolosova@yandex.ru

Аннотация: в статье поднимается проблема знакомства с новостными текстами на занятиях РКИ в целях формирования коммуникативной компетенции учащихся в различных ситуациях речевого общения. Современный русскоязычный новостной дискурс предоставляет богатый фактический материал, включающий в себе все необходимые аспекты: аудиоряд, визуальное восприятие, письменные устойчивые клише и под. Принципы знакомства и работы с новостными текстами различной тематической направленности, а также типовые упражнения будут рассмотрены в данной статье.

Ключевые слова: русский язык как иностранный, медиадискурс, новостной текст, коммуникативная компетенция, методика

Формирование коммуникативной компетенции учащихся на занятиях по иностранному языку, по справедливому замечанию методистов, является одной из основных задач обучения [Хабибуллина, 2017]. В практике преподавания русского языка как иностранного коммуникативный аспект непосредственно связан с формированием и становлением навыков по всем видам речевой деятельности (аудирование, говорение, чтение, письмо), на это указывают многие специалисты [Bochina, 2014]. Важно подчеркнуть, что преподаватель РКИ должен ориентироваться на требования к овладению речевыми навыками и умениями в соответствии с уровнями языковой подготовки, которые утверждены Государственным образовательным стандартом в РФ (Приказ Мин-ва образования и науки РФ № 255 от 01.04.2014 г.). Так, например, уже на довузовском этапе обучения (уровень A1-B1) иностранный учащийся должен овладеть необходимыми навыками общения в бытовой, социокультурной и образовательной сферах. Далее в зависимости

от уровня языковой подготовки (уровень B1-C2) ситуации речевого общения усложняются и включают различные коммуникативные задачи во всех сферах жизни.

Обращает на себя внимание тот факт, что при тестировании иностранных граждан, в том числе на получение гражданства РФ (базовый уровень – А2), в тестовые задания включены актуальные коммуникативные задачи в типичных ситуация русскоязычной языковой среды, среди которых и аудирование новостных текстов. Претендентам предлагается прослушать фрагмент новостной ленты, а затем выбрать ответ на поставленный вопрос. При этом дается четкая установка по выполнению задания, происходит погружение в коммуникативную ситуацию: слушаем новости, слушаем финансовые новости, слушаем теленовости и под. (аудирование + телеаудирование). Подобные типы заданий могут содержать фонограмму (расшифровку для преподавателя) и вопросы тестового характера для тестируемых по содержанию прослушанных новостей:

Ситуация 7. Слушаем новости.

Какие проблемы осложняют вашу жизнь? такой вопрос задавался россиянам в начале этого года. Вот какие ответы дали жители России на поставленный вопрос.

72 процента россиян считают главной проблемой сегодня низкие зарплаты.

40 процентов – беспокоит медицинское обслуживание.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan xorijiy til darslarida samarali foydalanish to'g'risida to’xatalib o’tiladi. Maqolada, shuningdek, og’zaki nutqni ustirishni yangicha yondashuv va yangi pedagogik texnologiyalar asosida o’rgatish fikrlari ilgari so’rilgan. So'z boyligini o’stirishga doir dars jarayonida qo’llash mumkin bo’lgan har xil o’yinlardan misollar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: semantizatsiya, polisemantik, sotsial-madaniy, sotsiologingvistik, xilma-xillik, tillararo xilma - xillik

Аннотация: В данной статье говорится об эффективном использовании современных педагогических технологий на практических занятиях. Также в статье рассматриваются проблемы глубокого изучения лексики, без знания которой невозможно овладение всеми видами продуцирования речи.

Ключевые слова: семантизация, полисемантический, социокультурный, социолингвистик, вариационный, межъязыковой и внутриязыковой

Abstract: This article talks about the effective use of modern pedagogical technologies in practical classes. The article also discusses the problems of in-depth

study of vocabulary, without knowledge of which it is impossible to master all types of speech production.

Key words : semantization, polysemantic, sociocultural, sociolinguistic, variational, interlingual intralingual.

Yurtimizda qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda belgilangan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda eng ilg'or, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish dolzarb vazifadir. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkillashtirish - bu jahon ta'lim standartlari talablariga mos ravishda dars o'tish demakdir. Shuning uchun ham keyingi yillarda ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etib, ta'limga texnologik yondashuv orqali pedagogik jarayonga innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish o'z samarasini ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan o'quvchilarga pedagogik texnologiyalar bilan dars o'tish, shu asosda ularni yetuk mutaxassislar qilib yetishtirish bugungi kunning talabidir.

Hozirgi kunda pedagogik adabiyot, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda "yangi pedagogik texnologiya", "ilg'or pedagogik texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiya" iboralari keng qo'llanilmokda. Aynan tizimli yondashuv pedagogik texnologiya asosida o'qitishni boshqa yondashuvlardan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi. Ta'lim maqsadlari, uning mazmuni, o'qitish va ta'lim berish metodlari, nazorat va natijalarni baholashni o'zaro aloqada va bir-biri bilan bog'liqlikda loyihalash - ko'pincha an'anaviy o'quv jarayonida yetishmaydigan narsalardir. Masalan, ko'p hollarda ta'lim, asosan, axborotni eslab qolishga yo'naltirilgan, ta'lim oluvchining bo'lajak faoliyati esa muayyan ishlarni bajarish yoki tashkiliy, boshqaruv va kasbiy qarorlarni kabul qilish bilan bog'liq bo'ladi.

O'qituvchilar, o'quvchi va o'quvchilar jamoasida o'zaro yordam, hamkorlik va ijodiy muhitni yaratishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyos hisoblanadi. **Zamonaviy pedagogik texnologiyalar** ta'lim jarayonini har tomonlama mukammal loyihalashtirish, aniq maqsadlar qo'yish va ularga kafolatlangan holda erishish, rejalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi uzviy bog'langan **komponentlar yig'indisi** deb hisoblandi

Pedagogik texnologiya deganda, texnologik (ishlab chiqarishdagi) yondashuvlarga aynan o'xshash bo'lgan ta'limda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatlangan (yakuniy natijani olish) ta'lim jarayoni tushuniladi. Bunday ta'lim jarayoni texnologiyalashtirilgan deyiladi. Texnologiyalashtirilgan ta'lim jarayoni o'qituvchi shaxsiga bog'liq bo'lmagan faqat o'quvchi (o'quvchi) ning shaxsi, ehtiyojlari, talablari va xislatlariga asoslangan ta'lim jarayonidir. O'quvchi (o'quvchi) ta'lim jarayoni markazida turadi. Bunda darsni kim olib borayapti

(tajribali o’qituvchimi yoki yosh o’qituvchimi) qat’iy nazar ko’zlangan yakuniy natija (maqsadga ko’ra) ga erishish kafolatlanishi lozim. Ta’limda o’qituvchi faqat ijrochi vazifasini bajaradi.

O’quvchilar tomonidan xorijiy til fanining puxta o’zlashtirilishi uchun zamonaviy ta’lim turlari, pedagogik texnologiyalar, jahon ta’limining eng ilg’or yutuqlaridan izchil foydalanish muhim ahamiyatga ega. Fan asoslarini o’zlashtirishda o’quv darsliklari, o’quv va metodik qo’llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma va elektron materiallar, pedagogik, psixologik va tegishli mutaxassisliklarga doir ensiklopediyalar, lug’atlar, o’qitishning texnik vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari kabilardan o’rinli foydalaniladi. Dars darslarining innovasion pedagogik va axborot texnologiyalari yordamida tashkil etilishi ta’minlanadi.

Xorijiy tillarni o’qitish jarayonida shaxsga yo’naltirilgan ta’lim turlari (dasturiy, modulli, innovasion, interfaol, muammoli, rivojlantiruvchi, masofaviy va mustaqil ta’lim va o’yinli texnologiyalar), o’qitishning samarali shakllari, zamonaviy metodlari, vositalari, pedagogik va axborot texnologiyalarini muntazam qo’llash nazarda tutiladi. Xorijiy tillarni o’qitishda “Bumerang”, “Baliq skeleti”, “Nilufar guli”, “Aqliy hujum”, “Auksion”, “Klaster”, “Keys”, “Charxpalak”, “Assisment”, “Qarorlar shajarasi”, “Venn diagrammasi”, “Qanday?”, “Nima uchun?” kabi interfaol metodlarni qo’llash ta’lim jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Shuningdek, jadvallar, o’quv filmlari, yangi innovasion texnologiyalar (multimedia, audio-vizual materiallar, masofadan o’qitish, internet tarmog’idan foydalanish va boshqalar)dan foydalaniladi.

Biz quyida xorijiy til darslarida qo’llash mumkin bo’lgan ba’zi bir interfaol metodlardan misollar keltirib o’tamiz, masalan:

CHANGE THE FIRST LETTER Make one word into another by changing the first letter. EXAMPLE: Change a possessive pronoun to not sweet. ANSWER: your, sour

1- Change a past tense of BE to an adverb of place.

2- Change an adjective meaning not high to an adverb meaning at the present time.

3- Change a period of time to a term of affection.

4- Change was seated to have a meal.

5- Change a part of the head to internation- al strike.

6- Change a respectful title to atmosphere.

7- Change to learn thoroughly to not as slow.

8- Change very warm to a negative adverb.

9- Change a motor vehicle to not near.

10- Change a man's title to a female relative.

Answer

CHANGE THE FIRST LETTER

1- were-here
2- low-now
3- year-dear
4- sat-eat
5- ear-war
6- sir-air
7- master-faster
8- hot-not
9- car-far
10- mister-sister

Bu metodni ba’zi bir o’qituvchilar ilk bor ko’rganlarida bu juda sodda deyishlari mumkin, lekin biz ta’lim jarayonida, ayniqsa xorijiy tillarni o’qitishda soddadan murakkabga qarab boramiz. Bu oddiygina metodni shartini bir necha xil topshiriq qilib o’quvchilarga berish mumkin. Bu interfaol metod orqali nafaqat birinchi navbatda o’quvchilarni fonetik bilimi, balki ularning leksik-grammatik bilimlari ham yanada mustahkamlanadi. Yana bir interfaol metodni ko’rib o’tamiz:

HIDDEN COLORS

Find the name of a color hidden in each sentence:

1- Some parts of the face are the eye, eye- brow, nose, and mouth.
2- I'm not really dumb; lack of sleep made me forget the answers.
3- If I tell you what she said, will you agree never to tell anyone?
4- In the box we found a pencil, a pin, keys, and a few coins.
5- Are three zeros enough to write the num- ber one thousand?
6- The wheelbarrow hit eleven rocks as it rolled down the hill.
7- When the nurse gives you the injection, just yell "Ow" if it hurts.
8- Elsa and Otto ran gently down the path to the river.
9- Before arriving at Kuala Lumpur, please fill out these forms.
10- I play nearly all the stringed instru- ments: violin, cello, bass viol, etc.
11- When I opened the window, shining rays of sunlight flooded the room.
12- We'll go in Jim's car. Let's leave at six o’clock.

Answer. HIDDEN COLORS 1- brown 2- black 3- green 4- pink 5- rose 6- white 7- yellow 8- orange 9- purple 10- violet 11- gray 12- scarlet

Bu interfaol metod orqali biz o’quvchilarni eshitib tushunish ko’nikmasini mustahkamlabgina qolmay, balki ularni gapirish ko’nikmalarni ham rivojlantrishga turtki bergan bo’lamiz.

O’qitishga yangi pedagogik texnologiya asosida yondashish orqali bilimlarning shakllanishiga katta e’tibor beriladi. Yangi pedagogik texnologiyalarning asosi - o’qitish natijalarini diagnostik va operasional ifodalangan maqsadlar sifatida rejalashtirish va ta’lim jarayonining natijaliligini uzluksiz diagnostika qilish. Aniq va konkret qo’yilgan, erishiladigan maqsadlar har bir daqiqada berilgani shart-sharoitlarda pedagogik xazinadan mos metodlarni, shakllarni, usullar va ularga erishish vositalarini tanlab olishga imkon beradi. Shuning uchun ham biz xorijiy til o’qituvchilari darslarimizni ko’proq yangicha metod va yondoshuvlvr bilan tashkil qilsak, ko’proq maqsadga muvofiq bo’lib o’quvchilarni bilim samaradorligi yaxshi ko’rsatkichlarda bo’lardi deb o’ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Astaxova Ye.A., Reshetov A.G.:.: Повышение эффективности процесса развития устной иноязычной речи на основе совершенствования содержания обучения // Иностранные языки для взрослых, № 3, – M., 1998.

2.Ishmuhamedov R. O’quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo’llash uslubiyati. - T.: RBIMM, 2008. – 68 b.

3. Jalolov J. Chet tili o’qitish metodikasi. - T.: «O’qituvchi», 1996 y.

4.Jo’rayev R.H., Zunnunov A. Ta’lim jarayonida o’quv fanlarini integrasiyalashtirish omillari. O’qituvchilar uchun o’quv qo’llanma. – T.: Sharq, 2005.

5.Rogova G.V. Методика обучения иностранным языкам в школе, – M.: Просвещение, 1991. – C. 86.

6.Solodub Yu.P. Русская фразеология как объект сопоставительного структурно-типологического исследования. M.: Наука, 2002.

PROBLEMS AND SOLUTIONS OF DEVELOPING PUPILS’ ORAL SPEECH

Jo’rayeva Mohira Yunus qizi
QDU doktoranti
joraeva.mohira@mail.ru

Annotation: In this article, the productivity of oral speech is analyzed and the problems that cause speech delays in children are debated. As well as some techniques are demonstrated that help to stimulate children’s speech competence.

Key words: Speech competence, children’s speech, social interaction, oracy.

Speaking is one of the most basic skills that humans possess. We learn to talk early in life, and our ability to communicate continues to develop throughout adulthood. Regardless of whether someone speaks fluently or struggles to express themselves, learning to speak is the foundational building block of literacy. Learning to read and write is much easier when you understand the basics of spoken communication. As it is important to develop pupil's speech competence at the early ages, we should take some problems into consideration that cause speech delays and find solutions to them. It's important to remember the extraordinary challenges many students faced during distance learning, job loss, financial insecurity, chronic stress and uncertainly, loss of normalcy, and losing out on activities and social connections. All those effected the education of children causing mental problems which led to isolation of the children and lack of social interaction that had negative impact on speech development. Schools, teachers, parents, and students alike all had to scramble to figure out how to "do" school in quarantine. So, any success with schooling during the stresses of living through a pandemic should be celebrated. After quarantine, it seems that traditional learning has reached its previous potential, but there still remains of isolation causing lack of connection between pupils—pupils and teacher-pupils.

Oral speech as a productive process requires a lot of time and effort from the student since it also requires the inclusion of language, speech and communicative competencies. As a type of communicative activity, it should be an integral part of every lesson [2, p. 44]. The main purpose of teaching a foreign language to pupils is the possession of basic speech structures that correspond to the threshold level of proficiency based on the All-European Scale of Language Competence. Teaching speaking is based on themes that meet the real needs and interests of pupils at the senior stage of general educational school [3]. In order to facilitate the communication of pupils, it must be taken into account the specific features of this type of speech activity, such as motivation, purposefulness, activity, connection with the personality and mental activity of a person, heuristics, independence, pace and situativeness. If there are goals and motives for communication, the characteristic features of the communication participants, their age, level of development are taken into account, then the act of communication within the framework of any speech situation will certainly take place. Many English teachers face the problem of "silence of students" in the lessons of the development of conversational skills. In order to prevent this, modern pedagogical technologies suggest changing the educational situation in such a way that the teacher from "indisputable authority" becomes an attentive and interested interlocutor and accomplice in the process of cognition. The communicative method, as one of the modern methods of teaching

English, helps to ensure that the teacher is not only a carrier of information but also an observer and consultant. The task of the teacher is to create situations of educational bilingualism that would facilitate the communication of pupils. The best methods of activating the oral speech of pupils are the techniques of human-tohuman interaction, i.e. Interactive techniques. Many scientists have contributed to the study of interactive teaching methods: L. N. Vavilova, G. D. Brown, T. N. Dobrynina, E. Ya. Golant, O. A. Golubkova, L. K. Geikhman, V. V. Guzeev, E. S. Zair-Bek, M.V. Clarin, E. E. Lushnikova, V. V. Nikolina, T. S. Panina, G. S. Kharkhanova, A. Yu. Prilepo and others. According to S. B. Suvorova, "interactive learning is a way of cognition, it is carried out only under the condition of joint activity of students. Interactive learning is based on the interaction of students and the learning environment, which is an area of experience, based on the psychology of human relationships and interactions. Such training Sciences of Europe # 82, (2021) 43 is considered as a joint process of cognition, in which knowledge is obtained in the process of joint activity through dialogue, polylogue" [4, p. 34]. It follows from this that these methods involve the interaction of the subjects of the educational process at the level of "peerto-peer", where the teacher and the class participant are part of the same team, they work to achieve the same goal.

Schools can take the following steps to build strong foundations of oracy skills for the students in a classroom**:**

Allocating Extra Classroom Time for Oracy Techniques: More than anything else, classroom time is needed for building correct language speaking skills in the students. Although each class has a fixed timetable to follow, the teachers must try to engage students in oracy explicit activities within the classroom time. Also, teachers must not be hesitant to make oracy an objective or focus for a lesson. Learning through Oracy must be practised in every classroom. The most effective teachers take the responsibility for the language development of children very seriously. They make sure to commemorate oracy in their classroom environment. Following are some of the ways to promote oracy in the classroom. A. Children's verbal comments must be gathered and displayed in the classroom. B. Teachers must frequently read aloud and tell stories to the students. C. Children must be invited to perform the poetry and plays. D. Displaying unusual objects in the classroom and encouraging children to talk about them.
E. Making a 'talking corner' in the classroom and inviting guests to talk about an interesting topic with the class. All the above activities will build students' confidence and enhance their oracy skills.

It should be noted that teaching interactive interaction requires the use of educational material taken from life in English lessons, which, in properly organized

conditions, promotes natural communication in the language being studied. In order to create situations of interactive interaction, it is necessary to exclude the restriction of work by tasks in which students need to imagine themselves in any situation. On the contrary, tasks are expedient, the very wording of which contains the need for interactive interaction. Such tasks are constructed in such a way that they cannot be done independently. S. B. Suvorova offers her own classification of interactive teaching methods based on communicative functions. In this classification, all methods are divided into three groups: 1) discussion (dialogue, group discussion, analysis and analysis of life situations); 2) gaming (didactic games, business games, roleplaying games, organizational and activity methods); 3) psychological group of interactive methods (sensitive and communicative training, empathy) [4, p. 10]. It should be noted that interactive methods of teaching English can be widely used in high school when studying regional and social topics. As interactive approaches, we will highlight interactive lectures, roleplaying, imitation, educational games, which include, for example, "A student in the role of a teacher", "Everyone knows everyone", "Interviews", etc. The active mental activity of students is caused by tasks such as "A dozen questions", "Choice", during which students need to demonstrate their own perception of the surrounding world. Creative tasks under the names "Associations", "Choice of aphorism" are distinguished by their communicative nature. The tasks "Reflexive circle", "Chain of wishes" are based on the methods of organizing reflexive activity and are aimed at developing the skills of introspection.

References:

1. Kulmagambetova S., Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor Makhambet Utemisov West Kazakhstan University Uralsk, Republic of Kazakhstan

2. Starodubtseva, O. G. Types of exercises for the formation of lexical skills of oral speech in a non-linguistic university [Text] / O. G. Starodubtseva // Scientific and Pedagogical Review. - 2013. - Issue 2 (2). - pp. 45-48.].

3. Konysheva A.V. Modern methods of teaching English. - Minsk: tetrasystems, 2011. - 304 p.

4. Suvorova N. A. Interactive learning: new approaches. M.: Verbum, 2005. 42 p.

5. Baumer T. Handbuch Interkulturelle Kompetenz. Zürich: Orell Füssli Verlag AG, 2002. 223p.

5-SINF ONA TILI DARSLARIDA SO`Z USTIDA ISHLASH ORQALI O`QUVCHILAR LUG`ATINI BOYITISH

Gumanitar fanlar fakulteti 3 kurs talabasi

Majamolova G.

*CHDPU, dotsent **X. G'ulomova***

Annotatsiya: Ushbu maqolada berilgan so`zlarga zid ma`noli so`zlarni tanlash, zid ma`noli so`zlarni qatnashtirib gap tuzish, berilgan gapga qarama-qarshi ma`noli so`zni topib qo`yish, ko`p ma`noli va shakldosh so`zlar ustida ishlash, so`zlarning so`z birikmasidagi ma`nosini qiyoslashga doir mashqlarni tashkil etish xususida so`z yuritiladi.

***Kalit so`zlar:*** leksik tahlil, antonim so`zlar, ko`p ma`noli so`zlar, neologizmlar, izohlash mashqlari, izohli lug`at, qiyoslash.

Ma`lumki, antonym so`zlar turli so`z turkumlarida uchraydi. Ular ayniqsa belgi bildiradigan so`zlar ichida ko`p uchraydi. Antonomik munosabat so`z bilan so`z orasida, frazeologik birliklar - iboralar orasida, so`z va iboralar o`rtasida ham yuzaga keladi. Yalqov – yuragida o`ti bor kabi).

O`quvchilar zid ma`1noli so`zlar haqida boshlang`ich sinf davridan boshlab tanishib boradilar. Ular matnda uchragan so`zlarga o`qituvchining topshirig`I bilan zid ma`noli so`zlar topib, ularning ma`nosidagi zidlikni izohlaydilar, ya`ni harakat bildirgan so`z boshqa bir harakatni inkor qilishini, ya`ni unga zid ma`noda bo`lishini o`rganadilar. Antonimlar ustida ishlash matn asosida, matndan kelib chiqib tahlilga tortilgan bo`lsa, 5-sinfga kelgach, o`quvchilar antonym so`zlarni maxsus o`rganadilar.

Matn tahlili jarayonida ular antonimlar yuzasidan quyidagi kabi mashqlarni bajaradilar:

1.Berilgan so`zlarga zid ma`noli so`zlarni tanlash. Otni o`tganda: azob… do`stlik – ..., oq – .., yoshlik.., sifatni o`tganda: dangasa – .., anqov –.., rostgo`y – .., dono –.., kasal – .., fe`lni o`tganda: kasallandi – .., yondi – .., boshladi – … kabi beriladi. O`quvchilar berilgan otga rohat, dushmanlik, qora, qarilik, sifatga mehnatkash, hushyor, yolg`onchi, nodon, sog`; fe`lga sog`aydi, tugadi antonimlarini tanlab, juft bilan yozadilar. 5-sinfda o`quvchilar antonimlar mavzusini o`tadilar. Shu mavzuga oid mashqlar bajarishadi. Masalan, 272-mashqlar "Innovatsiya – yangi g`oya (fikr)lar doim…" deb boshlanuvchi jumlani davom ettirishlari kerak. Masalan, yangi-eski. 1. Yangi g`oya (fikr)lar doim insonlarni taraqqiyot sari yetaklaydi. 2. Eski g`oya (fikr)lar rivojlanish yo`lida to`g`anoq bo`ladi.

Zid ma`noli so`zlarni qatnashtirib gap tuzish. Bunda o`qituvchi antonim tanlab gap tuzish uchun so`z beradi, o`quvchilar berilgan so`zga antonim tanlaydilar va ularni qatnashtirib gaplar tuzadilar. 5-sinf darsligidagi 273-mashq xuddi shu mazmunda.

Berilgan gapda qarama-qarshi ma`noli so`zni topib qo`yish. O`qituvchi "To`g`ri odam … so`zdan or qilur, yosh kelsa ishga … kelsa oshga, yaxshi gap may … gap loy, gapni oz so`zla, ishni… ko`zlar" kabi gaplar beriladi. O`quvchilar gap mazmuniga mos antonym topib, gapni o`qiydilar. O`quvchilar lug`atini ma`nodosh va zid ma`noli so`zlar bilan boyitish o`z fikrini aniq, ravshan va ifodali bayon etishga yordam beradi.

Ko`p ma`noli va shakldosh so`zlar ustida ishlashda o`quvchilarga ko`p ma`noli so`zlar uchrab turadi, ammo ular ko`p ma`noli so`z ekaniga e`tibor bermaydilar. O`qituvchi badiiy asar ustida ishlash jarayonida o`quvchilarni ko`chma ma`nodagi so`zlar bilan tanishtirish orqali ayrim so`zlar ko`p ma`noda ishlatilishini tushuntirib beradi. Shu bilan, maxsus mashqlar tashkil etadi:

1. So`zlarning so`z birikmasidagi ma`nosini qiyoslash: soat yuradi, poyezd yuradi, ukam yuradi, tosh yo`l, tosh yurak, kumush qoshiq, kumush osmon, kumush qish. 5-sinf ona tili darsligidagi 267-mashqda o`quvchilar quyidagi so`zlar ishtirokida gaplar tuzishlari va so`zlar bildirayotgan ma`nolarga e`tibor berishlari kerak. Masalan, 1. Karam – saxovat. 2. Karam – poliz ekini. Karam, adash, bo`y, yeng, yot, och mushak, palla, so`z, son, taxt, ter, un, chakka, qil, qovoq, tuz, shim.

2. Gaplarni o`qib, ajratib ko`rsatilgan so`zlarning ma`nosini ajratish. Bu yil yoz issiq bo`ldi. Sen o`rtog`ingga xat yoz. O`quvchilar nutqini boyitishda maqollar katta ahamiyat kasb etadi. Maqollar o`qish uchun ham, suhbat uchun ham, hikoya tuzish uchun ham, grammatik tahlil va yozuv uchun ham qulay materialdir. Ular ixcham, sermazmun va ta`sirchan bo`ladi, maqollar o`quvchilarning badiiy didini o`stiradi, nutqqa e`tibor bilan qarashga, to`g`ri mantiqiy fikrlashga o`rgatadi, estetik tarbiyasida muhim o`rin tutadi. 5-sinf ona-tili darslarida o`quvchilar "Sinonimlar. Sinonimik qatorda bosh so`z" degan mavzuni o`rganish jarayonida ma`nodosh so`zlar, maqollar keltirilgan. Ular shu mavzuga oid topshiriqlarni bajarishadi. Quyida darslikdagi ma`nodosh so`zlar ustida ishlashga oid topshiriqlar keltirilgan.

261-mashqda xalqimizning hikmatli so`zlarini yozing. Ma`nodosh so`zlarni aniqlang va ular ichidan eng ko`p qo`llanadigan so`zni toping.

Betamizda bet bo`lmas, bezorida uyat. 2. Qizil yuzing qizartirma, uzun tiling qisqartirma. 3. Afting qiyshiq bo`lsa, oynadan o`pkalama. 4. Kulgi chexra yoritar.

5. Odamning yuzi quyoshni uyaltirar. 6. Turk boshqa-yu, ko`z boshqa. 7. Chiroy husn-u jamolda emas, fazl-u kamolda.

261-mashqda qavs ichidagi so`zlardan mosini qo`yib, gaplarni ko`chiring. 1. Dehqonning (boyligi, ganjinasi, xazinasi) – yer, kaliti – ter. 2. Yer ichida (tilla, oltin, zar) bor, qaziyversang topasan. 3. Yerga qarasang (bo`ston, bog`, guliston) bo`lar, (ko`ngling, diling, qalbing) ochilib, chog‘ bo‘lar. 4. Suv keldi – (ziyo, nur, yog‘du) keldi. 5. Sen yerni yer qilsang, yer seni (arslon, she`r, yo‘lbars) qiladi.

265-mashqda matnni o‘qishda davom ettirish, nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi sinonimlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chirish topshirig`I beriladi.

Avstraliyalik “yovvoyilar”… (mohir, mahoratli, usta) rassomgina bo‘lmay, anatomiya – tana tuzilishi borasida ham yetarlicha bilimga ega edilar. Buning isboti sifatida aborigenlar tomonidan qoyalarda … (chizilgan, tasvirlangan, aks ettirilgan) rasmlarni keltirish mumkin. Ularning ba`zilarida hayvon… (tana, badan, qomat)lari, suyaklari va organizmning ichki tuzilishi aks etgan. Bu rasmlarni chizgan rassomning … (ko‘z, diyoda, qarog‘)lari xuddi roentgen apparatining nurlari kabi o‘tkir bo‘lgan. Bu rasmlar roentgen yo‘nalishidagi rasmlar degan… (nom, ot, ism) olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.A. G`ulomov va b. Ona tili o`qitish metodikasi. –T. 2012.

2.B. To`xliyev va b. O`zbek tilini o`qitish metodikasi. T.: 2006.

3.S. Matchonov va b. Boshlang`ich sinfda ona tili o`qitish metodikasi.

4.Mahmudov N. va b. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. -T.: Respublika ta`lim markazi. 2020.

5. A.Hojiyev. O`zbek tili sinonimlarining izohli lug`ati.-T.: 1986.

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1- va 2-jild. – M.., 1981.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РОЛЕВЫХ И ДЕЛОВЫХ ИГР НА УРОКАХ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Комилова Мукаррам Кобилжоновна
Старший преподаватель кафедры
«Узбекского языка и литературы»
Самаркандского института экономики и сервиса
komilova.mukarram29@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается, об эффективности использования ролевых и деловых игр проблемной направленности. Которые носят весьма продуктивный характер, что выражается в имитации, моделировании социально значимых отношений между участниками игры, в умении применять знания, творчество, практические умения выражать свои мысли на иностранном языке. А также этот метод влияет на развитие критического и творческого мышления студентов.

Ключевые слова: наглядности, ситуации, речь, язык, учебной, программа, направленность, метод, моделирование, сотрудник, мотивация, ролевая игра, персонаж.

Использование игр на уроках помогают созданию у обучаемых внутренней наглядности, необходимой для представления на занятии определённой ситуации, синхронизации мыслительных и физических действий с речью на иностранном языке. С их помощью можно не только хорошо отработать лексический материал, но и формировать воображение и языковое чутьё. Они позволяют разнообразить виды учебной деятельности и делают процесс изучения языка более динамичным и интересным.

Игры вообще и ролевые игры в частности представляют собой мощное образовательное средство. В гуманистической педагогике нас интересуют ролевые и деловые игры проблемной направленности. Однако дело изучить, например, по учебнику особенности течения той или иной программы, и совсем другое дело в процессе деловой игры «составить программу», участвовать на конференциях посвящённых программированию, на которых программисты докладывают специалистам разных профилей свои методы составление программ. Однако дело ознакомиться по литературе с регистрацией фирмы, правилами найма на работу; другое – представить себя бизнесменом, открывающим своё дело, сотрудником отдела регистрации или налоговым инспектором и имитировать их действия в определённой

проблемной ситуации. Это деловые игры. Их задача – моделирование профессиональных ситуаций. И такая деятельность чрезвычайно важна. Мы считаем, что многие студенты технических вузов, подчас теряются, встречаясь с необходимостью решать профессиональные задачи в нестандартных ситуациях.

Большое значение в организации учебного процесса играет мотивация учения. Она способствует активизации мышления, вызывает интерес к тому или иному виду занятий, к выполнению того или иного упражнения. В настоящее время стала очевидной идея необходимости обучения иностранному языку как коммуникации непременно в коллективной деятельности с учетом личностно - межличностных связей. Положительное влияние на личность обучаемого оказывает групповая деятельность. И успех в обучении - это результат коллективного использования всех возможностей для обучения. Широкие возможности для активации учебного процесса дает использование. ролевых. игр.

Ролевая игра представляет собой условное воспроизведение её участниками реальной практической деятельности людей, создает условия реального общения. Эффективность обучения здесь обусловлена в первую очередь взрывом мотивации, повышением интереса к предмету. Ролевая игра завоевывает всё большую популярность среди учителей иностранных языков. Идея использования ролевого поведения получила подкрепление со стороны теории ролей. При овладении иностранным языком как средством общения необходимо воссоздать условия, подобные условиям, существующим при овладении родным языком. Мера условности может быть различной: перевоплощения в реальных людей, в литературных персонажей, в героев сказок и т. д. Элемент условности и перевоплощения присущ всем разновидностям .ролевой .игры.

Ролевая игра обладает большими обучающими возможностями:
1) Ролевую игру можно расценивать как самую точную модель общения. Ведь она предполагает подражание действительности в её наиболее существенных чертах. В ролевой игре, как и в самой жизни, речевое и неречевое поведение партнёров переплетается теснейшим образом.
2) Ролевая игра обладает большими возможностями мотивационно - побудительного плана. Общение, как известно, немыслимо без мотива. Однако в учебных условиях не просто вызвать мотив к высказыванию. Трудность заключается в следующей опосредованности: учитель должен обрисовать ситуацию таким образом, чтобы возникла атмосфера общения, которая, в свою очередь, вызывает у учащихся внутреннюю потребность в выражении мыслей.

В условиях иноязычного общения важно, однако, чтобы учащиеся смогли выразить то, что им хочется сказать. Языковое обеспечение (словарный и грамматический материал, навыки в пользовании ими) часто заслоняют саму цель - общение и от учащихся и от учителей. На уроках преобладают высказывания, вызванные к жизни директивно: «Расскажи о своём друге», «Расскажи о своей семье», «Расскажи о своей работе» так как преподаватель проверяет, как учащиеся умеют комбинировать соответствующий языковой материал. Мотив же, которым руководствуются при этом учащиеся, лежит за пределами речи: им важно ответить преподавателю. Положение меняется, если учащиеся вовлечены в ролевую игру. Точно обозначенные «предлагаемые обстоятельства» создают общий побудительный фон, а конкретная роль, которую получает студент, сужает его до субъективного мотива.

3) Ролевая игра предполагает усиление личностной сопричастности ко всему происходящему. Студент входит в ситуацию, хотя и не через своё «Я», но через.«Я».соответствующей.роли.

4) Ролевая игра способствует расширению ассоциативной базы при усвоении языкового материала.

5) Ролевая игра способствует формированию учебного сотрудничества и партнёрства. Исполнение ролей предполагает охват группы учащихся (ролевая игра строится не только на основе диалога, но и монолога), которые должны слаженно взаимодействовать, точно учитывая реакции друг друга, помогать друг другу. При распределении ролей следует учитывать как языковые, так и «актерские» возможности учащихся, поручая одним более вербальные, другим - пантомимные роли, третьих же назначая на роли «суфлеров», давая им право подсказывать на основе текста.

6) Ролевая игра имеет образовательное значение. Учащиеся, хотя и в элементарной форме, знакомятся с технологией театра. Преподаватель должен побуждать их заботиться о простом реквизите. Поощряется всякая выдумка, ибо в учебных условиях возможности в этом отношении ограничены. Само же перевоплощение способствует расширению психологического диапазона, пониманию. других. людей.

Таким образом, ролевая игра обладает большими возможностями в практическом, образовательном и воспитательном отношениях. В ролевых и деловых играх немаловажное значение приобретает сопровождающий фон – все виды наглядности: иллюстрации, фотографии, видеоклипы, слайды, схемы, диаграммы и так далее. В зависимости от сценария игры, её сюжета возникает необходимость показать, где будет происходить действие, кто в нём участвует. Можно использовать для этих целей фотографии: пейзажные,

сюжетные, которые дают представление о месте действия, его целевой направленности, в том числе и профессиональной например, фотография офиса, пресс-конференции, аудитории и так далее – для деловых игр; фотографии различных достопримечательностей, представителей разных народов, с которыми встречаются участники «путешествия», семейные праздники. По ходу игры возникают необходимость разрабатывать какие-то документы например, маршрут экспедиции, предложения в законодательные органы, отчёты для налоговой инспекции. Возникает необходимость обсудить некоторые вопросы, для чего могут потребоваться убедительные доказательства, требующие не только вербального, но и графического выражения: таблицы, графики, чертежи, схемы, диаграммы.

Практически всё учебное время в ролевой игре отведено на речевую практику, при этом не только говорящий, но и слушающий максимально активен, так как он должен понять и запомнить реплику партнера, соотнести её с ситуацией, определить насколько она реально в ситуации и задаче общения, и правильно отреагировать на реплику. Игры положительно влияют на формирование познавательных интересов, способствуют осознанному освоению иностранного языка.

В заключение ещё раз подчёркиваем, что ролевые и деловые игры проблемной направленности носят весьма продуктивный характер, что выражается в имитации, моделировании социально значимых отношений между участниками игры, в умении применять знания, творчество, практические умения в различных областях в моделируемых ситуациях. Это действенное средство для развития критического и творческого мышления.

Список использованной литературы:

1. Гальскова, Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам [Текст]: пособие для учителей / Н.Д. Гальскова. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: АРКТИ, 2003.

2. Пассов, Е.И. Коммуникативный метод обучения иностранному говорению [Текст]: пособие для учителей иностранного языка / Е.И. Пассов. - М.: Просвещение, 1985.

3. Полат, Е.С, Бухаркина М.Ю. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. 2- издание.

4. Комилова М.К. Новые возможности ИКТ в обучении русскому языку в неязыковых ВУЗах Узбекистана. "Интернаука" Научный журнал N2(84) , Москва, январь 2019 г., 29-30стр.

5. Комилова М.К. Активизация творческого потенциала учащихся с помощью ИКТ на уроках русского языка. Журнал «Горизонты Филологии» hp.jspi.uz Том 3 №3 (2021): Journal of Horizons of philologiy

6. Комилова М.К. Методы изучения иностранного языка. Samarqand Davlat chet tillar instituti Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar . Respublika ilmiy-amaliy anjumani material tõplami. Samarqand, 2018 yil 25 may, 222-223 бет.

ASLIY VA NISBIY SIFATLARNI O‘QITISH METODIKASI

Odambayeva Umida Baxtiyor qizi
CHDPU 3-kurs talabasi
odamoyevaumida@gmail.com
Ilmiy maslahatchi: ***Xolida G`ulomova***
ChDPU dotsenti

Annotatsiya: Maqolada asliy va nisbiy sifatlar haqida nazariy ma’lumotlar beriladi. Ularning bir biridan farqlanuvchi jihatlari ko‘rsatib o‘tiladi. O‘quvchilarga bu sifatlarni tushuntirishda qo‘llash mumkin bo‘lgan bir nechta mashq turlari namuna sifatida ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: asliy sifat, nisbiy sifat, sifat yasovchi qo‘shimcha, mashq, matn.

O‘zbek tili grammatikasida boshqa so‘z turkumlari singari sifat so‘z turkumini o‘qitish ham muhim ta`limiy ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunga kelib o‘quvchilarga sifat turkumini o‘rgatishda zamonaviy pedagogik innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabi qo`yilmoqda. Ammo asosiy e’tibor sifatlarning ma’noviy guruhlari, tuzilishiga ko‘ra turlari hamda ularning gapdagi vazifasini o‘quvchilarga o‘rgatishga qaratilgan. Albatta, buni ma`qullagan holda, o‘quvchilarga asliy va nisbiy sifatlar haqidagi “*asliy sifatlar darajalana oladi va –roq qo‘shimchasi qabul qiladi, nisbiy sifatlar esa bunday xususiyatga ega emas*” mazmunidagi tushuncha berish ularda bunday sifatlardan nutq jarayonida ongli foydalanish ko`nikmasini shakllantiradi. O`quvchilar asliy va nisbiy sifatlarni farqlashda qiynalishlari tabiiy. Bunday holatda o‘qituvchi o`qitishning samarador metod va usullarini ta`lim jarayoniga tatbiq eta bilishi muhim. Avvalo, o‘qituvchining o‘zi asliy va nisbiy sifatlarning bir-biridan farqlovchi asosiy jihatlariga o`quvchilar diqqatini jalb qilishi, har ikki hodisaning o`ziga xos xususiyatlarini taqqoslash usulida farqlashga o`rgatishi muhim omillar hisoblanadi.

O‘qituvchi **asliy sifat** predmetning turg‘un, nisbatlanmaydigan va darajalanadigan belgisini ifodalashini[89] misollar bilan asoslab ko`rsatishi lozim. Masalan, *shirin qovun – juda shirin qovun, qora mato – qoraroq mato* kabi.

Nisbiy sifatlar esa predmet belgisini o‘rin yoki payt tushunchasiga nisbatlash, mo‘ljallash, boshqa predmetga o‘xshatish kabi holatlarda ko‘rsatishini, lekin belgini darajalab ifodalamasligini [90] o‘rgatishi kerak. Masalan, *tuxumsimon tosh, kuzgi kiyim* (*kuzgiroq kiyim* deyish to‘g‘ri bo‘lmaydi). Bundan tashqari, nisbiy sifatlar, asosan, *–iy (-viy), -simon, -lik, -gi (-ki, -qi), -dagi* kabi qo‘shimchalar yordamida yasalishini[2] misollar orqali (*ilmiy* asar, *butasimon* daraxt, *shaharlik* yigit, *burchakdagi* uy) o‘quvchilarga o‘rgatish foydali bo‘ladi.

O‘quvchilarga *–li* qo‘shimchasi yordamida yasalgan sifatlar darslik va qo‘llanmalarda nisbiy sifat yasovchi qo‘shimcha sirasiga kiritilgan. Nisbiy sifatlar esa belgini darajalab ko‘rsatmaydi. Faqat *–li* qo‘shimchasi bilan hosil qilingan nisbiy sifatlarda darajalab ko‘rsatish xususiyati mavjud: *kuchli – kuchliroq – juda kuchli, aqlli - aqlliroq – juda aqlli*.[91] O‘quvchilar sifatlarning yuqoridagi kabi ayrim xususiyatlarini o‘rganib olishsa, ularda asliy va nisbiy sifatlarni farqlashlari osonlashadi.

O‘qituvchi asliy va nisbiy sifatlar farqlashlariga doir ko`nikmalarini shakllantirishda quyidagi mashqlar katta yordam beradi:

“Aytamiz va o‘rganamiz” mashqi. Bunda sinfdagi o‘quvchilar *ikki* guruhga ajratiladi. Agar sinfda *yigirma nafar* o‘quvchi bo‘lsa, o‘ntadan ikkita guruh tashkil qilinadi. Har bir guruhdagi o‘quvchilarning beshtasi *asliy sifatlar*ga, beshtasi *nisbiy sifatlar*ga misol aytadi. Bu ta`limiy o‘yinning asosiy sharti shuki, aytilgan sifatlar takrorlanmasligi kerak. O‘quvchilar o`zlari aytgan sifatlarni **asliy sifatlar**, **nisbiy sifatlar** tarzida ustunga ajratib yozib boradi. O‘yin so‘ngida asliy sifat va nisbiy sifatlarga ko‘p va to‘g‘ri topgan guruh rag`batlantiriladi.

**“Sifatlarni izlaymiz va topamiz!” o`yini.** Bu ta`limiy o`yin uchun o‘qituvchi beshtadan o‘ntagacha asliy va nisbiy sifatlar ishtirok etgan gaplar tayyorlab keladi. Masalan, *1. Nasiba kichik, sariq qutini qo‘lida ushlab turardi. 2. Aytishlaricha, shaharlik yigit ilmiy hamda tarixiy kitoblarni ko‘p o‘qir ekan…* Gaplar yozilgan varaqlar o‘quvchilarga tarqatiladi, so‘ngra gaplarni daftariga ko‘chirib olish vazifasi beriladi. O`quvchilarga asliy sifatlar ostiga *ikki to‘lqinli chiziq*, nisbiy sifatlar tagiga *bir to‘lqinli chiziq* chizish topshirig`i beriladi. Ushbu mashqni bajarish orqali

- [89] R.Sayfullayeva, B.mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: 2009. 237-bet.
- [90] S.Rahimov, B.Umurqulov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent “O‘qituvchi” 2003. 107-bet .
- [91] M.Asqarova, R. Yunusov, M.Yo‘ldoshev, D.Muhammedova. O‘zbek tili praktikumi. Toshkent “Iqtisod-Moliya” 2006. 133-bet.

o‘quvchilar nafaqat sifatlarni boshqa so`z turkumlaridan farqlaydi, balki ularning orfografik savodxonligi ham oshadi.

“Tinglaymiz!” Ushbu mashq hozirgi davr talabiga mos deyishimiz mumkin. Chunki bugungi kunda o‘quvchilarda eshitib tushunish kompitensiyasini shakllantirish va uni oshirishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ona tili va adabiyot darsliklariga maxsus tinglash imkonini beruvchi QR kodli matnlar, asarlar yoki ularning parchalari joylashtirilmoqda. Bu mashqning asosiy maqsadi: sifatlarning tallafuzini eshitish bilan birga o‘quvchilarning eshitib tushinish kompitensiyasini oshirishdir.

Avvalo, o‘qituvchi “Tinglaymiz” mashqi uchun biror badiiy asardan asliy va nisbiy sifatlar ishtirok etgan parchani audio shaklida tayyorlashi kerak. Yoki asarlarning audio variantidan bir-ikki daqiqalik kesib olishi mumkin. Tayyorlangan audioni eshittirishdan oldin ularga mashq sharti, ya’ni eshitgan matnlaridan sifatlarini aniqlab, o‘zi bog‘langan so‘z bilan daftarga yozishlari tushuntiriladi. So‘ng dars jarayonida o‘sha audio matn o‘quvchilarga eshittiriladi (agar zarur bo‘lsa, qayta eshittirilishi mumkin). Mashq tugagach, o‘quvchilarning yozgan birikmalari o‘qituvchi bilan birgalikda tahlil qilinadi. Asliy va nisbiy sifatli birikmalarga alohida e’tibor qaratiladi, ularning tallafuz va imlodagi farqlari o‘rganiladi.

Yuqoridagi kabi mashqlar yordamida o‘tkazilgan dars yakunlangach, o‘quvchilarga o‘qigan badiiy asarlaridan asliy va nisbiy sifatli gaplarni topib yozib kelish vazifa qilib beriladi. Mazkur o`yinga asoslangan mashqlar o‘quvchilar dars mobaynida o‘zlashtirganlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, asliy va nisbiy sifatlarni farqlashga doir mashqlar nazariy ma’lumotlarni berishdan ko‘ra turli xil metodlar, usullar orqali ularni farqlashga o`rgatish yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Asqarova, R. Yunusov, M.Yo‘ldoshev, D.Muhammedova. O‘zbek tili praktikumi. Toshkent “Iqtisod-Moliya” 2006. 133-bet.

2. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: 2009. 237-bet.

3. S.Rahimov, B.Umurqulov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent “O‘qituvchi” 2003. 107-bet.

O‘ZBEK TILIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo’nalishi 2-bosqich talabasi
Olimjonova Nilufar

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayrim so'zlarning biz bilmagan etimologiyasi, etimologiya fanining ta'sir doirasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: etimologiya, etimon, hind, yunon tili, g'alizlik.

Dunyoda juda ham ko'p va turli xil tillar mavjud. Biron bir til so'zlar va nutq orqali amalga oshadi. Borliqda mavjud bo'lgan barcha narsa-hodisalar borki, ular so'zlar bilan nomlanadi. Aynan so'zlar orqali in'ikos qilinadi.

Xususan o'zbek tili serqirra tillar sirasiga kiradi. Undagi turli xil so'zlar hamda ularning etimologiyasi, xilma-xil nutqiy vaziyatda ularning qo'llanishi kabilar barcha uchun muhim va qiziq masalalardir.

Etimologiya tilshunoslik fanining muhim va murakkab sohasi. Etimologiya so'zi asli yunoncha "etymon" va "logos" so'zlaridan tarkib topgan, "etymon" so'zi "chin, asl mohiyat" ma'nosini, " logos" so'zi esa "ta'lim" degan mazmunni bildiradi. Shunga ko'ra etimologiya sohasida so'zlar va morfemalarning asl shakli va ma'nosini aniqlash bo'yicha izlanishlar olib boriladi. So'z etimologiyasining ilmiy, soxta va xalq etimologiyasi kabi turlari mavjud. Ma'lum bir so'zning etimologiyasini aniqlashda aynan shu leksemaning paydo bo'lishi uchun asos bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi mavjud bo'ladi. Bu esa tilshunoslikda "etimon" deb ataladi.

O'zbek tilshunos olimlaridan professor Shavkat Rahmatullayev etimologiya sohasiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan.

Ona tilimizda bir qancha so'zlarning etimologiyasi barcha uchun ham birdek tanish emas.

Ayrim so'zlar borki, ularning kelib chiqishi o'zbek tiliga borib taqalgandek ko'rinsa-da, lekin unday emas. So'zlar o'zbek tiliga faqatgina arab va fors tilidan emas, balki boshqa tillardan ham o'zlashgan.

Masalan, o'zbek tilidagi faol iste'moldagi, deyarli barcha istifoda etadigan"Dakki" so'zining etimologiyasi uzoq Hindistonga borib taqaladi.Bu leksema hind tiliga tegishli bo'lib, "dhakka", ya'ni "zarb, turtki, iztirob" ma'nolarini bildiradi. Ushbu so'zning hind tilidagi izohi bilan o'zbek tilidagi ma'nosi bir-biriga juda o'xshaydi.

Dakki– o'zbek tilida koyish, qattiq tanbeh ma'nolarida qo'llaniladi.

Daftar va qalam so'zlari.

Daftar so'zi asli yunon tilidan olingan. Yunonlar qog‘oz o‘ramini "diftera" deb atashadi. U arab tili orqali o‘zbekchaga daftar ko'rinishida kirib kelgan. Daftar so'zi qardosh turkiy tillar hamda arab, fors, hind makedon kabi tillarda turli tovush o‘zgarishlari bilan qo‘llaniladi.

Qalam so'zi ham ona tilimizdagi eng faol so‘zlardan biri bo‘lib, bu ham yunonchadan oromiy- suryoniy tili orqali arab tiliga,undan o‘zbekchaga o'tgan. Yunon tilidagi shakli "kálamos" bo'lib,"qamish, qamish qalam" ma’nolarini beradi. Lekin bu so‘zning ham ildizi hind-yevropa tillariga borib taqaladi. Hind-yevropa so'zi hisoblangan "ko'lkamos" lotin tilidagi " culmus– somon poyasi" so'ziga yaqin turadi. Demak, qalam so'zining etimoni culmus hisoblanadi. Culmus>ko'lkamos>kálamos>qalam.

Kamzul so'zining ildizi esa qadimgi german tillarga borib taqaladi.Lotin tilidan italyan, fransuz yoki nemis tili orqali rus, undan katta ehtimol bilan o'zbek tiliga o‘zlashgan.

"Tizzagacha uzunlikdagi yengsiz erkaklar kiyimi" fransuz tilida "camisole" deyiladi.Bu leksema ham nemis, tatar, rus, ingliz kabi tillarda turli tovush o‘zgarishlari bilan foydalaniladi.

Qandil so'zi.

Bu so'zning ildizi lotincha candela– shamga borib taqaladi. Yunon tiliga "kandela"shaklda o'tgan va sham, shamchiroqni anglatgan. Arab tiliga "qandil" shaklida o‘zlashgach, " chiroq, chilchiroq" mazmuniga ega bo‘lgan. Qandil o‘zbek tilida bir nechta sham yoki lampochka qo'yiladigan oyoqli va osma chiroqni bildiradi.

Antiqa so'zi.

Ushbu so'zning etimologiyasi lotin tilida mavjud bo'lgan "antiquus–qadimgi" so'ziga borib taqaladi. Chunki o'zbek tilida ham "antiqa" leksema bo'lib, "qadimgi, hayratga soladigan, noyob" degan ma'nolarda istifoda etiladi. Ushbu so'z ingliz tilida "antique" shaklida mavjud.

Shu kabi so‘zlar o‘zbek tilining etimologiyasida bir qanchani tashkil etadi.

Ba'zi holatlarda so'zlar va ularga qo'shiladigan qo'shimchalarning etimologiyasini, ularning asl ma'nosini bilmaslik turli xil g'alizliklarga sabab bo'lmoqda.

Xususan, barcha uchun faol iste'moldagi so'z hisoblangan "axborot" so'zida biroz nuqsonli holatlarga duch kelamiz.

Ma'lumki, xabar so'zi fors-tojik tilidan o'zlashgan bo'lib, aynan shu leksemaning ko'plik shakli "xabarlar" forschada "axbor" deyiladi. Lekin yana unga ko'plik qo‘shimchasi qo'shilyaptiki,bu so‘zning asl tarjimasi "xabarlarlar" shakliga o'zgarib qolmoqda.

Manzilgoh so'zida ham xuddi yuqoridagi kabi xatolik mavjud. Fors tilidagi "goh, ya'ni joy" so'zi o'zbek tiliga qo'shimcha sifatida o'zlashgan. Lekin "manzilgoh" leksemasini so'zma-so'z tarjima qilganimizda "joy-joy" degan shakl yuzaga kelmoqda. Ushbu so'zni "turarjoy" leksemasiga almashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Hozirgi kunda so'zning asl ma'nosini bilmasdan qo'llash ushbu so'z mazmunining buzilishiga olib keladi.

Dunyoda eng kuchli ta'sirga ega bo'lgan narsa so'zdir. Chunki so'z inson ruhiyatini o'zgartira olish qobiliyatiga ega.

Hozirgi kunda so'zni his qilmaslik holatlari ko'p uchramoqda.

Masalan, hozirgi kunda ko'p foydalaniladigan "hordiq" so'zi.Uning etimologiyasiga nazar tashlasak, asli eski o'zbek tilidagi so'z bo'lib,"charchoq, horg'inlik" kabi ma'nolarni anglatadi. Lekin bu so'zni noto'g'ri qo'llash natijasida umuman boshqa ma'no aks etgan holatlarga duch kelinmoqda: "Miyaga ham hordiq kerak".Bu gapni mazmuni quyidagicha:" Miyaga ham charchoq, horg'inlik kerak". "Maza qilib hordiq oling", bu yerda " maza qilib chachang" kabi ma'no aks etib qolmoqda. Demakki, hordiq olinmaydi, u chiqariladi.

Ana shunday ba'zi xatoliklar tufayli ona tilimizga putur yetib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, so'zlarning asl ma'nosi, etimologiyasi tilshunosligimizning eng tayanch ustuni hisoblanadi. Etimologiyani yaxshi o'rganish esa o'zbek tilining yanada yuksalishiga, nutq madaniyatining go'zallashuviga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Rahmatullayev.O'zbek tilining etimologik lug'ati.1-jild.– T: "Universitet" nashriyoti, 2000.
2. T.Malik. Tilingni avayla.– T: "Davr press" NMU, 2016.
3. https:// daryo.uz
4. https:// m.zamin.uz.
5. https:// uz.wiktionary.org.wikilug'at

ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Rajabboyeva Go'zal Arabboyevna *Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'zbek tili va adabiyoti 3-bosqich talabasi*
*Ilmiy rahbar:**Rayhon Rasulova** Chirchiq davlat pedagogika universiteti adabiyot kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ta'lim uzoq muddatli jarayon bo'lib, uning sifati va samaradorligi darsda qo'llanilgan metodlarga bog'liq. Darsning mazmunli o'tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o'qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi.Ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida foydalanishga tavsiya etiladigan interfaol metodlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: intefaol, innovatsion texnologiya, charxpalak, taqdimot usuli, tanlash, ixtiyoriy, bajarish, majburiy, imkoniyat, metod, texnologiya.

Abstract: Education is a long- term process, the quality and efficiency of which depends on the methods used in the lesson. The meaningful course of the lesson, the methods used in it and the results achieved determine the skill and level of knowledge of the teacher. This article contains examples of interactive methods recommended for use in native language and literature classes.

Key words: interactive, innovative technology, charxpalak, presentation method. choice, option, execution, obligation, opportunity, method, technology.

KIRISH Hozirgi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi,ta'limning jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o'zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq.Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar – "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqdimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi" metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang" texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Konseptual jadval", "Nilufar guli" kabi grafik tashkil etuvchilar hamda "Tushunchalar tahlili", "T-

jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “BBXB” metodlarini qo’llash dars samaradorligini ta’minlab, o’quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

ASOSIY QISM VA TADQIQOT METODLARI

Ona tili va adabiyot darslarida ham yuqorida sanab o’tilgan interfaol metodlardan tashqari “Ha… yo’q”, “Ta’rif egasini top”, “Men kimman?”, “Domino” kabi didaktik o’yinlardan foydalanish mumkin. O’yin vaqtida o’quvchilar o’zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o’quvchida ishonch,qat’iyat paydo bo’ladi. Munozaraga kirishishni o’rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o’quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim. Interfaol usuli nafaqat ta’limda balki, tarbiyada ham ayniqsa yaxshi natija keltiradi, ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda o’qituvchi muhokamaga ta’sir qilganda nafaqat fikr bildiradi, balki muammogao’zining shaxsiy munosabatini, axloqiy mavqeyi va dunyoqarashini bildiradi. O‘quvchilar bahsida o’qituvchini ishtiroki turlicha bo‘lishi mumkin. Lekin har qanday holatda ham o’zini fikrini o’tkazmasligi kerak, balki xato bo‘lsada o‘quvchi fikrini oxirigacha tinglash zarur.Yaxshisi bahsni boshqarishda yaxshilab hisoblab chiqilgan usul, sermahsul fikrlashni,yechimini topishda ijodiy izlanuvchanlikni talab etuvchi o‘yinlarni o‘ynash yoki muammoli savol qo’yish orqali boshqarish lozim. Bu bilan o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida munosabat o‘rnatiladi, fikr almashinish kuzatiladi. Qarshi fikrlar ham bo‘lishi mumkin, lekin bu ijobiy tomon bo‘ladi. Chunki o‘rtada bahs-munozara avj oladi, hamma o‘zining erkin fikrini aytadi.O‘qituvchi shu fikrlardan xulosa qilgan holda, o‘quchilarning xato va kamchiliklarini bartaraf qilishga harakat qilad.Interfaol o’qitish usuli, o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati o’qituvchining bahslardagi ishtiroki tufayli dars jarayonini nafaqat hamkorlikdagi faoliyati bo’ladi, balki shaxsning ijtimoiy munosabatlarining real ijodiy sermahsul faoliyatiga aylanadi. O’qishdagi hamkorlik o’z-o’zidan o‘quvchilar tomonidan o’zlashtirilgan bilim, to’g’ridan-to’g’ri ularning ichki dunyosiga ta’sir etadi va dars jarayonini asosiy tarbiyaviy funksiyasi ham bajarib keladi.

Interfaol o’qitish usuliga quyidagilar kiradi:

- Evrestik suhbat;
- Bahs usuli;
- Aqliy hujum;
- Ishbilarmon o’yinlar usuli;
- Davra stoli;

 Muhokama qilinuvchi va bevosita ustoz bilan amalga oshiriladigan usullar.

Keyingi paytlarda ilg’or tajribali o’qituvchilar tamonidan darsning seminar - dars, bahs – dars, suhbat – dars, sinov – dars, konferensiya – dars, sayohat-dars kabi turlari o’tkazilmoqda.Bunday dars turlari o’quvchining dars paytidagi loqaydligiga barham berib, unda faollikni uyg’otadi, bolani o’ylashga, muhokamali fikr yuritishga, so’zlashga va izlanishga hamda mehnat qilishga o’rgatadi. Metodlarni tasniflashda ular yordamida o‘quvchilarga tayyor bilimlarni zo‘rlab singdirishga emas, balki, ularning tafakkur imkoniyatlarini hisobga olishi, fakt va tajribaga asoslanishiga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bir qator pedagog va psixologlar tomonidan ta’lim metodlari orasidan: muammoli, suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv singari umumdidaktik metodlarning samarali ekanligi takidlangan.O‘qituvchining ta’lim metod va usullari haqidagi bilimi qanchalik chuqur, ularni ma’lum maqsad yo‘lida qo‘llash imkoniyati qanchalik keng bo‘lsa, har bir darsni tashkil qilish oson,unumli, foydali va jonli bo‘ladi. Darsning o‘zlashtirilish darajasi uning ko‘rgazmaliligi, tashkiliy jihatdan benuqsonligidan tashqari, o‘quvchilar mustaqil fikrlashini faollashtirish, ularning nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishini ham taqozo etadi. Agar dars avvaldan ma’lum bilimlarga asoslanib o‘tilsa, mantiqan yangi dalil va tushunchalarga tayanilmasa yoki o‘rganilayotgan mavzu avval o‘qilganlarning yangi(bosqichiga aylanmasa, o‘qituvchi ta’limni qanchalik baland darajada, qanday ilg‘or metodlar bilan uyushtirmasin, muvaffaqiyat qozonolmaydi.

XULOSA Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki,ta’lim metodlari faqat ma’lumotni qanday berishni belgilamaydi. Ular materialning tizimi va uni ayni shu yo‘l bilan ishlashga tayyorlashni ham nazarda tutadi. Ya’ni u o‘quv materialiga singdirilgan bilimni o‘quvchi o‘zlashtira oladigan tarzda berishni, bolalarda bilim olish qobiliyatini rivojlantirishni ham qamrab olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Rafiyev A. , G’ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun

darslik). T. , “Sharq”, 2013.

2. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to‘plami. T. “Navro’z”, 2018.

3. Golish L. V. , Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va

rejalashtirish. T. , “Iqtisodiyot”, 2012.

4. “Umumta‘lim fanlari metodikasi” jurnali, 1-, 2-1. http://library.navoiy-uni.uz

5. https://fayllar.org

6. https://e-library.namdu.uz

7. “Til va adabiyot ta’li*mi” jurnali, 1-12 sonlar, 2018*

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI “O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI’’DAN FOYDALANISHGA O‘RGANISH

Hasanova Sanobar Farxod qizi
Gumanitar fanlar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti
IV kurs talabasi
***X.G`ulomova** ChDPU dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilar lug‘atini boyitishning 4 yo‘nalishi haqida , ya‘ni so‘zlarning yangi ma‘nolarini o‘zlashtirish, so‘z ma’nosiga aniqlik kiritish , nutqiy faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug‘atidagi so‘zlarni faol lug‘atiga o‘tkazish, adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlarni o‘quvchilar faol lug‘atidan nofaol lug‘atiga o‘tkazish xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so`zlar: so‘zlarning yangi ma’nolari, nutqiy faoliyat ,leksik birliklar, faol lug‘at , nofaol lug‘at ,shevaga oid so‘zlar, adabiy til , og‘zaki nutq , izohlash mashqlari, izohli lug‘at.

Umumiy o‘rta ta‘limda o‘quvchilarning lug‘atini boyitishda tashkil etiladigan mashqlar to‘rt yo‘nalishda amalga oshiriladi. Maktabda lug‘at ustida ishlash metodikasi to‘rt asosiy yo‘nalishni ko‘zda tutadi:

1. O‘quvchilar lug‘atini boyitish, ya‘ni yangi so‘zlarni, shuningdek , bolalar lug‘atida bo‘lgan ayrim so‘zlarning yangi ma’nolarini o‘zlashtirish. Ona tilining lug‘at boyligini bilib olish uchun o‘quvchi o‘z lug‘atiga har kuni 8-10 ta yangi so‘zni , shu jumladan, ona tili darslarida 4-6 so‘zni qo‘shishi, ya‘ni shu so‘zlar ma’nosini o‘zlashtirishi lozim.

2. O‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish. Bu o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

1) o‘quvchi puxta o‘zlashtirmagan so‘zlarning ma’nosini to‘liq o‘zlashtirish, ya‘ni shu so‘zlarni matnga kiritish , ma’nosi yaqin so‘zlarga qiyoslash , antonim tanlash yo‘llari bilan ularning ma‘nosiga aniqlik kiritish; 2) so‘zning kinoyali ma’nosini, ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirish; 3) so‘zlarning sinonimlarini ,

sinonim so‘zlarning ma’no qirralarini o‘zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma’nosini o‘zlashtirish.

3. Lug‘atni faollashtirish, ya‘ni o‘quvchilar ma’nosini tushunadigan, ammo o`z nutqiy faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug‘atidagi so‘zlarni faol lug‘atiga o‘tkazish. Buning uchun shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmasi va gaplar tuziladi , ular o‘qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlarni o‘quvchilar faol lug‘atidan nofaol lug‘atiga o‘tkazish. Bunday so‘zlarga bolalarning nutq muhiti ta’sirida o‘zlashib qolgan adabiy til me’yoriga kirmaydigan , ayrim adabiy asar va so‘zlashuv tilida qo‘llanadigan sodda so‘z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so‘zlar kiradi. Adabiy til me’yori degan tushunchani o‘zlashtirgach, o‘quvchilar yuqorida izohlangan so‘zlar o‘rniga adabiy tildagi so‘zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so‘zlar, so‘zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so‘z va iboralar o‘quvchilarning faol lug‘atidan chiqib keta boshlaydi.

O‘quvchilar nutqidagi so‘z qo‘llash bilan bog‘liq kamchiliklarni barataraf etishda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, ensiklopedik lug‘atlar , muayyan fanlarga oid lug‘atlar muhim ahamiyatga ega. Birinchi navbatda o‘quvchilar nutqda so‘zlarni qo‘llashlari uchun uning ma’nolarini bilishi lozim. So‘zlarning ma’nosi izohli lug‘atda keng izohlanadi.

Izohli lug‘atlar so‘zlikning tanlanishiga ko‘ra umumiy va tarmoq lug‘atlarga bo‘linadi. Tilning barcha so‘zlarini izohlashga qaratilgan lug‘atlar umumiy izohli lug‘atlar, ma’lum bir tarmoqqa doir so‘zlarnigina tanlab, ularni bir tartibda joylashtirib izohlashni maqsad qilgan lug‘atlar tarmoq lug‘at hisoblanadi. Masalan , kasb-hunarga doir lug‘atlar, ma’lum fan sohasi bo‘yicha atamalar lug‘ati va boshq. Quyidagi lug‘atlarda ham so‘zlar izohi berilgan.[92]

Alisher Navoiy quyidagi ikki satrda bir jismning bir nechta nomini keltiradi:

Oftob chiqdi, quyosh chiqdi, kun chiqdi,

Mehru shams-u xurshidi gardun.

- [92] Navoiy asarlari lug‘ati – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1972. – 784 b. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – M.., 1981. 1-jild. 632 b; 2-jild, 715b. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1983. 1-jild. 656b; 1983. 2-jild 644b; 1984. 3-jild 622b, 1984. 4-jild 634b. Mustaqillik izohli ilmiy ommabop lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 1998-312b. O‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2001.

Bir zamon bolalar uchun aytilgan shu ikki satrda quyoshning oltita nomi berilgan. Sanoqni yana davom ettirish mumkin: osmon, falak, samo, charx, gardun, fazo, ko‘k.

Ma’nodosh so‘zlarimizning ko‘pligiga sabab o‘zbek tili 3 daryodan suv ichgan xalqning tilidir deb izoh beradi olimlarimiz. Diniy, ilmiy, ijtimoiy atamalarimiz asosan arab tilidan; ko‘pgina ish qurollarimiz, jumladan, xokandoz, dastshu, jomashu, dazmol, qog‘oz kabi hunarmandlikka oid so‘zlarimiz, shuningdek, yuksak she‘riy uslubga xos suxanlar fors tilidan kirib kelgan. Lekin bu qat‘iy qoida emas. Arabcha Alloh, yonida forscha Xudo, turkiy Tengri so‘zlarimiz bor. Yurak ham, qalb ham, dil ham deymiz. Arabcha ism, forscha nom, o‘zbekcha ot – uchovi ham o‘zimizniki.

“Devonu lug‘atit turk”da edgu deb bitilgan, yaxshilikni anglatuvchi bu asl turkiy so‘z bugungi adabiy tilimizda ezgu shaklida qo‘llaniladi. Bamisoli arabcha darbni zarb, daifni zaif deb aytganimiz kabi. Til taraqqiy etgani sari qattiq tovushlar yumshoqlari bilan almashib boradi chog‘i, qadimgi odoq so‘zi oyoq, adiq so‘zi ayiq bo‘ladi. O‘zbek tilida so‘zlarning tovush o‘zgarishlari bilan hozirgi kundagi qo‘llanish, albatta izohlashni taqozo etadi.O‘zbek tilining yana bir fazilati – ma‘nodosh so‘zlarga boyligidir. Bu ham so‘z ma‘nolarini izohlashda sinonim so‘zlar lug‘atidan foydalanishni taqozo etadi.5-sinf ona tili darsligida so‘zga, so‘zning ma‘nosiga, umuman, lug‘at ustida ishlashga katta o‘rin berilgan. U o‘quvchilarni turli lug‘atlar bilan ishlashga undaydi. Turli xil lug‘atlar bilan tanishadi.

391-mashq. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi havas va hasad so‘zlariga berilgan izohni o‘qing. Yurtimizdagi qanday insonlarga havas qilasiz va kimlarning xatti-harakatlarini qoralaysiz? Shu haqida sinfdoshlaringiz bilan fikr almashing.

Havas (arabcha – aqlini yo‘qotish, ehtiros; mayl, ishtiyoq; biror narsaga g‘oyat berilganlik, kuchli istak): 1. Qiziqish, zavq hissi; shunday his-tuyg‘uli munosabat. 2. Biror ish-faoliyat kasb-hunarga bo‘lgan rag‘bat, intilish, istak, mayl.

Hasad (araba – rashk, ko‘rolmaslik, qizg‘anish, suq, baxillik) kimsaga xos, unga tegishli narsa, fazilat va shu kabilarni ko‘rolmaslik, xush ko‘rmaslik his-tuyg‘usi.

392-mashq. Quyidagi maqollarni ko‘chiring va ularni izohlang. Ajratilgan so‘zlarni izohli lug‘at yordamida sharhlang.

1.Niyat qilsang, yetarsan, hasad qilsang, yiqilarsan. 2. Suqlik xo‘rlik keltirar. 3. Baxilning bog‘i ko‘karmas. Saxiy bilan baxil bir quduqdan suv ichmas.

395-mashq. X. Bekmuhamedovning “Tarix atamalarining izohli lug‘ati”dan olingan parchani ko‘chiring. So‘zning ma‘nosiga diqqat qiling.Karvonsaroy– Sharq, O‘rta Osiyo , Kavkaz shaharlarida va savdo yo‘llarida savdogarlar va boshqa yo‘lovchilar qo‘nib o‘tishlari uchun qurilgan joy – rabot bo‘lib, unda mehmonxona, oshxona, otxona, ombor, oziq-ovqat, ulov uchun yem-xashak mavjud bo‘lgan O‘rta Osiyoning katta shaharlarida bir nechtadan karvonsaroylar bo‘lgan.

396-mashq “Tibbiyot qomusiy lug‘ati”dan olingan parcha asosida bolalarda uchraydigan kasalliklar to‘g‘risida suhbatlashing. ASTMA – kelib chiqish sabablari turlicha bo‘lib, o‘tkir rivojlangan bo‘g‘ilish xurujlarining umumiy nomi (nafas siqishi).

399-mashq. Adabiyot darsligingizda berilgan shoir va yozuvchilarning taxallusini sharhlang. Jumladan, Navoiy, Bobur, Sa‘diy, Oybek.

400-mashq. “O‘zbek tiling izohli lug‘ati”dan foydalanib, valish, bo‘g‘in, da‘vat, da‘vo, yo‘llamoq, yo‘llamoq so‘zlarining ma‘nosini yozing.

401-mashq “Ming bir so‘zni bilaman” izohli lug‘atida berilgan quyidagi so‘zlarga to‘g‘ri keluvchi ma‘nolarni moslashtiring.

Pista – Asralishi kerak bo‘lgan narsalar saqlanadigan buyum.

Lahza – Tog‘larda o‘sadigan past bo‘yli daraxtning qoboqli danagi.

Ekin – Ko‘z ochib-yumguncha o‘tgan vaqt.

Ibrat – Hosil olish uchun ekilgan, urug‘dan unib-o‘sgan o‘simlik.

Sandiq – odamlar uchun namuna.

Mana shunday qiziqarli mashqlar orqali o‘quvchilar izohli lug‘at nima ekanligini, nima uchun kerakligini, qanday maqsadda foydalanish lozimligini bilib oladilar. So‘zlarning ma’nosini teran anglaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy asarlari lug‘ati – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1972.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – M.., 1981. 1-jild. 2-jild, 2006.

3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1983. 1-l; 1983. 2-jild. 1984. 3-jild. 1984..

4. Mustaqillik izohli ilmiy ommabop lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 1998.

5. O‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2001.

ONA TILI DARSLARIDA LUG‘AT USTIDA ISHLASH USULLARI

Gumanitar fanlar fakulteti
IV kurs talabasi ***Sardor Sattorov***
X.G`ulomova
ChDPU dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o`rta ta`lim maktablarida o`quvchilar lug`atini boyitishda qo1lanadigan usullar, taqqoslash usulu, kuzatish usuli, texnik vositalardan foydalanish usuli, guruhlash usuli, yod olish usuli xususida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar: *taqqoslash usuli, kuzatish usuli, texnik vositalardan foydalanish usuli, guruhlash usuli, yod olish usuli, nutqiy faoliyashtirish usulu.*

So‘z ma’nolarini taqqoslash va ularni sharhlash. Bu usul ko‘chma ma’noli, so‘z va iboralar, paronim so‘zlar shakli bir xil so‘zlar ma’nosi imlosi, talaffuzini izohlashda qo‘llaniladi. Urish – urush: ikki kishining janjallashib qolishi – urish; ikki xalq, ikki davlat orasidagi jang – urush. Bu sozlarning talaffuzi ham ikki xil.

So‘zlarning kuzatish usuli orqali so‘zlarning imlosini, ma’nosini va talaffuzini o‘rgatish. Bu usul o‘zakdosh so‘zlarni o‘rganish jarayonida, ko‘m-ko‘k, oppoq, qip-qizil sifatlarining (qizil, oq, ko‘k) ma’no nozikliklari, imlosi, talaffuzini o‘rgatishda qo‘llaniladi. Masalan, gul: guldon, gulchi, gulzor, gulli, gulsuz, gullar so‘zlarining tarkibini kuzatadilar. Bu so‘zlar ma’nosidagi farqni izohlaydilar va tilning yangi so‘zlar hisobiga boyib borishini anglay boshlaydilar. Shunday o‘rinda o‘qituvchi so‘zlarni o‘z so‘ziga aylantirishi orqali aniq fikr yuritishga o‘rganish o‘quvchining burchi ekanini anglatishi lozim. Kuzatish usuli shakllari o‘zgarayotgan so‘zlarning imlosini o‘rganishda ham qo‘llaniladi: Og‘iz+im – og‘zim, singil+im – singlim, u+ga – unga.

So‘zlarni belgilariga ko‘ra guruhlash usuli. Guruhlash aqliy faoliyat usuli bo‘lib, u ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda muhim. Bu usul so‘zlarning anglatayotgan ma’nosi, turkumi, yasalishi, imlosi uyasi kabilarga ajratish imkonini beradi. Guruhlash kuzatish va taqqoslash usuli bilan bog‘liq. So‘zlarni guruhlash uchun avvalo ular kuzatiladi, so‘ng taqqoslanadi. Bu jarayonda ularning o‘xshash farqli tomonlari ajratiladi. Masalan, qavm-qarindoshlik bo‘yicha guruhlash: 1. Ota urug‘i: ota, amaki, amma, dada, buvi, buvi. 2. Ona urug‘i: ona, xola, tog‘a, oyi, buvi, buva sifatlarda xususiyat bildiruvchi sifat: sho‘x, og‘ir, bosiq, aqlli, aqlsiz, hayoli, hissiz, andishali, dangasa, tanbal, ishchan, mehnatsevar. Ta’m bildiruvchi sifat: shirin, achchiq, nordon, taxir, sho‘r, mazali, bemaza, chuchmal.

Guruhlashni musobaqa tarzida uyushtirilishi. Ma’lum bir guruhdagi so‘zlar ro‘yxatini tuzish ishini alfavit asosida yozdirish ham mumkin. Guruhlashda quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Bolalar o‘yinlari nomining lug‘atini tuzing.
2. O‘zingiz bilgan shoir nomlari ro‘yxatini tuzing.
3. Ertak nomlari ro‘yxatini tuzing.
4. Joy nomlari ro‘yxatini tuzing.
5. Ohangdosh so‘zlar ro‘yxatini tuzing.
6. Ma’nodosh so‘zlar ro‘yxatini tuzing.

Bular o‘rganilayotgan mavzularga, mashq matnlariga bog‘liq holda tashkil etiladi. So‘zlarning izohli lug‘atini sinf va maktab matnlariga bog‘liq holda tashkil etiladi. So‘zlarning izohli lug‘atini sinf va maktab miqyosida tuzib, umumiste’molga kiritish mumkin.

Lug‘atni rivojlantirish uchun oddiy va tezkor texnika vositalardan foydalanish. Biz bilamizki, nutq va so‘z boyligini rivojlantirish, birinchi navbatda fikrlarni ifodalash va ma’noni yetkazish uchun zarurdir. Agar bolaga doimiy ravishda mashq qildirilsa, bu mahorat rivojlanadi va agar unga e’tibor berilmasa, u zaiflashadi. Shundan kelib chiqqan holda, lug‘atni rivojlantirish uchun bola odamlar bilan imkon qadar ko‘proq muloqot qilishi, ular ishlatadigan yangi so‘zlarga e’tibor berishi ularning ma’nosini yodlab olishi va uni nutqda qo‘llashi kerak bo‘ladi. Bunda bir qancha foydali usullarni keltirish mumkin. Masalan, audio kitoblarini tinglash. Ushbu vosita juda samarali va boladan deyarli hech qanday kuch talab qilmaydi. Bundan tashqari bu jyda qulay. O‘quvchilarni audio kitoblarni eshitishga qiziqtirish boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida amalga oshiriladi. Bunda o‘qituvchi o‘rganilayotgan asarning audio variantini eshittirsa, o‘quvchida qiziqish ortadi. Audio kitobni eshitish juda qulay ekanligiga o‘zlari ishonch hosil qilishadi. Mustaqil eshitilgan audio kitoblar yuzasidan qisqa muddatli suhbat tashkillashtirilsa, lug‘atni boyitish samaradorligi yanada ortadi.

She`r, maqol, topishmoq, tez aytish, ibora, tasviriy ifodalarni yodlash orqali. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida berilgan she’r, maqol, topishmoq, tez aytishlarni yod oldirish, o‘quvchilar so‘z boyligini boyitish imkoniyatini oshiradi, bunda o‘quvchining passiv lug‘atidagi ko‘plab so‘zlar faol so‘zlarga aylana boradi. Ma’lumki, biror narsani eslab qolishning eng yaxshi usuli – takrorlash, shuning uchun darsdan tashqari bo‘sh vaqtlarda ularning yod olgan she’rlarini mustaqil o‘qigan asarlarining mazmunini takrorlatib turish lug‘at boyligini takomillashtirishda juda foydali bo‘ladi.

Yangi so‘zlarni tillararo qiyoslash orqali o’rganish. O‘quvchining so‘z boyligini faqat bitta tildagi so‘zlar bilan cheklab bo‘lmaydi. Ingliz, rus va boshqa har qanday tilni o‘rganish so‘z boyligini bir vaqtning o‘zida bir nechta

yo‘nalishlarda kengaytirishga yordam beradi. Bunda o‘qish darslarini ingliz va rus tillari bilan integratsiya qilish nazarda tutiladi. Asar mazmunida keltirilgan ayrim so‘zlarning rus, ingliz tillardagi muqobillarini ham o‘rgatib boorish foydadan holi bo‘lmaydi.

Kundalik yuritish. Kundalik yuritishga odatlanish biroz murakkablik tug‘diradi. O‘quvchilarni kundalik yuritishga o‘rgatishni eng sodda ishdan boshlash kerak. Buning oddiy usuli o‘qish darslarida o‘rganilgan yangi asar haqida taassurotini qisqa qilib yozib qo‘yishga odatlantirishdir. Kundalik yozish jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrlarini tizimlashtirishga, yangi so‘zlardan foydalanishga harakat qilishadi. Natijada ularning lug‘at boyligi ortib, takomillashib boradi.

O‘qish – mutolaa orqali so`z boyligini oshirish. Veb saytlar, kitoblar, gazeta va jurnallar nafaqat ma’lumot manbai, balki so‘z boyligini to‘ldirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. G`ulomov va b. Ona tili o`qitish metodikasi. –T. 2012.
2. B. To`xliyev va b. O`zbek tilini o`qitish metodikasi. T.: 2006.
3. S. Matchonov va b. Boshlang`ich sinfda ona tili o`qitish metodikasi.
4. Mahmudov N. va b. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. -T.: Respublika ta`lim markazi. 2020.
5. A.Hojiyev. O`zbek tili sinonimlarining izohli lug`ati.-T.: 1986.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1- va 2-jild. – M.., 1981.

TOG‘AY MURODNING „YULDUZLAR MANGU YONADI “ ASARIDAGI SHEVAGA OID SO‘ZLAR

Sotiboldiyeva Nafisa Mansurjonovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
o‘zbek tili va adabiyoti 2-bosqich talabasi
Xayrullayeva Ra’no Luqmon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning „Yulduzlar mangu yonadi “ qissasidagi shevaga xos so‘zlarni Surxondaryo viloyatidagi qaysi sheva turiga xos bo‘lganligi ochib beriladi.

Annotation: In this article, the dialectal words in Togay Murad' s story „Stars burn forever“ will be revealed which type of dialect in Surkhandarya region is typicaly

Аннотация: В данной статье будут выявлены диалектние слова в рассказе Тогая Мурада „Звезды горят вечно“ , какой тип диалекта в Сурхандаринсой области характерен.

Kalit soʻzlar: gir, kuraychi polvon, or-nomus, toboq.

Togʻay Murod Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanidagi Xoʻjasoat qishlogʻida 1947- yil tavallud topgan. Togʻay Murodning „Yulduzlar mangu yonadi “ qissasi uning nomini mashhur qilgan ilk asari hisoblanadi. Ushbu asar 1976- yilda yozilgan va kitobxonlar ogʻziga tushgan. Togʻay Murod xalqchil ijodkor. Deyarli barcha asarlari Surxondaryo shevasida yozilgan hisoblanadi. „ Yulduzlar mangu yonadi “ asarida kurash, kurashchi polvonlar, ular oʻrtasidagi munosabatlar, xalqimizning azaliy urf-odatlari, toʻy- hashamlari aks ettirilgan.

Asarda Togʻay Murodgagina xos boʻlgan oʻziga xoslik— shevalardan, xalq maqol va iboralaridan unumli foydalanishining guvohi boʻlasiz. Polvonlarning samimiy suhbati, or- nomus uchun kurashi juda jonli tasvirlangan. Bir umr kuragi yerga tegmagan polvon— Boʻri polvonning ilk magʻlubiyati va undan keyingi kechinmalari yorqin aks ettirilgan. Qissani oʻqir ekansiz undagi odamlar juda sodda, chapani, soʻzamol ekanligini guvohi boʻlasiz.Ushbu asar kichik bir qissa boʻlsa ham xuddi poemaday oʻqiladi. Xuddi asarda bir necha yuz yilliklar aks etganday goʻyo. Ushbu asar yoshlar hattoki kattalar uchun ham ibrat va namunadir. Asarda or-nomus, gʻurur, muhabbat, doʻstlik, xiyonat kabi tushunchalarning asl mazmun-mohiyati ochib berilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek Togʻay Murod xalqchil ijodkor. Yozuvchi oʻz asarlariga hayotiy qarashlari, oʻy- fikrlari bilan kitobxonlarga asarni jonlantirganday tuyuladi . Ushbu kichik asarda juda katta voqealar, masalalar koʻtarilgan. Masalan, urf-odatlarimizga qanchalik e'tiborli ekanligimiz, yigit kishiga xos boʻlgan or- nomus, gʻurur, doʻstlik, xiyonat, doʻst tanlashda adashmaslik, insonning vijdoniga qarshi ish qilmasligi ya'ni, doim qalbiga quloq solib yashashi kerakligi chiroyli tarzda ifodalangan. Bu asar toʻlaqonli shevaga xos asar desa ham boʻladi. Bundan koʻrish mumkin- ki, Togʻay Murod oʻz tugʻilib oʻsgan zaminini, qishlogʻini jondan aziz koʻradi.

Asar yozilishi, tuzilishi, undagi sheva va oʻz viloyatiga xos boʻlgan ruhiyatdan kelib chiqib asarni bir soʻz bilan „ajoyib “ desa boʻladi. Asarda Boʻri polvon tilidan „Farzandlar hayotga beparvo qaraydi. Musibat bilan xursandchilik farqiga bormaydi. Farzandlar oʻzlari minayotgan mashinaga oʻxshaydi! Odam kim, mashina kim bilib boʻlmay qolyapti“— kabi jumlalar orqali hozirgi zamon va yoshlar haqidagi fikr mulohaza , tashvishlar bayon etiladi. Asarda Boʻri polvon va Nasim polvonlarning bolalikdagi begʻubor doʻstligi, ulgʻaygach esa ularning doʻstligi dushmanlikka aylanganligi ayanchli tasvirlangan. Nasim oʻz oshnasi Boʻriga

xiyonat qiladi. Do‘sti ko‘ngil qo‘ygan qizga o‘zi erishmoqchi bo‘ladi. Bo‘ri polvon esa butun umri davomida do‘stiga ham suygan qiziga ham gapirmay o‘tadi. Asarda yigitlik g‘ururi, or-nomus va muhabbat tuyg‘ulari yaqqol ko‘zga tashlandi. Bo‘ri polvon mag‘lubiyatga uchraganda Ismoil polvonni izidan kuzatib Termezga boradi. Jangdagi holatini hakamlar ham ayanchli ham qo‘rqinchli tasvirlaydilar. „Ko‘zlarida olov yonadi. Oyoqlarini lapanglatib -lapanglatib tashlamoqda. Bugungi jang haqiqiy qasos olish janggi bo‘ladiyov“ . Ushbu jumladan bilishimiz mumkinki, Bo‘ri polvon har doim polvonlarning eng zo‘ri bo‘lgan. Bir marta yutqazib qo‘ygani uchun o‘zini -o‘zi kechirolmaydi va qasos olishni maqsad qilib qo‘yadi.

Asar insonlar uchun ibrat qissa hisoblanadi.Asar bolalarga do‘stlikka xiyonat qilmaslikka, yigit kishi bo‘lib turib qing‘ir ishlar qilmaslikka va albatta o‘z yurtining urf-odatlarini yaxshi ko‘rishga, e’zozlashga, ularga hurmat bilan qarashga va eng asosiysi ularga amal qilishga undaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu asar o‘zbek xalqining urf-odatlari va to‘y- hashamlarini qay tarzda nishonlashini ko‘rsatib bergan. Bizga ma’lumki, bizning to‘ylarimiz ,ayniqsa, sunnat to‘ylar kurash va ko‘pkarisiz o‘tmaydi.

Asarda shevaga xos so‘zlar juda ham ko‘p ya’ni asar butkul shevaga xos tarzda yozilgan. Shu sababli undan ayrim so‘zlarni ajratib, izohlab beriladi.

Asardagi bolalar o‘zlari o‘ylab topishgan o‘yinni „gir“ deb atashadi. Xuddi shu gir so‘zi adabiy tilda „aylana “ degan ma’noni ifodalaydi. Bundan tashqari gir so‘zini Surxondaryo viloyatidagi ayrim hududlarda, masalan, Denovlik tojiklarda „girilloq “ deb ham atashadi.

Surxondaryo qipchoq lahjasining janubiy o‘zbek „j“ lovchi lar guruhiga kiradi. Shuni ta’kidlash joizki, asardagi ayrim so‘zlarni o‘zimizni yurtdoshlarimiz ham tushunishmaydi. Masalan, asardagi „ gilam toboqni Jonibek polvon ko‘taradi“ , yoki „ berman yiqitdi “ kabi jumlalar. Endi esa ularning adabiy tildagi shaklini taqdim etamiz .

— gir- aylana.

— toboq- kurashchi polvonlar uchun qo‘yiladigan sovg‘a.

— tana- qoramol.

— berman- nari- beri yiqitmoq.

Tog‘ay Murodning ushbu asarida takror so‘zlarni ham ko‘p marotaba uchratasiz. Jumladan, „Bolalar qo‘llarini cho‘zib- cho‘zib sapchidi. Sochqilarni ilib-ilib oldi. Yerga tushganlarini talashib - tortishib qo‘ynilariga soldi. Bolalar to‘da-to‘da bo‘lib yong‘oq, oshiq, shumshak, quloqcho‘zma o‘ynadilar“. Parcha

tarkibidagi takror so‘zlar voqeani yanada jozibadorligini ta’minlagan hamda asarni qiziqib o‘qishliligini oshirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Yulduzlar mangu yonadi" asari. G‘afur G‘ulom nashriyoti. Toshkent. 2019
2. www. ziyouz. uz
3. www. ziyonet. uz

MAKTABLARDA YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARINING O‘QITILISHI

Xabibova Jasmina Bobur qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti p.f.f.d (PhD)
e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

***Annotatsiya*:** Ushbu maqola maktablarda yordamchi so‘z turkumini o‘qitish metodologiyasi amaliy tajribalarga asoslangan holda tadqiq etiladi. Tugal fikrlar va ma’lumotlar asosida xulosalanadi.

Kalit so‘zlar: morfologiya, so‘z turkumlari, atash ma’nosi, leksik ma’no, yordamchi so‘zlar: ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama.

Tilshunoslik sohasining eng katta bo‘limlaridan biri morfologiya bo‘limida: so‘zning **grammatik ma’nosi** va bu ma’noni shakllantiruvchi **vositalar** o‘rganiladi. So‘z ma’nolarini farqlash maqsadida ushbu bo‘lim turkumlarga ajratilgan.

So‘z turkumlari – so‘zlarning so‘rog‘i va qanday umumlshgan ma’noni ifodalashiga ko‘ra guruhlarga bo‘linishidir. So‘z turkumlari ma’no va vazifasiga, leksik ma’nosiga ega yoki ega emasligi, biror so‘roqqa javob bo‘la olishi, grammatik shakli, gapdagi sintaktik vazifasiga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi: mustaqil so‘zlar, yordamchi so‘zlar va alohida olingan so‘zlar. Hozirda asosiy o‘rganish obyektimiz yordamchi so‘zlardir.

Ko‘inakchi, bog‘lovchi, yuklamalar — mustaqil so‘z, so'z birikmalari, sodda va qo‘shma gaplar orasidagi munosabatlarni tiklaydigan, so‘z va uning mazmuniga qo‘shimcha ma’no berishdek grammatik ma’no ifodalaydigan, ammo yakka holda ma’no anglatmaydigan, so‘roqlarga javob bo‘la oimaydigan hamda gap bo‘lagi bo‘la oimaydigan yordamchi so‘zlar. [1]

Yordamchi so‘z turkumlari uchga bo‘linadi.

1) Ko‘makchilar;
2) Bog‘lovchilar;
3) Yuklamalar.

Ma’lumki, mazkur so‘z turkumi haqidagi ilk ma’lumotlar boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘qitiladi. 7-sinfda esa o‘quvchilarga gap va gap bo‘laklari haqidagi bilimlarning atroflicha o‘qitilishi sababli yordamchi so‘z turkumini ham chuquroq o‘rganish ehtiyoji yuzaga keladi. Raqamlashgan jamiyatning shiddatli rivojlanib borishi va insoniyat ongining shunga monand o‘sishi, shu bilan birga, xalq orasida xorijiy tillarning o’rganishga ehtiyoj ortishi sababli, ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga, yangi texnologiya va metodlar yaratilishiga olib keldi.

O‘qituvchilar umumta’lim maktablarida yordamchi so‘z turkumlarini o‘qitishda turli xil pedagogik texnologiyalarni qo‘llashlari darsning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yordamchi so‘z turkumlarining ichki ma’noviy tarmoqlari juda ko‘p. Shu sababli o‘quvchilarga har birini yodda saqlab qolish va o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llash birmuncha qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy. Bu o‘rinda o‘qituvchining ilmiy salohiyati va aniq tanlangan texnalogiya yordamga keladi. ***Ko‘makchilar*** yordamchi so‘z turkumining katta qismini egallaydi. Masalan, *bilan, uchun, kabi, sari, sayin, sababli, tufayli, qadar...* h.k.z. Ularning nutqiy faoliyatimizdagi o‘rni beqiyosdir. Ko‘makchi mustaqil so‘zlarni bir biriga tobe va hokim munosabatda bog‘lash vazifasini bajaradi. Ko‘makchilarning ma’noviy guruhlarini o‘rganishda esa, bizga qiyoslash, solishtirish usullari qo‘l keladi. Ko‘makchilarning kelishik qo‘shimchalari bilan qisman almashinib qo‘llana olishini solishtirish orqali yanada mustahkamroq o‘rgatish mumkin. Masalan: - *Bu gullarni onamga oldim. – Bu gullarni onam uchun oldim. Shermat tog‘larga durbinda qaradi. – Shermat tog‘larga durbin orqali qaradi.*

Yordamchi so‘z turkumlarining yana bir muhim bo‘limi bu ***bog‘lovchilardir***. Ular mustaqil so‘zlarni bir biriga teng munosabatda bog‘lash vazifasini bajaradi. Bog‘lovchilarni o‘rgatishda: sodda gaplarni bog‘lovchilar ishtirokida bir biriga bog‘lab ko‘rsatish, yakka va juft holda qo‘llaniladigan bog‘lovchilarni alohida guruhlarga ajratish, ergashtiruvchi va teng bog‘lovchilarni bir biridan farqlash va bog‘lovchilarning ohang bog‘lanishidan farqlarini ham aytib o‘tish joizdir.

Yuklamalar so‘zga qo‘shilib, unga qo‘shimcha ma’no yuklash vazifasini bajaradi. Yuklamalarni o‘rganish jarayonida esa turli xil gaplar tuzib, undagi so‘zlarning ma’no jihatdan farqini va bu farq nimani anglatayotganini o‘rganish lozim. Aynan yuklama boshqa bo‘limlarga nisbatan qo‘shimchga e’tiborni talab

qiladi. Undagi so‘z yuklama va qo‘shimcha yuklamalarni ajratish, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash alohida mas’uliyatni talab etadi.

Har qanday nazariy bilimni mustahkamlash uchun ham qandaydir amal yoki esda qolarli, qiziqarli texnalogiya kerak bo‘ladi. Yordamchi so‘z turkumlarini o‘rganishda ham ana shunday bir qancha texnologiya va metodlarni ko‘rib o‘tamiz.

1. To‘ldirish. O‘quvchilarni 2 guruhga ajratgan holda, birinchi guruhga ko‘makchi ishtirokida biror gap tuzish va ko‘makchini tushirib qoldirish, ikkinchi guruhga esa aynan tushirib ketilgan ko‘makchini topish vazifasi yuklatiladi. Bu texnalogiya orqali o‘quvchilarning mustaqil gap tuzish, nutqini ravon va erkin bayon qila olish, xotirasini yaxshilash va yozuv savodxonligini oshirishga qaratilgan.

1. *Sarsonboy ota soy ..... yuqoriladi.*
   *Sarsonboy ota soy **bo‘ylab** yuqoriladi.*
2. *Xadicha qo‘rqqanidan uyi ..... yugurib ketti.*
   *Xadicha qo‘rqqanidan uyi **tomon** yugurib ketti.*

2. Ko‘makchi boshqargan so‘z. Buda matn o‘quvchilar e’tiboriga havola qilinadi va ular ushbu matnda keltirilgan ko‘makchilar, ular qo‘shilgan mustaqil so‘z va ko‘makchining ma’no turini yozishlari kerak.

*...Kozimbek mashinani katta yo‘lga chiqarib **qishloq tomon** yurdi. **Daryo bo‘ylab** yurarkan ko‘zi bir tanish ko‘chaga tushdi. Bu o‘sha, u bolaligida **o‘rtoqlari bilan** chuvalashib o‘ynagan qadirdon ko‘chasi edi. Kozimbekning ko‘ngli bo‘lmay, ko‘chadan piyoda o‘tishga qaror qildi...*

1. *Qishloq tomon – yo‘nalish ma’nosi.*
2. *Daryo bo‘ylab – yo‘nalish ma’nosi.*
3. *O‘rtoqlari bilan – vosita ma’nosi.*

3. “Guldasta”. Bunda bir qancha mustaqil so‘zlar beriladi va ularga to‘g‘ri keladigan ko‘makchilarni bog‘lab guldasta tuzish talab etiladi.

4. “Ma’nodoshlar so‘zlasa”. Turli ma’nodagi ko‘makchilar yozilgan kartochkalar doskaga tartibsiz yopishtiriladi. O‘quvchilar soniga ko‘ra guruh 3 yoki 2 ga bo‘linadi. Ular berilgan vaqt ichida ko‘makchilarni o‘z oilasiga joylashtirishlari kerak bo‘ladi.

5. Qiyoslash – taqqoslash metodi. Birinchi guruh bog‘lovchili gap aytadi. Ikkinchisi esa bog‘lovchini uning o‘rnida qo‘llana oladigan yuklama bilan almashtirishadi. Keyingi safar esa bu jarayon teskari tarzda qaytariladi.

Masalan:

*Mehmonlar ko‘p o‘tirmadi. Kelib **va** ketdi.*
*Mehmonlar ko‘p o‘tirmadi. Kelib**oq**, ketdi.*

*It suyakni obdon hidlab ko‘rdi-**yu**, yemadi.*
*It suyakni obdon hidlab ko‘rdi, **lekin** yemadi.*

Xulosa qiladigan bo‘lsak, yordamchi so‘z turkumlari gapning mazmunini boyitishi va nutning go‘zal bo‘lagi bo‘lganligi uchun gap, matn tuzishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun yordamchi so‘z turkumining har bir bo‘limini o‘rgatayotganda og‘zaki nutqni o‘stirish va so‘z boyligini oshirish bilan birgalikda, yozma savodxonlikka ham qat’iy e’tibor qaratish lozim. “O‘yin va topshiriqlar qanchalik amaliy mohiyat kasb etsa, samaradorlik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Yordamchi so‘z turkumi bo‘limlarini o‘rganishdagi bilimlar faqat shu mavzular bilan chegaralanib qolmasdan, keyingi bo‘lim - sintaksisda ham qo‘llanilib, mustahkamlanib borishi lozim.[2]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirzahmedov B. Yordamchi so‘zlarni o‘rganish. – T.: O‘qituvchi. 1973
2. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A.,Alavutdinova N., Karimjonova V. “Ona tili o‘qitish metodikasi” (Universitet va institutlarning filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik). Toshkent, 2012. 229-bet.
3. Erkaboyeva N. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami. –T.: Yosh kuch. 2019.
4. Yuldasheva Sh., Kabulova D., Yusupova G. O‘zbek tili. –T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021.

ONA TILI DARSLARIDA SO‘Z MA‘NOSINI TUSHUNTIRISH USULLARI

Gumanitar fanlar fakulteti
IV kurs talabasi ***Zoyirova Nilufar Toshmurod qizi****.*
ChDPU, dotsent ***X.G‘ulomova***

Annotatsiya: Ushbu maqolada so‘zni kontekst asosida, darslikdagi lug‘atdan, matn ostida berilgan izohdan foydalanib, so‘zning ma‘nodoshi yordamida tushuntirish, tanish bo‘lmagan so‘z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo‘lgan so‘z bilan ifodalangan tushunchaga taqqoslash orqali, tanish bo‘lmagan so‘z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo‘lgan so‘z bilan ifodalangan tushunchaga taqqoslash orqali tushuntirish tushuntirish xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: so‘zlarning ma‘nosi, kontekst, matn, ma‘nodosh so‘z, taqqoslash, izohli lug‘at.

So‘zlarning ma‘nosini tushuntirish o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini o‘stiradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlarning atamalari ham tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma‘nosini tushuntirish mazkur so‘z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma‘nosini tushuntirish bilan o‘quvchilar predmet keng ma‘noda qo‘llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe’l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi.

So‘zning ma‘nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmasligi kerak. Buning uchun o‘qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma‘nosi tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o‘rnida tushuntirishni belgilab oladi.

O‘qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma‘nosini bilmaydigan ayrim so‘zlar matnni o‘qishdan oldin tushuntiriladi.

Matnni o‘qish jarayonida so‘z ma‘nosini tushuntirishga chek qo‘yish kerak. Agar biror so‘zni matnni o‘qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug‘ilsa, matn mazmunidan o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmagan holda shu so‘z ma‘nosi qisqacha tushuntiriladi.

Ko‘chma ma‘noda ishlatilgan obrazli so‘zlar va badiiy nutq oborotlari matn o‘qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma‘nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o‘qilganda, undagi allegorik, ko‘chma ma‘noda ishlatilgan so‘zlarni asarni o‘qishdan oldin yoki o‘qish jarayonida tushuntirib bo‘lmaydi.

Metodikada so‘zlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. So‘zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o‘quvchilar tushunmaydigan so‘z ularga tushunarli so‘zlar qo‘llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.

2. So‘z ma`nosini lug‘atdan va o’qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bunda o‘quvchilarni izohdan mustaqil foydalanib, so‘z ma`nosini mustaqil tushunib olishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

3. So‘z ma`nosini shu so‘zning ma`nodoshi yordamida tushuntirish.

Masalan, sabo - shabada, mudofaa - himoya, sozanda - musiqachi, diyor - vatan, inshoot - bino, samo - osmon kabi. So’zni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu so’zning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham ko’rsatish zarur.

4. Tanish bo’lmagan so’z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo’lgan so’z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, ishchan tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgo‘y so‘zini yolg‘onchi so‘ziga taqqoslab tushuntirish mumkin.

Ko‘chma ma`noda ishlatilgan so‘z va so‘z birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. So‘zni o‘ziga yaqin tushuncha bilan, yani boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan so’zning izohi qisqa va aniq bo‘lishi kerak. Masalan, o‘zboshimchalik – o‘z xohishicha ish tutish, ishni o‘zi xohlaganicha bajarish; mutaxassis − biror hunar egasi; shunqor − uzoq uchadigan ko‘zi o‘tkir qush; mesh − mol terisidan tikilgan idish; guldon − gul solib qo‘yiladigan idish va boshq.

Bazi so‘zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, kombayn − bir vaqtning o‘zida donni o‘radigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xo‘jalik mashinasi; ekskavator - bir vaqtning o‘zida yerni qazib tuproqni yuk mashinasiga ortadigan mashina; aerodrom - samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo‘nadigan joy va hok.

6. So‘zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan, yantoq − suvsiz joyda o’sadigan ninasimon tikanli o’simlik; akula − okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq va boshq.

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so’zlarning ma`nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o‘quvchilar o‘rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo‘lgan asar qahramonining qilgan ishlari tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, so‘z ma`nosini tushuntirish ustida ishlash o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.A. G`ulomov va b. Ona tili o`qitish metodikasi. –T. 2012.

2.B. To`xliyev va b. O`zbek tilini o`qitish metodikasi. T.: 2006.

3.S. Matchonov va b. Boshlang`ich sinfda ona tili o`qitish metodikasi.

4.Mahmudov N. va b. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. -T.: Respublika ta`lim markazi. 2020.

5. A.Hojiyev. O`zbek tili sinonimlarining izohli lug`ati.-T.: 1986.

6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1- va 2-jild. – M.., 1981.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARGA MATN TUZISHNI O‘RGATISH METODLARI

Bekniyazov Qonisbay Isakovich (filologiya fanlari nomzodi)
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
qoraqalpoq tili kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Kalt so‘zlar: Gap, gap tuzish, matn, matn yaratish, o‘qish, bilish.

Ключевые слова: Предложение, образование предложений, текст, создание текста, чтение, знание.

Keywords: Preposition, presentation of preposition, text, text composition, reading, knowledge.

Annotatsiya: Ona tili darslarida o‘quvchilarni gap tuzishga, matn yaratishga o‘rgatish asoslari va o‘quvchilarni ular ustida ishlashga o‘rgatish metodikasi so‘z etilgan.

Аннотация: На занятиях по родному языку были затронуты основы обучения студентов составлению предложений, созданию текстов и методика обучения студентов работе над ними.

Annotation: In the classes on the native language, the basics of teaching students how to write sentences, creating texts and methods of teaching students to work on them were touched upon.

Boshlang‘ich sinflarning ona tili darslarida o‘quvchilarga matn tuzilishi yuzasidan muayyan bilimlar berish, ularda matn yaratishga doir ayrim ko‘nikma va malakalarni hosil qilish davlat ta'lim standarti talablarida o‘z aksini topdi, ayrim

talablar dasturga kiritildi. Metodik adabiyotlarda rus metodist olimlaridan M.R. Lьvov, S.V.Yurtayev, O.O.Xarchenko, o‘zbek metodist olimlaridan K.Qosimova, T.G‘afforova va boshqalarning ishlarida o‘z aksini topdi.

S.V.Yurtayev matnning tarkibiy elementlari bilan bog‘liq muammolarni hal etishda, eng avvalo, murakkab sintaktik butunlik belgilari: ikkitadan yettitagacha gaplarning mavjudligi, ularning leksik va grammatik vositalar orqali ifodalangan mazmuniy yaxlitligini nazarda tutish lozim deb biladi[1.33].

Matnni, uning qismlarini xat boshidan boshlash, matnning qismlarga (abzatslarga) ajratilishi, kichik mavzular chegarasi, reja tuzish; matnning birinchi va oxirgi gapi; gaplar guruhlarida fe'l shakllarining uyg‘un holda ishlatilishi; abzatsda gaplarning uslubiy va semantik-grammatik jihatdan o‘zaro bog‘lanishi; mantiqiy qoidalar; gapni gapga bog‘lovchi vositalar; dialogda tinish belgilari; sarlavha, sintaktik qurilmalar boyligi matn tuzilishini o‘rgatish bilan bog‘liq ta'lim mazmunini ifoda etadi.

M.R.Lьvov matn tuzishga o‘rgatish siklining ilmiy asoslari quyidagi sohalarda erishilgan yutuqlarni jalb etish orqali mustahkamlanishini aytadi: bular funktsional va kommunikativ grammatika, matn sintaksisi nazariyasi (matn lingvistikasi), uslubiyat va nutq madaniyati, tillarning qiyosiy tipologiyasi, fonologiya, sotsiolingvistika, til sohibi nazariyasi. Mazkur ilmiy yo‘nalishlarning ko‘p qismi rus tili o‘qitish metodikasida o‘z tatbiqini topgan, amaliyotga ham kirib borgan. Matn ichidagi aloqa vositalari shular jumlasidandir[2.22] .

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirishda ularni matn tuzishga, turli sintaktik qurilmalardan foydalanishga o‘rgatish alohida ahamiyatga ega. Matnga dialogik parchalarning kiritilishi sintaktik aloqalarning yanada boyishidan dalolat beradi. Lekin ayni shu masalada bir qator qiyinchiliklar bor. Ularni o‘z vaqtida bartaraf etmaslik, ta'limiy choralar ko‘rmaslik matnga dialog kiritish bilan bog‘liq xatolarning yuqori sinflarda ham davom etishiga sabab bo‘ladi.

«Dialog gaplar» tushunchasi boshlang‘ich sinflar «Ona tili» davlat ta'lim standartida matnning tuzilishiga doir o‘rganiladigan bilimlar sirasida o‘z ifodasini topgan[3.6]. Dialog (dialog gap, dialogli matn) tabiatan ko‘chirma gap bilan bog‘liq.

O‘quvchilar matn tuzish jarayonida ba'zan ikki xil holatga duch keladilar: 1) matnga ko‘chirma gaplarni kiritish, 2) ko‘chirma gapni dialog shaklida berish.

Yuqoridagi ikkala holat ham tinish belgilari, shuningdek xat boshi bilan bog‘liq qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi.

«Ona tili» davlat ta'lim standarti talabiga ko‘ra boshlang‘ich sinflarda dialogik va monologik nutq tushunchalari ustida ish olib borilishi zarur. Lekin dasturda dialogda tirening ishlatilishi tinish belgilari yuzasidan o‘rganiladigan

bilimlar sirasida aks ettirilmaydi. O‘qituvchi buni yuqoridagi kabi ham qo‘shtirnoqli, ham qo‘shtirnoq tushirib qoldirilib, tire bilan berilgan ko‘chirma gaplarni kuzattirish asosida amaliy ravishda o‘rgatishi mumkin. Shundagina matndagi dialoglarga e'tibor qaratish natijasi o‘laroq matn yaratish mashqlari bajarilishi va shu yo‘l bilan o‘quvchilarda tiredan foydalanish ko‘nikmalari mustahkamlanishi kerak.

O‘quvchilar shuni ham bilib olishlari zarur bo‘ladiki, matnda ko‘chirma gaplar ketma-ket berilsa, dialogda har bir dialog gap yoki gaplar guruhi (bir yoki bir nechta gap) xat boshidan tire qo‘yib yozilishi lozim.

Nutqimizdagi rang-barang sintaktik qurilmalar turli ohang jilolari bilan qo‘shilib, eng nozik fikrlarni ham ifodalash uchun xizmat qiladi. M.R.Lьovning fikrlarini o‘z so‘zimiz bilan bayon etadigan bo‘lsak, sintaktik qurilmalarni egallash asnosida o‘quvchi aniq leksik vositalarni tanlay olishi, katta-kichik gaplar tuza bilishi va ularni matn to‘qimasiga birlashtira olishi, bunda mantiq qonunlariga rioya etishi hamda nutqning dalillanganini ta'minlashi; ushbu maqsadda o‘zgalarni tinglashi va kitob o‘qishi, kitoblar olamiga sho‘ngib, mutolaa va qayta-qayta kitob o‘qish bilan shug‘ullanishi lozim; tilning qurilishi va mexanizmlarini anglamog‘i; til estetikasini - nutqning ta'sirchanligi, chiroyli, husnixat bilan yozish, dastlabki adabiy ijod tajribasini amalga oshirishi darkor[2.21]. Bu ishlar o‘quvchi shaxsini tarbiyalash va kamol toptirish, ona tiliga hurmat va muhabbat tuyg‘ularini singdirish, til didini — «til hissi»ni, yuksak nutq madaniyatini shakllantirish, «so‘z mahorati»ni rivojlantirish, bir so‘z bilan aytganda, nutqni amaliy o‘stirish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida o‘rganiladigan sintaktik qurilmalar sintaksisga doir mavzular shaklida «Ona tili» davlat ta'lim standarti va dasturida o‘z ifodasini topib kelmokda.

DTSda quyidagi bilimlar o‘z aksini topgan: gap va nutq; gapning fikr bildirish maqsadiga ko‘ra turlari (darak, so‘roq, buyruq va his-hayajonni bildiruvchi gaplar), gapning tuzilishi: ega va kesim, ikkinchi darajali bo‘laklar (ularning turi va nomlaridan mustasno); gapning uyushiq bo‘laklari, ularning o‘zaro bog‘lanishi; matn, uning tuzilishi; sarlavha, xat boshi, dialog, monolog gaplar[4.6].

Dasturda standart talablari to‘liq ifodasini topgan. Lekin unda undalma ham ko‘rsatilgan[5.28-31]. Tabiiyki, boshlang‘ich sinf uchun ona tilidan yaratilgan darsliklardagi matnlarda undalmali gaplar ko‘p uchragani bois ushbu mavzu dasturga to‘g‘ri kiritilgan. Shu munosabat bilan ta'lim mazmunida tinish belgilariga ham tegishlicha o‘rin ajratish lozim.

Sintaktik qurilmalar deganda gapning maqsadga ko‘ra turlari, gapning ega va kesim, ikkinchi darajali bo‘laklardan iborat bo‘lishi, uyushiq bo‘lakli gaplar, undalmali gaplar, dialogli gaplar qurilishi tushuniladi. Lekin ega va kesim, ikkinchi

darajali bo‘laklardan tuzilgan gaplar so‘roq so‘zlar, gapda so‘zlar mikdori hisobiga bir-biridan farqlanishi tabiiy. Bu borada A.Ergashevaning mazmundor va ta'sirchan gap tuzish haqidagi fikrlari e'tiborga loyiq. U bunday deydi: «...mazmundorlikni aniqlash alomatlaridan biri sifatida fikrning to‘laroq ifodalanishini, gapning uzunroq bo‘lishini olish, undagi ikkinchi darajali bo‘laklar miqdoriga e'tibor berish zarur. Ayniqsa, aniqlovchilar gapda ifodalanayotgan fikrning aniqroq bo‘lishi uchun xizmat qilib, shu orqali mazmunni boyitadi»[6.5-6]. Demak, o‘quvchilar tuzadigan gaplarning ulardagi gap bo‘laklari mikdorining izchil ortib borishi nutqning sintaktik qurilmalar hisobiga boyishida muhim o‘rin tutadi.

To‘g‘ri, boshlang‘ich sinflarda ikkinchi darajali bo‘laklarning turlari 4-sinfga kelib o‘rganiladi. Lekin bunga qadar ikkinchi darajali bo‘laklar so‘roqlariga ko‘ra ko‘rsatiladi. Demak, gapga kimning, nimaning, qanday, qayerga, qayerda, qayerdan, nechta, nechanchi va boshqa so‘roqlarga javob bo‘ladigan so‘zlarni kiritish orqali gapda ikkinchi darajali bo‘laklar qatnashtiriladi, miqdori ko‘paytiriladi.

Ona tilidan yaratilgan darsliklarning mashq topshiriqlarida «Matnda nechta gap bor?», «Gapda nechta so‘z bor?» kabi savollar tez-tez uchrab turadi. O‘qituvchi qo‘shimcha ravishda mazmundor gaplar ustidagi ishlarni amaliy tarzda tashkil etishi mumkin. Lekin, M.R.Lьvov ta'kidlaganidek, ish usullariga ko‘ra gaplar boshlang‘ich sinflarda ikki guruhga ajratilishi mumkin: sintaktik (nazariy) asosga ega bo‘lgan gaplar va bunday asosga ega bo‘lmagan gaplar[7.65].

Ushbu fikrni shunday tushunish lozimki, boshlang‘ich sinflarda sintaksis yuzasidan ma'lum bilimlar beriladi. Ana shu bilimlar asosida tashkil etiladigan gap tuzish mashqlari sintaktik (nazariy) asosga ega sanaladi. O‘tilmaydigan bilimlar doirasida ulardan foydalanmagan holda amaliy tashkil etiladigan ish turlari sintaktik (nazariy) asosga ega bo‘lmagan hisoblanadi.

1. Ан С.А., Белинова О.А. Концептуализация ценности как философской категории. // Вестник Кемеровского государственного университета. – Кемерово, 2014. – Вып. 1, № 2 (58). – С. 230-234.
2. Багаутдинова Г.А. Человек во фразеологии: антропоцентрический и аксиологический аспекты: Автореф. дисс ... докт. филол. наук. – Казань, 2007. – С. 46.
3. Болдырев Н.Н. Структура и принципы формирования оценочных категорий. // С любовью к языку: Сб. науч. тр. – Воронеж: Изд-во Воронежского государственного университета, 2002. – С. 103-114.
4. Гак В.Г. Актантная структура грехов и добродетелей. // Логический анализ языка. Языки этики. – М.: Языки русской культуры, 2000. – С. 90-96.
5. Мутушев А.А. Понятие ценности в системе философского знания. // Теория и практика общественного развития. – Краснодар, 2015. – №. 5. – С. 113-117.
6. Харченко Л.Н., Березовская О.В. Понятие «Ценность» в отечественной научной литературе: к постановке проблемы. // Вестник Иркутского государственного технического университета. – Иркутск, 2013. – № 5 (76). – С. 294-299.

ПОВЫШЕНИЕ УРОВНЯ ЖИЗНИ – ВЕЛЕНИЕ ВРЕМЕНИ

Урунбаева Юлдуз.Пирназаровна
доцент Самаркандского института экономики и сервиса

Аннотация: В статье обосновывается важной отличительной особенностью социально-рыночной экономики является то, что повышение уровня и качества жизни населения становится главной целью развития общества и индикатором зрелости производственных отношений.

Ключевые слова: уровень жизни населения, качество жизни, потребности, потребление, издержки потребления, благосостояние, сбережения населения, заработная плата, доходы населения, свободное время.

LIVING STANDARDS IS SOCIO - ECONOMIC NATURE

Annotating: The article explains the important feature of the social market economy is that the increase in the level and quality of life becomes the main goal of the development of society and an indicator of the maturity of industrial relations.

Key words: level being of population, quality of being, the high quality level of being, factors, prosperity, depositions of population, population incomes, minimum wage, faxes.

Уровень жизни, как экономическая категория, означает степень удовлетворения физических, духовных и социальных потребностей населения при помощи финансовых ресурсов, формируемых за счет централизованных и децентрализованных источников денежных средств. В общей системе благосостояния общества уровень жизни населения должен занять особое место, хотя его роль и значение должным образом, на наш взгляд, до сих пор не оценена. Возможно, одним из проявлений ограниченности и поэтапности проводимых реформ является невостребованность совокупности показателей уровня жизни населения. Уровень жизни служит важным социально – экономическим критерием при выборе направлений и приоритетов экономической и социальной политики государства. С одной стороны, уровень жизни определяется составом и величиной потребностей в различных жизненных благах (продукты питания, одежда, жилище, транспорт, различные коммунальные и бытовые услуги, образование, медицинское обслуживание, культурно-просветительные мероприятия и т.д.), с другой, возможностью их удовлетворения, исходя из предложений на рынке товаров и услуг и реальных доходов людей, их заработной платы или семейного бюджета. В свою очередь, бюджет семьи и уровень жизни населения определяются степенью эффективности производства на основе использования достижений научно – технического прогресса, масштабом развития и качеством сферы услуг, образовательным и культурным уровнем населения.

В научной литературе имеющиеся определения уровня жизни населения отталкиваются от различных исходных понятий: производства, потребления, доходов, стоимости жизни, потребительских нормативов и стандартов, или имеют комплексный многоаспектный характер.

Уместно отметить, что подход “от производства” был характерен до переходного периода. Здесь уровень жизни населения ставился в зависимость от уровня развития производительных сил, структуры и эффективности общественного производства.

Сегменты самым непосредственным образом влияют на формирование объема, характера и структуры общественных потребностей как основного фактора уровня жизни. Потребности при этом выступают в качестве непременных (неустранимых) и осознанных условий жизни людей, на достижение которых направлена их деятельность в сфере потребления.

Уровень жизни населения одна из фундаментальных категорий теоретической и прикладной экономики и ключевое слово, позволяющее вывести определение благосостояния и благополучия населения, ибо уровень жизни определяется с учетом потребностей населения на что – либо и с учетом этого критерия они разделяются на физиологические (пища, одежда, жилище) и социальные (образование, культура, искусство и др.).

С понятием «уровень жизни населения» тесно связан термин «качество жизни». В научной литературе он рассматривается с трех позиций:

Во-первых, эти категории переплетаются и находятся в тесной взаимосвязи друг с другом, выступая почти синонимами. Как известно, под уровнем жизни понимают обеспеченность населения необходимыми материальными благами и услугами, достигнутый уровень их потребления и степень удовлетворения разумных (рациональных) потребностей. В широком смысле понятие «уровень жизни населения» включает, как было отмечено, еще условия жизни, труда и занятости, быта и досуга, его здоровье, образование, природную среду обитания и т.д. В таком случае чаще всего употребляется термин «качество жизни».

Во-вторых, под качеством жизни понимается удовлетворенность населения своей жизнью с точки зрения различных потребностей и интересов. Это понятие охватывает характеристики и индикаторы уровня жизни как экономической категории, условия труда и отдыха, жилищные условия, социальную обеспеченность и гарантии, охрану правопорядка и соблюдение прав личности, природно-климатические условия, показатели сохранения окружающей среды, наличие свободного времени и возможности хорошо его использовать, наконец, объективные ощущения покоя, комфортности и стабильности. Это достаточно широкое толкование качества жизни.

В-третьих, термин «качество жизни» трактуется достаточно узко (например, в словосочетании «уровень и качество жизни населения»): он охватывает перечисленные факторы без собственно уровня жизни в его экономическом понимании (доходы, стоимость жизни, потребление).

Показатели, как «социальная обеспеченность», «условия труда и отдыха», «развитость социальной инфраструктуры сферы услуг» и другие

занимают промежуточное положение и могут рассматриваться и как показатели уровня, и как характеристики качества жизни.

Понятие «уровень жизни» и его анализ выявил основные составляющие уровня жизни населения, к которым относятся доходы населения и его социальное обеспечение, потребление им материальных и духовных благ и услуг, условия жизни и свободное время.

Условия жизни можно укрупнено разделить на условия труда, быта и отдыха.

Первое включает санитарно-гигиенические, психофизиологические, эстетические и социально-психологические условия.

Второе означает обеспеченность населения жильем, его качество, развитие сети бытового обслуживания (парикмахерских, ремонтных мастерских, прокатных пунктов и т.д.), состояние торговли и общественного питания, общественного транспорта, медицинское обслуживания.

Третье несомненно, связано с использованием свободного времени людей. Это – часть внерабочего времени, предназначенная для развития личности, более полного удовлетворения социальных, духовных и интеллектуальных ее потребностей.

Итак, уровень жизни населения определяется не только трудовыми усилиями и экономической активностью отдельных индивидуумов, семей, трудовых коллективов, но и эффективностью развития экономики и уровнем национального богатства в целом, состоянием и развитием социально -экономических отношений.

При разработке показателей[2], характеризующих фактический достигнутый уровень жизни населения страны в целом, с точки зрения его общественных групп, а также типов семей в зависимости от уровня дохода имеет важное значение, благодаря чему, можно выявить различия в уровне жизни населения в связи с экономическими, природно-климатическими, социальными и другими особенностями регионов.

При выявлении изменения уровня жизни населения необходимо исследовать:

-структуру, динамику и темпы изменения показателей доходов, расходов и потребления материальных, культурных и бытовых благ;

- дифференциацию населения по уровню доходов и потребления и влияние на нее различных социально- экономических факторов.

Большое внимание при этом целесообразно уделять исследованию изменения уровня жизни семьи.

При помощи анализа уровня жизни можно определить степень удовлетворения потребностей человека в материальных благах и различных

услугах в сопоставлении с рациональными нормами потребления. Эти нормы должны предусматривать такой уровень, количественную и качественную структуру потребления, которые обеспечивали бы человеку наиболее благоприятные условия развития его различных разумных физических и духовных потребностей.

Список литературы:

1. Yulduz P. Urunbaeva Increasing the impact of service sector on the living standards of population in innovative economy environment http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10387/5598 2020. 05.
2. Мухаммедов М.М., Ю.П.Урунбаева Аҳоли турмуш даражасини шакллантириш омиллари ва ошириш истиқболлари. Рисола. «Зарафшан», 2010.-131 б.
3. Урунбаева Ю. П. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва аҳоли турмуш даражаси: ўзаро боғлиқлиги ва ривожланиш истиқболлари. Монография.Тошкент.: «ФАН», 2013.- 156 б.

PRAGMATIK MA’NONING KONTEKSDA IFODALANISHI

MN-k-123 guruh talabasi
Abduraximov J
SamISI “Tillarni o‘qitish” kafedrasi
katta o‘qituvchisi Imamov.N.P

Annotatsiya: Ushbu maqolada matnda pragmatik ma'noning qanday qilib ifodalanishi doirasidagi bog‘liklik, o‘z navbatida vaqt-zamon va makon bog‘liqligini ta’minlanishiga e’tibor qaratiladi. Shu bog‘liqlik matnning pragmatik, grammatik, semantik uzviyligini ta’minlaydi. Matnni leksik va semantik tahlilining asosiy xususiyatlarini shakllantirishda matnini pragmatik, semantik muammosini hal qilish haqida ma’lumotlar berigan.

Annotation: This article focuses on how the context of pragmatic meaning is expressed in the text, and in turn, the connection between time and space is ensured. This connection ensures the pragmatic, grammatical, semantic integrity of the text. Information on solving the pragmatic and semantic problems of the text is given in forming the main features of the lexical and semantic analysis of the text.

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется тому, как в тексте выражается контекст прагматического смысла и, в свою очередь, обеспечивается связь времени и пространства. Эта связь обеспечивает прагматическую, грамматическую, смысловую целостность текста. Дана

информация по решению прагматических и семантических проблем текста при формировании основных особенностей лексико-семантического анализа текста.

Калит сўзлар: signifikativ ma’no, paremiologik text tahlili, pragmatik semantika, matnda atemporad ma’no.

Ключевые слова: взаимопересечение сигнификативного значения, паремиологический анализ текста, прагматическая семантика, текстовое атемпоральное значение, эксплицитно-экзортативная прагматическая модель.

Key words: interconnectivity significative values, paremiological text analysis, pragmatic semantics, text of temporal value, explicitly-ekzortativ pragmatic model.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.05.2021 yildagi PQ-5117-sonli qarorida yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, Xorijiy tillarni o‘rgatishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ta’lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining Xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirildi.

Hozirgi kunda barcha qarorgohlarida Xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yanada ortti. To‘g‘ri ayni paytda o‘zbek guruhlarida ta’lim olayotgan talabalarim Xorijiy tillarni o‘rganishdagi qiyinchiliklar ham mavjud. Zero bunga bir qancha sabablar ham bor aytaylik Ingliz va O‘zbek tillari bir-biriga qardosh bo‘lgan tillar emas. Shu tufayli ularning o‘rtasida grammatik, stilistik, pragmatik farqlar mavjud.

Bu barcha muammolar majmuasining hal qilinishini tilshunoslik til materialining harakteriga ega ekanligi, til va nutq, matnda ifodalanishi ularning o‘zaro munosabati va vazifalari til aloqalari haqidagi tushuncha bilan bog‘liqdir. Tilshunoslik yoki lingvistika tillarni u yoki bu kishilik jamiyatida qabul qilingan va muamola jarayonlarini amalga oshirish uchun bunday jamiyatlarga xizmat qiladigan ishoralar (kodlar) tizimlari sifatida o‘rganadi. Keying paytlarda tilshunoslik o‘zining yangi sohasi psixolingvistika bilan birga nutq faoliyatiga til kodlari (belgilari) yordamida ma’lumot uzatish va qabul qilish jarayoni sifatida e’tibor bera boshladi.

Matn doirasidagi bog‘liklik o‘z navbatida vaqt-zamon va makon bog‘liqligini ta’minlanishiga e’tibor qaratiladi. Shu bog‘liqlik matnning grammatik semantik uzviyligini ta’minlaydi.

Til kompitensiyasi gaplarning grammatik to‘g‘ri qurilishi va tushinish imkoniyatini aniqlaydi. Kommunikativ kompitensiya tushunchasi esa, ma’lum nutq vaziyatida turli tipdagi matnlarning to‘g‘ri qo‘llanilishiga o‘z e’tiborini qaratadi [1,

67]. Aniqlangan “gap doirasidan yuqori birliklar”, “gaplarning ketma-ketligi” kabi turlar har doim ham matn tushunchasini aniqlashda to‘g‘ri yo‘l hisoblanmaydi. Ular faqatgina matnning material tizimini, qurilishini aniqlash uchun xizmat qiladi. O‘z navbatida matnning ekstrolingvistik ko‘rsatgichlari, muloqat jarayonidagi qatnashuvchilarning o‘rni e’tibordan chetda qoladi. Bundan tashqari matnnning ma’no tarkibini “unutmagan” holda matn gaplardan tashkil topadi degan g‘oyadan ko‘ra matn gapda amalga oshadi degan fikr to‘g‘riroq tuyuladi [1, 9].

Sh.Safarov esa pragmatik nazariya so‘zlovchi va tinglovchilarning gap belgisining matnga propozitsiya bilan mos kelishi deb izohlaydi [2, 43]. Demak, matndagi ma’lumot ma’lum darajada tugal, davomli va shu kabi xususiyatlarda namayon bo‘ladi. Muallif ta’kidlashicha “Voqealikda kechayotgan hodisalar bayonida va ular haqida axbarot uzatishda uning kechish davri, paytini ko‘rsatish muhimdir. Bunday ko‘rsatish vazifasini zamon (vaqt) deyiksisi vositalari bajaradi” [2, 174]. Ushbu fikrga asoslanadigan bo‘lsak, zamon deyksisi vositalari nutq vaziyatidagi hodisa va jarayonlarning aniq kechimiga ishora vazifasini o‘taydi.

Matn o‘zining mikro va makro semantikasiga, shuningdek o‘z navbatida mikro hamda makro strukturasiga ega. Matn semantikasi ma’lumotning kommunikativ maqsadi bilan bog‘liq (matn-bir butun ma’lumot sifatida); matn strukturasi matndagi birliklarning ichki shakliy xususiyatlari va mazkur birliklarning bog‘lanishidagi qonuniyatlarida aniqlanadi.

Shunday qilib, pragmatika matn doirasidagi ko‘zlangan ma’nolarni o‘rganadi. Quyidagi misola so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi ma’no tushunmovchiligi pragmatik ma’noga misol bo‘la olishi mumkin

A: I saw Mr Ralf having dinner with a woman yesterday.

B: Really? Does his wife know about it?

A: Of course she does. She was the woman he was having dinner with.

Ushbu misoldagi Vning tushunmovchiligi pragmatik imprlakatura hisoblanadi. Bunda, tinglovchi deyktik refrensni qo‘llaydi. Quyidagi misolda esa, so‘zlovchining ‘my’ deyktik birligi ma’nonig tinglovchiga etkazilishi uchun qo‘llanilgan deyktik refrens bo‘lib xizmat qilgan.

A: I didn’t sleep with my wife before we were married, did you?

B: I don’t know. What was her maiden name?

Matn o‘zining mikro va makro semantikasiga, shuningdek o‘z navbatida mikro hamda makro strukturasiga ega. Matn semantikasi ma’lumotning kommunikativ maqsadi bilan bog‘liq (matn-bir butun ma’lumot sifatida); matn strukturasi matndagi birliklarning ichki shakliy xususiyatlari va mazkur birliklarning bog‘lanishidagi qonuniyatlarida aniqlanadi.

Matnning konstrkutiv belgilarida biri, bu uzviylik va bir butunlikdir. Ushbu xususiyatlar matnning mazmun va tarkibiy qismlarini aks ettiradi. Bundan tashqari

matn bog‘liqligida umumiy va xususiy turlari ham farqlanadi. Umumiy bog‘lanish matn mazmunini, bir butun ma’no sifatida o‘rgansa, xususiy bog‘lanishda gaplar, frazalarning bog‘lanishi nazarda tutiladi.

Umumiy bog‘lanish ma’lum kalit so‘zlar, tematik va konseptual mazmun orqali ifoda planiga ko‘chadi.

Adabiyotlar:

1. Гвенцадзе М.А. Коммуникативная лингвистика и типология текста. Тбилиси, 1986. С. 67.

2. Safarov Sh. Pragmalingvistika. “O‘zbekiston milliy ensklopediyasi”. Toshkent, 2008, 300 б.

BOSHQARUV PSIXOLOGIYA SOHASIGA OID TERMINOLOGIYANING QIYOSIY-LEKSIKOGRAFIK TADQIQI VA TARJIMA MUAMMOLARI

Norboyeva Dilafro‘z Jumaqulovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy boshqaruv psixologiya terminlarining chog‘ishtirma tahlili asosida ikki millat dunyoqarashi, psixologiyasining o‘ziga xosligi, ko‘plab xalqaro terminlarni o‘zbek tilida berish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Rus va o‘zbek tillari boshqaruv psixologiyasiga oid terminlari leksik-semantik xususiyatlaridagi farqlari, boshqaruv psixologiyasiga oid terminlarning boshqa sohaga oid terminlardan maxsus termin (va qisqartma)larga boyligi, so‘z qo‘llashdagi an’anaviylik va ayrim sintaktik iboralarni nisbatan ko‘proq ishlatilishi ta’kidlangan. O‘zbekistonda boshqaruv psixologiya terminologiyasi maxsus tadqiq qilinmagani bois psixologiya terminlari tahlili o‘zbek tilining qo‘llanish doirasini kengaytirish va tahlil qilish zarurligi ko‘rsatilgan.

Аннотация: Данная статья основана на сравнительном анализе терминов современной психологии управления, мировоззрения двух народов, специфики психологии, возможности приведения многих интернациональных терминов на узбекском языке. Различия в лексико-семантических особенностях русских и узбекских терминов, относящихся к психологии управления, богатство терминов, относящихся к психологии управления, от других отраслевых терминов до специфических терминов (и аббревиатур), традиционное использование слов и относительно большее использование некоторых синтаксических выражений. Поскольку терминология психологии

управления в Узбекистане специально не изучалась, анализ психологических терминов показывает необходимость расширения и анализа сферы использования узбекского языка

Annotation: This article is based on a comparative analysis of the terms of modern management psychology, the worldview of the two peoples, the specifics of psychology, the possibility of bringing many international terms in the Uzbek language. Differences in the lexico-semantic features of Russian and Uzbek terms related to management psychology, a wealth of terms related to management psychology, from other industry terms to specific terms (and abbreviations), traditional use of words and relatively greater use of some syntactic expressions. Since the terminology of management psychology in Uzbekistan has not been specifically studied, the analysis of psychological terms shows the need to expand and analyze the scope of the use of the Uzbek language.

Kalit so‘zlar: boshqaruv psixologiya, terminologiya, leksika, semantika, sintaktik ibora, chog‘ishtirma, xususiyat, soha, tadqiq

Ключевые слова: психология управления, терминология, лексика, семантика, синтаксическое выражение, сравнение, признак, отрасль

Keywords: management psychology, terminology, vocabulary, semantics, syntactic expression, comparison, feature, industry, study

Rahbar kadrlarni psixologik baholash, ularga zarur bo‘lgan xislatlar majmuasini ishlab chiqish, nomzodlarni to‘g‘ri tanlash masalalarini o‘rganish an’anasi ijtimoiy psixologiya sohasida mavjud. Bu sohada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning jiddiyligi hamda dolzarbligi – boshqaruv psixologiyasi deb ataluvchi mustaqil yo‘nalishning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Agar O‘zbekiston misolida olinadigan bo‘lsa, muomala an’analari, milliy qadriyatlarimiz, mentalitetimizning o‘ziga xos nodir qirralarini yo‘qotmagan holda jahon sivilizatsiyasining ta’sirlaridan, umuminsoniy qadriyatlardan xoli bo‘lmagan boshqaruvchilar qatlamini shakllantirish, ularning faoliyati orqali adolat, insoniylik va demokratiyaning asos-

larini insonlar ongi va shuuriga singdirish – davr talabidir [1,184]. SHunga ko‘ra, boshqaruv psixologiyasiga oid terminologiyani bugungi kunda keng tadqiq etish ehtiyoji mavjud.

O‘zbekistonda boshqaruv psixologiya terminologiyasi maxsus tadqiq qilinmagani bois psixologiya terminlari tahlili o‘zbek tilining qo‘llanish doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Innovatsion g‘oyalar rivojlanishi bilan yangi sohalarning terminologiyasi ham taraqqiy qilib boradi. SHunga ko‘ra taraqqiyot tamoyillariga asoslangan holda «eng avvalo, ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, uning tarixiy ildizlarini chuqur o‘rganish va ilmiy asosda har

tomonlama rivojlantirish bugungi kunda o‘ta dolzarb masalaga aylanmoqda» [2,78].

Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lug‘aviy qatlamlaridagi o‘rni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun –mohiyatini to‘g‘ri anglash imkonini beradi. Terminologiyaga bag‘ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, difenitsiyaga ega bo‘lgan va asosan, nominativ funksiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi. A. Reformatskiy terminga ta’rif berar ekan, “... terminlar – bu maxsus so‘zlardir “[3,165] degan xulosaga keladi.

Jahon tilshunosligida rahbar psixologiya terminlarining tadqiq va tahlili bo‘yicha E.V.Juchkova, A.M.Klyoster, I.Yu.Savostyanova, G.N.Xaybulina kabi olimlar muayyan ishlarni amalga oshirishgan. O‘zbekistonda psixologiya terminlari tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar sifatida psixolog L.Tursunov, E.G‘ozievlarning asarlarini keltirish mumkin[4,125] .

Boshqaruv psixologiya sohasiga oid terminlarning boshqa sohaga oid terminlardan maxsus termin (va qisqartma)larga boyligi, so‘z qo‘llashdagi an’anaviylik va ayrim sintaktik iboralarni nisbatan ko‘proq ishlatilishi bilan ajralib turadi. Biror matn (ayniqsa rahbar psixologiyasiga oid matn)da maxsus terminlarning qo‘p miqdorda bo‘lishi, ayniqsa yaqinda yangitdan paydo bo‘lganlari (neologizmlar) va hali lug‘atlarda qayt etilib ulgurmaganlari, masalan, “delegirovanie polnomochiy ” (boshliq tomonidan majburiyatlarni to‘g‘ri taqsimlash) termini amaliyotda sezilarli qiyinchiliklarga olib keldi [5,188]. Boshqaruv psixologiya sohasining bu qadar yangi terminlarga boyligi terminlar til lug‘at tarkibining tabiatan harakatchan qatlami ekanligi bilan izohlanadi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tili boshqaruv psixologiya terminologiyasida XX asrning boshlarida o‘zlashgan terminlar hamon qo‘llanib kelmoqda. Masalan, «Psixologiya. Qisqacha izohli lug‘at» asosida o‘zlashma terminlar xususida muayyan fikrlarni bildirish mumkin.

O‘zbek tili boshqaruv psixologiya terminologiyasida ko‘pgina terminlar to‘liq kalka yo‘li bilan hosil qilingan: boshqaruv (<управление), jamoa (<коллектив), martaba, mavqe (<карьера), kasb (<профессия) va h.k. Yarim kalka yo‘li bilan yasama terminlar ham, birikma terminlar ham hosil bo‘lgan: kommunikativ kompetensiya (<коммуникативная компетенция), kadrlarni boshqarish (<upravlenie kadrami), labillik (<лабильность); kasbiy karyera (<профессиональная карьера), rahbar psixologiyasi (<управленческая психология).

O‘zbek tili psixologiya terminologiyasida fors-tojikcha leksik qatlam kamchilikni tashkil etadi. Quyidagilar shunday leksema (termin)lar jumlasidandir:

bardosh, bedor, bejo, ziyrak, mehr, nayrang, xafa, xursand va h.k. O‘zbek tili psixologiya terminologiyasining bir qismini arab tilidan o‘zlashtirilgan terminlar tashkil etadi. Dalillarga murojaat qilamiz: diqqat, faoliyat, tahlil, tahqir.

Terminlar aniq tushunchalarni va mavjud bo‘lgan narsalarning aniq nomlarini ifodalashi kerak va boshqaruv psixologiyasiga oid sohasi vakillari orasida aniq bir ma’noda ishlatilishi lozim. Shu sababli ushbu terminlarga talab yuqori. Avvalambor, termin aniq bo‘lishi, ya’ni aniq bir ma’noga ega bo‘lishi kerak. O‘sha ma’no boshqaruv psixologiyasida qo‘llanilganda mantiqiy aniqlash yo‘li orqali tushunilishi lozim[7,163].

Boshqaruv psixologiya terminologiyasi tillarning ichki imkoniyatlari hamda tashqi imkoniyatlar, ya’ni so‘z o‘zlashtirish asosida shakllangan va rivojlangan. Terminlarning ichki imkoniyatlar asosida shakllanishida har ikki til uchun umumadabiy tildagi so‘zlarning terminlashishi xarakterlidir.

Demak, o‘zbek tili boshqaruv psixologiya terminologiyasi boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish darajasining yuqori ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu tilda terminni to‘g‘ridan-to‘g‘ri, yarim kalka va to‘la kalka usullari bilan o‘zlashtirish etakchilik qiladi. Rus tilining boshqaruv psixologiya terminologiyasida yunon, lotin, fransuz, ingliz tillaridan termin o‘zlashtirish, ularga ruscha qo‘shimchalarni qo‘shish kuchli. O‘zbek tili psixologiya terminologiyasida ruscha-baynalmilal o‘zlashmalar, fors-tojikcha o‘zlashmalar va arabcha o‘zlashmalar keng qo‘llaniladi.

Shunday qilib, boshqaruv psixologiya sohasiga xos xususiyatlarini inobatga olgan xolda matn, terminologik va izohli lug‘atlar o‘stida ishlashni takomillashtirish zarur. Haqiqatdan ham, terminlarga munosabatda soha mutaxassislari va terminshunos olimlar hamkorlikda ish olib borib, o‘zgartirilayotgan yoki almashtirilayotgan terminlarning sodda, ixcham, eng muhimi, xalqqa tushunarli bo‘lishini ta’minlashsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Hayitov O.E., Djalalova S.M. Boshqaruv psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma.. – T.: TDIU, 2008. – 184 b.

2.G‘oziev E., Tursunov L. Psixologiyada mukammal lug‘at tuzish xususiyatlari (universitetlarning talabalari uchun o‘quv qo‘llanma). –T., 2005. – 78 b.

3,Реформатский А. О некоторых явлениях словообразования в русской терминологии // Труды МИФЛИ. Т.У. 1999. - 165с.

4.Хайбулина Г.Н. Структурно–семантические особенности психологической терминологии в современном русском языке: Автореф. дисс...канд. филол. наук . –Уфа, 2012.–27 с

5.Ergasheva G.Q. O‘zbek va rus tillarida psixologiyaga oid terminlarning yasalish xususiyatlari // Ta’lim tizimida ijtimoiy gumanitar fanlar.– Toshkent, 2011. – № 3-4. –B. 125-129 (10.00.00 № 16).

6.Салимова Т.А. История управления качеством: Учебное пособие.–М.: КНОРУС, 2005. 188с.

7.Мусаев К. М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. – М., 2016. - 163с.

FLIPPED CLASSROOM: ENHANCING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES (ESP) STUDENTS

Borasheva Aybolgan Tugelbaevna
PhD Student
Nukus State Pedagogical Institute
a.borasheva@ndpi.uz

Abstract: This article explores the integration of the Flipped Classroom model in English for Specific Purposes (ESP) courses as a means to enhance students' communicative competence. The article discusses the concept of communicative competence and how it can be activated through various classroom activities. It also argues for the use of Flipped Classroom in ESP courses, highlighting its benefits and addressing potential challenges in its implementation. Furthermore, the article emphasizes the role of technology, specifically Learning Management Systems (LMS) and mobile applications, in facilitating the Flipped Classroom approach. Through a flipped classroom, students are given the opportunity to engage in active and meaningful communication, leading to the development of their language skills and autonomy.

Key Words: Flipped Classroom, Communicative Competence, English for Specific Purposes, Technology, Learning Management Systems, Mobile Applications, Active Communication, Language Skills, Autonomy.

Modern information technologies require higher educational institutions to introduce new approaches to training, ensuring the development of communicative, creative and professional knowledge, and the needs for self-education. The introduction of information technology in the educational process of the university is moving to a new stage - the introduction of new multimedia educational materials. However, many teachers struggle with the questions whether to integrate technology

into the course or not. First, we should keep in mind the accessibility of technology to the students taking into account this point teacher can decide when, how to integrate the technology and it in return to give better results.

So, let's look at what communicative competence is, what it does cover and how it functions. As it is explained in British Council website the Communicative competence refers to a learner's ability to use language to communicate successfully[2]. And one more definition of Communicative competence that it is a term in linguistics which refers to a language user's grammatical knowledge of syntax, morphology, phonology and the like, as well as social knowledge about how and when to use utterances appropriately[1].

In order to activate those components teachers use different activities to evaluate students progress in enhancing communicative competence. From my point of perspective would recommend for English teachers of ESP (English for Specific Purposes) students to approach this of assisting students to improve communicative competence from the angle of Flipped Classroom. As we can see communicative competence embrace complex elements during the lesson we may observe the elements being not used or inactive due to the students low level of language knowledge which lead to many obstacles of students being passive and unengaged during the lesson.

So you may ask why Flipped Classroom. To start to answer this question I would like to reveal the most of teachers believe regarding ESP students. It is known that ESP students may have low language ability due to being not interested in acquiring the foreign language or finding the learning process difficult. Teacher have to make the learning process more entertaining so students would feel more confident and relaxed during the lesson. That means we need to give an opportunity for learners to be more active. Moreover, if learners want to learn language they "have to talk in order to learn"[3]. The updated student standard contains many requirements that are relevant to teaching in a flipped classroom. Some of them are listed below:

- Students should use technological tools in the learning process and also "personalize the learning space to deepen knowledge".
- Students must understand the specifics of learning in the digital world and act only in safe and legal ways.
- When studying the material, the student must think critically.
- It is important not only to study existing materials, but also to be able to "solve problems by creating new solutions".
- It is the inverted class model that allows the most efficient implementation of these requirements[7].

The flipped classroom is often confused with distance education. The difference lies on the surface - the time of classroom work "face to face" remains unchanged, only its content changes fundamentally.

Other critics of the flipped class argue that this model degrades the traditional aspect of education due to the inability to promptly ask the lecturer questions. The defenders of the model respond that the need for such questions is reduced by additional features that arise when using the LMS:

• an incomprehensible place of a video lecture can be reviewed as many times as you like; you can refer to the FAQ (Frequently Asked Questions);

• you can ask questions to other students using the discussion module in the LMS (here the mechanisms of social theory of cognition are additionally included);

• You can send questions to the teacher via the embedded email for clarification in an upcoming class session.

Flipped Classroom can be considered as unique model which creates conditions for students to feel more confident during the class. In a flipped classroom, lectures are removed, and the removed content is often delivered to students through pre-class input materials like video recordings. Students can study various types of materials (e.g., readings from a textbook and worksheets developed by their teacher) on their own outside of class time and grasp the meaning of the content [4]. Flipped classroom in which the direct transfer of knowledge is moved from the group educational space to the individual one, and the group learning space is transformed into a dynamic interactive environment. In it, the teacher takes on the roles of a facilitator, mentor, tutor, consultant and helps students to apply the theory learned in practice, to develop skills and reflect on the subject for further independent learning and development[5]. As we can see Flipped classroom gives an opportunity for students to get acquainted with the material so students know how to answer the teacher's questions or the material may lead to new questions, to awaken curiosity, to develop autonomy.

Flipped teaching mode is the product of the combination of teaching and modern information technology which effectively combines physical classroom with virtual classroom. The pre-class material can be created by teachers themselves however they are not obliged to do so. As Internet is a huge sources to find suitable material for students it can be not only videos but also handouts, PowerPoint presentations, books etc. any material which contain the information. The students study this material and come to class being aware what will happen during the lesson. One more question may emerge here of how to deliver the material.[4]

Nowadays the mobile telephone is one necessity not only to make distances closer but it can be used for educational purposes too. The cloud-based instant messaging and voice over IP service Telegram is the most popular messenger app in Uzbekistan, it actually leads the world in the number of users of Telegram[6], and a popular smart phone application among students. And institution LMS platform like Moodle, Canvas or anyone can create their own virtual classroom using Google Classroom. The benefits of integration of LMS such as Google Classroom is that it .....frees the instructor from learning HTML or any other underlying web technology.....as well as have become popular because they provide an easy-to-use template system for managing course-related tasks such as scheduling, making assignments, distributing documents, giving online quizzes, and keeping track of grades.

The integration of technology gives more chances for students to broaden their knowledge to find answers to their questions and when the time comes to come to the classroom they have an opportunity to ask their teacher. As above we mentioned about the elements of communicative competence to use language to communicate successfully on the grammar base of syntax, morphology, phonology and as well as social knowledge about how and when to use utterances appropriately. Students will communicate successfully when they have something to say and when they do know what to say. Flipped Classroom provide students with chances; chances to express their ideas, chances to question something, chances to ask, chances to clarify, chances to think and chances to communicate. Any method or approach may have its pros and cons, only through experimenting the teachers can find answers to their questions of how. Despite of primary implementation issues Flipped Classroom is worth integration into university syllabus. When students are provided with opportunities to communicate, only in this case the communicative competence can enhance.

Sources:

1. Wikipedia contributors. (2021, January 2). Communicative competence. In *Wikipedia, The Free Encyclopedia*. Retrieved 18:27, February 3, 2021, from https://en.wikipedia.org/w/index.php?title=Communicative_competence&oldid=997799996

2. https://www.teachingenglish.org.uk/article/communicative-competence

3. MacIntyre, P.D., Dörnyei, Z., Clément, R., & Noels, K.A. (1998). Conceptualizing Willingness to Communicate in a L2: A Situational Model of L2 Confidence and Affiliation.

4. Lee, G., Wallace, A. (2017) Flipped Learning in the English as a Foreign Language Classroom: Outcomes and Perceptions. TESOL QUARTERLY Vol. 52, No. 1, March 2018

5. Bergmann, J., & Sams, A. (2012). *Flip your classroom: Reach every student in every class every day*. International Society for Technology in Education.

6. Sevitt, D. (2017, February 27). *The most popular messaging apps by country*. Similar Web Blog. Retrieved from https://www.similarweb.com/blog/popular-messaging-apps-by-country

7. https://www.ispring.ru/elearning-insights/perevernutyi-klass-tekhnologiya-obucheniya-21-veka

TIL TARIXI VA UNING HOZIRGI KUNDAGI O‘RNI

CHDPU O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Choriyeva Gulchehra Umbar qizi

Annotatsiya: Ushbu tezisda ona tilimiz bo’lmish o’zbek tilining tarixi,rivojlanish jarayonlari va uni o’qitishning afzalliklari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili , turkum, adabiy til,og’zaki ijod, qadimgi xalq, o’zbekcha so’zlar,

O‘zbek tili (O‘zbekcha yoki Turkiy O‘zbekcha) — Oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi tildir. Ushbu til O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq davlat tili hisoblanadi. Davlat tili haqidagi Qonun 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan. 1995-yil 21-dekabrda takomillashtirildi.O’zbek adabiy tili tarixi quyidagi davrlarni o’z ichiga oladi:

Miloddan oldingi davrlardan to X asrlargacha bo’lgan davr. Bu davrdagi tilida qadimgi turkiy til deb yuritiladi. Qadimgi xalq og’zaki ijodi namunalari,O’rxun-Enasoy yodgorliklari (VI-VII asrlar) shu tilda yaratilgan. XI-XIV asrlarda amalda bo’lgan til eski turkiy til deb ataladi. Mahmud Qoshg’ariyning «Devonu-lug’atit-turk» («Turk tillari devoni»), Yusuf XosHojibning «Qutadg’u bilig» («Saodatga yo’llovchi bilim»), Ahmad Yugnakiyning«Hibatul haqoyiq» («Haqiqatlar armug’oni»), Xorazmiyning «Muhabbatnoma»,Rabg’uziyning «Qissai Rabg’uziy» asarlari shu tilda yaratilgan.

XV asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha qo’llangan til eski o’zbek adabiy tili deb nomlangan. Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Alisher Navoiy,Bobur, Mashrab, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqako’plab ijodkorlarning asarlari shu tilda yaratilgan.XIX asrning ikkinchi yarmidan hozirgi

davrgacha ishlatib kelayotgan tilhozirgi o’zbek adabiy tili deb ataladi. «Turkiston viloyati gazeti» nashr qilina boshlagan vaqtdan (1870-yildan) e’tiboran to hozirgi kungacha yaratilgan barcha asarlar hozirgi o’zbek adabiy tilining namunalari hisoblanadi.

O‘zbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllana boshladi vaXIII asrda eski o’zbek adabiy tili shakllanib bo’ldi. Eski o’zbek tilining rivojibuyuk Alisher Navoiyning nomi bilan bog’liqdir. U eski o’zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda ajoyib asarlar yaratibgina qolmasdan, bu tilniilmiy jihatdan chuqur tadqiq qiluvchi „Muhokamat-ul-lug’atayn“ nomli yirik ilmiy asar ham yozdi va unda o’zbek tilining boshqa tillardan hech kam emasligini ishonarli misollar bilan isbotlab berdi.Hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘at tarkibi asosan, 5 manba negizida tashkil topgan :
1. umumturkiy so’zlar.2. o‘zbekcha so‘zlar3. fors-tojikcha so‘zlar.4. arabcha so‘zlar.5. ruscha so‘zlar.
O‘zbekcha so‘zlar o‘zbek tili sharoitida, o‘zbek tili yoki boshqa til elementlari yordamida ko‘pgina so‘zlar yaratilgan. Masalan: ishxona, so‘roq,ulfatchilik, bog‘dorchilik… Fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlar hozirgi o‘zbek tilida tubandagi kabi so‘zlar bor. Ular dasturxon, chiroq, parda, marvarid, marjon…
Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar. Arab so‘zlari o‘zbek tiliga VII-VIIIasrlardan boshlab kiradi. Bu hol arablarning shu davrda O‘rta Osiyoni jabt etishlari bilan bog‘liq. Hozirgi o‘zbek tilida arab tilidan kirgan quyidagi kabi so‘zlar mavjud: kasb, mehnat, hayvon, ittifoq, millat… Arab so‘zlari birinchidan, kitob, madrasa, din, davlat tuzimi orqali kirgan. Ikkinchidan, Eroni tillar orqali kirgan.Uni masalan arab so‘zlariga tojikcha morfemalar qo‘shib yasalgan. Masalan:darxaqiqat, mansabdor, mulkdor, baquvvat… kabi so‘zlardan bilsa bo‘ladi.

Rus tilidan o‘zlashgan so‘zlar. O‘zbek milliy tilining shakillanishi varivojlanishida rus millatining tili g‘oyat katta rol o‘ynaydi. Rus xalqi bilan o‘zbek xalqi orasidagi yaqin aloqa, ayniqsa ruslarning iqtisodiy va madaniy ta’siri rus tilidan ruscha va yevropa tillariga oid so‘zlarning o‘zbek tiliga kirishiga sabab bo‘lgan. Rus tilidan o‘zlashgan so‘zlar: fabrika, gimnaziya, doktor, shapka…

Til – millatning ma'naviy boyligidir. Til nafaqat muammola vositasi – balkixalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir.Lingvist olimlarning fikricha, yana 25 yildan so’ng xozir muamolada bo’lgan tillarning o’ntasidan bittasi saqlanib qolar ekan.Bugungi kunda dunyoda 6809 ta til mavjud bo’lib, ularning teng yarmi sakkizta davlat – Meksika, Indoneziya, Kamerun, Braziliya, Hindiston, Xitoy, AQSh va Rossiya xissasiga to’g‘ri keladi. Eng ko’p tilli mamlakat sifatida Hindiston tan olinadi. Bu mamlakatda axoli 845 til va laxjada

so’zlashadi. Ikkinchi o’rinda esa 600ta til va shevada so’zlashuvchi Papua — Yangi Gvineya turadi.
Sayyoramizda eng ko’p aholi so’zlashadigan til sifatida xitoy, ingliz va ispan tillaritan olingan. Birinchi o’nlikka hindi, bengal, arab, portugal, nemets, rus va yapon tillari ham kiritilgan. Jaxon tillarining atigi 4 foizi Yevropa qitasiga to’g‘ri kelsada, eng ko’p so’zlashuvchi tillarning teng yarmi “ko’hna qita”da ekani ma'lum bo‘ldi.

Qadimda xalqlar o’z turar joylaridan majburan ko’chirilganlari bois ular boshqa mintaqalarda so’zlashuvchi xalqlar bilan qorishib ketib, ularni tillarini o’zlashtirishga majbur bo’lgan. Lotin Amerikasidagi ayrim xalqlar esa alkogol vagiyoxvand moddalar iste'moli tufayli yo’q bo’lib ketgan. Endilikda esa kichik bir xalq yoshlarining kelajagi porloq sifatida ko’riladigan ikkinchi xalq tilidan foydalanishga urinayotgani bois tillar yo’qolmoqda.
Qachonki bolalar o’z ona tillarida o’qishni to’xtatar ekan, o’sha til yo’qolib ketish arafasiga kelib qoladi. Tillarni saqlab qolish bu o’sha xalqning madaniyati,urf-odati, rasm-rusumlarining saqlanib qolinishini anglatadi. Chunki, xalq taqdiri til taqdiri bilan bevosita bog‘liq. Til har bir millat madaniyatining o’zagidir. Shu sababli ham tilning saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o’qitadi, urf-odat, ananalarini saqlaydi. Shunday ekan,ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro’-e'tiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo’shishda har birimiz tilimizga chuqur hurmat bilan yondashimiz kerak.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tili / Ra’no Sayullayeva . - Toshkent. 2009
2. T.F. Shodiyev " Ona tili" Toshkent . 2017.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
4. Xalq so’zi», 2001 yil, 25 oktyabr
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/O’zbek_tili.
6. http://uza.uz/uz/politics/prezident-shavkat-mirziyoyevning-o‘zbek tiliga davlat tili m.- 21- 10- 2019.
7. Tursunov U ., O‘rinboyev B., Aliyev A. O‘zbek adabiy tili tarixi . - Toshkent: " O‘qituvchi" , 1995.

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA YAXSHILIK VA YOMONLIK SEMANTIK MAYDONI OPPOZITSIYASI

D.J.Islomova
BuxDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi,
@islomva.durdona
H.A. Ubaydova
BuxDPI o‘qituvchisi,
hulkarbegim@ubaydova

Annotasiya: O‘zbek xalq og‘zaki ijodining bir qismi bo‘lgan maqollarni tahlil etishda asosiy ko‘zga ko‘rinadigan leksik-semantik munosabatlardan biri antonimiya hodisasidir. Antonimiya hodisasining maqollarda qo‘llanilishi so‘zlovchi nutqining ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi. Ushbu maqolada maqollarning semantik strukturasiga to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, yaxshi hamda yomon semantik maydoning paremalar tarkibidagi ayrim xususiyatlari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: maqol, leksik-semantik munosabat, leksema, semantik maydon, nutq, lison, bo‘yoqdorlik, yaxshilik, yomonlik, antonimiya.

O‘zbek xalq maqollari tarkibida uslubiy vazifa bajarish, konteks orqali ifodalangan mazmunni oshirish maqsadida leksik-semantik munosabatlar keng qo‘llaniladi. Shunday munosabatlardan biri antonimik munosabatdir. Antonimimiya maqollar tarkibidagi leksemalarda qo‘llanilish jihatidan olib qaraganda, keng qamrovli hodisa hisoblanadi. O‘zbek xalq maqollari tarkibida antonimik munosabatni yuzaga chiqaruvchi leksemalarning ma’no va tuzilish jihatdan umumiy va farqlovchi jihatlari ko‘zga tashlanadi. Leksemalardagi antonimik munosabat o‘zbek xalq maqollarining mazmun jihatdan bo‘yoqdor, ta’sirchan bo‘lishini va ifodaviylik kasb etishini taqozo etadi. Maqollarda antonimik munosabatni yuzaga chiqaruvchi yaxshilik va yomonlik, saxiylik va baxillik, rostgo‘ylik va yolg‘onchilik, do‘st va dushman, halol va harom, manmanlik va kamtarlik, tog‘rilik va egrilik kabi semantik maydonlarni uchratish mumkin. Bunday leksemalar lisonda yagona ma’no anglatsa-da, nutq jarayonida, xususan, maqollar tarkibida turli xil mazmun ifodalashga xizmat qilgan. Jumladan, mazkur hodisani *yaxshi* va *yomon* leksemalari orqali ko‘rib o‘tish mumkin.

Yaxshi leksemsi 5 jildlik o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha talqin qilinadi:

1. Ijobiy sifatga ega bo‘lgan, biror talabga javob beradigan, kishiga yoqadigan, talabga javob beradigan ma’qul bo‘ladigan.

Yaxshi so‘z – jon o‘zi,

Yomon so‘z – bosh qozig‘i.

2. Rozilik, ma’qullash ma’nosini bildiradi: xo‘p bo‘ladi, durust, ma’qul. *Yaxshi hozir yetib boraman.*

Yomon leksemasi esa quyidagicha izohlanadi:

1. Sifati past, sifatsiz. *Yomon chit.*

2. Biror ishni eplay olmaydigan, uquvsiz, tajribasiz. *Yomon xodim.*

3. Axloqsiz, fe’l-atvori yaramas, buzuq. *Yomon kishi ekansiz-ku. (Said Ahmad, Ufq).*

4. Og‘ir, xatarli. *Homidning yarasi yomon, hushsiz holda hiqillab yotibdi.*

5. Ayb, gunoh. *Hoy, do‘stim, birovning do‘ppisini birovga uddalab kiygazish yomonmi? (Shukrullo, Saylanma).*

6. Notinch, behalovat. *Bugun Ahmad yomon uxladi. (F. Musajonov, Himmat).*

7. Noxush, yoqimsiz. *Yomon xabarning qanoti yengil bo‘ladi.* (*J. Abdullaxonov, Oriyat).*

8. Xavfli, xatarli, falokat keltiruvchi. *Kalladan qora xayollarni quvish kerak, tushkunlik eng yomon dushman. (F. Musajonov, Himmat).*

9. Salbiy, yoqimsiz; bexosiyat. *Kuchli shovqin ishlovchilarning mehnat unumdorligini pasaytiradi, asabga yomon tegadi. (Fan va turmush).*

10. Nosog‘lom, kasal, lanj. *Hech qayerim jiddiy lat yemagan bo‘lsa ham, o‘zimni yomon his qilyapman. (O. Mo‘minov, Xiyobondagi uchrashuv).*

11. Ayyor, makkor, quv. *Ona yomon,bir narsaga kirishsa qo‘ymaydi. (O‘. Hoshimov, Qalbingga quloq tut).*

12. O‘quv-o‘qituv ishlarida eng past baho. *Maktabda yomon baho olsam yo maktabga bormasam, butun maktab oyoqqa turardi. (S. Siyoyev, Yorug‘lik).*

14. Qattiq, kuchli, nihoyatda. *Inoyat oqsoqol uni ko‘pchilik oldida yomon haqorat qilgan e. (Said Ahmad, Ufq).*

Umuman olganda, yaxshilik va yomonlik xususidagi qarashlar nisbiydir. Bu bordagi tushunchalar mental, gender, zamon va makon hatto shaxsiy xususiyatlardan kelib chiqib turlicha talqin qilinishi mumkin. Masalan, aksariyat o‘zbek millati vakillari uchun yaxshi fazilatlar sifatida kamtarlik, ochiqko‘ngillilik, mardlik, halollik, insoflilik, adolatlilik, rotgo‘ylik e’tirof etilsa, yomon xislatlar sifatida yolg‘onchilik, pastkashlik, munofiqlik, behayolik, rahmsizlik, nomardlik, xiyonat

kabilar sanab o‘tiladi. Biz uchun qadrli deb bilingan mazkur xususiyalar millati, yashash tarzi va joyi, yosh xususiyatlaridan kelib chiqib kim uchundir umuman ahamiyat kasb etmasligi mumkin. Maqol va matallar xalq mulki, millat ma’naviy qiyofasining ko‘zgusi o‘laroq, kishilarning yaxshilik va yomonlik borasidagi qarashlarini o‘zida yorqin aks ettirishi bilan ahamiyatlidir. Quyidagi xalq maqollari misolida ularning ayrim semantik xususiyatlarini ko‘rib o‘tamiz.

“Yaxshi rahbar elni o‘ylar, Yomon rahbar hovli bo‘ylar” maqolida *yaxshi* va *yomon* leksemalari *rahbar* leksemasi bilan birlashib so‘z birikmasini hosil qilgan va rahbarning xususiyatini ko‘rsatish orqali uning *halloligini* ta’kidlagan. Ya’ni maqol tarkibida *yaxshi* leksemasi orqali *xalq g‘amini yeyish, halollik; yomon* leksemasi orqali *xudbinlik, o‘zbo‘larmonlik* semalari ifodalangan.

“Yomon baxil bo‘lar, Yaxshi – anil” maqolida *yaxshi* leksemasi *saxiylik; yomon* leksemasi *baxillik* tushunchalarini yoritishga xizmat qilgan. “Yomon farzand ota-onani yerga qaratar, Yaxshi farzand ota-onani elga oralatar” maqolida esa yaxshi va yomon leksemalari farzandning xususiyatini bildirib kelgan hamda *yaxshilik* deganda, *faxrlantirmoq, nomini yoymoq* nazarda tutilgan bo‘lsa, *yomonlik* deganda, *yuzini yerga qaratmoq, izza qilmoq* ma’nolari ifodalangan. “Yomon xotin yomon kunda qochar, Yaxshi kunda kelib bag‘rin ochar” maqolida kunning sifatiga urg‘u berish orqali “*xotin*” obrazining xarakteri ochib berilgan. Mazkur maqolning o‘ziga xosligi shundaki, yomon xotinga xos bo‘lgan xususiyatlarga to‘xtalish orqali yaxshi ayol qanday bo‘lishi kerakligiga urg‘u berilgan. Ya’ni *yaxshilik* deganda *quvonchli kunda ham, qayg‘uli kunda ham yelkadosh bo‘la olish* nazarda tutilgan. Bu orqali *yaxshilik* semantik maydoni doirasiga *sabrli bo‘lish, vafodorlik* kabi semantik uyalar birlashgan bo‘lsa, *yomonlik* semantik maydoniga esa *sabrsizlik, hayotga yengil qarash, xudbinlik* kabilar kiritilgan.

Ko‘rinadiki, mazkur xalq maqollarida yaxshi hamda yomon leksemalarining izohli lug‘atda qayd etilmagan hosila ma’nolari namoyon bo‘lmoqda. Xalq maqollarini uslubiy jihatdan o‘rganishda leksik-semantik munosabatlar asosiy o‘rin tutadi. Ularni yuzaga keltirgan birliklar o‘zi hosil qilgan semantik maydon ichida turli xil mazmun planiga ega bo‘lishi mumkin. Leksema nutq talabiga ko‘ra turli ma’no qirralarini namoyon etib borishi mumkin. Uning mazmun planini izohli lug‘atda keltirilgan semalar bilangina cheklab qo‘yish, til imkoniyatlarining to‘la namoyon bo‘lmasligiga olib keladi. Bu jihatdan paremialogik birliklar tayyor nutq materiali sifatida til boyliklarini yaqqol nayon etuvchi vositalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2005. – 257 b. – 4 b.

2. Raxmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1980. – 230 b.

3. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома: Ўзб. мақолларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзб. Совет Энсклопедияси Бош редаксияси, 1990. – 528 б. 2.51.

4. Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. – Т.: Фан, 1977. – 153 б.

5. https://cyberleninka.ru/article/n/etnik-psixologiya-va-milliy-psixologik-qiyofa.

IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Ik-622 guruh talabalari ***Bekmuradov D., Xalikov U.***
Kamilova N.A. *SamISI*
“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashing ahamiyati, unga ta’sir etuvchi omillar va taraqqiyot strategiyasining asosiy ko‘rsatkichi sifatida olinganligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, iqtisodiy xavfsizlik, jahon bozori, raqobat, mehnat resurslari**.**

Hozirgi davrdagi globallashuv sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash uchun quyidagilar taqozo etiladi: birinchidan, jahon xo‘jalik aloqalarida ishtirok etib, milliy ishlab chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratish; ikkinchidan, jahonda sodir bo‘layotgan iqtisodiy, siyosiy noxush hodisalar salbiy oqibatlarining milliy iqtisodiyotga ta‘sirini kamaytirishga erishish.

Alohida ta‘kidlash joizki, ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi tahdidlar ta‘sirini butunlay yo‘q qilish, unga barham berish mumkin emas. Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

1) eksport tarkibidagi xomashyo tovarlarining ustuvorligi, an‘anaviy mashinasozlik va harbiy sanoat tovarlar bozorlarining yo‘qotilishi;

2) mamlakatning ko‘p turdagi mahsulotlar, shu jumladan, strategik ahamiyatdagi va oziq-ovqat mahsulotlari importiga qaramligi;

3) eksport va valyuta nazoratining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, bojxona chegaralarining ochiqligi;

4) raqobatga bardoshli eksportni qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy, tashkiliy va axborot infratuzilmalarning rivojlanganligi hamda import tarkibining samarali emasligi;

5) eksport-import operatsiyalariga xizmat ko‘rsatuvchi transport infratuzilmalarining rivoj topmaganligi;

6) ilmiy salohiyat oqimi;

7) kapital oqimi;

8) tashqi qarzlarning o‘sishi;

9) tijorat va iste‘mol mollari bo‘yicha import qaramlikning ortishi; 10) iqtisodiyotning haddan tashqari ochiqligi;

11) milliy tovarlarni ichki va tashqi bozorlardan siqib chiqarish maqsadida chet el kapitallarini jalb qilish.

Ushbu fikrlarga asoslangan holda ―iqtisodiy xavfsizlik tushunchasini milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o‘z-o‘zidan takomillashib borishga qodirligini ta‘minlovchi shart-sharoitlar va omillar yig‘indisi, deb ta‘riflash mumkin. Jahon amaliyoti va tajribasida mamlakatda iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlagan holda barqaror iqtisodiy o‘sish to‘g‘risida turli ta‘limotlar va uning modellari mavjud. Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlagan holda barqaror iqtisodiy o‘sish to‘g‘risidagi barcha ta‘limotlar va modellarni umumlashtirgan holda tahlil etadigan bo‘lsak, bugungi kunda ayni bir barqaror iqtisodiy o‘sish to‘g‘risidagi ta‘limot yoki model iqtisodiyotda to‘liq samara berib qo‘llanilayotganligini jahon amaliyoti va tajribasida kuzatishning iloji yo‘q. Jahonda har bir mamlakat va uning hukumati barqaror iqtisodiy o‘sish yo‘lida mamlakatning tabiiy qazilma boyliklari, mehnat resurslarining salohiyati, an‘analari va mentalitetidan hamda geografik joylashuvidan kelib chiqib, umumjahon barqaror iqtisodiy o‘sish nazariyasi ta‘limoti va modellarining taklif hamda tavsiyalaridan foydalanib, mustaqil barqaror iqtisodiy rivojlanish modelini ishlab chiqmoqda. Jahon bozoridagi iqtisodiy vaziyat murakkablashdi, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tabiati tubdan o‘zgardi. Iqtisodiy raqobat nihoyatda kuchayib, tobora keskin va shafqatsiz tus olmoqda. Bunday vaziyatda mamlakatimiz iqtisodiyotining muntazam takomillashib borishini ta‘minlaydigan mexanizmlarni joriy etish, barqaror iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘liq vazifalarni puxta belgilab olish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zotan, milliy taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ham shundan iborat.

Bugungi kunda va yaqin kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish borasida oldimizda qator strategik vazifalar turibdi. Ularning barchasi ustuvor hamiyatga egadir. O‘tgan davr mobaynida bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini modernizatsiya qilish, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash, milliy iqtisodiyotning investititsiyalarga bo‘lgan talabini qondirish, bozor munosabatlari subyektlari faoliyatini erkinlashtirish masalalariga alohida e‘tibor berildi. Yangi O‘zbekiston strategiyasi, avvalo, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga qaratilganligini ta‘kidlash lozim.

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanish sur‘atlarini jahondagi eng rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazish va bu sohada islohotlar samarasini yanada oshirish bo‘yicha ba‘zi tizimli muammolar saqlanib qolayotganini ham rad qilib bo‘lmaydi. Avvalo, makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish, inflatsiyani pasaytirish va barqarorlik narxlarini ta‘minlash, buydjet taqchilligini maqbullashtirish, to‘lov va joriy balanslari maqbulligini ta‘minlash, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilishi lozim. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot starategiyasi shunday istiqbolli dasturlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvarda qabul qilingan ―2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida‖da makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash unda iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini saqlab qolish uchun quyidagi vazifalari belgilab olingan: 21-maqsad: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda ―daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar‖ qatoriga kirish uchun zamin yaratish. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va yillik inflatsiya darajasini 2023-yiligacha bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish. Davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta‘minlash. Har bir tuman byudjetining kamida 5 foizini ―Fuqarolar byudjeti‖ dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dozlarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish. Davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori 4,5 milliard AQSH dollaridan oshib ketmasligini ta‘minlash.

Markaziy bank tomonidan belgilanadigan qayta moliyalash stavkasi moliya bozorini tartibga solishning asosiy ko‘rsatkichidir. Shu borada, ya‘ni moliya bozorlarini va tijorat banklarining investitsiyaviy imkoniyatlarini barqarorlashtirish uchun Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkalarini belgilash tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham harakatlar strategiyasida ushbu sohani yanada rivojlantirish va Markaziy bankning asosiy regulatori bo‘lmish, qayta moliyalash stavkasini o‘rnatishning xalqaro metodikasidan kelib chiqib, shuningdek, iqtisodiyotning ochiqligi va moliya bozorlarini rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkalarini belgilash tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqligi belgilangan.

Xalqaro globallashuv jarayonlarining chuqurlashayotganligi mamlakatlarning valyuta siyosatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda va qator mamlakatlarda ―golland

kasali‖ning yuzaga kelishiga turtki bermoqda. ―Golland kasalligi‖ tabiiy resurs manbalarining kashf etilishi natijasida mamlakat sanoatlashuv darajasining pasayib ketishi, mamlakat milliy valyutasining kuchli revalvatsiyalanishi va natijada mamlakat eksport tovarlari raqobatbardoshligining sezilarli darajada pasayishini anglatadi. ―Golland kasalligi‖ga uchragan mamlakatlarda asosiy eksport tovarlarni ishlab chiqarishga asoslangan qayta ishlash sanoatida keskin pasayish yuz beradi va mamlakatning an‘anaviy eksport tushumlari manbai bo‘lgan qayta ishlash sanoatiga nisbatan kuchli salbiy ta‘sir vujudga keladi.

Tabiiy resurslar uchun qulay baholar sharoiti yo‘qolgach, mamlakatning kuchsizlangan an‘anaviy sanoati orqali iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashi ancha og‘ir kechadi. Taraqqiyot strategiyasida ko‘tarilgan yana bir muhim masala bu – soliq ma‘muriyatchiligi sifati va samaradorligini yaxshilashdan iboratdir. 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish vazifasi belgilangan.

Ushbu masalani hal etish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1) soliq qonunchiligini tanqidiy o‘rganish va tahlil qilish, huquqni qo‘llashda ortiqcha va murakkab normalarni bartaraf etish, soliqqa tortish bazasini hisoblash jarayonini soddalashtirish, yagona bazadan undiriladigan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni unifikatsiya qilish, shuningdek, soliq qonunchiligi barqarorligini ta‘minlash;

2) soliq yukini, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlardan undiriladigan qat‘iy belgilangan soliq miqdorini, shu jumladan, faoliyat ko‘rsatish (masalan, uzoq va borish qiyin bo‘lgan) joylarini hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqish; yirik korxonalarga bo‘lgan soliq yukini maqbullashtirish hisobiga izchil pasaytirish. Bugungi globallashuv jarayonlari jadallashayotgan sharoitda mamlakat iqtisodiyotining yuqori sur‘atlarda o‘zgarishiga ta‘sir ko‘rsatadigan sohalardan yana biri bu xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, xalqaro moliya bozori institutlari bilan aloqalarni kengaytirishni talab etadi.

Ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy, infratuzilma va boshqa loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan chet el hukumat tashkilotlarining (Xitoy eksport-import banki, Koreya eksport-import banki, EDCF Fondi, Yapon xalqaro hamkorlik agentligi (JICA), Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOISA), Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ), Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi (SHTHA), Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA), Yevropa hamkorlik komissiyalari va hokazo) imtiyozli kredit hamda grant mablag‘larini jalb qilish imkonining yaratilishi muhim ahamiyaga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Economic Security: Neglected Dimension of National Security? Edited by ShYIla R. Ronis. Published for the Center for Strategic Conferencing Institute for National Strategic Studies by National Defense University Press Washington, D.C. 2011.

2. Экономическая безопасность: учебник для вузов/ под общей редакции Л.П.Гончаренко, Ф.П.Акулинина. М.: издательство-Юрайт. 2018. 478 стр. Серия: Специалист

3. Абулкасимов Х.П., Абулкасимов М.Х., Саидахмедова Н.И. Экономическая безопасность предпринимательской деятельности. Учебное пособие.- Т.:Ilmiy-Texnika AxborotiPress, 2016. – 168 с.

4. БОГОМОЛОВ В.А. и др. Экономическая безопасность: учебное пособие для студентов экономических вузов, обучающихся по специальностям экономики и управления. - М. ЮНИТИ ДАНА, 2009.

5.Левин М.И. Левина Е.А., Покатович Е.В. Лекции по экономике коррупции. Учебник. М.:Издательство высшей школы экономики. 2001.

6. Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекции. Учебно-методическое пособие / Д.В. Гордиенко. - М.: ИНФРА-М, Финансы и статистика, 2013. – 625 с.

TO’RAQULOVNING “RUS VA O’ZBEK TILINING SIYOSIY VA IQTISODIY LUGA’ATCHASI” ASARIDA QO’LLANGAN TERMINLAR

Laylo Ergasheva Yunus Qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar O’TA 22/2
Nazariy va amaliy leksikografiya

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilini ilmiy asosda o‘rganishga oid ilk ma’lumotlar leksikografiya sohasidagi qadimgi lug‘atlarda kuzatiladi. Lug‘atchilik o‘zbek adabiy tilining shakllanish davridan boshlab, keyingi barcha davrlarda ham doimo adiblar, ziyolilar, tilshunoslar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Mahmud Koshg‘ariy XI asrdayoq turkiy so‘zlar boyligini arab tilida izohlab o‘sha davrgacha xalqimiz yaratgan lisoniy boylikni bizga buyuk meros sifatida qoldirgan bo‘lsa, bu an’ana keyingi davrlarda Mahmud Zamaxshariyning “Asos ul-balog‘a”, Muqddimat uladab” (XII asr), Tole Imon Xiraviyning “Badoye’ ul-lug‘at” (XV asr), Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma” (XVII asr), Muhammad Rizo Xoksorning

“Muntaxab ul-lug‘ot” (XVIII asr), Mirzo Mehdiyxonning “Sangloh” (XVIII asr), Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy” (XIX asr) hamda muallifi noma’lum bo‘lgan “At-tuhfat uz-zakiyati f-il-lug‘at it-turkiya” (XIII asr), “Abushqa” (XVI asr) kabi turkiy lug‘atchilikning ko‘plab noyob durdonalari yaratilishi bilan davom etib keldi va bu lug‘atlar tilshunos olimlar tomonidan yetarlicha tadqiq etildi.[1]

Kalit so’zlar: *leksikografiya, lug‘atchilik, so‘zlik, lug‘at tuzish tamoyillari, didaktik tamoyil, lingvodidaktik tamoyil, bosh ma’no, hosila ma’no, qomusiy lug‘at, filologik lug‘at, tanlab-saralab olish tamoyili.*

KIRISH

Ilmiy adabiyotlarda “leksikografiya” tilshunoslikning alohida sohasi ekanligi qayd etilsa-da, “leksikologiya” tarkibida o‘rganilib, ta’lim bosqichlarida o‘qitib kelindi. 2016/2017-o‘quv yilidan boshlab Oliy o‘quv yurtlari 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga “Leksikografiya asoslari” fani kiritildi. Fanning asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda qo‘llanmada leksikografiya masalalari, lug‘at tuzish an’analari, tamoyillari; turli tipdagi lug‘atlar yaratish, ularni tadqiq etish, tarixiy va zamonaviy lug‘atlarning tuzilish tamoyillari, ularning qiyosiy tahlili xususida fikrlar bildirilgan.[2] Shuningdek, o‘zbek lug‘atchiligining tadrijiy taraqqiyoti: XI-XII asrlarda turkiy lug‘atchilik, XIII-XIV asrlar o‘zbek lug‘atchiligi, o‘zbek lug‘atchiligining eski o‘zbek tili davri, XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr o‘rtalarida o‘zbek lug‘atchiligi hamda mustaqillik davri o‘zbek lug‘atchiligi kabi davrlarga ajratilgan holda nazariy o‘rganilgan. Jahon va o‘zbek leksikografiyasida zamonaviy elektron lug‘atlarning yaratilishi, ularning amaliy ahamiyati haqida ham ma’lumotlar berilgan. Qo‘llanmada turkiy lug‘atchilikning XI-XII asrlarda shakllanishi, XIII-XIV asrlar o‘zbek lug‘atchiligining takomili, eski o‘zbek tili davridagi taraqqiyotiga oid masalalarni yoritishda o‘zbek leksikografiyasiga oid mavjud ilmiy adabiyotlarga (И.Қўчқортоев., Б.Исабеков. Туркий филологияга кириш. – Тошкент, 1984; А.Нурмонов. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002) tayanildi, ulardagi ma’lumotlar mazmuni to‘ldirilib, mustaqillik yillarida o‘zbek tilshunosligi fanida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida boyitildi.[3]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Nazir To‘raqulov lug‘atning asosiy xususiyati, unda har bir so‘zning o‘zbekcha muxolifi bilan bir vaqtda qo‘llaniladigan ko‘plab so‘z birikmalarini ham misollar orqali ma’nosini anglatishga tirishadi. Asosan, o‘quvchining siyosiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga harakat qiladi. G‘ozi Olim (Yunus)ning o‘zi aytsin: “Ruscha-o‘zbekcha qisqa “Huquqiy va siyosiy lug‘at”ni tuzishdan maqsadi

huquqiy adabiyotdagi, xususan tarjimadagi, atamalarg‘a qat’iy va muayyan bir shakl berish va shul yo‘l bilan isteloh quramalig‘i – ixtilofini bir daraja bo‘lsa-da kamaytirmakdir. Demak, bu lug‘atcha huquqiy atamalarning loyihasi sanalsa bo‘ladir. Bu birinchi tajriba bilan maydong‘a otilg‘onda biz istilohlarni mumkin darajada o‘zbeklashtirishka tirishdik. Shuning bilan barobar o‘zbekcha so‘zlarning kelishi go‘zal bo‘lg‘onlarinigina ola bermadik, balki, bu so‘zlarning xalq adabiyotida yoki eski adabiyotimizda ishlatilganlarini izlab topdiq. Biz o‘z boshimizdan so‘z o‘ylab chiqorishdan tarixiy so‘zlarni topib ularni yana turmushqa chiqorishni ortiqroq ko‘rdik.[4] Ruscha so‘zlarning huquqiy ma’nosini aniqlash uchun huquqshunoslarning yordamidan foydalandik. Bu asarni tuzganda men ushbu asarlardan foydalandim: Budog‘ilufning ikki jildlik “Turkiy lug‘ati”dan, aqademik Radlofning “Turk lahjalarining qiyosiy lug‘ati”dan, “Tuzuki Temur”dan, “Halilul lug‘ati Navoiy”dan, ruscha buyuk qomusdan va yana bir necha ruscha lug‘atlardan foydalanishga to‘g‘ri keldi. Biz yuqorida bu birinchi tajriba deb edik, har tajriba ishida kamchiliklar bo‘lishi mumkindir. Shuning uchun o‘z amalidan asarimizga diqqat bilan qarab bizdan o‘tgan kamchiliklarni ko‘rsatishlarini so‘raymiz.[5]

Natijada bu asarni tuzishda o‘zlarining huquqiy ma’lumotlari bilan menga yordam etgan huquqshunos Toshpo‘lot Norbo‘tabekof o‘rtoqg‘a va O.O.Dobrosmichluf o‘rtoqg‘a samimiy tashakkurimni bildiraman”.[6]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shu o‘rinda Nazir To‘raqulovning “Rus-o‘zbek tilining siyosiy va iqtisodiy lug‘atchasi”dan namunalar keltirsam:

Avtonomiya – muxtoriyat;
Agitatsiya – tashviqot, targ‘ibot;
Agressiviy – tajovvuz;
Agrikultura – ziroat, ekinchilik;
Allegoriya – timsol, kinoya;
Amnistiya – afv umumiy;
Deputat – vakil;
Dialog – muhokama;
Diktator – hokimi mutlaq;
Disput – mubohasa;
Dogma – aqida;
Initsiativa – tashabbus;
Insident – voqea;
Irratsionalniy – g‘ayri aqliy;
Kandidat – noib;
Legion – qo‘shin;

Nigilist – shakkok, munkar, inkor qiluvchi;
Novator – yangilik tarafdori;
Oppozitsiya – muxolif;
Petitsiya – ariza;
Prezidium – rayosat;
Pressa – matbuot;
Problema – jumboq;
Rasa – urug‘;
Sotsialist – ijtimoiy;
Fabrika – korxona;
Federatsiya – ittihod;

Demoqchimanki, biz yangi zamonda yashayapmiz. Bugun iqtisodiyot, kompyuter texnologiyasi, turli yangi-yangi sohalar, ilm-fan va san’atlar bilan bog‘liq ulkan chetso‘zlar bo‘hroni kirib kelmoqda. Hozir mayda-chuyda gaplar bilan ovvora bo‘lsak qisqa vaqtdan so‘ng avlodlarimiz bugungi adabiyotimizni ham tushunmay qolishadi. O‘ylaymanki, bu bitta bizning muammomiz emas. Bugun birlashish vaqti kelgan. Turkiy tilli davlatlarning barcha tilshunos ziyolilarini bir kengashga to‘plagan holda yirik-yirik lug‘atlar tuzib yoshlarimizga taklif etsak, kelajakdagi katta muammolarning oldini olgan bo‘lar edik (chunki asosiy manbamiz ham bir: turkiy til, uning sheva va lahjalaridir).[7]

XULOSA

Ma’lumki, insoniyat dunyoga kelganidan so‘z bilan ish tutadi, so‘z olamiga duch keladi, undan foydalanadi. Kishilar bir-biri bilan muloqotga kirishar ekan, tildan foydalanish jarayonida ularda turli ehtiyoj paydo bo‘ladi. Bu ehtiyojlarni qondirish lug‘at yaratishni taqozo etadi. Tilning so‘z boyligini jamlash, ularni tartibga solib, foydalanish uchun qulay holatda taqdim etish, tavsiflash, imkoniyatlarini ochib berish leksikografiya sohasining bosh vazifasi ekanligi ma’lum. Darhaqiqat, lug‘atlar barchaga barobar xizmat qiladi. Undan barcha soha vakillari birdek foydalanadi. Bugungi kunda Oliy o‘quv yurtlarining Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili, O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida “Leksikografiya asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmaga ta’limiy ehtiyoj mavjudligi inobatga olinib, qo‘llanma ilk bor yaratildi. Uni takomillashtirish ishlari yana davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Формирование предмета “Основы лексикографии”, объект изучения и предмет
2. Тюркская лексикография в XI-XII веках

3. Тюркская лексикография в XIII-XIV веках
4. Узбекская лексикография в период староузбекской письменности
5. Узбекская лексикография во второй половине XIX в середине XX веков
6. Узбекская лексикография в период независимости
7. Создание энциклопедических, этимологических, орфографических и толковых

KOSON TUMANI SHEVALARINING FONETIK VA MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nuraliyeva Asila
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: ***A.M.Shofqorov****, ChDPU dotsenti*

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo qipchoq shevasi vakillari nutqidagi so‘zlar, ularning fonetik va leksik xususiyatlari haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo, qipchoq shevasi, lahja, dialektizm, fonetik xususiyatlari, leksik xususiyatlari.

Bizga ma’lumki, turkiy xalqlarning 40 dan ortig‘i bir-biriga qardosh bo‘lgan millat va elatlari mavjud. Ularning o‘z tili, tilning tuzilishi, etimologiyasi va ularning o‘rganishimiz uchun asos bo‘lgan shevasi (dialekti) bilan xarakterlanadi. Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma’naviy qadriyatimiz hisoblanadi.

O‘tgan tarixiy davr ichida turkiy tillar oilasidan aynan o‘zbek tili shevalari to‘xtovsiz taraqqiyot etdi. Ularni bilish esa tilimizning yanada boyishiga zamin yaratmay qo‘ymaydi. O‘zbek shevalarini o‘rganish, ularni tasniflash, hamda dialektlarning fonetik va leksik tomonlariga ko‘ra bir-birlariga yaqinlashadigan va farq qiladigan jihatlari haqida tasavvurga egamiz.

Shunga ko‘ra, fonetik jihatga e’tibor qarataylik. O‘zbek shevalarining murakkab tarkibga egaligi, avvalo, ularning fonetik jihatdan rang-barangligi tufaylidir. Shevalar ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, grammatik son kategoriyalari nuqtayi nazaridan -lar affiksi -la tarzida: *qizlar -qizla, ular -ula* tarzida, *-di* affiksi assimilyatsiya holatiga ko‘ra: *oldi-olli, bo‘ldi-bo‘lli* tarzida, jo‘nalish kelishiga qo‘shimchasi *-ga - ya* shaklida *dalaga-dalaya,* chiqish kelishigi esa *dan-tan* shaklida, *maktabdan-maktabtan* kabi holatlar aynan Koson dialektida qo‘llaniladi, *-ar* affiksi *aychi borar edim-boraychiydim*, *yapman-yomman*

boryapman-boromman tarzida ishlatiladi, bundan tashqari aynan bu hududda *-da* affiksi o‘rniga *-ga* qo‘shimchasining talaffuz qilinishini kuzatamiz. 8/Masalan (Hozir qo‘ng‘iroq qilmang, chunki men ishgaman -aslida ishdaman).

Kuzatishlar natijasida Koson tumani dialekti leksik jihatdan ham adabiy tildan farqli tomonlari borligiga e’tibor qarataylik.

Masalan:

Adabiy tilda	***Shevada***
Kaltakesak	*kalos*
Ko‘rpacha	*Girdixona*
Ayron	*Chalop*
Oshqovoq	*Kodi*
Chumoli	*Murcha*
Supurgi	*Jorip*
Yostiq	*Yastiq, takya*
Chelak	*Satil*
Qo‘shni	*Xamsiya*
Bola	*Bachcha*
O‘rik	*Zardoli*
Isiriq	*Xazarsivon*
Lavlagi	*lovlovi*
Bulg‘or qalampir	*Balgar*

Ushbu so‘zlar fikrimizning yaqqol asosidir. Bu kabi o‘zbek shevalari o‘zbek tilining mahalliy ko‘rinishlari bo‘lib, ularni o‘rganish fan uchun nazariy ahamiyatga ega.

Har bir adabiy til o‘zining tayanch dialektika ega bo‘ladi. O‘zbek adabiy tilining shakllanishida shevallarning barchasi u yoki bu darajada ishtirok etadi, lekin ma’lum shevallar adabiy til uchun asos vazifasini bajaradi, bu degani adabiy til sheva va shevallar guruhi taraqqiy etishi bilan rivojlanadi, chunki sheva jonli til bo‘lib u doim rivojlanishda, o‘zgarishda bo‘ladi, shu tufayli ham adabiy til shevallar guruhi bilan bog‘liq ravishda o‘sib boradi va aksincha, adabiy til o‘zining tayanch dialektiga ega bo‘lmasa u bora-bora muomaladan chiqib ketadi. Muomaladan chiqqan til fanda “o‘lik til” degan termin bilan yuritiladi.

Agar zudlik bilan “Keksa avlod nutqidagi so‘z va iboralarni yig‘ib olinmasa, bir qism dialektizmlar umuman yo‘qolib ketishi mumkin” - degan edi Sh.Shoabdurahmonov.

Ba’zi aholi tilidagi shevalar adabiy tilimizda ham uchramaydigan ko‘hna so‘z va so‘z formalari lug‘aviy birliklarni o‘zida saqlab qolganki, ularni asosli ravishda o‘rganish tilning uzoq zamonlardagi holatini aniqlashga yordam beradi.

Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi. To‘g‘ri, har bir madaniyatli shaxs rasmiy doiralarda o‘zbek adabiy tilida muomala qilishi shart, lekin bu o‘z shevasini unutish kerak degani emas, albatta.

Zero, aytishganidek, “Biror millatni yo‘qotish uchun uni qirg‘in qilishni hojati yo‘q. Biz uning tilini, o‘z shevasini, madaniyatini yo‘qotsak bu xalq ham o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketadi”.

Shunday ekan, aynan adabiy tilda gapirishim shart deb o‘z shevalarimizni ham unutib qo‘ymaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: “Nodirabegim”, 2021
2. Jo‘rayev B. Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari. – Toshkent, 1969
3. Rahimov S. Surxandaryo o‘zbek shevalari lug‘ati. – Toshkent, 1995
4. Saidov Y. O‘zbek dialektologiyasi. – Buxoro: “Durdona”, 2021
5. Ziyo.uz

TURK VA QORAQALPOQ TILINING KELISHIK QO‘SHIMCHALARIDAGI VARIANTLILIK

Orazbaeva Nazenayım

Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

Elektron manzil: nazenayim1994@gmail.com

Annotatsiya: Kelishiklar ot yoki otlashgan so‘zlarning boshqa so‘zlar bilan munosabatini ko‘rsatuvchi grammatik shakl bo‘lib hisoblanadi. U ot so‘z turkumiga qo‘shilib, so‘z birikmasi yoki gap tarkibida turlanadi. Bu sintaktik aloqa kelishik qo‘shimchasining o‘zi bilan yoki ko‘makchi vazifasidagi so‘z bilan birga ma’no hosil qiladi.

Kalit so‘zlar: Kelishiklar, variantlar, so‘z turkumlari, sintaktik aloqa.

Hozirgi turk va qoraqalpoq tillarida olti kelishik bor bo‘lib, ularning bosh kelishikdan tashqari barchasida maxsus grammatik qo‘shimchalari mavjud. Faqatgina bosh kelishikning qo‘shimchasi yo‘q. Qoraqalpoq tilidagi so‘z o‘zgartiruvchi kelishik qo‘shimchalari so‘zning asosiga qo‘shilganda tanlay undoshiga ergashib, yo‘g‘on va ingichka variantlarda keladi. Turk tilida esa yo‘g‘on va ingichka variantdan tashqari lab undoshiga ham qat’iy bo‘ysinadi. Shunga ko‘ra kelishik qo‘shimchalari variantlarining soni jihatdan farq qiladi.

Qaratqich kelishigi ikki tilda ham bir narsaning ikkinchi bir narsaga, subyektga tegishli ekanligini bildiradi. Qoraqalpoq tilida qaratqich kelishigining –

nıń//-niń, -dıń//-diń, -tıń//-tiń kabi yo‘g‘on, ingichka variantlari qo‘llaniladi. Masalan: *Esikten Esengeldi **ǵarrınıń** tóbesi kórindi. Qosıbay tórde pár **kópshiktiń** oń jaq shıǵanaǵına dastanıp jatır.*

Qaratqich kelishigining turk tilida esa so‘z oxiri undosh tovush bilan tugasa– *in//-ın, -un//-ün,* agar so‘zning oxirgi tovushi unli tovush bilan tugallansa *–nın//nin, -nun//nün* affikslari qo‘shiladi. Masalan: Kölelerın yarısından fazlasını aldı. Orada marangoz ustalarının emrıne verıldı.

Turk tilida ishlatiladigan *–ın//-in* qo‘shimchasi eski turkiy yozma yodgorliklar tilida ham uchraydi. Shu bois Radlov qaratqich kelishigining eng dastlabki shakli *–ıń* deb baholaydi.

H. Hamidov O‘rxun-Enisey yozma yodgorliklari tilining qoraqalpoq tiliga oid masalasini tadqiqqilib, yodgorliklar tilida otlarga qaratqich kelishigining –nıń shakli, olmoshlarga *–ıń* shaklining qo‘shilganini ta’kidlaydi. Bu fikrlar qoraqalpoq va turk tilining asosi bir, qardosh til ekanligini ko‘rsatadi.

Jo‘nalish kelishigi ikki tilda ham ish-harakatning yo‘nalish o‘rnini bildiradi. Qoraqalpoq tilida *-ǵa//-ge, -qa//-ke, -a//-e, -na//ne* shakli uchraydi. Masalan: *uyge, qalaǵa, qaptalına. va h.*

Turk tilida so‘z oxiri unli tovush bilan tugasa*–ya//ye,* undosh tovush bilan tugaganda esa *–a//e,* egalik qo‘shimchasidan so‘ng III shaxsiga *–na//-ne* shaklida qo‘shiladi. Masalan: *oraya okula eve* va h.

Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi kishilik olmoshlariga qo‘shilsa ikki tilda ham asos so‘z o‘zgarishga uchraydi. Buni quyidagi 1-jadvalda taqqoslab ko‘rishimiz mumkin.

Qoraqalpoq tilida	**Turk tilida**
Maǵan	Bana
Saǵan	Sana
Oǵan	Ona

Tushum kelishigidagi otlar harakatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri obyektini bildiradi. Insonni, gulni, uyni va h. Qoraqalpoq tilida tushum kelishigining –nı//ni, -dı//di, -tı//ti va egalik so‘zdan so‘ngra qo‘llaniladigan –n variantlari uchraydi. *Erejep **jigitlerdi** ertip Ernazardıń uyine qaray jurdi.*

Tushum kelishigining hozirgi turk tilidagi variantlari ham bir-biridan uncha uzoq emas. So‘zning asosi unli tovushlar bilan tugasa –yı-yi-yu-yü, undosh tovushlar bilan tugasa ot so‘z turkumiga–ı-i-u-ü affikslari qo‘shiladi.

Tushum kelishigining paydo bo‘lishini ayrim olimlar qaratqich kelishigi qo‘shimchasi bilan bog‘laydi. A.N. Kononov tushum Tushum kelishigining eski turkiy tilidagi varianti -ǵ-ıǵ-iǵ qaratqich kelishik tarkibidagi burun tovushining (–ińı) o‘zgarishidan chiqqan deb taxmin qiladi.

V.A.Bogorodickiy esa bu qo‘shimchaning eski turi sharq-g‘arb tillarida uchraydigan –ı//-i varianti deb baholaydi. Olmoshga qo‘shilgan vaqtda asosning oxiri –n tovushi morfologik siljish qonuniyati bo‘yicha qo‘shimchaga almashgan. So‘ngra bu shakl otlarga ham almashgan. Olimning bu fikridagi –ı//-i varianti hozirgi turk tilida saqlanib qolgan, qoraqalpoq tilida esa haqiqatan ham kishilik olmoshlariga qo‘shilgan paytda asosdagi –n tovushi qo‘shimchaga aylanib ketadi. Chunki qoraqalpoq tilida tushum kelishigida –ı//-i affiksi yo‘q. Tushum kelishigidagi olmoshlarning ayrim fonetik xususiyatlari quyidagi 2-jadvaldan ko‘rish mumkin.

Qoraqalpoq tilida	Turk tilida
Meni	Beni
Seni	Seni
Onı	Onu

Chiqish kelishigidagi otlar ish-harakatning chiqqan o‘rnini bildiradi. Hozirgi qoraqalpoq tilida chiqish kelishigining –dan//-den, -tan//-ten, -nan//-nen shakllari yo‘g‘on-ingichka variantlarda ishlatiladi. Turk tilida esa–dan//-den, -tan//-ten variantlarigina uchramaydi. Qoraqalpoq tilidagi –nan//-nen varianti turk tilida uchramaydi va yuqorida ta’kidlangan kelishiklar singari chiqish kelishigi singarmonizm qonuniyatiga bo‘ysinmaydi. Masalan: evden, gözden: uçaktan kapıdan üzükten.

Chiqish kelishigining etimologik asosini tadqiqotchilarning aksariyati chiqish kelishigining eski qismi (da+n) o‘rin kelishigi qo‘shimchasi deb qaraydi. Oxirgi element –n shakli M. Ryasenning fikricha chiqish kelishigi qo‘shimchasi o‘rin va vosita kelishigi qo‘shimchalarining yig‘indisidan iborat.(M. Ryasen 114)

Qoraqalpoq tilidagi qo‘shimchalarining variantlilik masalasini o‘rgangan A.Qazaqbaeva qoraqalpoq tilida chiqish kelishigining eski –dın//-din, -tın//-tin

qo‘shimchalari XIX asr klassiklarimiz tilida ko‘plab ishlatiladigan misollar bilan keltirib o‘tadi.

O‘rin kelishigidagi otlar narsa-hodisaning turgan o‘rnini bildiradi. Hozirgi qoraqalpoq adabiy tilida o‘rin kelishigining –da//-de, -ta//-te shakli yo‘g‘on-ingichka variantlari qo‘llaniladi. Turk tilida ham –da//de, -ta//te yo‘g‘on-ingichka va unli-undosh variantlarda ishlatiladi. Bu jihatdan qaraganda o‘rin kelishigining etimologik kelib chiqishi birdek bo‘lishi mumkin degan xulosaga kelamiz. III shaxs egalik qo‘shimchasidan keyin o‘rin kelishigi qo‘shimchasi oldiga ikki tilda ham –n tovushi qo‘shilib aytiladi va yoziladi. Masalan: *mektebi-n-de, okulu-n-da, balası-n-da, çocuğu-n-da.* Bu haqida bir necha tyurkolog olimlar o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan.

Turkiy tillari uchun umumiy bo‘lgan eski yozma yodgorliklar tilini tadqiq qiluvchi S. E.Malov ilgariroq so‘zlar kelishikda turlanganda –n interfiksining bo‘lmaganligini aytib o‘tadi. Shuningdek qozoq olimi A.Qurıshjanov ham eski yozma yodgorliklar tilida –n tovushining bo‘lishini uning ergashtiruvchi vazifasiga bog‘liq deb ko‘rsatadi. E.R.Tenishev sariq uyg‘ur tilida egalik qo‘shimchasining III shaxsdan keyin jo‘nalish, chiqish, o‘rin kelishiklari qo‘shilganda ortiq –n tovushining turkiy tillarga xos ekanligini, faqat hozirgi uyg‘ur, o‘zbek tillaridagina uchramasligini aytib o‘tgan.

Umuman olganda, hozirgi qoraqalpoq va turk tilidagi kelishik qo‘shimchalari asosan birdek qoida asosida,ya’ni unli va undoshlar singarmonizmi bo‘yicha bir necha variantlarda qo‘llaniladi.

Foydalanıldan adabıyotlar:

1. Dáwletov M., Qudaybergenov M. Házirgi qarqalpaq tiliniń sóz jasalıq sisteması. Nókis. «Ilim» 2021.
2. Кононов А.Н. Грамматика современного турецкого литературного языка. Москва 1956.
3. Qazaqbaeva A. Qaraqalpaq tilinde qosımtalardıń variantlılıǵı. Kand.diss. Nókis. 2010.

Badiiy adabiyotlar

1. Orhan Pamuk. Beyaz Kale. Istanbul. 1986.
2. Sultanov K. Ájiniyaz. Nókis. «Bilim» 2018.

Taklif: Qoraqalpoq tilini boshqa turkiy tillar bilan solishtirib tadqiq qilish, o‘rganish tilshunoslikda yangidan shakllanayotgan yosh sohalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Sababi turkiy tillarning kelib chiqishi, grammatikasi o‘xshash bo‘lgani

bilan ayrim sohalarida farqlar uchraydi. Ikki tildagi xususiyatlarni o‘rganib chiqish tilshunoslikning ahamiyatli masalalaridan hisoblanadi. Shunday xusisiyatlardan kelishik qo‘shimchalar orqali turk va qoraqalpoq tili orqali o‘rganib chiqdik.

KITOBIY USLUB FRAZEOLOGIZMLARINI BOSHQA TILGA TARJIMA QILISH USULLARI

Rashidova Umida Mansurovna
SamDU “Tishunoslik” kafedrasi dotsenti
Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna
SamDCHTI “Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kitobiy uslubga xoslangan frazeologizmlarning bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganda e’tibor qilinadigan jihatlar haqida so‘z yuritiladi. Kitobiy uslub frazeologizmlari boshqa uslub frazeologizmlaridan tubdab farq qilganidek, tarjimada ham farqli xususiyatlar mavjud bo‘lishi tabiiy.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, kitobiy uslub, tarjima metodikasi, qiyosiy frazeologiya.

Bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilinayotgan frazeologik birliklar bilan ishlar ekan, tarjimon nafaqat ikkala tilni mukammal bilishi, balki barqaror birikma qatnashgan asl matnning stilistik va leksik-semantik jihatlarini, tarjimaning xususiyatlarini va frazeologik birliklarning ma'nosini bilish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak. Frazeologik birliklar tilda ko‘chma ma’noda qo‘llanuvchi birliklar sifatida uni qo‘llayotgan xalqning ko'p asrlik tajribasi va qadriyatlar tizimini o'zida mujassam etgan refleksiv funktsiyani bajaradi. Ular ifoda etgan ko‘chma ma’no madaniy va milliy dunyoqarashni va xalq mentalitetining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan. Shuning uchun tilning frazeologik birliklari milliy o'ziga xos xususiyatlarga ega, bu birinchi navbatda xalq milliy ongning xususiyatlarini aks ettirishda namoyon bo'ladi; ikkinchidan, ular milliy shaklning o'ziga xosligini va turli xalqlar orasida o'ziga xos bo'lgan frazeologik obrazda aks ettiradi.

Tarjimashunoslik ilmida frazeologik birliklarni tarjima qilishning ko'plab usullari mavjud. L. F. Dmitriyev frazeologik birliklarni tarjima qilishning to'rtta asosiy usulini ko‘rsatadi:

- frazeologik ekvivalent (muqobil);
- frazeologik analog;
- hisoblash;
- tavsiflovchi usul.

Frazeologik ekvivalent – bu tarjima tilidagi frazeologik birlik, barcha ko'rsatkichlar bo'yicha tarjima qilingan birlikka teng. Ekvivalent boshlang'ich frazeologik birlikka nafaqat ma'noda, balki stilistik rangda ham mos keladi. Frazeologik ekvivalent tarjimonga chet tilidagi frazeologizmni eng aniq yetkazishga imkon beradi. Frazeologik ekvivalentlarga misollar: *to have tooth and nails – tish-tirnog‘i bilan qarshi bo‘lmoq; a hard nut to crack – boshida yo`ng`oq chaqmoq.* Qoida tariqasida, ekvivalentlar xalqaro frazeologik birliklar uchun tanlanadi va tarjimon uchun qiyinchiliklarga olib kelmaydi. Biroq, ekvivalentlarni tanlashda shuni esda tutish kerakki, har doim ham bir xil shakldagi frazeologik birliklar ma'noga mos kelmaydi. Masalan, *to stand to one’s guns-to stick one’s guns; bir pul-ikki pul-uch pul, to have a bird’s eye view-burgut ko‘z, bird brain-tovuq miya, a little bird told me-qushlar yetkazdi*

Frazeologik **analog**-bu o'xshash ma'noga ega, ammo boshqa tasvirga asoslangan frazeologik birlik. Analog ekvivalentni tanlash mumkin bo'lmagan hollarda qo'llaniladi. Ushbu usuldan foydalanish juda yuqori darajadagi ekvivalentlikni ta'minlaydi. Frazeologik analoglarga misollar: (as) *like as two pears in the same pod - ikki tomchi suv kabi; - to have butterflies in your stomach- qorni nog‘ora chalmoq, to let the cat out of the bag - og‘zidan gullamoq*

Analoglardan foydalanganda quyidagi xususiyatlarga e'tibor berish kerak: ma'nosi o'xshash frazeologik birliklar turli xil hissiy ranglarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, *"Jek of The trades" va "qo‘li gul"* odamni tasvirlash uchun ishlatiladi, u har xil narsalarni qilishga qodir, ammo inglizcha varianti salbiy, o‘zbekcha varianti esa ijobiy; ba'zi frazeologik birliklar milliy rangga ega bo'lib, uni boshqa mamlakatning milliy rangiga almashtirish mumkin emas.

Hisoblash so'zma-so'z tarjima bo'lib, ekvivalentlar va analoglardan foydalanish mumkin bo'lmagan hollarda qo'llaniladi. Ushbu usulga ikkita talab qo'llaniladi:

- frazeologik birliklarning tasviri o'quvchi tomonidan erkin anglanishi kerak;
- tarjima tilining barcha normalariga rioya qilish kerak. Kalkulyatsiyalangan frazeologik birliklarga misollar: *better late than never-hechdan ko‘ra kech; bird brain-tovuq miya*

Ta'riflovchi tarjima frazeologik birlikning o'zi emas, balki uni tushuntirishidir. Ta'riflovchi tarjima tushuntirishlar, taqqoslashlar, tavsiflar, talqinlar orqali amalga oshiriladi. Ta'riflovchi tarjimaga misollar: *east or west, home is best – o‘z uying o‘lan to‘shaging, the pen is mightier than the sword – so‘z qilichdan kuchli, to bite the hand that deeds you - to‘ydirganni qorniga tep; A little bird told me-qulog‘iga chalindi; to eat like a horse- nafsi buzuq, when pigs fly, pigs might fly - tuyani dumi yerga tekkanda,qizil qor yoqqanda; A big fish in a small pound-*

Pashshadan fil yasamoq; busy as a bee-Ishi boshidan oshmoq; to have ants in your pants-to‘rtko‘z bo‘lib kutmoq, to monkey around-aqldan ozmoq, hushini yo‘qotmoq

Frazeologik birliklarni tarjima qilishning ikki turini ajratish mumkin:

- frazeologik tarjima-frazeologik birliklar tomonidan tarjima (analoglar va ekvivalentlar);

- nefrazeologik tarjima-boshqa vositalar bilan tarjima (hisoblash, tavsiflovchi tarjima).

Frazeologik birliklarni tarjima qilish usulini tanlash tarjima tili, kontekst, tarjimaning stilistik, hissiy va milliy ranglanishi, tarjima tilida o‘xshash frazeologik birliklarning mavjudligi va boshqalar kabi omillarga bog'liq. Bu yerda tarjimonning shaxsiyati, uning begona madaniyat haqidagi bilimlari, tarjima tajribasi va ko'nikmalari muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, frazeologik birliklarning milliy xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning madaniy-majoziy va lingvistik belgilari bu dunyoni o'z madaniyati, turmush tarzi, turmush tarzi, dunyoqarash obyektivi orqali idrok etish natijasidir. Bularning barchasi idiomalarning mos kelmaydigan frazeologik tasvirlarida aks etadi. Malakali tarjimon o'z arsenalida turli xil FBlarning yetarli miqdordagi ekvivalentlari yoki analoglariga ega bo'lishi kerak, chunki bir qator frazeologik birliklar tarjima tilida barqaror yozishmalarga ega. Frazeologik birliklarni tarjima qilishda qiyinchiliklar asl nusxada bir til madaniyatida bo‘lmagan yoki tarjimonlarga noma’lum bo'lgan ba’zi hodisalar deb nomlanganligi sababli paydo bo'lishi mumkin. Madaniyatlararo aloqaning eng yuqori sifatiga erishish va tarjima paytida muqarrar yo'qotishlarni kamaytirishning muhim sharti frazeologik birliklarga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Архангельський В.Л. Фразеология. – М.: Высшая школа, 1985. – 144с.
2. Коновалова Э. К., Григорян Е. О. Особенности способов и приемов перевода фразеологизмов различных языковых культур // Филология и лингвистика в современном обществе: материалы Междунар. науч. конф. (г. Москва, май 2012 г.). – М.: Ваш полиграфический партнер, 2012. С. 109- 113.
3. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. Очерки лингвистической теории перевода. – М.: Р. Валент, 2004. – 240 с.
4. Mardiyeva M. Sh.,Rashidova U. M. G'.G'ulom asarlarida qo'llanilgan frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlili. “Perspectives of philology and practical possubilities of teaching foreign languages, 2023.

ELEKTRON LUG'ATLAR ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIYANING MAHSULI SIFATIDA

Raximberdiyeva Sevinch Sanjar qizi

CHDPU talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada hozirgi kunda, butun dunyoda keng tarqalayotgan elektron lug‘atlardan foydalanish haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование электронных словарей, которые сегодня широко распространены во всем мире.

Kalit so‘zlar: elektron lug‘at, sinonim, omonim, antonim, paronim elektron lug‘atlar, platforma, ommaviy axborot.

Ключевые слова: электронный словарь, синоним, омоним, антоним, пароним электронные словари, платформа, общедоступная информация.

Bugungi bahs atrofida oddiy matnli lug'atni elektron lug'at deb hisoblash mumkinmi? , elektron ommaviy axborot vositalariga tarjima qilingan, yoki u hali ham maxsus bo'lishi kerakligi tufayli foydalanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi leksikografik mahsulot maxsus platformalar va dasturlarga joylanadi. Aksariyat tadqiqotchilar bunga ishonishga moyil elektron kompyuter lug'atlari alohida yondashuvni va kompyuterni ishlab chiqishni talab qiladi turli darajadagi iste'molchilarga ruxsat berishi mumkin bo'lgan dastur (oddiy ommaviy axborot vositalaridan til olimlarga) har bir kishining lug‘at bazasi imkoniyatlaridan unumli foydalanish uchun maxsus lug'at tuziladi. Avvalo, tushunishda nomuvofiqlik borligini ta'kidlash kerak. Elektron lug'at nima? deb hisoblanadi. Ta'riflar va ta'riflar doirasi juda katta. IN fan "elektron lug'at", "lug'atning elektron versiyasi", "elektron lug'at" atamalaridan foydalanadi. "avtomatik lug'at", "kompyuter lug'ati", "mashina lug'ati". Ushbu atamalardan ba'zilari bir vaqtning o'zida bir xil fan doirasida sinonim sifatida ishlatilishi mumkin. Agar ushbu atamalarning mazmunini tahlil qilsak, ularning barchasini ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisiga lug'atlarni bildiradigan tushunchalar kiradi, ular bosma leksikografik nashrlarning elektron versiyalari. Ikkinchidan - lug'atlar, elektron formatda foydalanish uchun maxsus yaratilgan. Eng so'nggi kompyuter dasturlari tomonidan taqdim etilgan qo'shimcha funksiyalar bilan to'la, ular asosida shunday lug'atlar yaratilgan. Leksikografik nashrlarning ikkala turini elektron lug‘at deb atash mumkin, elektron lug'at kompyuter vositalaridagi ishni anglatadi, chunki lug'atni diskdan shaxsiy kompyuter yordamida yuklab olib foydalaniladi. Bunda iste'molchi, lug'at foydalanuvchisi u

bosma versiya asosida yaratilganmi yoki faqat elektronga versiyaga egami, umuman ahamiyati yo'q . E'tibor bering, bugungi kunda birinchi ikki atama bizga eng ko'p muvaffaqiyatli ko‘rinadi, chunki ular bunday lug'atlardan foydalanish ko'lamini aks ettiradi. Keling, elektron lug'atlar qanchalik foydali ekanligiga e'tibor qarataylik o'quvchiga qaratilgan kompyuter lug'atlari biz ishimizda ular haqida gapiramiz, matnni qayta ishlashda ham foydalanamiz. [5, 46-47-betlar] Ushbu maqolada "elektron lug'at" iborasini nazarda tutamiz. Elektron (avtomatik, kompyuter) lug'at - bu maxsus kompyuter formatidagi so'zlar to'plami; inson foydalanishi uchun mo'ljallangan yoki ko'proq qismini tashkil qiladigan murakkab kompyuter dasturlari (masalan, mashina tizimlari). Ko'pincha oxirgi foydalanuvchi uchun mo'ljallangan avtomatik lug'atlar bu taniqli an'anaviy lug'atlarning kompyuter versiyalari, masalan: "Yangi katta inglizcha-ruscha lug'at" ning avtomatik versiyasi (http://eng-rus.) va lug'at Ozhegova onlayn (http://slovarozhegova.ru). Ushbu turdagi avtomatik lug'atlar amalda an'anaviy lug'atlarda lug'at yozuvining tuzilishini takrorlaydi, lekin ular funktsiyalarga ega ularning prototiplari uchun mavjud emas. Lug'atning yangi shakli "qog'oz" versiyasining ko'plab muqarrar kamchiliklarini yo'q qiladi. Leksikografiya va shu orqali uni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘taradi. Elektron lug'atlar ijobiy tomonlari bor. Xususan, elektron lug'atlardan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega

Elektron lug'atning muhim xususiyati uning multimedia va gipermatn qurilmasi. Elektron lug'atlarda lug'at majburiydir, in onlayn lug'atlarda ko'pincha har bir harf uchun belgilar bilan alifbo lug'at yozuvi matniga olib boruvchi giperhavolalar ham mavjuddir. Deyarli har bir elektronika diskda (oflayn lug'at) yoki Internetda (onlayn lug'at) taklif qilingan lug'at mavjud foydalanuvchi harakatini sezilarli darajada tejaydigan avtomatik qidiruv funksiyasi lug'at bilan ishlashda yordam beradi. So'zlar, iboralar yoki rasmlarga o'rnatilgan havolalar foydalanuvchi matn yoki grafikani tanlaydi va darhol tegishli matnni ko'rsatadi. Giperhavolalar har qanday havolaning orqasiga joylashtirilishi mumkin, lug'at yozuvining elementi yoki lug'at yumshoq menyu elementi mavjud. Bu foydalanuvchiga qidiruv va tezkorlik uchun qo'shimcha imkoniyatlar beradi kerakli lug'at ma'lumotlariga o'tish, sinonimlarni topishga imkon beradi va berilgan so‘zning antonimlari, bir semantik guruhdagi so‘zlar, paradigmalarni topishda yordam beradi. Kerakli ma'lumotlarni olgandan so'ng, masalan, so'zning ma'nosi haqida foydalanuvchi boshqa lug'atlarda ushbu so'zning sharhlari va talqinining o'ziga xos xususiyatlarini bilib olishi, maxsus bilim sohalari (terminologik lug'atlar) yoki olish shakli haqidagi qo‘shimcha lingvistik ma’lumotlarga ega bo‘ladi.[4]

Binobarin, elektron lug‘atni yaratuvchilar lug'atlar juda ko'p lug'at yozuvlarini taqdim etishi mumkin, foydalanuvchi kerakli narsalarni osongina va tez olish

